

65.661.4/94  
5-12

U.TOLAKOV, O.MAHMUDOV

# SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH



652614 ya 23  
S-78

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

U.TO'LAKOV, O.MAXMUDOV

SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH

*O'quv qo'llanma*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limgazirligi huzuridagi Muvofiglashtiruvchi kengash tomonidan  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

Bilim sohasi:	200000	- Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'limgazirli sohasi:	230000	- Iqtisod
Ta'limgazirli yo'nalishi:	5230100	- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
	5230200	- Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
	5230600	- Moliya va moliyaviy texnologiyalar
	5230600	- Buxgalterya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)

TERMIZ – 2021

**UO'K: 336.22(075.8)**

**KBK: 65.261.4ya73**

**Soliqlar va soliqqa tortish.** O'quv qo'llanma / U.To'lakov, O.Maxmudov. 2021-yil, – 364 bet.

O'quv qo'llanmada soliqlarning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, zarurligi, soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari olib borilayotgan islohotlarning samarasini sifatida bayon qilingan. Respublikamizda amalda bo'lgan soliqlar va yig'imlarni undirish mehnatzimlariga alohida to'xtalib o'tilgan, soliq stavkalarining o'zgarish dinamikasi, hamda keyingi yillarda soliq-budget siyosatining aholi farovonligini oshirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida soliq qonunchiliklariga kiritilgan o'zgarishlar hisobga olilgan.

Darhaqiqat, soliqlarning yig'iluvchanligi ko'p jihatdan aholining soliq bilimdonligi, soliq madaniyatiga bog'liq ekan, ushbu qo'llanma nafaqat oliv ta'lim muassasalarini talabalariga, shuningdek texnikum talabalari, tadbirdorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik biznes xodimlari uchun ham tavsija etiladi.

O'quv qo'llanmaning yakuniy qismida soliqlar va soliqqa tortish bo'yicha glossariy va ilovalar keltirilgan.

В учебном пособии описана экономическая сущность, значение, необходимость налогов, Особенности налоговой политики как результат проводимых реформ. Особое внимание было уделено механизмам взимания действующих в республике налогов и сборов, учтена динамика изменения налоговых ставок, а также изменения в налоговое законодательство с целью повышения благосостояния населения, обеспечения устойчивого экономического роста в последующие годы.

Действительно, поскольку собираемость налогов во многом зависит от налоговой грамотности населения, налоговой культуры, данное пособие рекомендуется не только студентам высших учебных заведений, но и студентам техникумов, работникам малого бизнеса, занимающимся предпринимательской деятельностью.

В заключительной части учебного пособия приведены глоссарий и приложения по налогам и налогообложению.

Iqtisodiyot fanlari doktori S.K.Xudoqulovning umumiy tahriri ostida

**Taqrizchilar:**

Yaxshiboyev A. – Surxondaryo viloyati davlat soliq boshqarmasi Kadrlar bilan ishslash bo'limi boshlig'i

Xatamov O. – Termiz davlat universiteti professori, i.f.d.

ISBN: 978-9943-7243-6-5

© U.To'lakov, O.Maxmudov

© TerDU nashr-matbaa markazi nashriyoti

## MUNDARIJA:

KIRISH.....	4
I BOB. «SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH» FANIGA KIRISH.....	9
II BOB. FOYDA SOLIG'I .....	102
III BOB. AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ.....	143
IV BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I .....	157
V BOB. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I.....	210
VI BOB. AKSIZ SOLIG'I.....	242
VII BOB. MOL-MULK SOLIG'I .....	256
VIII BOB. YER SOLIG'I.....	277
IX BOB. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK USHUN SOLIQ .....	302
X BOB. YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ.....	313
XI BOB. IJTIMOIY SOLIQ VA MAHALLIY YIG'IMLAR.....	324
GLOSSARIY .....	343
ILOVALAR .....	347
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	361



## KIRISH

Mamlakatimiz ta'lim tizimini shaklan va mazmunan isloh qilish, uning huquqiy bazasini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakl va usullari samaradorligini oshirish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada kadrlar tayyorlash va ta'limning uzlusiz tizimini isloh qilish bo'yicha ko'plab qonuniy asoslari yaratildi.

Uzluksiz ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularda ilmiy dunyoqarashni, mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptirish, yuksak mehnat intizomini shakllantirish bo'yicha «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Qisqa vaqt davomida har tomonlama yetuk, komil inson va barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgan uzluksiz ta'limning yaxlit tizimi yaratildi. Respublikada oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sohasida ham islohotlar bosqichma-bosqich, tadrijiy ravishda amaliyatga joriy etildi. Oliy ta'limning jahon standartlariga javob beradigan ikki bosqichli tizimi – bakalavriat va magistratura yaratildi. So'nggi yillarda oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirildi hamda shakllangan stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar va katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutlarining moddiy ta'minoti mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov mazkur muammoning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy ahamiyatini

«Mustaqillikning dastlabki yillardanoq butun mamlakat miqyosida ta’lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o’rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga katta zarurat sezila boshladi»<sup>1</sup> deb asoslaganlar. Shu bois, hozirgi davrda ta’lim samaradorligini oshirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va maqsadli yo‘naltirish oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Xususan, 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlan-tirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining «Ijtimoiy sohani rivojlantirish» deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalish<sup>2</sup> maktabgacha ta’lim muassasalarining qulayligini ta’minalash, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlan-tirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev mamlakatning yetakchi olimlari, ziyolilari, akademiklari bilan uchrashuvida o‘tgan 25 yil davomida mamlakatda katta islohotlar amalga oshirilgani, barcha sohalarda ulkan yutuqlar qo‘lga kiritilganini e’tirof etgan holda bugungi ta’lim sifatini shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy dunyoning yangicha talablarga moslashtirish lozimligi, bu masalalarni bugun hal qilinmasa, ertaga kech bo‘lishini ta’kidladi<sup>3</sup>. Uchrashuvda qayta-qayta tilga olingan masala kadrlar tayyorlash tizimi bo‘ldi. O‘zbekistonda bu borada tegishli

<sup>1</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O‘zbekiston, 2011.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlanirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

<sup>3</sup> [www.press.servis/Ilm-fan/yutuqlari](http://www.press.servis/Ilm-fan/yutuqlari) – taraqqiyotning muhim omili.

baza yaratilgan, faqat uni mukammal tizimga aylantirish, buning uchun esa OTMdagi ta'lim dasturlarini takomillashtirish talab etiladi.

Sohani isloh qilish bo'yicha milliy modelimizning o'ziga xosligi shundaki, unda yangilanishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Avval, ta'lim tizimining huquqiy asoslari shakllantirilib, moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimi va ta'lim muassasalarining ilmiy-metodik jarayonni olib borishi yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va erkinlashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari yildan-yilga jadal sur'atlar bilan kengayib bormoqda.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda mamlakatimiz iqtisodiy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri soliq siyosatini yanada liberallashtirish soliqqa tortish tartibini soddalashtirish soliq yukini pasaytirish xo'jalik sub'ektlarining huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha choralar majmuini amalga oshirish hisoblanadi.

Ushbu ustuvor vazifalarni ro'yobga chiqarish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti 2017 yil 7 fevral kungi farmoni bilan 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini tasdiqladi. Strategiya loyihasi dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o'rghanish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo'yicha ishlab chiqilganligi maqtovga sazovordir. Harakatlar strategiyasining uchinchi vazifasi ham aynan iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish

sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish iboratdir. Hususan, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish yo'lini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va rag'batlantirishning tegishli choralarini kengaytirishga urg'u berilgan.<sup>4</sup>

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek yaqinda qabul qilingan yangi Soliq kodeksiga muvofiq, ko'plab yangiliklar amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi. Soliqlarni to'lash muddatini uzaytirish yoki bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berish bo'yicha yengillashtirilgan mexanizmlar kiritildi. Birinchi marta tadbirkorlarga ichki bozorda sotgan mahsuloti bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining bir qismini qaytarish tartibi joriy etilmoqda. Hozirgacha bu tartib faqat mahsulot eksport qilinganda qo'llanar edi. Endi tadbirkor tomonidan to'langan ortiqcha soliq o'z muddatida qaytarilmasa, unga Markaziy bankning asosiy stavkasi bo'yicha budjetdan foiz to'lanadigan bo'ldi<sup>5</sup>.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-soni Farmoni.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar

Soliqlar davlat budjetining asosiy daromad manbai ekanligini bilamiz.

Shunday ekan, bugungi kunda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, soliq va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining zarur darajasini ta’minlash, xufiyona sektorda faoliyat yurituvchi shaxslar faoliyatini legallashtirish, soliq to‘lovchilarning o‘z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishiga erishish budget daromadlarini oshirishning asosiy omillari sifatida qaraladi. Shu bois ularni oliy ta’lim muassasalarini bakalavr ta’lim bosqichi talabalari tomonidan o‘zlashtirilishi va uni o‘qitishning mavjud muammolarni aniqlash, o‘z vaqtida hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur holatlarni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2008 yil 21 iyuldagagi qo‘shma qaroriga asosan 2008-2009 o‘quv yilidan boshlab Respublika oliy o‘quv yurtlari va kollejlarining barcha noiqtisodiy ta’lim yo‘nalishlarida «Soliqlar va soliqqa tortish» fani o‘qitila boshlandi. Oliy ta’limning noiqtisodiy yo‘nalishidagi talabalarga soliq munosabatlariga oid masalalarni endigina o‘rganishga kirishilayotganligini e’tiborga olgan holda ularga soliqlarni mohiyati va ahamiyati haqida samarali va kengroq tushunchalar berish uchun nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitishda innovatsiyalardan va ilg‘or xorijiy tajribalardan keng foydalangan holatda o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

## I BOB. «SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH» FANIGA KIRISH

### 1.1. «Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o‘qitishning zaruriyati, predmeti, maqsaqi va vazifalari hamda o‘rganish usullari.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni yuksaltirish davrida soliqlar va ularga tenglashtirilgan majburiy to‘lovlар davlat xazinasining asosiy daromad manbasi hisoblanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlар soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslardan soliq qonunchiligiga ko‘ra belgilangan tartibda undiriladi. O‘zbekiston Respublikasi bosh qomusi-mamlakat Konstitutsiyasining 51 va 123-moddalarida ham fuqarolarning burch va majburiyatlaridan biri sifatida qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashning majburiyligi belgilab qo‘yilgan. Ushbu majburiyatlarни bajarish uchun esa har bir fuqaro soliqlar va soliqqa tortish munosabatlariiga doir yetarli darajada bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishlari lozim bo‘ladi.

Bu kursni o‘qitishning zarurligi bozor iqtisodiyoti munosabatlari ichida soliq munosabatlarining ahamiyati o‘sib borayotganligidan kelib chiqadi. «Soliqlar va soliqqa tortish» fani soliq voqeliklarini (harakatlarini) chuqur o‘rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tadbiq etish yo‘llarini o‘rgatadi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o‘qitishdan maqsad talabalarda soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi tasavvurni hosil qilish, soliq to‘lovchilardan undiriladigan soliq hamda yig‘imlarning huquqiy asoslarini, soliq majburiyati, soliq nazorati, soliqqa oid huquqbazarliklar va ularga nisbatan qo‘llaniladigan jazo choralar bo‘yicha bilimlarni shakllantirishdan iboratdir.

Har qanday fan yoki kurs o‘zining predmetiga ega bo‘lishi kerak. «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining predmeti soliq harakatini o‘rganishdir. Soliqqa tortishda soliq mexanizmi ishga solinadi. Uning harakatlanishi pul munosabatlari orqali sodir bo‘ladi. Bu pul munosabatlari soliq to‘lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliq undiruvchi (oluvchi) davlat o‘rtasida bo‘ladi.

Fan oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalar soliqlarning mohiyatini, ularning zarurligini, soliq elementlari va funksiyalarini, soliq siyosatini, soliqqa tortish va to‘lash tartiblarini, xorijiy mammalakatlar soliq tizimlarini, soliq tizimining nazariy jihatlarini o‘rgatish va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirshdan iboratdir.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o‘rganishdagi usullar umumiy va alohida usullarga bo‘linadi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini tadqiq qilishning ilmiy uslubi dialektik uslubdir. Shuning uchun ham ushbu ilmiy uslub barcha fanlarning, shu jumladan «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining nazariy va uslubiy asosini tashkil etadi. Dialektika iqtisodiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi, harakat va rivojlanishida tadqiq qilishni talab etadi. Dialektik uslub shuni tadqiq etadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo‘ladi, bilish esa oddiyidan murakkabga tomon rivoj topib boradi. Shuning uchun ushbu uslub tadqiq etishning induktsiya va deduktsiya usullarini o‘z ichiga oladi.

Xususiy, yakka fakt olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinadigan bo‘lsa – induktsiya usuli vujudga keladi. Barcha xususiy hollarni o‘z ichiga olgan umumiy qoida hosil qilinsa – deduktsiya usuli yuzaga keladi.

Hamma iqtisodiy fanlar kabi «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining ham o‘ziga xos ilmiy tadqiq etish usullari mavjud, ya’ni ilmiy tadqiq etish usullari biri bu ilmiy abstraktsiya usulidir. Ilmiy abstraktsiya usulining mohiyati bu tahlil paytida ob’ektning faqat bir tomoniga, tadqiq etilayotgan jarayonning asosiy mohiyatiga e’tibor qaratilib, halal berishi mumkin bo‘lgan ikkinchi darajali elementlarning ta’siri e’tibordan chetda qoldiriladi.

Tabiat va jamiyatdagi voqealardan hodisalar singari iqtisodiy jarayonlarning ham tarkibiy bo‘limlarini tadqiq etmay turib, ya’ni tahlil qilmay turib, ularni ilmiy jihatidan o‘rganib bo‘lmaydi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fani shuningdek, o‘z predmetini o‘rganishda tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi.

«Tahlil» iborasi grekcha «analiz» so‘zidan olingan bo‘lib, bu qismalarga bo‘lish yoki ajratish, tahlil qilish kabi ma’nolarni bildiradi, ya’ni tahlil murakkab hodisa va predmetlarni tarkibiy bo‘laklarga bo‘lish, ajratish asosida ko‘rsatkichlarni taqqoslash va tadqiq etish demakdir.

Tahlil usuli bo‘lib, bu usul vositasida voqealardan hodisalar o‘rtasidagi o‘zarobog‘liqliklar tadqiq etiladi.

Sintez usuli tadqiq etilgan bo‘limlardan olingan xulosa va natijalarni butun bir yaxlit jarayon deb hisoblab, umumiy xulosa chiqarishdan iborat. Yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq turlarini hisoblash va davlat budgetiga o‘tkazish tartibining amaliy masalalari mazkur usul bilan tadqiq etiladi.

To‘liq tasavvur paydo bo‘lishi uchun predmetning ayrim tarkibiy elementlarining bog‘liqligini va mavjud muammolarni aniqlab olish, umumlashtirish, ya’ni sintez qilish lozim. Tahlilsiz sintez ham bo‘lmaydi.

Statistik guruhlash usuli - bu ma'lumotlarni ma'lum belgilariga ko'ra guruhlarga ajratish statistik tadqiq etishning muhim usuli hisoblanadi. Statistik usul deb atalishiga sabab shundaki, bunda ko'rsatkichlar bir qancha statistik ma'lumotlarni guruhlarga bo'lish asosida o'rganiladi. Statistik guruhlash usuli orqali iqtisodiy ko'rsatkichlar bir hil bo'lgan guruhlarga ajratiladi va ayrim ko'rsatkichlar o'tasida bir-biriga bog'liqlik borligini hamda tadqiq etilayotgan voqeа hodislarning eng zaruri, muhimi aniqlanadi.

Shuningdek, «Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o'rghanishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: foiz chiqarish, taqqoslash, koeffitsent, zanjirli bog'lanish, korrelyatsiya, matematik usullarni qo'llash, statistik, grafik, soliqlarni davrlar bo'yicha taqqoslash, soliq tushumlarini jadvallar orqali ifodalash, o'zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, soliqlarni boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta'sirini grafik usulda tasvirlash va boshqalar.

Yuqorida aytib o'tilgan usullardan foydalanib yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini tahlil qilish iqtisodiyotdagi yangi imkoniyatlarni topishda yordam beradi, soliqqa tortish samaradorligini yanada oshiradi.

## **1.2. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligi.**

Soliq kodeksida belgilangan, O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga yoki davlat maqsadli jamg'armasiga to'lanadigan majburiy beg'araz to'lovlarga soliq deyiladi.

Yig'im deganda budjet tizimiga to'lanadigan Soliq kodeksida yoki boshqa qonun hujjatlarida belgilangan majburiy to'lov tushuniladi, bu yig'imning to'lanishi uni to'lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni

amalga oshirish, shu jumladan unga muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri bo‘ladi.

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning paydo bo‘lishi va uning faoliyati davomiyligi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu o‘rinda soliq kategoriyasi davlat iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqelik sifatida yuzaga chiqishini ta’kidlash lozim. Soliq tushunchasi tor ma’noda davlat ixtiyoriga soliq to‘lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi.

Ma’lumki, soliqlar bevosita davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir, ya’ni davlat o‘zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Soliqlarning amal qilishi ob‘yektiv zaruratdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha sub‘yektlar ham real sektorda, ya’ni ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko‘rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki faoliyati iqtisodiy samarasiz bo‘lgan sohalar ham mavjudki, ular soliqlarning ob‘yektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatning norentabel (mudofaa, tibbiyot, fan, maorif, madaniyat va boshqalar) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlar ob‘yektiv amal qilishini zarur qilib qo‘yadi. Vaholanki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari asosan davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo‘ladi.

Soliqlarning amal qilishini bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag‘ bilan ta’minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari.

Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko‘p bo‘lib, bozor iqtisodiyoti rivojiana borishi bilan ba’zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo‘qola borsa, yangi vazifalar paydo bo‘la boshlaydi. Bularga bizning respublikamizda kam ta’milanganlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini tashkil qilish kabilar kiradi. Davlat kuchli ijtimoiy-siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pensionerlar, talabalar, ko‘p bolali onalar va boshqalarni mablag‘ bilan ta’minalash zarurligini anglab, ayrim cheklangan tovarlar bahosidagi farqni budget hisobidan qoplaydi, bundan tashqari mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj kam ta’milanganlarga moddiy yordam ko‘rsatadi. Shu bilan birga, davlat jamiyat a’zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o‘zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga ham mablag‘ sarflaydi, qolaversa, fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib-intizom o‘rnatish, uni boshqarish funksiyalarini bajarish uchun ham ko‘plab mablag‘ yo‘naltirishga majburdir. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo‘lgan soliqlarni ob’yektiv zarur qilib qo‘yadi.

Qayd etish lozimki, hozirga qadar davlatning funksiyalarini bajarish uchun lozim bo‘lgan moliyaviy mablag‘larni shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo‘llanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat mayjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar amal qiladi. Ma’lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat bo‘lib, ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishli, bu holat soliqlarning iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi.

Soliqlar majburiy to‘lovlarni ifoda etuvchi pullik munosabatlarni bildiradi. Bu munosabatlar soliq to‘lovchilar bilan ularni o‘z mulkiga aylantiruvchi davlat o‘rtasida bo‘ladi. Davlat uchun budjet daromadlarining asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Soliqlar to‘g‘risidagi qarashlar tarixan ob‘yektiv va sub‘yektiv omillarning ta’sirida shakllangan. Soliqlarga doir turli ta’riflarni tahlil qilish, ularning konkret iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi mohiyatini asoslash, soliqlarning iqtisodiy rolini va soliq qonunchiligiga asos bo‘lgan soliq tamoyillarini belgilash hamda soliq tizimida, jamiyat taraqqiyotida mavjud bo‘lgan soliqlarning tutgan o‘rnini aniqlash zarurdir. Shunki davlat paydo bo‘lishi bilan soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zaruriy talablaridan biri bo‘lib hisoblanib kelgan. Davlat tuzilishi shakllari rivojlanishi bilan bir vaqtda soliq tizimi o‘zgargan va takomillashtirilgan. Soliq tizimining o‘zgarishi va takomillashtirilishi soliqlarning turlari, miqdorlari va yig‘ib olish usullari xilma-xil bo‘lganligi bilan asoslanib kelgan. Masalan, Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti tarixida soliqlar aholidan shaxsiy mol-mulk, yerdan olingan hosil, uy hayvonlari va boshqalar uchun «zakot» sifatida olingan.

Davlat faoliyatining barcha yo‘nalishlarini mablag‘ bilan ta’minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat budjeti daromadlarini shakllantirish soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi usul hisoblanadi. Davlatning

mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining asosiy manbai hisoblanadi.

Insoniyat tarixida yirik davlat arboblaridan biri, o'rta asrlarda buyuk sultanat barpo qilgan Amir Temur soliqlarga katta e'tibor qaratgan. U davlatni idora qilish tizimini yuzaga keltirishda asosan soliqlarga tayangan. O'sha davrning davlat moliyasi bu tizimning eng muhim unsurlaridan biri ekanligi, u davlatni boshqarishdagi barcha jihatlarga uzviy bog'langanligi bilan tubdan farq qilib turgani va ayni shu xususiyatiga ko'ra boshqaruvning barcha tarkibiy qismlari orasida markaziy o'rinni egallaganligi bugungi kunga kelib hammaga ayon bo'immoqda.

Ulkan davlat moliyasini boshqarish murakkab jarayon ekanligini tushungan Amir Temur molivayi hokimiyatni markazlashtirishga urinmadni. Joylarda shakllangan soliq tizimini o'zgartirmagan holda, soliq yig'imini amalga oshirishni o'zi zabit etgan 27 shahar va tumanlar mahalliy hokimiyati zimmasiga yuklagan. «Agar xalq boshqarishning oldingi tartiblarida yashashni istasa, bu istak amalga oshirilardi, aks holda soliqlar men o'rnatgan tartib bo'yicha yig'ilardi», – deb yozgan edi Amir Temur o'z tuzuklarida.

Xazinaning chiqim qismi soliqlar yig'ishning barqaror tizimini kiritishni talab qilar edi. Amir Temur va temuriylar davrida soliqlarning 20 dan ortiq turi mayjud bo'lgan. Ularning asosiyлари quyidagilardan iborat:

sar shumor - jon boshiga to'lanadigan soliq, miqdori 1 dinordan 10 dinorgacha bo'lgan, aholining barcha tabaqasiga tatbiq etilib, moddiy boylik darajasiga qarab belgilangan;

xiroj - temuriylar va ulardan keyingi davrlarga taalluqli asosiy yer solig'i. U yig'ib olingen hosilning uchdan bir qismiga teng bo'lib, pul yoki mahsulot shaklida undirilgan;

sar daraxt - mevali daraxtlar va uzumzor uchun to'lanadigan soliq, pul shaklida olingen;

dudi - tutun solig'i, har bir uy yoki hovlidan o'z ehtiyojlari uchun tayyorlagan o'tindan foydalanganligi uchun soliq bo'lib, mahsulot shaklida, keyinchalik esa pul shaklida olingen;

avariz - favqulodda soliq, shahar yoki qishloq aholisidan urush chiqimlarini va saroyda o'tkaziladigan bayramlarni qoplash maqsadida olingen;

uloq - davlat xizmatidagi odamlarga beriladigan ot;

mir hazaron - ma'lum bir joyda yashovchi aholidan shu yerdagi qo'shinni moddiy ta'minlashga olinadigan soliq.

Amir Temur pul siyosatini olib borgan holda, bu siyosatni Movarounnahrni iqtisodiy rivojlantirish bilan mutanosiblashtirishga katta ahamiyat bergen. Shuning uchun u aholi uchun og'irligi tushmaydigan soliq siyosatini olib borgan. Ayrim hollarda dehqonlar xiroj solig'idan butunlay ozod etilganlar. Masalan, Temur o'z tuzuklarida shunday yozgan edi: «Agar dehqon yangi ochilgan yerda ekin eksa yoki tashlab qo'yilgan yerni obodonlashtirsa, u birinchi yil soliq to'lashdan butunlay ozod etilgan, ikkinchi yil qancha xohlasa shuncha soliq to'lagan, uchinchi yili esa umumiyl soliq to'lash qoidasi bo'yicha soliq to'lagan».

Tarixan soliqlar, davlatni saqlab turish uchun zarur bo'lgan majburiy to'lovlar sifatida, davlat paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Soliqlar davlat

faoliyat ko'rsatishining moddiy asosini tashkil etadi, ularning iqtisodiy tabiatи xuddi shu yerdan kelib chiqadi.

Bozor munosabatlарining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarнing iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning ham bilvosita quroli hisobланади.

Soliqni to'lash xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va fuqarolar bilan davlat o'rтasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisobланади. Biror-bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Shunki soliqlar budget daromadлari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo'libgina qolmay, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga, ishlab chiqarishni rag'batlantirishda investitsiyalarni ko'paytirishga, raqobatbardosh mahsulotni ko'paytirishga, kichik biznesni rivojlantirishga, xususiy korxonalar ochish bilan bog'liq bo'lgan bozor infratuzilmасини barpo qilishga, umum davlat ehtiyojlarini qondirishga va shu kabilarga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat o'zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini soliqlar orqali to'playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy budgetlar daromadini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to'lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi, narx belgilashga ta'sir ko'rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi, imtiyozlar yordamida esa aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi.

### **1.3. Soliq elementlari.**

Soliqqa tortish tizimining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan soliq elementlari soliq solishda ifodalanadigan tushunchalar bo‘lib, ular soliq to‘lovchilar va davlat budjeti o‘rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Soliq nazariyasida soliqqa oid munosabatlarni to‘liq va teranroq ifoda etish uchun iqtisodiy vogeliklarning har bir kichik guruhlari muayyan nomdagi iboralar bilan izohlanadi. Soliq elementlari ham xuddi shunday soliqqa oid iqtisodiy hodisalarni izohlashga xizmat qiluvchi yaxlit tushuncha hisoblanadi. Soliq elementlari tushunchasi soliq solish tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning o‘zi ham kichik tizimni tashkil etadi, ya’ni soliq elementlari ham bir necha iqtisodiy kategoriyalarning yaxlit holdagi harakatini bildiradi.

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida soliqning barcha elementlari aniqlab qo‘yilgan taqdirdagina ushbu soliq belgilangan deb hisoblanadi.

Bunday soliq elementlariga quyidagilar kiradi:

- 1) soliq solish ob’ekti;
- 2) soliq bazasi;
- 3) soliq stavkasi;
- 4) soliq davri;
- 5) soliqni hisoblab chiqarish tartibi;
- 6) soliq hisobotini taqdim etish tartibi;
- 7) soliqni to‘lash tartibi.

Soliqni belgilashda soliq imtiyozlari va ularning qo‘llanilishi uchun asoslar nazarda tutilishi mumkin.

Soliq solish ob'ekti mol-mulk, harakat, harakat natijasi yoki qiymat, miqdoriy yoki fizik xususiyatga ega bo'lgan boshqa holat bo'lib, u mavjud bo'lganda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq to'lovchida soliq majburiyatini vujudga keltiradi.

Soliq solish ob'yektiga foyda yoki daromad, muayyan tovarlar qiymati, yer maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan foydalanish miqdori va boshqalar kiradi. Soliq solish ob'yekti aslida jamiyatdagi mavjud moddiy va ma'naviy boyliklarning ayrimlariga qonun yo'li bilan ulardan foydalanuvchi, egalik qiluvchi va tasarruf qiluvchi soliq sub'yektlarining huquqlariga soliq solishni ifodalaydi. Binobarin, moddiy yoki ma'naviy boyliklarga mulkiy huquqqa ega bo'lgandagina soliq solish ob'yekti yuzaga keladi. Masalan, egasiz imoratga soliq solinmaydi, chunki egasiz imoratga nisbatan soliq sub'yekti mavjud emas, vaholanki, bo'lgan taqdirda ham soliq solish ob'yekti sifatida imorat emas, balki ushbu imoratga bo'lgan mulkiy huquqqa soliq solinadi. Shu jihatdan aytish mumkinki, soliq solish ob'yekti aslida yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy huquqi va daromadiga qaratiladi.

Soliq bazasi soliq solish ob'ekting qiymat, fizik yoki boshqa xususiyatini ifodalaydi.

Hisoblanadigan soliq miqdori nafaqat soliq stavkalarining miqdoriga, shu bilan birgalikda soliq stavkasi qo'llaniladigan ob'yeqtning miqdoriga ham bog'liq. Soliq solinadigan bazaning miqdori qonunchilikda soliqqa tortilishi lozim bo'lgan soliq solish ob'yektidan ruxsat etiladigan chegirmalarga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin. Soliq solish bazasini soliq to'lovchilarning mazkur toifasiga taqdim etiladigan soliq imtiyozlariga muvofiq ravishda kamaytirishga ruxsat etiladi.

Soliq stavkasi soliq bazasining o‘lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan soliqning foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorini ifodalaydi.

Soliq stavkalari Soliq Kodeks bilan belgilanadi. Aktsiz solig‘ining stavkalari, mahsulot narxi dinamikasidan va uni realizatsiya qilish, shu jumladan import qilish hajmidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan yil davomida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Ilk marotaba 2020 yildan aksiz solig‘i, yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va qat’iy belgilangan summada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan belgilandi.

Mustaqillikning ilk davridan 2005 yilgacha soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat budgeti parametrlari to‘g‘risidagi qarori bilan, 2005 yildan toki 2019 yilgacha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budgeti parametrlari to‘g‘risidagi qarori bilan belgilangan.

Soliq stavkalari foizlarda yoki mutloq summada belgilanishi mumkin. Soliq stavkasi soliq elementlari ichida eng ko‘p amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan unsurdir. Shunki soliq stavkalarini o‘zgartirish orqali davlat xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar faoliyatiga ta’sir etadi.

Soliq stavkalari, undirilishga, mohiyatiga va amal qilishi nuqtai nazaridan bir necha turlariga ajratiladi:

Soliq stavkalarining biri proporsional soliq stavkasi bo‘lib, bu soliq stavkasining asosiy mohiyati shundan iboratki, yuridik yoki jismoniy

shaxslardan oboroti, foydasi yoki boshqa bir soliq ob'yektining bir xil turida yangi qo'llashdan muhim xususiyati shundaki, soliq to'lovchi ega bo'lgan foya (daromad), divedend, oborot yoki mol-mulk qiymatini hajmi (summasi) qancha bo'lishidan qat'i nazar bir xil tartibda, ya'ni bir xil foizda soliq stavkasi qo'llaniladi.

Soliq stavkalarining keyingi turi progressiv soliq stavkasi hisoblanadi. Progressiv soliq stavkasi, mohiyati jihatidan proporsional soliq stavkasiga nisbatan teskari holatda amal qilib, unga muvofiq soliq to'lovchilarning daromadlari, foydasi yoki oboroti ortib borishiga muvofiq tarzda soliq stavkasining ham ortib borishi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i misolida ko'rishimiz mumkin. Bunga muvofiq, jismoniy shahslarning olgan daromadi oshib borishi bilan birga belgilangan shkala asosida soliq stavkasi oshib boradi.

Regressiv soliq stavkasida soliq to'lovchining soliqqa tortiladigan daromadi, oboroti, mol-mulk qiymati kabi soliq ob'yektining ortib borishi bilan soliq stavkasining kamayib borishi ifodalanadi. Bundan ko'rindaniki, regressiv soliq stavkasi progressiv soliq stavkasiga nisbatan teskari iqtisodiy hodisani ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida regressiv soliq stavkasi asosan soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini oshirish maqsadida qo'llanilib, bu asosan korxonalarning mahsulot (xizmat, ish)ni chetga eksport qilishini rag'batlantirish maqsadida joriy etilgan. Jumladan: yuridik shaxslardan olinadigan foya va mol-mulk solig'ida ko'rish mumkin.

Soliq imtiyozlari bu - soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda

tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyatidir.

Soliq to'lovchiga soliqlarni to'lash bo'yicha muddatni kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) imkoniyati berilishi soliq imtiyozlari hisoblanmaydi.

Soliq imtiyozlari Soliq kodeksi bilan taqdim etiladi. Soliq imtiyozlari individual xususiyatga ega bo'lishi mumkin emas.

Ayrim soliqlar bo'yicha soliq imtiyozlari, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i solinadigan mahsulotlar ishlab chiqarilganda va (yoki) realizatsiya qilinganda aksiz solig'i va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko'pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin.

Soliq to'lovchilar soliqlar bo'yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar yuzaga kelgan paytdan e'tiboran ularning butun amal qilish davri mobaynida foydalanishga yoki soliq imtiyozidan foydalanishdan voz kechishga yoxud undan foydalanishni bir yoki bir necha soliq davrlarida to'xtatib turishga haqli, bundan qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish mustasno.

Soliqlar bo'yicha imtiyozlar soliq solishdan bo'shagan mablag'larni aniq maqsadlarga yo'naltirishi sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag'lar maqsadli ishlatilmagan taqdirda maqsadsiz ishlatilgan mablag'lar summasi belgilangan tartibda penya hisoblangan holda byudjetga undirilishi lozim. Soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shagan va mazkur imtiyozlarning amal qilish davrida foydalanimagan mablag'lar summasi berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati tugaganidan so'ng bir yil davomida ularni taqdim etishda

belgilangan maqsadlar uchun yo‘naltirilishi mumkin. Bunda belgilangan muddatda foydalanilmagan mablag‘lar byudjetga o‘tkazilishi lozim.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyozlar, shu jumladan tovarlar O‘zbekiston Respublikasining hududiga olib kirilishida (importida) soliq solishdan bo‘sagan mablag‘larni aniq maqsadlarga yo‘naltirish sharti bilan, berilishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bosh boshqarmalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining muassasalari Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliqlarmi to‘lashdan ozod etiladi, bundan ijtimoiy soliq va O‘zbekiston Respublikasining hududiga olib kirishda (importida) to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i mustasno.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari turistik zonalarda joylashgan alohida sanatoriyy-kurort ob‘ektlari egallagan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk solig‘i va yer solig‘ining kamaytirilgan soliq stavkalarini belgilash yoki soliq to‘lashdan ozod qilish huquqiga ega.

Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar uchun imtiyozlar quyidagi ko‘rinishda beriladi<sup>6</sup>:

soliq va (yoki) boshqa majburiy to‘lovlar va yig‘imlarni to‘lashdan ozod etish;

soliq bazasimi kamaytirish;

soliq stavkasini pasaytirish.

---

<sup>6</sup> Тўлаков, У.Т., (2021). Мол-мулк солиги бўйича имтиёзларни тақомиллаштириш. “Логистика ва иқтисодийт” илмий электрон журнали, 1(2). 425-435.

Imtiyozlar amal qilish muddatiga qarab doimiy va muayyan muddatga beriladigan imtiyozlarga bo‘linadi.

Doimiy imtiyozlar cheklanmagan amal qilish muddatiga belgilanadi. Bunday imtiyozlar Soliq kodeksida keltirilgan.

Muayyan muddatga beriladigan imtiyozlar vaqtinchalik hisoblanib preferensiya (lot. praeferenzia «afzallik») deb ataladi. Preferensiya ayrim qonunlar, Prezident qarorlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan belgilanadi. Preferensiyalar ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashni amalga oshirayotgan, hudud infratuzilmasini rivojlantirishda ishtirok etuvchi yoki O‘zbekiston investitsiya dasturi qatnashchisi hisoblangan korxonalarga mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qo‘sishimcha tarzda berilishi mumkin.

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi soliq bazasidan, soliq stavkasidan, shuningdek mavjud bo‘lgan taqdirda, soliq imtiyozlaridan kelib chiqqan holda soliq davri uchun soliq summasini hisob-kitob qilish qoidalarini belgilaydi.

Soliqni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda bu majburiyat soliq organiga yoki soliq agentiga yuklatilishi mumkin.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagи tadbirkorlar soliqlarni banklar orqali naqd pulsiz shaklda to‘laydi.

Soliq davri deganda tugagandan keyin soliq bazasi aniqlanadigan hamda to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi hisoblab chiqariladigan kalendor yil yoki boshqa davr tushuniladi.

Soliq davri bir necha hisobot davrlaridan iborat bo‘lishi mumkin.

Soliq solish usullari uch xil ko‘rinishda amalga oshirilib, ular quyidagilarga: soliq solishning kadastrli, deklaratsiya va manba oldidan soliq solish usullariga ajratiladi.

Soliq yuki - soliq to‘lovchi muayyan vaqt oralig‘idagi faoliyati natijasida to‘lagan soliqlarining yig‘indisini ifodalaydi.

Bunda soliq to‘lovchilar to‘laydigan barcha soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘indisi ifodalanadi. Soliq yukining aniq soliq to‘lovchilar zimmasiga qancha to‘g‘ri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Biroq to‘g‘ri (bevosita) soliqlarda soliq og‘irligi aynan soliqni budgetga hisoblab o‘tkazuvchi soliq to‘lovchilar zimmasiga tushsa, egri (bilvosita) soliqlarda esa soliq yuki soliqni to‘lovchilar emas, balki tovar (ish, xizmat)larni iste’mol qiluvchilar zimmasiga tushadi. Muayyan turdagи yuridik va jismoniy shaxslar bo‘yicha soliq yukini bir yilda budgetga to‘langan barcha majburiy to‘lovlар yig‘indisi bilan aniqlash mumkin. Soliq yukini ifodalashning bir qancha ko‘rinishlari mavjud: makrodarajadagi soliq yuki, mezodarajadagi soliq yuki va mikrodarajadagi soliq yuki. Soliq yuki makrodarajada ifodalanganda butun mamlakat miqyosida ifodalanib, asosiy ko‘rsatkich sifatida muayyan naqt oralig‘ida davlat budgetiga kelib tushgan soliqlar yig‘indisining ana shu vaqt oralig‘ida yaratilgan yalpi ichki mahsulot (YaIM) yoki milliy daromad (MD)ga nisbatli olinadi. Mezodarajada ifodalanganda alohida olingan soha, tarmoq yoki sektorga to‘g‘ri keladigan soliq yuki ifodalansa, mikrodarajada esa aniq bir olingan sub’yektga to‘g‘ri keladigan soliq yuki ifodalanadi.

#### **1.4. Soliqlarning funksiyalari va vazifalari.**

Soliqlarning funksiyalari to‘g‘risida turli xil qarashlar mavjud. Sobiq sotsialistik mamlakatlar iqtisodchilari o‘rtasida soliqlar ikki funksiyani bajaradi, degan qarash keng tarqalgan edi. Bu ikki funksiya sifatida fiskal va nazorat funksiyalari tan olinardi. Ularning fikriga ko‘ra eng asosiy funksiya bu soliqlarning fiskal funksiyasidir, chunki busiz nazorat funksiyasining mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini amaliyotda harakat qilayotganligini ko‘rsatadi. Shunday ekan, funksiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko‘rsatib turishi zarur. Bugun paydo bo‘lib ertaga yo‘q bo‘lib ketadigan holatlar soliq funksiyasi bo‘la olmaydi. Demak, funksiya kategoriyasi doimiy, qat’iy takrorlanib turadigan vogelikni ifodalaydi. Shunday uslubiy yondashishdan kelib chiqib soliqlar funksiyasini aniqlash kerak.

Soliqlarning funksiyalari masalasida katta bahslashuvlar mavjud, lekin yagona bir fikrga kelingan emas. Ko‘pchilik iqtisodchilar soliqlarga fiskal, boshqaruvchi, rag‘batlantiruvchi, nazorat funksiyalari xos deb ta’rif berishadi.

Fikrimizcha, soliqlarning quyidagi asosiy funksiyalarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir:

1. Soliqning fiskal funksiyasi;
2. Tartibga solish funksiyasi;
3. Rag‘batlantirish funksiyasi;
4. Soliqning nazorat funksiyasi;
5. Soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta’minlash funksiyasi.

1. Soliqlarning asosiy funksiyasi - fiskal funksiya hisoblanib (lotincha *fiscus* so‘zidan olingan bo‘lib, xazina degan ma’noni anglatadi), bu funksiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko‘rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi. Soliqlar orqali korxonalar va fuqarolar daromadining bir bo‘lagini davlat apparati, mamlakat mudofaasi, noishlab chiqarish sohasining umuman o‘z daromadlari manbaiga ega bo‘lmagan qismini (ko‘pgina madaniyat muassasalari, jumladan, kutubxonalar, arxivlar va boshqalar) yoki lozim darajada rivojlanishini ta’minlash uchun o‘zining mablag‘i yetishmaydigan tarmoqlarni (fundamental organ, teatrlar, muzeylar, ko‘plab o‘quv yurtlari va hokazo) saqlab turish maqsadida undirib olish yo‘li bilan davlat budgetining daromad qismini shakllantirish soliqlar fiskal funksiyasining eng muhim elementi hisoblanadi.

Soliqlarning ushbu funksiyasi orqali hosil bo‘ladigan pul resurslari davlat fondi (davlat budgeti) orqali qayta taqsimlanadi, ular ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmanni rivojlanirishga, ustuvor tarmoqlarni investitsiyalashga yo‘naltiriladi.

2. Bozor munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliqlarning ikkinchi muhim funksiyasi ularning iqtisodiyotdagи tartibga soluvchilik roli hisoblanadi, ya’ni davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va bu bilan xalq xo‘jaligi tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun muayyan «soliq muhiti»ni yaratadi. Ushbu funksiya orqali soliq tizimiga ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni muayyan tarmoqda ishlab chiqarish sur’atlarini rag‘batlantiradi yoki jilovlab turadi, sarmoyaning bir tarmoqdan soliq muhiti eng ma’qul bo‘lgan boshqa tarmoqqa qo‘yilishini kuchaytiradi

yoki pasaytiradi, shuningdek aholining to‘lovga qobil talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi.

Soliqlarning tartibga soluvchi sifatidagi funksiyasining ahamiyati bozor sharoitida o‘sib boradi, bu davrda tadbirkorlarni ma’muriy qaram qilish usullari yo‘q bo‘lib ketadi yoki juda oz holda qoladi, korxonalar faoliyatini farmoyishlar, ko‘rsatmalar va buyruqlar yordamida idora qilish huquqiga ega bo‘lgan «yuqori tashkilot» tushunchasining o‘zi asta-sekin yo‘qola boradi. Biroq iqtisodiy faollikni izga solib turish, uning rivojlanishini jamiyat uchun maqbul bo‘lgan yo‘nalishda rag‘batlantirish zarurati saqlanib qoladi.

3. Rag‘batlantirish funksiyasi soliq tizimining eng muhim funksiyalaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xomashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg‘arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga rag‘batlantiradi. Soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasi orqali davlat xalq xo‘jaligi taraqqiyotini rag‘batlantiradi, bu bilan fiskal funksiyani bajarish uchun bazani kengaytiradi, ishlab chiqarishni soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasi orqali rag‘batlantirib, davlat oqilonaga soliq siyosatini olib borish bilan soliq yukini kuchaytirmasdan xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarning erkin faoliyat ko‘rsatishi ta’minlanadi.

4. Soliqlarning nazorat funksiyasi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortish ob‘yekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va hokazo tegishli soliq ko‘rsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirishdek ancha murakkab jarayondan iborat. Soliq hisobi soliq idoralariga

belgilangan soliq hisobi shakllari orqali soliq to'lovchilar o'zlarining soliq majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

5. Soliqlarni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi ham muhim ahamiyat kasb etib, bu funksiya orqali xarajatlar hajmi va konkret soliqlar davlatning qanday ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini bajarishga sarflanganligi to'g'risida axborot berib turilishi juda zarur. Shunday qilinsa, soliqlarning budgetga tushishi to'liq, o'z vaqtida va oson kechadi.

Biz soliq funksiyalarini qisqacha ko'rib chiqishimiz soliqlar moliya resurslarini tiklash, xo'jalik faoliyatini tartibga solish va daromadlarni ijtimoiy jihatdan ahamiyatli maqsadlar uchun qayta taqsimlash bo'yicha muhim vazifalarni bajaradi deb xulosa chiqarishimiz uchun imkon beradi.

Soliqlar iqtisodiyotning tarixiy rivojlanishi bosqichlarida ushbu rivojlanish jarayonlarini ta'minlash maqsadiga bo'ysunuvchi vazifalarni bajaradi. Soliqlarning funksiyalari esa ana shu vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Demak, soliqlarning funksiyalari, vazifalari bajarilishidan kelib chiqadimi yoki soliqlarning vazifalari funksiyalarining mavjudligidan kelib chiqib bajariladimi kabi aniqlash lozim bo'lgan muammolar mavjud. Shunday ekan soliqlarning funksiyalari va vazifalari o'rtaсидаги aniq farqli jihatlarni o'rganish va soliq munosabatlarini tashkil etish mobaynida bu chegaralarni asoslash muammosi mavjudligini qayd etib o'tish lozim.

Soliqlar bajaradigan vazifalar ko'pchilik mamlakatlarning soliq qonunchiligidagi umumiy o'xshashliklarga ega. Ana shunday an'anaviy soliq vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Umum davlat vazifalarini hal qilish uchun davlatga zaruriy

moliyaviy resurslar ta'minlab berish. Soliqlarning fiskallik funksiyasi ushbu vazifani hal qilish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu vazifani hal qilish davlatning iqtisodiyotga qay darajada aralashuviga ko'p jihatdan bog'liq. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, soliqlarning fiskallik funksiyasi shunchalik faol bo'ladi. Ammo soliqlarning ushbu vazifasi faqat iqtisodiy jarayonlarni qamrab olmaydi, balki davlatning noishlab chiqarish xarajatlari ko'payishi ham davlatning ortiqcha moliyaviy resurslarga muhtojligini keltirib chiqaradi.

2. Mamlakat iqtisodiyotida qulay investitsiya muhitini yaratishga ko'maklashish. O'zbekiston Respublikasida soliqlarning ushbu vazifasini bajarishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, hozirgi kunda sarmoyalarning asosiy qismi savdo va xizmatlar sohasiga yo'naltirilayotganligi tashvishli holdir. Buning asosiy sababi foyda normasining bu sohalarda kattaligidir. Soliqlar sarmoyalarni bevosita mahsulot ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirishning qudratli vositasi bo'lishi kerak.

3. Aholining mehnat faolligini rag'batlantirish. Soliqlar deyarli barcha mamlakatlarda ushbu vazifani bajaradi. Shunki ular aholi daromadlarini tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi. Daromadlardan olinadigan soliq stavkalarining eng yuqori chegarasini sezilarli darajada pasaytirish ishchi kuchining taklifi bilan bog'liq salbiy oqibatlarning oldini olishi mumkin. 70-80 yillarda Shvetsiyada soliq stavkalarini aholi daromadlariga progressiv ravishda qo'llash malakali ishchilarning boshqa mamlakatlar tomon migratsiyasiga olib kelgan.

4. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida daromadlarni taqsimlashning samaradorlik vaadolat prinsiplari o'rtasidagi muvofiqlikka

erishish. Amaldagi soliqlarga barqarorlik va moslanuvchan soliq stavkalarining xosligi soliqlarning uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga zamin yaratadi. Milliy va xorijiy investorlar kapital qo‘yilmalarini amalga oshirar ekan, ular o‘zlarining soliq majburiyatlarini aniq bilishi kerak. Soliq turlari va stavkalari barqaror va tez-tez o‘zgarmaydigan bo‘lishi kerak. Soliq tizimiga mustahkam ishonch bo‘lmagan taqdirda uzoq muddatli investitsiyalarning harakati susayadi.

Yuqorida aytilib o‘tganimizdek, soliqlarning budjetga ijobiy ta’siridan tashqari, muhim iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sohasida ham ulardan faol foydalanish mumkin. Marx-navoning isloh qilinishi, tashqi savdoning erkinlashtirilishi, mehnat bozorining isloh qilinishi va hokazolar yangi paydo bo‘lgan tijorat tuzilmalarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash zaruratinini yuzaga keltiradi. Bu vazifani soliq stavkalarini tabaqalashtirish yo‘li orqali hal etish mumkin.

Shunday qilib, soliqlarning vazifalari ularni amalga oshirish muddatiga qarab, qisqa muddatli, o‘rta va uzoq muddatli vazifalarga bo‘linadi. Bu vazifalar mazmuniga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Soliqlar nafaqat davlat budgetining tushumlariga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga balki davlat daromadlarini budgetning o‘rta muddatli rejada hayotiyigini yaxshilash maqsadida moslashuvchanligini amalga oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

### **1.5. Soliqqa tortish tamoyillari.**

Soliq solish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliq solish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi<sup>7</sup>. Soliq

<sup>7</sup> Jo‘raev A., Toshmatov Sh. Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Norma 2009 12-17-bet

solist tamoyillarini A.Smit o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor asoslab bergen va unda:

– davlat fuqarolari davlat xarajatlarini qoplashda o'zлari hukumat muhofazasida foydalanayotgan daromadlariga muvofiq tarzda qatnashishlari lozim.

– har bir odam to'laydigan soliq aniq belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak, bunda o'zboshimchalik ketmaydi. Soliq miqdori, to'lanadigan vaqt va tartibi uni to'lovchiga ham, boshqa har qanday odamga ham birday aniq va ma'lum bo'lishi zarur.

– har bir soliq to'lovchiga har jihatdan qulay bo'lgan vaqtida va tartibda undirilishi kerak.

– har bir soliq shunday tarzda o'rnatilishi kerakki, bunda soliq to'lovchining hamyonidan ketadigan pul davlat budjetiga kelib tushadigan mablag'ga nisbatan ortiq bo'lishiga mumkin qadar yo'l qo'yilmasin, deb ta'kidlab o'tilgan.

Hozirgi sharoitga tatbiqan olganda, soliq solish tizimining quyidagi tamoyillarini keltirib o'tish mumkin:

Soliq solishning yetarlilik tamoyili. Soliq solishning yetarlilik tamoyiliga muvofiq soliq solish darajasi shunday bo'lishi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo'jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olsin. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalardagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliya resurslari to'planishini ta'minlashi lozim. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, soliq stavkalari soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanmaydi, chunki soliq to'lovchi soliq to'lar ekan, davlat tomonidan bepul xizmatlardan bahramand bo'lgani holda ayni chog'da o'zining ba'zi xarajatlarini qisqartiradi.

Umuman olganda, yetarlilik tamoyili soliq siyosatini belgilayotganda uni davlatning qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan qat'iy ravishda uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Soliq solishning tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish tamoyili. Soliq tizimi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ishlab chiqarishini rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag' yo'naltirish, ya'ni kapital jamg'arish va shu yo'l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishi lozim.

Soliq solishning iqtisodiy omillarga ta'siri ikki xil ko'rinishda bo'ladi, ya'ni qiyosiy oqibat va daromad oqibati shaklida ifodalanadi. Qiyosiy oqibat mehnat natijalari, jamg'arish, investitsiyalash, yangi g'oyalarni joriy etish va ishlab chiqarish faoliyatining boshqa xil ko'rinishlari bilan shug'ullanish uchun nisbatan kamroq darajada rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, progressiv (oshib boruvchi) soliq solishda bunday oqibatning rag'batlantirishga zid ta'siri yaqqol ifodalanadi.

Soliqlarning ta'siri investitsiyalar tarkibida ham yaqqol seziladi. Turli ko'rinishdagi aktivlar uchun joriy etilgan har xil soliq tartiblari investitsiya imkoniyatlari va sarmoyadorlarning portfeli tarkibida sezilib qoladi. Soliq tizimidagi kamchilik va nuqsonlar iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin, bu hol pirovard natijada davlat budjeti daromadlarining o'zgarishiga ham ta'sir etmay qolmaydi.

Soliq solishningadolatlilik tamoyili. Soliq solishningadolatlilik tamoyiliga muvofiq, soliqlar jamiyat tomonidan oqilona vaadolatli deb tan olingan umumiy ob'yektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim. Adolatlilik tamoyili bir qancha asosiy guruhdagi soliq solish tamoyillariga bo'linadi.

Bularni ikki guruhga bo‘lgan holda o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda gorizontal va vertikal adolatni bir-biridan farqlash lozim. Gorizontal adolat tamoyili daromad olishning turli sharoitlarida soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq solishning taxminan teng shartlarini qo‘llashni ko‘zda tutadi.

Vertikal adolat deganda xo‘jalik yuritishning birmuncha og‘ir sharoitlarida ishlayotgan sub‘yektlar uchun soliq solishning bir qadar yumshoqroq shartlarini, yengil daromad olish imkoniyatiga ega bo‘lgan sub‘yektlar uchun esa og‘irroq shartlarni qo‘llash tushuniladi. Soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasini bajarish doirasida ikkinchi tamoyil buzilishi mumkin. Masalan, iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni rag‘batlantirish maqsadida ularni ishlab chiqarish bo‘yicha soliq solishda bir qadar imtiyozli shartlar yoki, aksincha, vino-aroq va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishni cheklash uchun ulardan olinadigan egri soliqlarning yuqori stavkalari belgilangan hollar ham bo‘ladi.

Soliq solishning oddiylik va xolislik tamoyili. Bu tamoyil soliq solish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo‘lishini, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, shuningdek soliqlarning eng muhim turlari bo‘yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko‘zda tutadi. Bu o‘rinda nazarda tutilayotgan narsa shuki, soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasi doirasida beriladigan imtiyozlar yakka tartibdagi xususiyatga ega bo‘lmasligi, balki muayyan faoliyat turlarini rag‘batlantirishga, soliq to‘lovchilarning mulkchilik shakli va qaysi idoraga mansubligidan qat’i nazar, ma’lum turdagи mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko‘paytirishga qaratilmog‘i lozim. Soliq imtiyozlarining haddan tashqari ko‘pligi qonunlarni murakkablashtirib yuboradi, tushunishni qiyinlashtiradi hamda

turlicha talqin qilinishiga olib keladi, bu hol pirovard natijada soliq to'lovchilarning soliqlarga nisbatan munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga aniq qilib belgilangan imtiyozlar soliq yukini boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga o'tkazib, ijtimoiyadolatsizlik ro'y berishiga olib keladi.

Soliq solishning boshqarishga qulaylik tamoyili. Samarali soliq tizimiga qo'yiladigan muhim talablardan biri boshqaruvgaga qulay bo'lishidir. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka erishish ko'p hollarda soliqlarning soliq to'lovchilarga yaxshi tushunarli bo'lishiga bog'liq.

Ayrim mamlakatlarda soliq solishning nihoyatda murakkab tartibi amal qiladi, aytaylik, shkala va stavkalar turi, soliqlar tarkibi, ularni to'lash qoidalari va tartiblari haddan tashqari ko'p bo'ladi. Buning ustiga ular soliq tushumlarining ko'payishiga hech qanday yordam bermaydi hamda soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi bajarilishida rol o'ynamaydi.

Soliq solishning soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish tamoyili. Ushbu tamoyil davlat va soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni yig'ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko'zda tutadi. Buning uchun respublikamizda soliq solish tartibini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlarni maqbullashtirish, kompyuter texnologiyalari, soliq axborotlarining to'g'rilingini bevosita nazorat qilish usullarini qo'llash orqali soliq to'lovchilarining xarajatlarini kamaytirish maqsadida davlat hisobidan saqlanadigan servis-markazlar, soliq solish masalalari xususida soliq organlari tomonidan bepul maslahatxonalar tashkil etilgan.

Soliq solishning soliq stavkalarini qiyoslash tamoyili. Soliq stavkalari boshqa davlatlardagi xuddi shunday soliqlarning stavkalari bilan

qiyoslanishi, ya’ni mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo‘lgan xo‘jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim. Agar qattiq shartlar belgilab qo‘yligudek bo‘lsa, bu hol respublika iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishni mushkullashtirib yuboradi, aksincha, yengil sharoit yaratilsa, mamlakat budjetiga salbiy ta’sir qiladi.

Soliq solish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillari muayyan o‘xshashlikka ega va ularni hayotga to‘liq tatbiq etish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi soliq solish majburiylik, aniqlik va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi, adolatlilik, soliq tizimining yagonaligi, oshkoraliq va soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanadi.

### **1.6. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning rivojlanish bosqichlari.**

Soliqlarni undirish - eng qadimgi vazifalardan va davlatchilik mavjudligining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek soliq tizimi ko‘p jihatdan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning samaradorligini va uning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda O‘zbekistonda soliq solish sohasida muhim islohotlar amalga oshirilmoxda. Xususan, soliq yuki pasaytirildi, yangi Soliq kodeksi qabul qilindi, soliq solish tizimi soddallashtirildi, soliq ma’muriyatichiliqi takomillashtirildi. Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar

strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishga imkon berdi<sup>8</sup>. Hozirgi vaqt达a respublikamiz ishbilarmonlik muhiti holatining soliq yuki darajasi va soliq stavkalari singari ko'rsatkichlari bo'yicha ko'p mamlakatlardan ilgarilab ketgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda soliq tekshiruvlari soni boshqa ko'plab davlatlardagidan ancha kamdir. Bularning barchasi O'zbekistonda iqtisodiyotni tezkor rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning muhim shartlari hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan boshlab davlat qurilishi mustaqil iqtisodiy va ijtimoiy siyosat o'tkazish, suverenitetini mustahkamlash uchun mablag'ga ehtiyoj sezgan. Faqat o'z kuchiga suyanishiga to'g'ri kelgan. Sobiq Ittifoq davlatining '70 yildan ortiq vaqt amal qilgan budget mablag'larini shakllantirish va taqsimlash tizimi barbod bo'lib, moliyaviy resurslarga ehtiyojni milliy manbalar hisobiga ta'minlash zarurati yuzaga kelgan. 1991 va 1992 yillarda davlat budgeti kamomadi 50 foizgacha miqdorni tashkil etgan.

Ma'muriy-rejali boshqaruvda aslida soliq tizimi mavjud bo'limgan. Davlat barcha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar: ish haqi, ishlab chiqarish hajmlari, narxlar, foyda darajasini qat'iy nazorat ostiga olganligi sababli xo'jalik faoliyatini tartibga solishning soliq dastaklariga ehtiyoj sezmag'an. Tarmoqlar va korxonalar bo'yicha belgilanadigan mavjud majburiy to'lovlar (daromad, qishloq xo'jaligi, inshootlarga va boshqalar) xo'jalik mexanizmining markazlashtirilgan tizimiga kiritilgan va o'ziga xos vazifalarni bajarar edi.

---

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli farmoni.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda soliq qonunchiligiga «nol»dan asos solishga, faoliyat yurituvchi soliq organlarini tashkil etish, soliq to'lovchilar deb atalmish hamjamiyatni o'qitish va shakllantirishga to'g'ri keldi. Bularning bari ijtimoiy hayotda keskin o'zgarishlar yuz berishiga yo'l qo'ymaslik uchun soliqlar kelib tushishini majburiy ta'minlash sharoitida amalgalash oshirildi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan soliq tizimi shakllantirila boshladi. Davlatchilikni o'matish sharoitida soliqlarni undirishning ahamiyati juda katta - yosh suveren davlatning taqdiri ko'p jihatdan ushbu vazifa samarali hal etilishiga bog'liq bo'ladi. Juda qisqa davr ichida ikkita vazifani birdaniga bajarishga to'g'ri kelgan. Birinchidan, navqiron davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlariga mos keluvchi soliq tizimini shakllantirish, zarur huquqiy hujjatlarni qabul qilish. Ikkinchidan, soliq ma'muriyatichiligining tegishli tizimini yaratish.

Mustaqil davlatni tarkib toptirish va rivojlantirishning barcha bosqichlarida soliq tizimi budjetga zarur moliyaviy mablag'larning kelib tushishi, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning ta'minlanishi bo'yicha oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyat bilan hal qilib kelgan bo'lsada, mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o'sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lov larning yig'iluvchanligi zaruriy darajasini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar borligini ko'rsatdi. Mayjud tizimli muammolarni bartaraf etish, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatichiligini

takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'naliishlari belgilab olindi. Shulardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi investitsiyaviy jozibadorligi va davlat budgetining daromad qismi muntazam o'sishini rag'batlantiruvchi zamonaviy soliq tizimini yaratilishiga sabab bo'ldi. Bu esa O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keldi.

2018 yilgacha bo'lgan davrda mamlakatimiz soliq tizimining rivojlanishi taniqli iqtisodchi olimlarimiz tomonidan uch bochqichga bo'lib o'r ganilgan<sup>9</sup>. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi milliy soliq tizimining rivojlanishida evolyutsion tusga ega bo'lgan to'rtta asosiy bosqichni ajratib ko'rsatsa bo'ladi<sup>10</sup>.

**Birinchi bosqich (1991-1995 yillar) - soliq tizimining shakllanishi bosqichidir.** Soliq tizimi murakkab iqtisodiy sharoitlarda shakllandidi: xo'jalik aloqalaridagi uzilishlar, resurslar markazlashtirilgan tarzda taqsimlanadigan bir sharoitda bozor munosabatlariga o'tish, inflyatsiyaning yuqori darajasi. Bularning barchasi xo'jalik faoliyatining natijalarida, pirovard oqibatda esa budgetga tushumlarda o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

Iqtisodiy vaziyat quyidagi vazifalarni zudlik bilan hal etishni soliq tizimining oldiga ko'ndalang qo'ygandi:

1) budgetning kamomadi kuchaygan, inflyatsiya ildamlab borayotgan, ishlab chiqarish hajmlari pasayayotgan va zarar ko'rib ishlayotgan

<sup>9</sup> Jo'rayev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Norma. 2009. -183-b.

<sup>10</sup> To'lakov U.T. (2019). O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi rivojlanishning yangi bosqichida. *Servis ilmiy-amaliy jurnal*, 1(3), 142-145.

korxonalar soni ortib borayotgan bir sharoitda budjetga tushumlarni ta'minlash. Shakllanib borayotgan soliq tizimining tor soliq bazasi sharoitida mazkur vazifani faqatgina xo'jalik yurituvchi sub'ektlar zimmasiga ko'proq soliq yukini solish hisobidan hal etsa bo'lar edi. Soliq stavkalari nihoyatda yuqori bo'lgan. 1990 yillarning boshida daromad (foyda) solig'i eng yuqori stavkada - 38 foiz, JShDS - 40-50 foiz, QQS - 30 foiz, ish haqi fondiga - 40 foiz bo'lgan. Natijada soliq undiruvlari ulushi YalIMning 40 foiziga yetgan;

2) moliyaviy mablag'larni ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, strategik zaxiralar bilan o'zini o'zi ta'minlashga erishish, tub tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish hisobidan qayta taqsimlash. Buning uchun QQS, foyda solig'i, aksizlar, mol-mulk va yer solig'i singari odatiy soliq turlarining o'zidangina foydalanilgani yo'q. Soliq tizimi noan'anaviy soliq turlari - xom ashyo resurslarini olib chiqishga soliq, korxonalar daromadidan soliq, amortizatsiyadan ajratmalar va boshqalardan ham foydalandi;

3) narx-navo ko'tarilishi va ishlab chiqarishning pasayishi sharoitida tur mush tarzi va ijtimoiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash. 1991-1995 yillarda o'qituvchilar, shifokorlar va boshqa budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdorlarini ko'tarish to'g'risida 19 marta qarorlar qabul qilingan. Buning uchun esa o'sib borayotgan summalarda soliqlarni yig'ishga to'g'ri kelgan.

Shuning uchun soliq tizimi shakllanishining mazkur bosqichi soliqlarning xazinaviy ahamiyatini oshirishi bilan xarakterlanib, budjetga tushumlarni ta'minlash (fiskal vazifa), iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlash (qayta taqsimlash vazifasi) uning asosiy vazifalariga aylangan.

Soliqlarning boshqaruvchi vazifasi ko'proq iqtisodiyotni rag'batlantirish uchun emas, balki mehnatga haq to'lash fondini nazorat qilish orqali inflyatsiya darajasini ushlab turish, xom ashyo zahiralarining arzon narxlarda chetga chiqib ketishining oldini olish, inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun qo'llanilgan.

Tadbirkorlikka erkinlik berish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish jarayonlari sharoitida soliq tizimiga nisbatan muayyan talablar qo'yildi. Soliq to'lovchilar soni keskin tarzda ko'paydi. Yuridik shaxslar - 28,3 mingdan 113,7 mingtaga, yakka tartibdag'i tadbirkorlar - 49,4 mingdan 217,6 ming nafargacha oshdi. Huquqiy savodxonlik darajasi uncha yuqori bo'Imagan va soliqlardan bo'yin tov lash holatlari avj olgan bir sharoitda soliqlarni to'liq va o'z vaqtida to'lashni ta'minlashning birdan-bir ishonchli dastagi yalpi soliq nazorati bo'ldi. Soliq organlari oldiga barcha korxonalarni har yili tekshirish vazifasi qo'yilgan edi. Masalan, 1992 yilda deyarli 42 mingta soliq to'lovchi - yuridik shaxs tekshiruvdan o'tkazildi. 1993 yilga kelib esa soliq organlari 60 mingta soliq to'lovchini «g'alvirdan o'tkazishga» ulgurishdi.

Soliq solish ob'ektlari ham o'zgardi. Masalan, davlat korxonalari mehnatga haq to'lash shakl va miqdorlarini mustaqil belgilash huquqiga ega bo'ldilar. Natijada mehnat haqi keskin ko'tarila boshladi, foyda esa soliq solish ob'ekti sifatida keskin kamayib bordi yoki umuman yo'q bo'ldi. Davlatning munosabati ham shunga mos bo'ldi - foyda solig'inining o'rniغا daromad solig'i joriy etildi (foyda + mehnatga haq to'lash fondi).

Mazkur davrda soliq tizimining oldiga qo'yiladigan ba'zi an'anaviy talablarga - o'zgarishlarning bosqichma-bosqichligi, barqarorlik va soliq to'lovchilar uchun oddiy va tushunarli bo'lishlikka rioya qilish qiyin kechdi.

Hayotning o‘zi soliqchi va soliq to‘lovchilarning ortiqcha taraddud-tayyorgarligisiz, o‘qib-o‘rganishisiz yangi soliqlarni zudlik bilan joriy etishni taqozo etardi. Masalan, bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda uning moslashuviga 3 yildan 7 yilgacha muddat talab qilinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i O‘zbekistonda bir necha oy oralig‘ida joriy etilgan edi. Qisqa muddatlar ichida soliq tizimiga boshqa o‘zgartirishlar ham kiritib borildi. Bu yo‘nalishda uchraydigan qiyinchiliklarni soliq organi xodimlarining ham, soliq to‘lovchilarning ham yengib o‘tishiga to‘g‘ri keldi.

90-yillar boshida asosan qonunosti hujjatlar - yo‘riqnomalar, nizomlar, tartiblar, ba’zan Vazirlar Mahkamasi hujjatlari dastak sifatida qo’llandi. Soliq to‘lovchining huquqlari to‘g‘risida hech kim o‘ylab ham o‘tirmadi. Soliq organlari va soliq to‘lovchilarning tayyorgarligi quyi darajada qolaverdi.

Yuzaga kelayotgan iqtisodiy vaziyatga tezkor munosabat bildira borib, davlatimiz soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga tezkorlikda o‘zgartirishlar kiritib bordi. Masalan, 1991-1995 yillarda «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi Qonunga 18 marta tuzatish kiritilgan. Qonunlar bilan birga hukumatning ko‘plab qarorlari, shuningdek yo‘riqnomalar, nizomlar (50 dan ortiq), vazirlik va idoralarning xatlari qabul qilindi.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidagi dolzarb masalalarning muvaffaqiyat bilan hal etilishi, ishlab chiqarishni barqarorlashtirishni ta’minlash, inflyatsiyani cheklash 1996 yildan boshlab soliq tizimi rivojlanishining yangi pog‘onasiga ko‘tarilishga imkon yaratdi.

**Ikkinchi bosqich (1996-2005 yillar) - soliq tizimining bozor munosabatlariga moslashtirilishi.** Hukumat tomonidan xususiy biznesni

erkinlashtirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha siyosatning olib borilishi iqtisodiyotning o'sishiga, soliq to'lovchilar sonining ortishiga va soliq solish bazasining kengayishiga yordam berdi. Birinchi bosqichdan farqli o'laroq, davlatimiz soliq solishning fiskal va qayta taqsimlash vazifalari bilan bir qatorda uning rag'batlantiruvchi funksiyasini ham faol tarzda ishga soldi.

Mamlakatimiz hukumati undiruvning yuqori darajasi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va xodimlarning qonuniy faoliyat ko'rsatishini rag'batlantirmasligini hisobga olgan holda, soliq yukini bosqichma-bosqich tushirib borish yo'lini tanladi. Mazkur davrda QQS stavkasi (30 foizdan 20 foizga), foyda solig'i (37 foizdan 15 foizga), savdo korxonalarining yalpi daromadidan soliq (50 foizdan 20 foizga), JShDS (50 foizdan 29 foizga), ijtimoiy jamg'armalarga to'lovlar (40 foizdan 25 foizga) tushirildi.

Bu bosqichni soliq tizimida soliqlarni ixchamlashtirish konsepsiyanining boshlanish davri deb atash mumkin. Kichik biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor berildi. Uning uchun 8-10 ta soliq turini bittaga almashtiruvchi soliq solishning soddalashtirilgan tizimlari joriy etildi. 1998 yildan boshlab uni qishloq xo'jaligidan tashqari iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi kichik korxonalar to'lashmoqda. 1999 yildan boshlab qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari yagona yer solig'i to'lovchilariga aylanishdi. Oqibatda 2006 yilga kelib, soliqlarning YalMdagi ulushi 1990 yillar boshidagi 40 foizdan 23 foizga tushdi.

Soliq tizimi o'z rivojlanishining ikkinchi bosqichida ancha barqarorlashdi. Bozor iqtisodiyoti tamoyillariga javob bermaydigan soliq va to'lovlar bu tizimdan chiqarib tashlanmoqda, ilg'or mamlakatlarning tajribasi kengroq qo'llanila boshlandi. Daromad solig'i o'rnilga o'z

mablag'larini yangi texnologiyalar va ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirayotgan korxonalar uchun imtiyozlarni nazarda tutuvchi foyda solig'i joriy etildi. Bir nechta daromad manbaiga ega bo'lган fuqarolardan JShDSni hisoblash va to'lashning deklaratsiyalanadigan shakllari joriy etilishi boshlandi. Davlat budjeti daromadlarining tarkibi ijobjiy tarzda o'zgardi - to'g'ridan-to'g'ri va resurs soliqlarining ulushi ortib bordi.

Maskur bosqich 1998 yilda birinchi Soliq kodeksi va «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Oonunning qabul qilinishi bilan bog'liq. Ushbu bosqichda soliq tizimini bir tizimga solishga ilk urinish bo'ldi, biroq ushbu qonunlar to'g'ridan-to'g'ri amal qilmas - qonunosti hujjatlar ustunlik qilar edi.

Soliq boshqaruvida to'plangan tajriba 1998 yildan boshlab soliq solish sohasidagi bir nechta qonun hujjatlaridan bitta - Soliq kodeksiga o'tishga imkon berdi. Soliq organlari ishida to'plangan tajribani aks ettirib, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarning soliq solish dastaklarini o'zida mujassam etib, Kodeks O'zbekiston soliq qonunchiligi va soliq solish tizimini xalqaro darajaga yaqinlashtirdi. Bu hujjatning qabul qilinishi faoliyat tarmoqlari, miqyoslari va turlarining xususiyatini hisobga olgan holda soliq solishning bir nechta tizimlarini shakllantirishga, ularning rag'batlantiruvchi vazifasini kuchaytirishga, soliqlarning rolini oshirishga va ularni bixillashtirishga imkon yaratdi.

Iqtisodiy islohotlarning rivojlanishiga qarab, soliq organlari ishining shakl va uslublari ham o'zgardi, ular faoliyatiga yangicha talablar qo'yildi. Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tekshirishni tartibga solish bilan birga olib borildi. 1990 yillarning boshida barcha korxonalarni to'liq yillik hujjatli tekshiruvdan o'tkazishga erishish

vazifasi qo‘yilgan edi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ko‘payib borishi, soliq qonunchiligining soddalashtirilishi va tizimlashtirilishi, huquqiy savodxonlikning oshib borishiga qarab, to‘liq nazoratni o‘tkazishga zarurat o‘z ahamiyatini yo‘qotib bordi. 1996 yildan boshlab mamlakatimiz rahbariyati tadbirkorlik tuzilmalarini tekshirishni tartibga solish yo‘lidan bora boshladi<sup>11</sup>. Davlat nazorati to‘g‘risida maxsus qonun hujjati qabul qilindi<sup>12</sup>. Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi tashkil etildi va rejali tekshirishlarni o‘tkazish jadvali joriy etildi<sup>13</sup>. Tekshiruvlar soni qisqardi (1990 yillarning boshlaridagiga nisbatan 2-3 baravarga), ular samaradorligi esa oshib bordi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va soliq yukini kamaytirib borish jarayonlarining tobora avj olib borayotgan pallasida soliqlarning yig‘iluvchanligi birgina tekshiruvlar va soliq to‘lovchilarni to‘laroq qamrab olish hisobiga amalga oshirilayotgani yo‘q. Profilaktika ishlari, xronometraj va monitoringlarni o‘tkazish, tushuntirish ishlarini olib borish - zimmaga qo‘yilgan vazifalarni uddalashda soliq organlari mana shu dastaklardan faol foydalandi.

**Uchinchi bosqich (2006-2017 yillar) - bozor islohotlari va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq tizimini takomillashtirish.** Ushbu bosqichda iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 8 avgustdag‘i “Tekshirishlarni tartibga solish va nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1503-sonli farmoni.

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrdagi “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida” 717-1-slon Qonuni.

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 1998 yil 19 noyabrdagi “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish to‘g‘risida”gi 2114-sonli farmoni.

hamda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ta'minlovchi bozor islohotlari soliq tizimini rivojlantirishga asos bo'ldi.

Soliq boshqaruvi sohasida hosil bo'lgan tajribaga asoslangan hamda mavjud bozor munosabatlarini hisobga olgan holda 2008 yilda yangi tahrirdagi Soliq kodeksi ishlab chiqildi va amalga kiritildi. Kodeksning 1998 yildan beri amal qilayotgan eski tahriri uning normalariga aniqlik kiritadigan qonunosti hujjatlariga muhtoj edi. 2007 yilga kelib ularning soni 150 tadan oshib ketdi, bu soliq qonunchiligi anglanishini murakkablashtirib, ichki jihatdan ziddiyatli qilib qo'ydi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi hujjat deb e'lon qilingan bo'lsada, biroq amaldagi ma'muriy tizim ilgarigidek qonunosti hujjatlardan foydalanish istagidan voz kecha olmadi.

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, tarkibiy islohotlar, kichik va xususiy biznes rolining oshishi - bularning bari mamlakatimizning «soliq konstitutsiyası» uzlaksiz takomillashtirilishini talab etardi. 2008-2017 yillar davomida Soliq kodeksiga 41 marta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ular quyidagilarga yo'naltirilgan:

ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish, resurslardan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanishni ta'minlash;

samarasiz soliqlardan (ekologiya solig'i, atrof muhitni ifoslantirganlik uchun to'lovlar) voz kechish orqali soliq tizimini soddalashtirish hamda majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish qoidalari va to'lash tartibini maksimal darajada birlashtirish;

o'xshash daromadlarga soliq solishning yagona tartibini belgilash;

birgina soliq bazasiga ega bo‘lgan soliqlar va majburiy to‘lovlar sonini qisqartirish;

soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlarni ularning soliq bazasini kengaytirish uchun stavkalarni pasaytirish imkoniyatini ta‘minlash maqsadida bixillashtirish, qayta ko‘rib chiqish va qisqartirish.

Uchinchi bosqichda soliq tizimini takomillashtirishning asosiy sub’ekti kichik biznes hisoblanadi. Soliq qonunchiligiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘srimchalarning aksariyati mikrofirma va kichik korxonalarga soliq solish tizimini soddallashtirishga, ularning soliq yukini kamaytirishga, rivojlanish yo‘lidagi to‘sirlarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan edi.

Yagona soliq va budjetdan tashqari jamg‘armalarga majburiy ajratmalarni to‘lash o‘rniga mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to‘lovini to‘lay boshladilar. Bunda YaST stavkasi 13 foizdan 5 foizgacha kamaydi, bu esa real soliq yuki 2,6 baravar pasayganini bildiradi.

Pensiya jamg‘armasi, Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi va O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashiga to‘lovlar yagona ijtimoiy to‘lovga birlashtirildi. Kichik biznes sub’ektlari uchun uning stavkasi 25 foizdan 15 foizga pasaytirildi.

YaST va YaITni eng kam normativlarni hisobga olgan holda to‘lash tartibi joriy etildi, bu esa budjet yo‘qotishlari ko‘payishi xatarisiz hujjalli tekshiruvlarni ancha qisqartirish imkonini berdi.

Dividendlardan soliq stavkasi 15 foizdan 10 foizga pasaytirildi, 2010-2013 yillarda esa mikro va kichik korxonalarni tashkil etuvchilar uchun u nolga tenglashtirildi.

Yirik korxonalarning ham soliq yuki yengillashtirildi. Foyda solig'i stavkasi 12 foizdan (2006 y.) 7,5 foizgacha (2016 y.) pasaytirildi. Joriy to'lovlar miqdori chorakda 6 tadan 3 taga tushirildi. YaST stavkasi 25 foizgacha pasaytirildi. QQS (so'nggi 20 yil mobaynida 20 foiz darajasida saqlagan holda) va aksiz solig'i bo'yicha joriy to'lovlar bekor qilingan. Avvallari korxonalar bu to'lovlarni oyiga 3 martadan to'lashgan, hozir esa - oy yakunlari bo'yicha 1 marta to'lashadi.

Mikrofirma va kichik korxonalar uchun YaST to'lash davriyligi har oylik muddatdan har choraklik muddatgacha kamaytirildi.

O'z ishlab chiqarish bazasini muntazam modernizatsiyalovchi, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlovchi korxonalar uchun soliq imtiyozlari va preferensiyalarining samarali tizimi yaratildi.

Moliyaviy, soliq va boshqa hisobotlar soni bir-birini takrorlovchi shakllarini bekor qilish, birlashtirish, shuningdek ularni taqdim etish davriyligini birlashtirish hisobiga bir necha baravar qisqartirildi. Hisobot elektron shaklda topshirila boshlangani sababli soliq inspeksiyalariga borish zarurati qolmadи.

Insofli soliq to'lovchilar xo'jalik faoliyatiga asossiz aralashuvlardan ko'proq himoyalana boshlandi. Mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining faoliyati 4 yilda ko'pi bilan bir marta rejali tartibda tekshiriladi. 2014 yildan boshlab soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini o'z vaqtida to'lovchi, shuningdek barqaror o'sish sur'atlari va ishlab chiqarish rentabelligini ta'minlovchi kichik biznes sub'ektlarida soliq tekshiruvlari o'tkazish taqiqlandi.

Umuman olganda, soliq to'lovchilarini rejali hujjatli tekshirishlar soni minimumga keltirildi. Ularning soni 10 yil ichida 3 baravar kamaydi,

so‘nggi yillarda yiliga 5-5,5 mingtadan oshmayapti, bu esa faoliyal yurituvchi yuridik shaxslarning qariyb 2 foizini tashkil etadi. Kameral tekshiruvlar (korxonaga chiqmasdan), monitoring va xronometrajga katta e’tibor berilmoqda.

Soliq sohasidagi huquqbazarliklar uchun tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy va jinoiy javobgarligi liberallashtirildi. Ular birinchi marta sodir etilgan, qasddan qilinmagan va kam ahamiyatli bo‘lganda, budget va davlat maqsadli jamg‘armalariga zarar keltirilmaganda mansabdar shaxslar moliyaviy sanksiyalar qo‘llanmagan holda faqat ma’muriy javobgarlikka tortiladilar. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni ixtiyoriy ravishda to‘laganda ham biznes tuzilmalari ulardan ozod etiladi. Boshqa hollarda moliyaviy sanksiyalar, tadbirkor ularga rozi bo‘lmagan taqdirda, faqat ularning qonuniyligi va asosliligini tasdiqlovchi sud organining hal qiluv qarori asosida undiriladi.

Soliq tizimining takomillashtirilishi uni iqtisodiyotni modernizatsiyalash, tarkibiy islohotlarni amalga oshirish va aholi bandligini oshirishning samarali dastagiga aylantirish imkonini berdi. So‘nggi 10 yil ichida biznesga tushadigan soliq yuki 21 foizgacha pasaydi. Kichik tadbirkorlikning YaIM umumiy hajmidagi ulushi 2000 yildagi 31 foizdan 56 foizgacha, ya’ni 1,8 baravar o’sdi. Soliq stavkalari ancha pasayganiga qaramay, budget daromadlarini shakllantirishda uning ulushi ikki barobardan ortiq hajmda (2,9 foizdan 6,6 foizgacha) oshdi.

Bunda soliq tizimi o‘zining asosiy vazifasi - budgetning daromad qismini to‘ldirish vazifasini ham samarali amalga oshirib kelmoqda. Chunonchi, 2006 yildan boshlab mamlakatimiz Prezidenti tomonidan turmush darajasini oshirish maqsadida 21 marotaba eng kam ish haqi

miqdorini oshirish haqida qarorlar qabul qilindi, o'qituvchilar, shifokorlar va boshqa budjetdan ta'minlanuvchilarning mehnat haqi, pensiyalar, nafaqalar va boshqa to'lovlar unga bog'langan. Soliq tizimi uzlucksiz ishlashi tufayli buning uchun Davlat budgetida mablag'lar yetarli bo'lgan.

2014-yilda milliy dasturiy mahsulot ishlab chiqaruvchi guruh tomonidan «EREPORT» soliq hisobotlari bilan ishslash, hisobotni o'zi istagan joydan yuborish, vaqtini tejash imkonini beruvchi dastur taqdim etildi.

Milliy soliq tizimini takomillashtirish natijalari Xalqaro moliyaviy korporatsiya uslubiyati bo'yicha o'tkaziladigan yillik tadqiqotlar doirasida ham aks ettirilgan. 2006-2016 yillarda O'zbekistonning biznes yuritish (Doing Business) bo'yicha umumiy xalqaro reytingi 51 pozitsiyaga o'sdi, soliq sharoiti bo'yicha - 64 pozitsiyaga o'sdi.

Xususan, so'nggi 5 yil davomida Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingi 2 baravardan ortiq yaxshilanib, mamlakatimiz jahoning 190 ta mamlakati orasida 2012 yildagi 166-o'rindan 2017 yilda 74-o'ringa ko'tarildi. Bundan tashqari, so'nggi hisobotda mamlakatimiz biznes yuritish uchun eng qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish ko'rsatkichi bo'yicha islohotchi mamlakatlarning birinchi o'ntaligidan joy oldi.

Mamlakatimiz soliq tizimi tajribasining ko'rsatishicha, u:

iqtisodiyotdagи tub islohotlar talablariga javob beradi va soliq yukini kamaytirish sharoitida mustaqil davlat rivoji uchun davlat budgeti daromadlari, moliyaviy resurslar o'sishini ta'minlaydi;

kichik va xususiy biznes rivojlanishi yo‘lidagi, soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan munosabatlarini tartibga solish borasidagi muammolarni bartaraf etadi;

tobora pragmatik, ochiq-oydin va izchil bo‘lib bormoqda;

iqtisodiy o‘sish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar sonining oshishi va ularning daromadlari ko‘payishiga imkon yaratmoqda, soliq bazasini kengaytirmoqda.

**To‘rtinchi bosqich (2018 yildan bugungi kunga qadar) - xalqaro norma va standartlar talablari asosida soliq tizimini yanada takomillashtirish** bosqichi bo‘lib, u soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish, iqtisodiyotni tezkor rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilash bilan xarakterlanadi<sup>14</sup>.

2018 yil 1 yanvardan soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari belgilangan bo‘lib, unda soliq ma’muriyatchiligining yangi mexanizmlari joriy etila boshlandi<sup>15</sup>. Ayni paytda soliq to‘lovchilarining huquqlari tizimga solina boshladi. Bugungi kunda soliq tizimi oldiga zamonaviy talablarga muvofiq keluvchi yangi vazifalar qo‘yilgan<sup>16</sup>.

---

<sup>14</sup> Tulakov U.T., & Boypulatov A. (2019). The new preliminary development of the tax system of the republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences, 8(5), 98-105.

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017 yil 18 iyuldagи “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5116сонли farmoni

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018 yil 13 fevraldagи “Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5214сонли far moyishi

Ta'kidlash joizki, Prezidentimiz tomonidan «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida»gi farmonning imzolanishi mamlakatda soliq islohotlarining yangi bosqichini boshlab berdi va mamlakatimizda soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilab olindi<sup>17</sup>:

iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

soliqlarni unifikatsiya qilish yo'li bilan ularni maqbullashtirish, o'xshash soliq solish bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish.

makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti va uning daromadlarini mustahkam shakllantirishni ta'minlash;

soliq qonunchilagini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarning huquq va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish;

soliq solish masalalarini tartibga soladigan havola qiluvchi normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda soliq qonunchiligining barqarorligini hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq

---

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyuldaggi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida" gi 5468-soni farmoni

kodeksi normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishini ta’minlash, shu jumladan, kodeksda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar stavkalari miqdorlarini belgilash;

xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;

soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan, soliq solish ob‘ektlari hamda soliq to‘lovchilarni yanada to‘liq qamrab olish va hisobini ta’minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog‘liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish.

O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi doirasida 2019 yil 1 yanvardan boshlab<sup>18</sup>:

a) birinchidan, mehnatga haq to‘lash fondiga soliq yuki quyidagilar orqali kamaytirildi:

barcha fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining yagona stavkasini 12 foiz miqdorida joriy etilib, shundan 0,1 foizi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga yo‘naltirila boshlandi. Bunda, fuqarolarning ayrim toifalari uchun eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdoridagi daromadlarini soliq solishdan ozod qilishning amaldagi tartibi saqlab qolinadi. Shu bilan birga fuqarolarning mehnatga haq to‘lash turidagi daromadlaridan budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ushlab qolinadigan sug‘urta badallari bekor qilindi.

---

<sup>18</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognози va Davlat budgeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga budget mo‘ljallari to‘g‘risida”gi 4086-sonli qarori

Soliq siyosatidagi o‘zgarishlarga ko‘ra, endi vaziyat tubdan o‘zgardi: soliq yuki keskin kamaytirilib, sodda, shaffof, muhim, ish beruvchi uchun ham, ishlovchi uchun ham birdek adolatli stavka belgilandi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkasining jahon bo‘yicha o‘rtacha darajasi 20 foizga teng. Daromad solig‘ining bunday soddalashtirilgan tartibi iqtisodiyoti rivojlanayotgan, keng qamrovli islohotlar olib borilayotgan bizning kabi davlatlar uchun yeng maqbul variantdir. Birgina misol, 2001 yili Rossiya soliq tizimining progressiv shkala tartibidan soddalashtirilgan daromad solig‘i tartibiga o‘tishi bir yildayoq katta muvaffaqiyat keltirdi va mehnat fondidan olinadigan soliq bazasini 50 foizga oshirdi.

Shuningdek pensiya tizimining barqarorligini ta’minlash maqsadida, budjet tashkilotlari va davlat korxonalari, ustav jamg‘armasi (kapital)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko‘proq bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek, boshqa yuridik shaxsning ustav jamg‘armasi (kapital)ning 50 foizi va undan ko‘proq qismi tegishli bo‘lgan ustav jamg‘armasi (kapital)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko‘proq bo‘lgan yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari uchun yagona ijtimoiy to‘lov miqdori 25 foiz etib, qolgan yuridik shaxslar uchun 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirilgan stavkada belgilandi.

Xususan, yagona ijtimoiy to‘lov stavkasining 12 foizgacha pasaytirilishi hamda yuridik shaxslarning aylanmasi (tushumi)dan davlat maqsadli jamg‘armalariga undiriladigan majburiy ajratmalarning bekor qilinishi korxonalar xitiyorida qo‘srimcha mablag‘lar qolishi uchun shart-sharoit yaratdi.

b) ikkinchidan, aylanmadan (yalpi tushumdan) soliqlarni optimallashtirish bilan umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliqlari to'lovchilarni soliqqa tortish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o'tish mezonlari quyidagilar orqali takomillashtirildi:

davlat maqsadli jamg'armalariga yuridik shaxslarning aylanmasidan (yalpi tushumidan) undiriladigan majburiy ajratmalar bekor qilindi.

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasini 14 foizdan 12 foizgacha, tijorat banklari uchun 22 foizdan 20 foizgacha pasaytirish. shuningdek, mobil aloqa xizmati ko'rsatayotgan yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) uchun, rentabellik darajasidan kelib chiqib ular uchun qo'shimcha foyda solig'i hisoblash tartibini bekor qilgan holda 14 foizdan 20 foizgacha oshirildi;

dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlar bo'yicha to'lov manbaidan ushlab qolinadigan foyda solig'i stavkasini 10 foizdan 5 foizgacha pasaytirildi;

barcha tadbirkorlik sub'ektlari, shu jumladan, aylanmasi (yalpi tushumi) 1 milliard so'mgacha bo'lgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etildi;

qo'shimcha foyda solig'ini hisoblash va to'lash tartibini, shu jumladan, royalti to'lashni joriy etish orqali takomillashtirildi;

2018 yil 1 yanvardan Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartishlarga muvofiq yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bilan birlashtirildi, 2019 yil yanvardan esa benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan

soliq bekor qilindi. Bunda benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq aksiz solig‘i ob’ektiga kiritildi.

v) uchinchidan, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo‘yicha soliq to‘lovchilarga soliq siyosatini takomillashtirishning salbiy ta’sirini kamaytirish choralar quiqidagilar orqali amalga oshiriladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasini, bino va inshootlardan, shu jumladan, ilgari xususiylashtirilgan ob’ektlardan samarasiz foydalanayotgan yuridik shaxslar uchun yuqori stavkada soliq hisoblash tartibini saqlab qolgan holda 5 foizdan 2 foizga pasaytirildi;

yagona yer solig‘i to‘lovchilari uchun amaldagi soliq solish tartibini saqlab qolindi.

g) to‘rtinchidan, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) va aksiz solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi quiqidagilar orqali takomillashtirildi:

qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘liq hisobga olish tizimini joriy qilish, soliq solish bazasini aniqlashtirish va imtiyozlar sonini kamaytirish, shuningdek, 2019 yil yakuni bo‘yicha mazkur soliq stavkasi 15 foiz miqdordagi pasaytirildi.

Soliq tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish va O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish maqsadida soliq ma’muriyatichilagini takomillashtirish strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» belgilab olindi<sup>19</sup>.

Strategianing asosiy yo‘nalishlari natijasida:

---

<sup>19</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldaggi “Soliq ma’muriyatichilagini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4389-son qarori

soliq siyosatini takomillashtirish va iqtisodiyotda xufiyona aylanma darajasini qisqartirish. Soliq va soliq rejimlarini birxillashtirish, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, soliq yukini optimallashtirish (kamaytirish va baravarlashtirish) nazarda tutilmoqda. 2021 yilga kelib JShDS to'lovchilar 1,5 baravar, QQS, resurs soliqlari va mol-mulk solig'i to'lovchilar esa 2 baravar ko'paytiriladi;

xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan soliq xizmatlarini rivojlantirish. Mazkur yo'nalishga birlamchi hisob hujjatlarini raqamlashtirish va birxillashtirish, soliq hisobotlari shakllarini soddalashtirish, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishning eksterritorial prinsipini va soliq nizolarini sudgacha hal qilish tizimini rivojlantirish kirftildi;

soliq tavakkalchiliklarini baholash tizimini joriy qilish va soliq hisobini takomillashtirish. Xususan, soliq majburiyatini ixtiyoriy bajarish darajasini 90%ga yetkazish rejalashtirilmoqda;

davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish. Soliq organlarida biznes-tahlil (Business Intellegence) tizimi, strategik va protsessual boshqaruv joriy etiladi. Soliq ma'muriyatichiligi jarayoni avtomatlashtiriladi;

davlat soliq xizmati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini rivojlantirish. Bu nuqtai nazardan normativ-huquqiy baza, kadrlar siyosati qayta ko'rib chiqiladi. Soliqchilar yanada ochiq-oshkora ish olib boradilar.

Rejalashtirilgan tadbirlar amalga oshirilishi natijasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar sur'ati o'sishiga, mamlakatning xalqaro reytinglardagi pozitsiyalarini yaxshilashga erishiladi. Soliqlarning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari bo'yicha YaIM, tushum, qo'shilgan

qiymatga nisbatan ulushi o‘zgaradi. Mahalliy va xorijiy investorlar o‘rtasidagi soliq imtiyozlari va preferensiyalar nomutanosibligi bartaraf etiladi. Asosiysi, soliq tekshiruvlari soni qisqaradi, nazorat tadbirlari natijasida qo‘shimcha hisoblangan soliqlar miqdori pasayadi.

Soliq qonunchiligidagi islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad, soliq yuki darajasini kamaytirish, soliq qonunchiligini soddalashtirish va sog‘lom raqobatni ta’minlash bo‘ldi.

Jahon bankinging e’lon qilingan yillik «Doing Business 2020» xalqaro reytingida, 2019 yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston 190 mamlakat orasida 69,9 ball to‘plib, 69-o‘rinni egalladi. O‘tgan yili xuddi shu reytingda 76-o‘ringa loyiq topilgan mamlakatimiz bir yil ichida 7 pog‘onaga yuqorilagani yuksak natija, albatta.

Prezidentimiz mamlakatning Jahon banki ma’ruzasida egallagan pozitsiyasiga alohida e’tibor qaratdi. Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» hisobotida O‘zbekiston Respublikasining ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» tasdiqlangan bo‘lib, unga ko‘ra O‘zbekistonning istiqboldagi rejasi 2022 yilgacha – 40-o‘ringa chiqish<sup>20</sup>.

### **1.7. Soliqlarni guruhashning o‘ziga xos xususiyatlari.**

Bugungi kunga kelib sohaga doir ko‘plib islohotlar amalga oshirilayotgani O‘zbekistonda soliq tizimini xalqaro norma va standartlar talablari asosida yanada takomillashtirish, milliy iqtisodiyotimizni yanada rivojlanishiga, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashga

---

<sup>20</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018 yil 13 iyuldagisi “Jahon banki va xalqaro moliya korporatsiyasining “biznes yuritish” yillik hisobotida O‘zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3852-sonli qarori

va jahon reytinglaridan munosib o‘rin olishiga katta hissa qo‘shdi. Amaldagi Soliq kodeksiga ko‘ra, soliq turlari 13 tadan 9 tagacha qisqartirildi.

O‘zbekiston Respublikasi soliqlar tizimi umum davlat soliqlari hamda mahalliy soliqlardan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar belgilanadi<sup>21</sup>:

- 1) qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- 2) aksiz solig‘i;
- 3) foyda solig‘i;
- 4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- 5) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig‘i;
- 8) yer solig‘i;
- 9) ijtimoiy soliq.

O‘zbekiston Respublikasi hududida yig‘imlar belgilanishi mumkin. Yig‘imlarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi Soliq kodeksida hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilanadi.

Avtotransport yig‘imini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi ushbu Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi.

Soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi maxsus soliq rejimlari belgilanadi:

- 1) aylanmadan olinadigan soliq;

---

<sup>21</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrdagi 599-son Qonuni

2) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi;

3) maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi qonun hujjatlarida yoki investitsiya bitimlarida nazarda tutilgan investitsiyalarni amalga oshirish hamda boshqa shartlarni bajarish bilan bog'liq holda muayyan muddat uchun belgilanadi.

Maxsus soliq rejimlari ayrim soliqlarni to'lashdan ozod etishni, pasaytirilgan soliq stavkalarini va boshqa soliq imtiyozlarini qo'llashni nazarda tutishi mumkin.

O'zbekiston soliq tizimida soliqlarni ob'yekti, iqtisodiy mohiyati budjetga tushishi va to'lovchilari nuqtai-nazari bo'yicha guruhlarga ajratib o'rGANISH mumkin.

Soliqlar soliq solish ob'yektiga qarab uch guruhga bo'linadi:

1)oborotdan olinadigan soliqlar;

2)daromaddan olinadigan soliqlar;

3)mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona boji, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va aylanmadan olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligidimiz bo'yicha ilgarigidek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki yuklab yuborilgan mahsulotlar qiymati bilan o'lchanadi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga foyda solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i kiradi.

Mol-mulk qiyamatidan olinadigan soliqlarga yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i, hamda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer soliqlarini kiritish mumkin.

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri (bilvosita), to'g'ri (bevosita) soliqlarga bo'linadi. To'g'ri soliqlarni to'g'ridan-to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy to'lovchisi ham haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. Bu soliqlar tarkibiga barcha daromaddan to'lanadigan soliqlar hamda mol-mulk va resurs soliqlari kiradi. Resurs soliglari tarkibiga yer qa'ridan foydalanganlik uchun va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar kiradi.

To'g'ri soliqlarda to'g'ridan-to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu soliqlarning stavkalari oshirilsa, korxonalarning moliyaviy imkoniyatlari kamaya boradi. Demak, bu guruh tarkibiga kiruvchi soliqlarning stavkalari iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog'liqdir.

Egri soliqlarning huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmat)ni yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Lekin, soliq og'irligi haqiqatan ham tovar (ish, xizmat)ni iste'mol qiluvchilar, ya'ni bevosita iste'molchilar zimmasiga tushadi. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga qo'shimcha ravishda qo'yiladi.

Egri soliqlarning ijobiy tomoni shundaki, ular respublikada ishlab chiqarilgan tovarlar respublikadan tashqariga chiqib ketishini chegaralaydi,

mamlakat ichida tovarlarning serob bo‘lishiga yordam beradi hamda infliyatsiya darajasini (muomaladagi ortiqcha pul massasini) birmuncha jilovlab turadi.

Egri soliqlar tarkibiga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i kiradi.

Shunki qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i iqtisodiy kon‘yukturaning o‘zgarishlariga bevosita bog‘liq bo‘lmagan barqaror daromad manbalari hisoblanadi va egri soliqlar bo‘yicha tushumlarning asosiy qismini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat budgeti ijtimoiy xarajatlari o‘sish tendensiyasiga ega ekanligi davlat budgeti daromadlari hajmini uzlucksiz oshirib borishni taqozo qiladi. Bu esa qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i kabi barqaror daromad manbalarini, budget daromadlarini uzlucksiz ta’minlashni taqozo qiladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, to‘g‘ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib, bir-biri bilan o‘zaro bog‘langandir. Yevropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Yevropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog‘i 40 foizdan yuqori bo‘lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkich 50 foizdan yuqori bo‘lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko‘rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi.<sup>22</sup>

Budgetga tushishiga qarab soliqlar umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo‘linadi.

Umumdavlat soliqlari va yig‘imlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

<sup>22</sup>Panskov V.P., Knyazev V.G. Nalogi i nalogoooblojeniye. -M.:MTSFER, 2003. -s.57-59.

- 1) foyda solig‘i;
- 2) jismoniy shaxslardan olimadigan daromad solig‘i;
- 3) qo’shilgan qiymat solig‘i;
- 4) aksiz solig‘i;
- 5) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) avtotransport yig‘imlari;

Umum davlat soliqlari har yili O’zbekiston Republikasining Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonuni asosida belgilangan normativlar bo‘yicha tegishli mahalliy budgetlar o‘rtasida taqsimlanadi.

2021 yil uchun quyidagi soliq turlari tumanlar va shaharlar budgetlariga to‘liq o’tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalilaniladigan ohaktosh mustasno.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budgetiga, viloyatlar viloyat budgetlariga va Toshkent shahri shahar budgetiga quyidagilar to‘liq o’tkaziladi:

yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan soliq;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va litsenziya bergenlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim tovarlarning chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig‘imlar;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona yig‘imlaridan tashqari);

avtotransport vositalarini xarid qilganlik uchun ularni ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o’tkazish chog‘ida avtotransport egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to‘lanadigan yig‘imlar;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat daromadiga o’tkaziladigan mol-mulk, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aktivlari bo‘yicha ajratmalar va dividendlar;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijara ga berish va xususiy lashtirishdan tushadigan daromadlar;

mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar tegishli ravishda 2019 yil 1 iyul holatiga ko‘ra

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisining respublika aholisidagi ulushiga muvofiq.

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgetiga, viloyatlar viloyat budgetlariga va Toshkent shahri shahar budgetiga quyidagi ulushlarda:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan to'lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'idan tashqari) Navoiy viloyatida 70 foiz, Toshkent viloyatida 34 foiz, Toshkent shahrida 5 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foiz;

foyda solig'idan tushumlarning (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'idan tashqari) Toshkent viloyatida 45 foiz, Toshkent shahrida 5 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foiz;

qo'shilgan qiymat solig'idan tushumlarning Qoraqalpog'iston Respublikasida 100 foizi o'tkaziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari:

tegishli darajadagi mahalliy budgetlarga ajratiladigan soliqlar va boshqa turdag'i daromadlar hamda budgetlararo transfertlarni taqsimlashga;

daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olinadigan mablag'larning bir qismini tumanlar va shaharlar budgetlariga hududlarni

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari:

ijaraga berilgan joyning yoki yakka tartibdag'i tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilayotgan joyning xususiyatlarini, shuningdek ko'rsatilayotgan xizmat turining mavsumiyligini hisobga olgan holda ijara to'lovi bo'yicha eng kam stavkalarga hamda yakka tartibdag'i tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqning qat'iy belgilangan miqdorlariga nisbatan qo'llaniladigan 0,7 dan 1,3 gacha pasayib boruvchi yoki o'sib boruvchi koeffitsiyentlarni kiritishga;

tumanlar va shaharlarning ommaviy dam olish va turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha ijara to'lovi bo'yicha eng kam stavkalarga hamda jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqning yakka tartibdag'i tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan miqdorlariga nisbatan qo'llaniladigan o'sib boruvchi koeffitsiyentlarni kiritishga haqli.

Agar qonun hujjatlarida mahalliy budgetlarga tushadigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo'lsa, bu turdag'i daromadlar Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgetiga, viloyatlar viloyat budgetlariga va Toshkent shahri shahar budgetiga o'tkaziladi.

Davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo'lgan jamiyatlar tomonidan 2020 yilning 1 iyuliga qadar 2019 yil yakunlari bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorda O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga tegishli ravishda ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlar hisoblanadi hamda

2021 yilning 1 sentyabridan kechiktirmasdan tegishli darajadagi budgetlarga o‘tkaziladi<sup>23</sup>.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lov larga quyidagilar kirdi:

1) mol-mulk solig‘i;

2) yer solig‘i;

3) ayrim turdagи tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im.

Rivojlangan davlatlar tajribalarini o‘rgangan holda, bir qator tadqiqotlarimizda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer va mol-mulk solig‘i o‘rniga yagona ko‘chmas mulk solig‘i joriy qilish kerakligi haqida takliflar berganmiz. Ushbu soliqning ijobiya hamiyati soliqlarni hisoblash va uni undirishni soddalashtirishda, shuningdek ushbu hududda joylashgan ob‘ektlarni yanada tizimli ravishda hisobga olishda namoyon bo‘ladi. Ko‘chmas mulkka soliq solish ish hajmini kamaytiradi va baholash xarajatlarini pasaytiradi, kadastr baholash tizimini yanada ko‘proq axborot bilan ta’minlaydi. Shuningdek, mahalliy budgetlar daromadlari o‘sishiga va barqarorligi ta’minlanishiga olib keladi. Chunki, soliq solishda yer va binolar yagona soliq majburiyatiga ega ob‘ektlar hisoblanadi<sup>24</sup>.

Umumdavlat soliqlari asosan respublika budgeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa, mahalliy soliqlar va yig‘imlar mahalliy budgetlar daromadlarini shakllantiradi.

To‘lovchilar nuqtai-nazaridan soliqlarni yuridik va jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlarga ajratishimiz mumkin.

---

<sup>23</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 25 dekabrdagi 657-sonli qonuni.

<sup>24</sup> Xudoyqulov S. K., To‘lakov U.T., (2020). O‘zbekistonda ko‘chmas mulkni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish. *Moliya va bank ishi ilmiy jurnali*, 1(6), 151-160.

## **1.8. Soliq tizimining huquqiy asoslari hamda soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlari.**

Soliq siyosati - bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir qismi bo‘lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to‘lovlarni amaliyotda ishslash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir. Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo‘nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o‘rtasidagi nisbatni ta’minalash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli kuchayib, o‘z oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalgga oshirishda soliq siyosati muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Soliq siyosati amalda davlat boshqaruvingin boshqa unsurlari: pul-kredit siyosati, baho siyosati kabilar bilan birgalikda mamlakatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga faol ta’sir etadi. Davlat soliq siyosati orqali iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiradi yoki cheklaydi. Soliq siyosatining asosiy vazifasi oxir-oqibat iqtisodiy o‘sishni ta’minalashga qaratilishi lozim.

Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar xususiyatini e’tiborga olib soliq siyosati: soliq siyosati strategiyasi soliq siyosati taktikasiga bo‘linadi.

Soliq siyosati strategiyasi - soliq siyosatining uzoq muddatli yo‘nalishi bo‘lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergen ulkan masshtabli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta’minalash ko‘zda tutilgan soliqqa doir moliyaviy tadbirlar yig‘indisidir.

Soliq siyosati taktikasi esa belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi sayi-harakatlarni bildirib, qisqa muddatli va kichik mashtabli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo'nalishlar majmuasi hisoblanadi.

Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1)mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va soliqsiz to'lovlarni qonuniy joriy etish;

2)amal qilayotgan soliqlarni samarali ishlashini ta'minlovchi mexanizmini shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;

3)soliq siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularni ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;

4)soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va ularni joriy etishni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarining huquqlari hamda majburiyatları, soliq ishlarini yuritish tartibi va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni<sup>25</sup> va shu kabi bevosita soliqqa oid qonun hujjatlari orqali tartibga solib turiladi.

O'zbekiston Respublikasida dastlabki Soliq kodeksi O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 24 apreldagi 396-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 24

<sup>25</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustdagি qaroriga asosan amalga kiritilgan.

apreldagi 397-I-sonli qarori bilan 1998 yil 1 yanvardan toki 2008 yil 1 yanvargacha amalda bo‘lgan. Umumiy va maxsus qism, XI bo‘lim, 41 bob, 135 moddadan iborat bo‘lgan.

Mamlakatimizda ikkinchi Soliq kodeksi O‘zbekiston Respublikasining 2007 yil 25 dekabrdagi 136-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan va 2008 yil 1 yanvardan e’tiboran amalga kiritilgan. Ushbu Kodeks umumiy va maxsus qism, XII bo‘lim, 64 bob, 392 moddadan iborat bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Soliq kodeksi O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrdagi 599-son Qonuni bilan tasdiqlangan va 2020 yil 1 yanvardan amalga kiritildi. Soliq kodeksining amaldagi tuzilmasi saqlab qolning holda uni umumiy qismga (soliq ma’muriyatichiligi masalalari) va maxsus qismga (soliqlarni hisoblash va to‘lashning asosiy qoidalari) bo‘linishini nazarda tutgan holda XXI bo‘lim, 71 bob, 480 moddani tashkil etadi.

Shuni aytish kerakki, istiqlol yillarida mustaqil mamlakatimizning soliq siyosatini belgilab beruvchi 39 ta qonun, davlatimiz rahbarining 44 ta Farmoni va 96 ta qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 233 ta qarori qabul qilindi. Ularning orasida bevosita davlat soliq xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan qabul qilingan 32 ta qonun hujjati ham mavjud. Bu, ta’kidlanganidek, tizimning puxta va ishonchli qonunchilik bazasini shakllantirish imkoniyatini yaratdi. Shunday qilib, chorak asr davomida O‘zbekistonda iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni samarali amalga oshirishga ko‘maklashuvchi to‘laqonli soliq tizimini yaratishga erishildi.

Soliq haqidagi qonun hujjatlarining boshqa qonunlar va qonun hujjatlaridan o‘rin olgan normalari Soliq kodeksiga muvofiq bo‘lishi lozim.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida Soliq kodeksidan boshqacha qoidalar belgilangan yoki nazarda tutilgan bo'lsa, unda xalqaro shartnoma qoidalarida belgilangan shartlar amalda qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli sub'ekti sifatida dunyodagi boshqa davlatlar bilan soliq solish sohasidagi o'zaro munosabatlarning shartnomaviy-huquqiy bazasini mustahkamlash siyosatini izchil olib bormoqda. 1993 yildan buyon Davlat soliq qo'mitasi tomonidan Rossiya, Germaniya, Italiya, Shveytsariya, Niderlandiya, Xitoy, Koreya Respublikasi, Sloveniya, Irlandiya, Ispaniya va boshqa qator davlatlar bilan ikkiyoqlama soliqqa tortishga yo'l qo'ymaslik hamda daromad va kapital soliqlarini to'lashdan bosh tortishning oldini elish to'g'risida 52 ta bitim imzolangani ana shu sa'y-harakatlar samarasidir.

Soliq solish - yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi.

Belgilanayotgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning yoki pul mablag'larining O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yishi yoxud soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyatini boshqacha tarzda cheklab qo'yishi yoki unga g'ov bo'lishi mumkin emas. Olingan manbalaridan qat'i nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi lozim, soliq imtiyozlarini belgilashda esa albatta ijtimoiy adolat prinsiplariga rioxaltilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasining pul birligi-so‘mda hisoblab chiqariladi.

Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga belgilangan soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

Amaldagi Soliq kodeksiga ko‘ra soliq to‘lovchilar quyidagi huquqlarga egadirlar:

soliq organlaridan va boshqa vakolatli organlardan (ularning vakolatlari doirasida) amaldagi soliqlar to‘g‘risida, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi o‘zgarishlar haqida, soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risida axborotni, soliq hisobotining va arizalarning shakllarini, shuningdek ularni to‘ldirish tartibi haqida tushuntirishlarni bepul olish;

o‘z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlarida va boshqa vakolatli organlarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni olish;

Soliq kodeksida belgilangan asoslar mavjud bo‘lganda va tartibda soliq imtiyozlaridan foydalanish yoxud ulardan foydalanishni rad etish;

soliqlar, penyalar va jarimalarning ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan summalarini o‘z vaqtida hisobga o‘tkazish yoki qaytarish;

Soliq kodeksida belgilangan tartibda va shartlarda soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash;

soliq solish ob‘ektlarini hisobga olishda, soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashda o‘zlari yo‘l qo‘ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;

Soliq kodeksiga muvofiq o‘z hududida o‘tkaziladigan sayyor soliq tekshiruvini va soliq auditini o‘tkazish chog‘ida hozir bo‘lish;

sayyor soliq tekshiruvi va soliq audit materiallari bilan tanishish, shuningdek ushbu tekshiruvlarning dalolatnomalarini olish;

soliq tekshiruvini amalga oshiruvchi soliq organlariga soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosiga taalluqli masalalar bo‘yicha tushuntirishlar berish;

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdar shaxslarining Soliq kodeksiga va (yoki) soliq to‘g‘risidagi boshqa qonun hujjatlariga muvofiq bo‘limgan talablarini bajarmaslik;

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning normativ tusga ega bo‘limgan hujjatlari hamda qarorlari, ular mansabdar shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdar shaxslarining noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda, soliq tekshiruvi materiallarini yoki soliq organlarining boshqa hujjatlarini ko‘rib chiqish jarayonida ishtirok etish;

soliq munosabatlari masalalariga oid o‘z manfaatlarini shaxsan yoxud soliq maslahatchilari tashkiloti yoki boshqa o‘z vakillari orqali ifodalash;

soliq siriga rioya etish va uni saqlash.

Soliq to‘lovchilar soliq Kodeksda va soliq to‘g‘risidagi boshqa qonun hujjatlarida belgilangan o‘zga huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Soliq to‘lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo‘lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek

vakilning ishtirok etishi soliq to‘lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi.

Soliq to‘lovchilarning huquqlari soliq organlari va boshqa vakolatli organlar mansabdor shaxslarining tegishli majburiyatlari bilan ta’milnadi.

Soliq to‘lovchilarning huquqlarini ta’millashga oid majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig‘imlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lash majburiyati ularning soliq majburiyatidir.

Soliq kodeksiga ko‘ra soliq to‘lovchilar quyidagi majburiyatlarga egadirlar:

belgilangan soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq hajmda hisoblab chiqarishi va to‘lashi;

hujjatlarni ko‘rib chiqish yoki tushuntirishlar berish zaruriyati to‘g‘risida chaqiruv xatini olganida soliq organiga kelishi;

tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda xaridorga hisobvaraq-fakturalarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlarni berishi;

soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslariga soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlar, shuningdek elektron manbalarda saqlanadigan tegishli axborot bilan tanishish imkoniyatini ta’milashi;

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonuniy talablarini bajarishi, ko'rsatilgan organlarning va ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi;

soliq hisobotlarining va soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to'lash uchun zarur bo'lган boshqa hujjatlarning tegishli soliqlarni to'lash uchun belgilangan kalendar yildan keyingi 5 yil mobaynida but saqlanishini ta'minlashi;

o'zi soliq bo'yicha hisobga olingan joydagi soliq organlarini O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslaridagi va chet el yuridik shaxslaridagi ishtiroki to'g'risida, agar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi 10 foizdan ortiq bo'lsa, xabardor etishi shart.

Yuridik shaxs bo'lган soliq to'lovchilar nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari, o'zлari hisobga olingan joydagi soliq organlariga o'zлarining barcha alohida bo'linmalari to'g'risida va alohida bo'linmalarga oid ilgari xabar qilingan ma'lumotlaridagi o'zgarishlar to'g'risida alohida bo'linma tashkil etilgan yoki mazkur ma'lumotlar o'zgartirilgan kundan e'tiboran bir oy ichida xabar qilishi shart.

Zimmasiga soliq hisobotini elektron shaklda taqdim etish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq organlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlardagi o'z vakolatlarini amalga oshirish chog'ida foydalilaniladigan hujjatlarning soliq organidan telekommunikatsiya aloqa tarmoqlari orqali elektron shaklda olinishini ta'minlashi kerak.

Soliq solish ob'ekti deb e'tirof etiladigan ko'chmas mulkka ega bo'lган chet el yuridik shaxslari nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari, ko'chmas mulk ob'ekti turgan joydagi soliq organiga ushbu chet el yuridik

shaxsining ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda va tartibda xabar qilishi shart. Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari ko‘rsatilgan holatlarda o‘z muassislari, benefitsiarlari va boshqaruvchilari haqidagi ma’lumotlarni xabar qilishi kerak. Chet el yuridik shaxsida (yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmasida) ushbu qismda ko‘rsatilgan bir nechta mol-mulk ob‘ekti mavjud bo‘lgan taqdirda, ushbu shaxs tanloviga ko‘ra, xabar mol-mulk ob‘ektlarining biri turgan yerdagи soliq organiga taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o‘tilishi munosabati bilan soliqlar to‘laydigan soliq to‘lovchilar zimmasida O‘zbekiston Respublikasining bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlar ham bo‘ladi.

Soliq to‘lovchilarning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish va budjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq agentlari deb e’tirof etiladi.

Soliq agentlari soliq to‘lovchilar kabi huquqlarga ega bo‘ladi.

Soliq agentlari:

soliqlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda budjet tizimiga o‘tkazishi;

soliq organlariga soliqni ushlab qolish imkoniyati yo‘qligi va soliq to‘lovchining soliq qarzi summasi to‘g‘risida bunday holatlar soliq agentiga ma’lum bo‘lgan kundan e’tiboran bir oy ichida yozma ravishda yoki elektron shaklda xabar qilishi;

hisoblangan va to‘langan daromadlarning, hisoblab chiqarilgan, ushlab qolingga va budjet tizimiga o‘tkazilgan soliqlarning hisobini har bir soliq to‘lovchi bo‘yicha alohida yuritishi;

soliqlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, ushlab qolinishi va o‘tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni soliq organlariga taqdim etishi;

soliq hisobotlarining hamda soliqlarni hisoblab chiqarish, ushlab qolish va o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarning Soliq kodeksida nazar tutilgan da’vo muddati mobaynida but saqlanishini ta’minlashi shart.

Soliq agentlarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Soliqni to‘lash milliy valyutada amalga oshiriladi.

Chet el valyutasida hisoblab chiqarilgan soliq summasini milliy valyutada qaytadan hisoblash O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining soliqni to‘lash sanasidagi rasmiy kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Soliq majburiyatining bajarilishi mol-mulk garovi, kafillik, bank kafolati, penyalar, bankdagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarning to‘xtatilishi va soliq to‘lovchining mol-mulkini xatlash bilan ta’minlanishi mumkin.

Soliq to‘lovchi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to‘lash muddatini buzgan taqdirda to‘lashi lozim bo‘lgan pul summasi penyadir.

Penyaning foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalash stavkasining 1/300

qismiga teng etib qabul qilindi. Penyalar tegishli soliq to‘lanadigan budgetga (davlat maqsadli jamg‘armasiga) to‘lanadi.

Soliq nazoratini amalga oshirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar soliq organlarida hisobga qo‘yilishi lozim.

Soliq organlari soliq nazoratini:

- 1) soliq tekshiruvlari;
- 2) soliq monitoringi shaklida amalga oshiradi.

Soliq tekshiruvlari soliq to‘lovchilar, yig‘imlarni to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o‘tkaziladi.

Soliq tekshiruvi soliq to‘lovchi to‘g‘risida soliq organlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Soliq organlari soliq tekshiruvlarining quyidagi turlarini o‘tkazadi:

- 1) kameral soliq tekshiruvi;
- 2) sayyor soliq tekshiruvi;
- 3) soliq audit.

Soliq to‘lovchining, soliq agentining yoki boshqa shaxsning Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g‘ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbazarlik deb e’tirof etiladi.

Yuridik va jismoniy shaxslar soliqqa oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgar bo‘ladi. Jismoniy shaxs soliqqa oid huquqbazarliklar sodir etganlik uchun 16 yoshdan boshlab javobgarlikka tortilishi mumkin. Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbazarlik sodir etganlik uchun javobgarlik chorasisidir. Moliyaviy sanksiyalar Soliq kodeksning nazarda tutilgan miqdorlarda belgilanadi va pul undirish (jarimalar) tarzida qo‘llaniladi.

2011 yilning 1 oktyabridan boshlab kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun soliqlar, bojxona bojlari va yig'imlari, shuningdek, boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini buzganlik uchun penya miqdori kechiktirilgan har bir kun uchun penyani hisoblash tartibi saqlangan holda, amaldagi miqdoriga nisbatan uchdan bir qismga kamaytirildi hamda tekshiruvlar natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek moliyaviy sanktsiyalarni undirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab olti oy mobaynida teng ulushlarda to'lash huquqiga ega bo'ldi<sup>26</sup>.

1.1-jadval

**Soliq solishning belgilangan tartibi bilan bog'liq huquqbazarliklarning turlari va ularni sodir etganlik uchun javobgarlik<sup>27</sup>**

T/r	<i>Soliqqa oid huquqbazarliklarning turlari</i>	SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar	MTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar	JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar
<b>I. Soliq to'lovchilarga nisbatan qo'llanadigan sanktsiyalar</b>				
1	Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq to'lovchisi sifatida soliq organlarida hisobga qo'yishning belgilangan tartibi soliq to'lovchi tomonidan buzilganda	Jarima - soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarda nazarda tutilgan hisobga qo'yish sanasidan haqiqatda hisobga qo'yilgan sanagacha bo'lgan davrda olgan daromadining 5 % ni miqdorida, lekin 5 million so'mdan kam bo'lmagan miqdorda. ( <i>Soliq kodeksining 219-moddasi</i> )		
2	Soliq solish ob'ekti bo'yicha soliq organlarida hisobga	Jarima: - 30 kundan ko'p bo'lmagan, -		

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdag'i «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doit qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi 4354-soni farmoni

<sup>27</sup> Soliq kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Jinoyat kodeksi bo'yicha mualliflar tomonidan tayyorlandi.

<i>T/r</i>	<i>Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari</i>	<i>SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar</i>	<i>MJTGga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar</i>	<i>JG ga muvofiq jinoiy sanktsiyalar</i>
	qo'yish muddatlarini buzilganda.	1 million so'm miqdorida; - 30 kundan ko'p bo'lganda, - 2 million so'm miqdorida. <i>(Soliq kodeksining 219-moddasi)</i>		
	Chet el yuridik shaxsiy tonidan O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy muassasasini tashkil etishga olib keluvchi faoliyatning soliq organida hisobga qo'ymasdan amalgaga oshirilishi	Jarima - bunday faoliyatni amalgaga oshirish boshlangandan haqiqatda hisobga qo'yilgan sanagacha bo'lgan davrda olingan daromaddan 10 % miqdorida, lekin 10 million so'mdan kam bo'lmagan miqdorda. <i>(Soliq kodeksining 219-moddasi)</i>		
3	Tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tmasdan amalgaga oshirish	Jarima - bunday faoliyatdan olingan daromadlarning 10 %ni miqdorida, lekin 1 million so'mdan kam bo'lmagan miqdorda <i>(Soliq kodeksining 219-moddasi)</i>	Jarima - huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, BHMning 5 baravaridan 7 baravarigacha miqdorda. Huquqbuzarlikni nazorat qilinmaydigan daromad olgan holda sodir etganlik uchun: - ancha miqdorda - huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, BHMning 7 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda; - ko'p miqdorda - huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, BHMning 10 baravaridan	Juda ko'p miqdordagi nazorat qilinmaydigan daromad olgan holdagi huquqbuzarlik uchun – 3 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilib, BHMning 300 baravaridan 600 baravarigacha miqdorda jarima yoki 480 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki 2 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish

<i>T/r</i>	<i>Soliqqa oid huquqbazarliklarning turlari</i>	<i>SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar</i>	<i>MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar</i>	<i>JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar</i>
			50 baravarigacha miqdorda	Birinchi marta huquqbazarlik (jinoyat) sodir etgan shaxs, agar u aniqlangan kundan e'tiboran 30 kunlik muddatda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o'mini ixtiyoriy ravishda qoplagan, tadbirdorlik sub'ektining ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlagan va zarur bo'lgan ruxsat beruvchi hujjalarni rasmiylashtirgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi (MJTKning 176-moddasi; JKning 188-moddasi)
7	Soliq hisobotini soliq to'g'risidagi qonun hujjalarda belgilangan muddatlarda taqdim etmaslik.	Jarima -bu soliq hisoboti asosida to'lanishi (qo'shimcha to'lanishi) lozim bo'lgan soliq summasini belgilangan muddatda to'lanmagan har bir kechiktirilgan kun uchun 1% miqdorida, lekin ko'rsatilgan summaning 10%-idan ortiq bo'lmagan miqdorida (Soliq kodeksining 220-moddasi)	Budgetga va budgetdan tashqari fondlarga / soliqlarni, boshqa majburiy to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur bo'lgan soliq hisobotlarini, hisob-kitoblarini hamda boshqa hujjalarni taqdim etmaganlik, o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki belgilanmagan shaklda taqdim etganlik, xuddi shuningdek kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar asoslarini yoxud aniqlashtirilgan soliq hisobotini belgilangan muddatda taqdim etmaganlik uchun - BHMning 1 baravaridan	

r	<i>Soliqqa oid huquqbazarliklarning turlari</i>	<i>SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar</i>	<i>MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar</i>	<i>JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar</i>
			<p>3 baravarigacha miqdorda jarima. Xuddi shunday huquqbazarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin 1 yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, - BHMning 3 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda (<i>MJTKning 175-moddasi 1, 2-qismlari</i>).</p> <p>Daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etishdan bo'yin tovlaganlik, deklaratsiyani o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki unda atayin noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etganlik uchun - BHMning 1 baravaridan 3 baravarigacha miqdorda (<i>MJTKning 174-moddasi</i>)</p>	
I	Nazorat-kassa texnikasining va (yoki) hisob-kitob terminallarining qo'llanilishi majburiy bo'lgani holda, ularni qo'llamasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko'rsatganlik, xuddi shuningdek sotib oluvchiga kvitansiyalar yozib berish, talonlarni,	Jarima - 5 million so'm miqdorida ( <i>Soliq kodeksining 221-moddasi</i> )	<p>Sanktsiyalar qo'llanadi - savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzganlik uchun (<i>MJTKning 164-moddasi</i>)</p>	<p>Sanktsiyalar qo'llanadi - savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzganlik uchun. (<i>JKning 189-moddasi</i>)</p> <p>Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar</p>

<i>T/r</i>	<i>Soliqqa oid huquqbazarliklarning turlari</i>	<i>SKga muvofiq moliaviy sanktsiyalar</i>	<i>MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar</i>	<i>JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar</i>
	cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan hujjatlarni berish majburiy bo'lgani holda bunday hujjatlarni bermasdan tovarlarni realizatsiya qilganlik va xizmatlar ko'rsatganlik, shuningdek hisob-kitob terminalлari orqali to'lovlarni qabul qilishni rad etganlik			u jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran 30 kunlik muddatda savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalari buzilishining oqibatlarini bartaraf etgan va yetkazilgan moddiy zararning o'mini qoplagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi
12	Soliq organlarida ro'yxatga olinmagan nazorat-kassa texnikasini qo'llagan yoki sotib oluvchiga kvitansiyalar, talonlar, cheklar yoki ularga tenglashtirilgan hujjatlarni bergen holda savdomi amalga oshirganlik va (yoki) xizmatlar ko'rsatganlik	Jarima - 7 million so'm miqdorida ( <i>Soliq kodeksining 221-moddasi</i> )		
	Boshqa shaxslar nomiga rasmiylashtirilgan hisob-kitob terminallaridan soliq to'lovchi tomonidan foydalanimishi	Jarima - 20 million so'm miqdorida ( <i>Soliq kodeksining 221-moddasi</i> )		
	Texnik talablarga muvofiq bo'lmagan yoki xizmat ko'rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa texnikalaridan foydalanganlik	Jarima - 20 million so'm miqdorida ( <i>Soliq kodeksining 221-moddasi</i> )		
5	Yakka tartibdag'i tadbirkor tomonidan daromadlar va (yoki) xarajatlarni hisobga olish (daromadlar va xarajatlarni hisobini yuritish kitobi) qoidalarini buzish	Jarima - 500 ming so'm miqdorida ( <i>Soliq kodeksining 222-moddasi</i> )	Jarima: - soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki boshqa ob'ektlarni qasddan yashirganlik (kamaytirib ko'rsatganlik) yoxud soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar	Shunday qilmish: - ancha miqdorda sodir etilgan, uning uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin ro'y bergan bo'lsa. - BHMning 150 baravarigacha miqdorda jarima yoki 2 yilgacha
6	Soliq bazasini yashirish yoki kamaytirib ko'rsatish	Jarima - yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) soliq bazasi summasining		

T/r	<i>Soliqqa oid huquqbazarliklarning turlari</i>	<i>SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar</i>	<i>MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar</i>	<i>JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar</i>
	<p>(yuklarni tovar-kuzatuv hujjatlarini rasmiylashtirmsadan yoxud soxta hujjatlar bo'yicha tashish; qalbaki birlamchi buxgalteriya hujjatlaridan foydalanish; NKM dasturiga noqonuniy ravishda o'zgartirish kiritish; foydalanimagan moddiy xarajatlarni foydalanilgan deb, ishlab chiqarish hisobotiga qo'shish; hisobot davri uchun sotish hajmini va daromadni qasddan kamaytirish; moddiy, yoqilg'i-energetika resurslari xarajatlarini limitlarni va amortizatsiyasini sun'iy ravishda oshirish; normativlarni noto'g'ri qo'llash; xodimlarning haqiqiy ish haqi summasi soliq hisobotida yashirish; xodimlarning haqiqiy sonini aks ettirmaganlik; realizatsiya qilingan tovarlar qiymatini hisob hujjatlarida haqiqatda realizatsiya qilingan qiymatidan pasaytirilgan narxlar bo'yicha aks ettirish.)</p>	<p>20 % miqdorida (<i>Soliq kodeksining 223-moddasi</i>)</p>	<p>to'lashdan qasddan bo'yin tovlaganlik uchun - fuqarolarga - BHMning 3 baravaridan 5 baravarigacha, mansabдор shaxslarga – 5 baravaridan 7 baravarigacha miqdorda; - ancha miqdorda sodir etilgan bo'lsa: fuqarolarga - BHMning 5 baravaridan 10 baravarigacha, mansabдор shaxslarga – 10 baravaridan 15 baravarigacha miqdorda (<i>MJTKning 174-moddasi</i>)</p> <p>Basharti ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi g'ayrihuquqiy ekanligini bilgan bo'lsa, uning zararli oqibatlariga ko'zi yetgan, yuz berishini istagan bo'lsa yoki bu oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbazarlik qasddan sodir etilgan deb hisoblanadi</p>	<p>axloq tuzatish ishlari; - takroran; - ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, - BHMning 150 baravaridan 300 baravarigacha miqdorda jarima yoki 2 yildan 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 1 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish; - juda ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, - BHMning 300 baravaridan 600 baravarigacha miqdorda jarima yoki 3 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish. Qasddan yashirilgan, kamaytirib ko'rsatilgan foya (daromad) bo'yicha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'liq to'langan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish</p>

<i>T/r</i>	<i>Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari</i>	<i>SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar</i>	<i>MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar</i>	<i>JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar</i>
			( <i>MJTKning 11-moddasi</i> )	tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi. Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u soliq tekshiruviga materiallarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha soliq organining qarorini olgan kundan e'tiboran 30 kun ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shu jumladan, penyalar va boshqa moliyaviy sanktsiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o'rmini to'liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi ( <i>JKning 184-moddasi</i> )
	Soliqni (yig'imni) noto'g'ri hisoblab chiqarish yoki boshqa g'ayriqonuniy harakatlarni (harakatsizlik) natijasida soliq (yig'im) summasini to'lamaslik yoki to'liq to'lamaslik	Jarima - to'lanmagan soliq (yig'im) summasining 20%ni miqdorida ( <i>Soliq kodeksining 224-moddasi</i> )		
	Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar bo'lmagan mahsulot yetkazib beruvchilar tomonidan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda qo'shilgan qiymat	Jarima - mahsulot yetkazib beruvchilarga hisobvaraq-fakturada ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasining 20%ni miqdorida ( <i>Soliq kodeksining 225-moddasi</i> )		

<i>T/r</i>	<i>Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari</i>	<i>SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar</i>	<i>MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar</i>	<i>JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar</i>
	solig'ini hisobvaraq-fakturada aks ettilganlik			
	Nazorat qilinadigan bitimlarda soliq solish maqsadida mustaqil shaxslar o'tasidagi bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlari bilan solishtirib bo'lmaydigan tijorat va (yoki) moliyaviy shartlar qo'llanilishi natijasida soliq summalarini soliq to'lovchi tomonidan to'lamaganlik yoki to'liq to'lamaganlik	Jarima - to'lanmagan soliq summasining 40 %i miqdorida ( <i>Soliq kodeksining 226-moddasi</i> )		
	Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lgan nazorat qiluvchi shaxslari tomonidan mazkur kompaniya foydasining ulushi soliq bazasiga kiritilmaganligi natijasida soliq summalarini to'lamaganlik yoki to'liq to'lamaganlik	Jarima - nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining soliq bazasiga kiritilishi lozim bo'lgan foydasiga nisbatan tegishinchalik foyda solig'i bo'yicha yoki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha to'lanmagan soliq summasining 20 %i miqdorida, lekin o'n million so'mdan kam bo'lmagan miqdorda ( <i>Soliq kodeksining 227-moddasi</i> )		
14	Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjalarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalaniш	Yuridik shaxslar uchun soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining 4 baravari, jismoniy shaxslar uchun soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining 3 baravari miqdorida ( <i>Soliq kodeksining 429-437 moddalar</i> )	Yerdan o'zboshimchalik bilan foydalanganlik, xuddi shuningdek yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olganlik uchun - jarima: - fuqarolarga - BHMning 50 baravaridan 5 baravaridan	Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish, agar xuddi shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, - BHMning 50 baravaridan 100 baravarigacha

<i>T/r</i>	<i>Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari</i>	<i>SKga muvofiq moliaviy sanktsiyalar</i>	<i>MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar</i>	<i>JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar</i>
			10 baravarigacha; - mansabdar shaxslarga - BHMning 10 baravaridan 15 baravarigacha miqdorda yoki 15 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olish ( <i>MJTKning 60-moddasi</i> )	miqdorda jarima yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 1 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 1 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish ( <i>JKning 229-1-moddasi</i> )
4	Soxta tadbirdorlik, ya`ni ustavida ko`rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko`zlamasdan ssudalar, kreditlar olish, foydani (daromadni) soliqlardan ozod qilish (soliqlarni kamaytirish) yoki boshqacha mulkiy manfaat ko`rish maqsadida korxonalar va boshqa tadbirdorlik tashkilotlari tuzish			Jarima - BHMning 100 baravaridan 200 baravarigacha miqdorda yoki 5 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 1 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish ( <i>JKning 179-moddasi</i> )
8	Buxgalteriya hisobining mavjud emasligi yoki uni belgilangan tartibni buzgan holda yuritganlik hisoblanishi lozim bo`lgan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar summasini aniqlab bo`lmasligiga olib kelishi (Soliq kodeksining 116-moddasi). Buxgalteriya hisobi barcha xo`jalik		Mansabdar shaxslarga jarima - BHMning 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin 1 yil davomida takror sodir etilgan	

<i>T/r</i>	<i>Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari</i>	<i>SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar</i>	<i>MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar</i>	<i>JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar</i>
	<p>operatsiyalarini yaxlit, uzlusiz, hujatlar asosida hisobga olish yo'li bilan buxgalteriya axborotini yig'ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir («Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasi)</p>		<p>bo'lsa, - BHMning 10 baravaridan 20 baravarigacha miqdorda (<i>MJTKning 175-1-moddasi</i>)</p> <p>Foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa ob'ektlarning hisobini olib bormaslik yoxud bunday hisobni belgilangan tartibni buzgan holda olib borish, basharti bu harakatlar to'lanishi lozim bo'lgan soliq yoki boshqa majburiy to'lov larning summasini kamaytirishga olib kelsa, - BHMning 1 baravaridan 3 baravarigacha miqdorda jarima. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin 1 yil davomida takror sodir etilgan</p> <p>bo'lsa, - BHMning 3 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda (<i>MJTKning 175-moddasi</i>)</p>	
9	Faoliyat turlari bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujatlarsiz shug'ullanганлик ( <i>Soliq</i> )		<p>Jarima:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- fuqarolarga - BHMning 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda;</li> </ul>	<p>Ko'p miqdorda daromad olish bilan bog'liq bo'lsa, - BHMning 25 baravaridan</p>

T/r	<i>Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari</i>	SKga muvoqiq moliyaviy sanktsiyalar	MJTKga muvoqiq ma'muriy sanktsiyalar	JKga muvoqiq jinoiy sanktsiyalar
	<p><i>kodeksining 117-moddasi)</i></p> <p>Litsenziya - litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so'zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnomaga (huquq) («Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida qonuning 3-moddasi)</p>		<p>- mansabdar shaxslarga - BHMning 10 baravaridan 20 baravarigacha miqdorda. Ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin 1 yil davomida takroran sodir etilgan bo'lsa:</p> <p>- suqarolarga - BHMning 10 baravaridan 20 baravarigacha miqdorda;</p> <p>- mansabdar shaxslarga - BHMning 20 baravaridan 30 baravarigacha miqdorda (MJTKning 165-moddasi)</p>	<p>75 baravarigacha miqdorda jarima yoki 5 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud 300 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki 3 yilgacha muddatga axloq tuzatish ishlari. O'sha harakat:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- juda ko'p miqdorda;</li> <li>- xavfli retsdivist tomonidan;</li> <li>- bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, - BHMning 75 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima yoki 300 soatdan 480 soatgacha majburiy jamoat ishlari.</li> </ul> <p>Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran 30 kunlik muddatda faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish oqibatlarini bartaraf etgan va yetkazilgan moddiy zararning o'rmini qoplagan bo'lsa,</p>

<i>T/r</i>	<i>Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari</i>	<i>SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar</i>	<i>MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar</i>	<i>JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar</i>
				<i>Javobgarlikdan ozod etiladi (JKning 190-moddasi)</i>
15	<p>Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish.</p> <p><i>O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari (VMning 13.02.2003 yildagi 75-son qaroriga 1-ilova); O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chigarish va sotish qoidalari (VMning 13.02.2003 yildagi 75-son qaroriga 2-ilova)</i></p>	<p>Jarima:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- fuqarolarga - BHMning 1 baravaridan 5 baravarigacha;</li> <li>- mansabdar shaxslarga - BHMning 5 baravaridan 7 baravarigacha miqdorda.</li> </ul> <p>Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzganlik uchun:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ancha miqdordagi qiymatda: fuqarolarga - BHMning 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda; mansabdar shaxslarga - BHMning 7 baravaridan 15 baravarigacha miqdorda;</li> <li>- ko'p miqdordagi qiymatda: fuqarolarga - BHMning 10 baravaridan 50 baravarigacha miqdorda; mansabdar shaxslarga - BHMning 40 baravaridan 80 baravarigacha miqdorda (<i>MJTKning 164-moddasi</i>)</li> </ul>	<p>Juda ko'p miqdordagi qiymatda buzish - BHMning 300 baravaridan 600 baravarigacha miqdorda jarima yoki 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari.</p> <p>Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran 30 kunlik muddatda savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalari buzilishining oqibatlarini bartaraf etgan va yetkazilgan moddiy zararning o'rnnini qoplagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi (<i>JKning 189-moddasi</i>)</p>	

<i>T/r</i>	<i>Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari</i>	<i>SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar</i>	<i>MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar</i>	<i>JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar</i>
16	Bozorlarda savdo qilish qoidalarini buzish. <i>O'zbekiston Respublikasida bozorlarda savdo faoliyatini tashkil etish qoidalari (VMning 28.08.2012 yildagi 253-sin qaroriga 1-ilova)</i>		Jarima: - fuqarolarga - BHMning 1/10 qismi; - mansabdar shaxslarga - BHMning 1/2 qismi miqdorida ( <i>MJTKning 168-moddasi</i> )	
17	Soliq to'lovchi tomonidan budgetga va davlat maqsadli jamg' armalariga soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarini to'lash uchun to'lov topshiriqnomasini xizmat ko'rsatayotgan bankka taqdim etmaslik yoki o'z vaqtida taqdim etmaslik		Mansabdar shaxslarga jarima - BHMning 3 baravaridan 5 baravarigacha miqdorda. Ushbu huquqbuzarlikni, ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin 1 yil davomida takror sodir etganlik uchun - BHMning 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda ( <i>MJTKning 175-moddasi</i> )	
18	Soliq to'lovchilarning identifikasiya raqamlarini (STIR) qo'llanish tartibini buzish. <i>Solig to'lovchining identifikasiya raqami muayyan soliq to'lovchi hisobga qo'yilganda unga beriladigan raqamdir (Soliq kodeksining 78-moddasi)</i>		Jarima: - fuqarolarga - BHMning 1 baravaridan 3 baravarigacha; - mansabdar shaxslarga - BHMning 3 baravaridan 7 baravarigacha miqdorda ( <i>MJTKning 175-3-moddasi</i> )	
19	Ish haqmi taqilangan shakllarda to'lash. <i>Mehnat haqini natura shaklida to'lash</i>		Mansabdar shaxslarga jarima - BHMning 10 baravaridan	

<i>T/r</i>	<i>Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari</i>	<i>SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar</i>	<i>MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar</i>	<i>JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar</i>
	<i>taqilanganadi, O'zR Hukumati tomonidan belgilangan hollar bundan mustasno (MKning 153-moddasi)</i>		<i>15 baravarigacha miqdorda (MJTKning 175-4-moddasi)</i>	
20	<i>Xodimlar sonini yashirish. Kichik tadbirdorlik sub'ektlari korxonadagi xodimlarning sonidan kelib chiqib belgilanganadi («Tadbirkorlik faoliyatি erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasi)</i>		<p>Jarima:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- fuqarolarga - BHMning 1 baravaridan 5 baravarigacha;</li><li>- mansabdar shaxslarga - BHMning 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda.</li></ul> <p>Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin 1 yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- fuqarolarga - BHMning 5 baravaridan 10 baravarigacha;</li><li>- mansabdar shaxslarga - BHMning 10 baravaridan 15 baravarigacha miqdorda (MJTKning 175-5-moddasi)</li></ul>	
21	<i>Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan pochta manzili (joylashgan yeri), bank rekvizitlari o'zgaganligi to'g'risidagi yoki o'zi qayta ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni 10 kunlik muddat ichida vakolatti</i>		<p>Mansabdar shaxslarga jarima - BHMning 10 baravaridan 15 baravarigacha miqdorda (MJTKning 176-2-moddasi)</p>	

<i>T/r</i>	<i>Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari</i>	<i>SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar</i>	<i>MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar</i>	<i>JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar</i>
	davlat organlariga taqdim etmaslik yoxud yolg'on ma'lumotlarni taqdim etish			
<b>II. Kredit tashkilotlariga nisbatan soliq solish masalalari bilan bog'liq sanktsiyalar</b>				
23	Bank tomonidan soliq (yig'im), bo'nak to'lovi, penya va jarima summasini o'tkazish to'g'risidagi soliq to'lovchining topshiriqnomasini, soliq organining inkasso topshiriqnomasini bajarmaslik (bajarilishini kechiktirish)	Jarima - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasining bir yuz ellikdan bir qismi miqdorida, lekin kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun o'tkazilmagan summa 1%ining 1/5 qismidan ko'p bo'lmagan miqdorda <i>(Soliq kodeksining 228-moddasi)</i>		
	Bank har qanday yuridik yoki jismoniy shaxsnинг hisobvarag'i yoki omonati (depoziti) ochilganligi (yopilganligi), hisobvarag'i yoki omonati (depoziti) rekvizitlarining o'zgartirilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomani (ko'chirmalarni) bank tomonidan soliq organiga taqdim etmaslik, shuningdek ma'lumotnomalarni (ko'chirmalarni) belgilangan muddatni buzgan holda yoki noto'g'ri ma'lumotlar bo'lgan ma'lumotnomalarni (ko'chirmalarni) taqdim etish	Jarima - 1 million so'm miqdorida <i>(Soliq kodeksining 229-moddasi)</i>		

<i>T/r</i>	<i>Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari</i>	<i>SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar</i>	<i>MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar</i>	<i>JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar</i>
23	<p>Kassa operatsiyalarini yuritish tartibi va to'lov intizomini buzish, shu jumladan, qarzdor korxonalardan to'lovlarni undirish bo'yicha soliq organlarining inkasso topshiriqlarini bajarmaslik, shuningdek debitorlik va kreditorlik qarzi muddatlarini o'tkazib yuborish hamda korxonalarning hisobvaraqlarida tegishli mablag'lar bo'lgan holda to'lovlarni amalgalashirishning belgilangan muddatlarini buzish, shuningdek pul mablag'larini hisobdan chiqarish navbatini buzish.</p> <p><i>Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini yuritish qoidalari (AV tomonidan 22.06.2015 yilda 2687-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan). (AV tomonidan 3.06.2013 yilda 2465-sun bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Nizomning 58-bandisi). (12.05.1995 yildagi PF-1154-sun Farmonning 2-bandisi)</i></p>		<p>Mansabdar shaxslarga jarima - BHMning 10 baravaridan 15 baravarigacha miqdorda (<i>MJTKning 175-moddasi</i>)</p>	
24	Soliq organlarida ro'yxatga olinganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasiz korxonalar va tashkilotlarga hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlarini ochish		<p>Mansabdar shaxslarga jarima - BHMning 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda (<i>MJTKning 175-moddasi</i>)</p>	
25	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga va boshqa		Jarima - BHMning 10 baravaridan	

T/r	Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari	SKga muvofiq moliaviy sanktsiyalar	MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar	JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar
	tashkilotlarga ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiylar va ularga tenglashtirilgan o'zga to'lovlnni to'lash uchun pul mablag'lari berishni bankning mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan asosziz ravishda kechiktirish		20 baravarigacha miqdorda (MJTKning 241-7-moddasi)	
26	Tadbirkorlik sub'ektlaridan qonun hujjalarda nazarda tutilmagan statistika, moliya, soliq hisobotini va boshqa hisobotni, shuningdek o'zga hujjalarni, shu jumladan, bank hisobvarag'ini ochishda ortiqcha hujjalarni talab qilib olish, xuddi shuningdek qonun hujjalarda nazarda tutilgan hisobotni taqdim etishning belgilangan muddatlar va tartibiga zid ravishda talab qilib olish. <i>(«Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Oonunning 17-moddasi)</i>		Mansabdor shaxslar va xizmatchilarga jarima - BHMning 10 baravaridan 20 baravarigacha miqdorda. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin 1 yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, - BHMning 20 baravaridan 30 baravarigacha miqdorda (MJTKning 241-10-moddasi)	
<b>III. Soliq va boshqa nazorat organlariga nisbatan soliq solish masalalari bilan bog'liq sanktsiyalar</b>				
27	Budgetga to'lovlar bo'yicha qarzi bo'lgan korxonalarga o'z vaqtida inkasso topshiriqnomasini taqdim etmaslik. <i>(Soliq kodeksining 63-moddasi)</i>		Mansabdor shaxslarga jarima - BHMning 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda (MJTKning 175-moddasi)	
28	Soliq to'lovchilarining majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risida qonun hujjalariga muvofiq axborot taqdim		Jarima - BHMning 7 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda.	

T/r	<i>Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari</i>	SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar	MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar	JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar
	etadigan organlar va tashkilotlarning mansabдор shaxslari tomonidan soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risidagi axborotni taqdim etish tartibining ko'rsatilgan axborotni taqdim etmaslikda, o'z vaqtida taqdim etmaslikda yoki buzib ko'satgan holda taqdim etishda ifodalangan buzilishi		Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin 1 yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, - BHMning 10 baravaridan 15 baravarigacha miqdorda ( <i>MJTKning 215-3-moddasi</i> )	
29	Tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirishning va moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilishning belgilangan tartibini buzish, xuddi shuningdek tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini qonunga xilof ravishda tekshirish tashabbusi bilan chiqish va (yoki) o'tkazish. <i>Soliq tekshiruvlarini o'tkazish Soliq kodeksining 14-bobi bilan tartibga solingan.</i> <i>Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni cheklash «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning 39-moddasi bilan belgilangan</i>		Mansabдор shaxslarga jarima - BHMning 20 baravaridan 60 baravarigacha miqdorda ( <i>MJTKning 241-2-moddasi</i> )	Ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa: BHMning 150 baravaridan 300 baravarigacha miqdorda jarima yoki 3 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud 300 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari. O'sha harakatlar: - ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda; - bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, BHMning 300 baravaridan 500 baravarigacha miqdorda jarima yoki 300 soatdan 360 soatgacha
30	Tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini va (yoki) ularning banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni qonunga		Mansabдор shaxslarga jarima - BHMning 20 baravaridan 60 baravarigacha miqdorda	

T/r	<i>Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari</i>	SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar	MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar	JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar
	xilof ravishda to'xtatib turish		(MJTKning 241-3-moddasi)	majburiy jamoat ishlari yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, 1 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish. O'sha harakatlar: - juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda; - uyushgan guruh manfaatlarni ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, - BHMning 500 baravaridan 600 baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, 3 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish (JKning 192-2, 192-3-moddalari)
31	Tadbirkorlik sub`ektlariga berilgan imtiyozlar va preferentsiyalarni qo'llashni g'ayriqonuniy ravishda rad etish, qo'llamaslik yoki qo'llashga to'sqinlik qilish. <i>Davlat organlari, ularning mansabдор shaxslari gonun</i>		Mansabдор shaxslar va xizmatchilarga jarima - BHMning 10 baravaridan 20 baravarigacha miqdorda (MJTKning 241-6-moddasi)	Ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, - BHMning 50 baravaridan 200 baravarigacha miqdorda jarima yoki 2 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish

<i>T/r</i>	<i>Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari</i>	<i>SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar</i>	<i>MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar</i>	<i>JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar</i>
	<p><i>hujjalardida berilgan intimyozlar va preferentsiyalarni qo'llash tartibini o'z vakolatlari doirasida tushuntirishi, shuningdek ularning qo'llanilishini ta'minlashi shart</i>  <i>(«Tadbirkorlik faoliyatni erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning 30-1- moddasi)</i></p>			<p>yoxud 300 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari. O'sha harakatlar:            - juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;            - uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, - BHMning 200 baravaridan 500 baravarigacha miqdorda jarima yoki 300 soatdan 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, 1 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish <i>(JKning 192-6- moddasi)</i></p>
32	<p>Nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabдор shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan tadbirkorlik sub'ektlarini pul mablag'lari hamda boshqa moddiy qimmatliklarni ajratish bilan bog'liq homiylikka va boshqa tadbirlarga majburiy jalb etish.</p>		<p>Jarima - BHMning 10 baravaridan 20 baravarigacha miqdorda <i>(MJTKning 241-4- moddasi)</i></p>	

<i>T/r</i>	<i>Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari</i>	<i>SKga muvofiq moliyaviy sanktsiyalar</i>	<i>MJTKga muvofiq ma'muriy sanktsiyalar</i>	<i>JKga muvofiq jinoiy sanktsiyalar</i>
	(«Homiylik to'g'risidagi Qonunning 3-moddasi)			
33	Litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjalarni berishning belgilangan tartibi hamda muddatlarini buzish, shu jumladan, litsenziyalarning va ruxsat berish tartib-taomillarining yangi turlarini qonunga xilof ravishda joriy etish		Mansabdar shaxslar va xizmatchilarga jarima - BHMning 10 baravaridan 20 baravarigacha miqdorda (MJTKning 241-5-moddasi)	

*Izohlar:*

Ancha miqdor yoki ancha miqdordagi zarar - BHMning 100 baravaridan 300 baravarigacha Ko'p miqdor yoki ko'p miqdordagi zarar - BHMning 300 baravaridan 500 baravarigacha.

Juda ko'p miqdor yoki juda ko'p zarar - BHMning 500 baravari va undan ortiq (MJTK va JKga muvofiq).

Moliyaviy sanktsiyalar yuridik va jismoniy shaxslarga Soliq kodeksining 28 va 29-boblarida nazarda tutilgan miqdorlarda belgilanadi va pul undirish (jarimalar) tarzida qo'llaniladi.

Ma'muriy va jinoiy sanktsiyalar fuqarolarga, mansabdar shaxslarga va xizmatchilarga nisbatan qo'llanadi (MJTK; JK).

### Nazorat savollari

1. Soliqlar va soliqqa tortish fanini o'qtishning zarurligi nimada?
2. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati deganda nimani tushunasiz?
3. Soliqlarning ob'yektiv zarurligi nimalarda ko'rindi?
4. Soliqlarning xususiyatlarini tushuntirib bering.
5. Soliq elementlari tarkibiga nimalar kiradi?
6. Soliqni qanday undirish usullari mavjud?
7. Soliq tizimi nima?
8. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining qanday rivojlanish bosqichlarini bilasiz?
9. Hozirgi kunda qanday soliq turlari mavjud?

10. Soliq siyosatining qanday yo‘nalishlarini bilasiz?
11. Soliq kodeksining ahamiyati nimada?
12. Soliq to‘lovchilar qanday huquqlarga ega?
13. Soliq to‘lovchilar qanday majburiyatlarga ega?

## **II BOB. FOYDA SOLIG‘I**

### **2.1. Foyda solig‘ining joriy qilinishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.**

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari 1991 yilga qadar asosan davlat korxonalari foydasidan ajratiladigan ajratmalar hisobidan shakllanar edi. Ushbu foydadan ajratma davlat tomonidan belgilangan majburiy to‘lov bo‘lib, u korxonalar balans foydasining 90 foizgacha bo‘lgan qismini budjetga olib ketar edi. Qolgan foyda miqdori esa korxona tomonidan emas, balki yuqori tashkilot topshirig‘iga ko‘ra tegishli fondlarga taqsimlanar edi.

Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solish, xususan, foydadan ajratmalar o‘rniga daromad solig‘ini joriy qilish zarurati paydo bo‘ldi va 1992 yildan boshlab barcha turdagи xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar daromad solig‘ini to‘lashga o‘tdilar.

1995 yil yanvar oyidan boshlab soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarning foydasidan olinadigan soliq joriy etildi. Shu bilan bir qatorda soliq to‘lovchilarping ayrim toifalari uchun daromad solig‘i va yalpi daromad solig‘i tartibi saqlab qolning holda deb atala boshladи. (tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari, gastrol-konsert faoliyatini olib boruvchi muassasalar, ko‘ngilochar o‘yinlarni tashkil etuvchi korxonalar, birja va boshqa shu kabi korxonalar).

2007 yil 1 yanvardan boshlab yuridik shaxslardan olinadigan foyda (daromad) solig‘i yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘iga aylantirildi.

2018 yildan boshlab yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bilan

birlashtirildi<sup>28</sup>. Ushbu davrgacha obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bir necha marotaba o‘zgartirilgan. Xususan, 2002 yil 1 yanvardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 31 dekabrdagi 490-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2002 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari pragnozi va davlat budgeti parametrlari to‘g‘risida»gi qaroriga asosan ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i va obodonchilik ishlari uchun yig‘im o‘rniga infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, 2004 yil 1 yanvardan esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 dekabrdagi 567-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2004 yilgi davlat budgeti parametrlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq infratuzilmani rivojlantirish solig‘i o‘rniga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i joriy tilgan.

Yangi Soliq kodeksiga asosan 2020 yildan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i qisqacha foyda solig‘i nomi bilan atala boshlandi.

Foyda solig‘i umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, u davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

## **2.2. Foyda solig‘i to‘lovchilari, soliq solish ob‘yekti va soliq bazasi.**

Quyidagilar foyda solig‘ining soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi:

- 1) O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar;
- 2) O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy

<sup>28</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari pragnozi va davlat budgeti parametrlari to‘g‘risida”gi 3454-sonli qarori.

muassasalar orqali amalga oshiradigan, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari;

3) O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar oluvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar;

4) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchilari bo‘lgan yuridik shaxslar;

5) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari bir milliard so‘mdan ortiq bo‘lgan yoki o‘z ixtiyori bilan foyda solig‘ini to‘lashga o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

6) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo‘yicha oddiy shirkatning ishonchli shaxsi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ining mazkur guruh mas’ul ishtirokchisi tomonidan hisoblab chiqarish uchun zarur bo‘lgan qismi bo‘yicha soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini bajaradi.

Agent vazifalarini amalga oshiruvchi jismoniy shaxs soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

Aylanmadan soliq to‘lovchi shaxslar soliq to‘lovchilar hisoblanmaydi.

Quyidagilar yuridik shaxslardir:

1) O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslar (O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari);

2) chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, fuqarolik huquqiy layoqatiga ega bo‘lgan chet el yuridik shaxslari (shu jumladan kompaniyalar va boshqa korporativ tuzilmalar);

### 3) xalqaro tashkilotlar.

Yuridik shaxsning hududiy jihatdan alohida bo‘lgan, turgan yeri bo‘yicha doimiy ish joylari jihozlangan har qanday bo‘linmasi O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsining alohida bo‘linmasidir.

Yuridik shaxsning alohida bo‘linmasini e’tirof etish, unga qanday vakolatlar berilganligidan va uning tashkil etilishi bo‘yicha yuridik shaxsning ta’sis hujjatlarida yoki boshqa tashkiliy-boshqaruv hujjatlarida aks ettirilganligi yoki aks ettirilmaganligidan qat’i nazar, amalga oshiriladi.

Agar ish joyi bir oydan ortiq muddatga yaratilgan bo‘lsa, u doimiy hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi alohida bo‘linmasining joylashgan yeri ushbu yuridik shaxs mazkur alohida bo‘linma orqali faoliyat olib boradigan joydir.

Quyidagi yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlaridir:

1) O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

2) O‘zbekiston Respublikasining soliq solish masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomalariga muvofiq ushbu xalqaro shartnomalarni qo‘llash maqsadlari uchun O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e’tirof etilgan chet el yuridik shaxslari;

3) haqiqatdagi boshqaruv joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lgan chet el yuridik shaxslari, agar O‘zbekiston Respublikasining soliq masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa.

O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo‘limgan yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari deb e’tirof etiladi.

Soliq to'lovchi tomonidan olingan foyda foyda solig'i bo'yicha soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

Quyidagilar foyda deb e'tirof etiladi:

- 1) yuridik shaxs uchun - jami daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq;
- 2) faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezident uchun - doimiy muassasaning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jami daromad (shu jumladan bunday doimiy muassasaning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar) va xarajatlar o'rtasidagi farq;
- 3) norezident uchun - O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlar;
- 4) yakka tartibdagi tadbirkor uchun - jami daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq;
- 5) zimmasiga oddiy shirkat ishlarini yuritish yuklatilgan shaxs uchun - birgalikda ishlab chiqarilgan tovarni (ko'rsatilgan xizmatni) realizatsiya qilishdan olingan daromad va birgalikda ishlab chiqarilib realizatsiya qilingan tovarga (xizmatga) to'g'ri keladigan birgalikdagi faoliyatga kiritilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farq.

Soliq solinishi lozim bo'lgan foyda summasi soliq bazasi hisoblanadi.

Soliq bazasini belgilangan tartibda va shartlarda aniqlashda soliq to'lovchi daromadlarining va (yoki) xarajatlarining (zararlarining) ayrim turlari maxsus qoidalar bo'yicha inobatga olinishi yoki inobatga olinmasligi mumkin.

Soliq to'lovchi ushbu bo'limga muvofiq foydani va zararni hisobga olishning umumiy tartibidan farq qiladigan tartibi nazarda tutilgan

operatsiyalar bo'yicha daromadlarning (xarajatlarning) alohida-alohida hisobini yuritadi.

Soliq bazasi soliq davri boshlanganidan e'tiboran ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

### **2.3. Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirmalar.**

Jami daromad yuridik shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasidagi va uning hududidan tashqaridagi manbalardan hisobot (soliq) davri mobaynida olingan daromadlardan iboratdir.

Jami daromad, qo'shilgan qiymat solig'ini va aksiz solig'ini inobatga olmagan holda aniqlanadi.

Jami daromadga har qanday shaklda va (yoki) har qanday faoliyatdan olinishi lozim bo'lган daromadlar, xususan, quyidagi daromadlar kiradi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad;

2) kredit (qarz, mikrokredit va boshqa moliyaviy operatsiyalar) bo'yicha mukofot tarzidagi daromad;

3) sug'urta, qayta sug'urta tashkilotining sug'urta, qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha daromadi;

4) REPO operatsiyalari bo'yicha daromad;

5) qimmatli qog'ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo'yicha olingan daromad;

6) asosiy vositalarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olingan daromad;

7) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga binoan mol-mulkni berish bo'yicha pul mukofoti tarzidagi daromad;

- 8) mol-mulkni mulk ijarasiga (ijaraga) berishdan olingan daromad, bundan moliyaviy ijara (lizing) mustasno;
- 9) roylati;
- 10) tekin olingan mol-mulk (olingan xizmatlar);
- 11) inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralarning va boshqa mol-mulkning qiymati tarzidagi daromad;
- 12) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromad, ilgari chegirib tashlanmagan xarajatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar mustasno;
- 13) talab qilish huquqidan o‘zganining foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olingan daromad;
- 14) ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o‘rnini qoplash tarzidagi daromad;
- 15) xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan olinadigan daromad;
- 16) birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olingan daromad;
- 17) qarzdor tomonidan e’tirof etilgan yoxud qarzdor tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hujjati asosida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan jarimalar, penyalar va boshqa sanksiyalar, shuningdek zararlarning (ziyonning) o‘rnini qoplash summalari;
- 18) kursdagi ijobiy farq;
- 19) dividendlar va foizlar;
- 20) ishonchli boshqaruvi muassisi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqarishdan olingan daromad;
- 21) shakllantirilish xarajatlari belgilangan tartibda va shartlarda xarajatlar tarkibiga qabul qilingan, qayta tiklangan zaxiralar summalari;

22) aksiyador, ishtirokchi yuridik shaxs foydasiga o‘z ulushining (ulushi bir qismining) qiymatini olishdan voz kechgan taqdirda, mazkur yuridik shaxsnинг ustav fondi (ustav kapitali) kamayishi munosabati bilan olgan daromad;

23) korxonani mol-mulk majmui sifatida sotishdan olingen daromad;

24) belgilangan hollarda va tartibda narxlarga tuzatishlar kiritish tufayli olingen daromad;

25) belgilangan hollarda va tartibda nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi;

26) alohida hisobi mavjud bo‘lmagan va (yoki) ulardan maqsadli foydalanilmagan maqsadli mablag‘lar tarzidagi daromad (bundan budjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalari qo‘llaniladigan budjet mablag‘lari mustasno);

27) boshqa daromadlar.

Daromadlar soliq to‘lovchi tomonidan olingen daromadlarni tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar va boshqa hujjatlar, shu jumladan elektron hujjatlar, shuningdek soliqni hisobga olishga doir hujjatlar asosida aniqlanadi.

Jami daromad pul, natura shaklida va (yoki) boshqa shakkarda kelib tushgan barcha tushumlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan olingen, qiymati chet el valyutasida ifodalangan daromadlar qiymati milliy valyutada ifodalangan daromadlar bilan birgalikda hisobga olinadi.

Boshqa daromadlarga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi. Jumladan:

asosiy vositalarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;

tekin olingan mol-mulk (xizmatlar);

talab qilish huquqidan o'zganining foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar;

ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzidagi daromad;

xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olingan daromadlar;

uzoq muddatli kontraktlar bo'yicha daromadlar.

Soliq kodeksiga ko'ra quyidagilar yuridik shaxs daromadi sifatida qaralmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilgan hissa tarzida olingan mablag'lar;

2) aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish narxining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiqcha summasi;

3) ishtirokchilar tarkibidan chiqish (chiqib ketish) chog'ida ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilgan hissa doirasida olingan yoki ishtirokchining ulushi miqdorini kamaytirish, shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsnинг mol-mulkini ishtirokchilar o'rtaida taqsimlash chog'ida olingan mablag'lar;

4) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar;

5) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) shartnoma sheriklari (ishtirokchilar) umumiy mulkidagi ulushi qaytarilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, ushbu sherik (ishtirokchi tomonidan) qo'shilgan hissa miqdorida olingan mablag'lar;

- 6) realizatsiya qilinadigan tovarlar (xizmatlar) uchun oldindan to‘lov (bo‘nak) tarzida boshqa shaxslardan olingan mablag‘lar;
- 7) qonun hujjatlariga muvofiq ushbu majburiyatlarning ta’minoti sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag‘lar, ularga bo‘lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tgan paytga qadar;
- 8) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq tekinga olingan mol-mulk va xizmatlar;
- 9) grantlar, insonparvarlik yordami va maqsadli tushumlar;
- 10) sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta tovoni (sug‘urta summasi) tarzida olingan mablag‘lar;
- 11) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga doir boshqa shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishi munosabati bilan, shuningdek vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan komitent yoxud boshqa ishonch bildiruvchi uchun amalga oshirilgan xarajatlarning o‘rnini qoplash hisobidan kelib tushgan mol-mulk (pul mukofoti bundan mustasno). Bunday xarajatlar, agar tuzilgan shartnomalar shartlarida bu xarajatlarning o‘rnini qoplash nazarda tutilgan bo‘lsa, vositachidan yoki ishonchli vakildan chegirib tashlanmaydi;
- 12) moliyaviy ijara (lizing) ob’ektining qiymati o‘rnini ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to‘lovining qismi tarzida qoplash;
- 13) mol-mulk ijarasiga doir shartnoma bo‘yicha olingan mol-mulk, bundan moliyaviy ijara (lizing) mustasno;

- 14) telekommunikatsiya tarmoqlaridagi tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek ulardan foydalanish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar;
- 15) investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtaida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritiladigan mol-mulk;
- 16) kredit yoki qarz shartnomalari bo'yicha mablag'lar yoki boshqa mol-mulk (mablag' jalb qilishni rasmiylashtirish usulidan qat'i nazar, boshqa shunday mablag'lar yoki boshqa mol-mulk, shu jumladan qarz qimmatli qog'ozlar), shuningdek bunday jalb qilingan mablag'larni to'lash hisobidan mablag'lar yoki boshqa mol-mulk;
- 17) konsessiya bitimi bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq olingan mol-mulk;
- 18) davlat muassasalari tomonidan barcha darajalardagi ijro etuvchi hokimiyat organlarining qaroriga ko'ra olingan mol-mulk;
- 19) O'zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog'ozlari bo'yicha olingan daromadlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi tomonidan va O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan chiqarilgan xalqaro obligatsiyalar bo'yicha daromadlar;
- 20) soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqarilgan penyalarning va jarimalarning summasi.

Yuridik shaxslarning soliq bazasini aniqlashda ushbu shaxslarning jami daromadidan daromad olish bilan bog'liq barcha xarajatlar chegirib tashlanadi, bundan chegirib tashlanmaydigan xarajatlar mustasno.

Soliq to‘lovchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida ham, uning hududidan tashqarida ham hisobot (soliq) davri davomida amalga oshirilgan (ko‘rilgan), asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlari xarajatlar deb e’tirof etiladi.

Asoslangan xarajatlar deganda bahosi pul shaklida ifodalangan, iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlagan chiqimlar tushuniladi.

Har qanday chiqimlar, basharti ular hech bo‘lmaganda quyidagi shartlardan biriga muvofiq kelgan taqdirda, iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlagan chiqimlar deb e’tirof etiladi:

1) daromad olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida qilingan bo‘lsa;

2) shunday tadbirkorlik faoliyatini saqlab turish yoki rivojlantirish uchun zarur bo‘lsa yoxud xizmat qilsa va xarajatlarning tadbirkorlik faoliyati bilan aloqasi aniq asoslangan bo‘lsa;

3) qonun hujjatlarining qoidalardan kelib chiqsa.

Hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar deganda quyidagi hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlar tushuniladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar;

2) tegishli xarajatlar amalga oshirilgan chet davlat hududida qo‘llaniladigan tartibga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar;

3) boshqa shaklda rasmiylashtirilgan, shu jumladan xizmat safari to‘g‘risidagi buyruq, yo‘l hujjatlari, shartnomaga muvofiq ko‘rsatilgan xizmat haqidagi hisobot bilan rasmiylashtirilgan hujjatlar.

Soliq to‘lovchining qiymati chet el valyutasida ifodalangan xarajatlari milliy valyutada qiymati ifodalangan xarajatlar bilan birgalikda hisobga olinadi.

Xarajatlar jumlasiga:

amortizatsiya xarajatlari;

foizlar va ayrim chiqimlar bo‘yicha xarajatlar;

geologik jihatdan o‘rganish, qidirish va tabiiy resurslarni qazib olishga doir tayyorgarlik ishlari uchun xarajatlar;

ilmiy tadqiqotlarga va (yoki) tajriba-konstrukturlik ishlanmalariga doir xarajatlar;

umidsiz qarzlar bo‘yicha xarajatlar;

qo‘shilgan qiymat solig‘iga doir xarajatlar;

zaxira fondlarini shakllantirish xarajatlari;

kafolatli ta’mirlash va kafolatli xizmat ko‘rsatish yuzasidan kelgusi xarajatlar uchun zaxirani shakllantirish xarajatlari.

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjalariiga muvofiq soliq to‘lovchi tomonidan hisobga olinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiya qilinadigan aktivlar deb e’tirof etiladi.

Quyidagilar amortizatsiya qilinadigan aktivlar deb e’tirof etilmaydi va amortizatsiya qilinmaydi:

1) yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa ob’ektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);

2) mahsuldar chorva mollari;

3) axborot-kutubxona fondi;

4) muzey ashyolari;

5) qonun hujjalalarida belgilangan tartibda konservatsiya qilingan asosiy vositalar;

6) moddiy madaniy meros ob'ektlari;

7) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, yo'lkkalar, sayilgohlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo'lgan obodonlashtirish inshootlari;

8) qiymati ilgari to'liq xarajatlar jumlasiga kiritilgan mol-mulk;

9) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tarkibiga o'tkazilmagan kapital qo'yilmalar;

10) notijorat tashkilotlarning Soliq kodeksi 318-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan mablag'lar hisobidan olingan yoki sotib olingan hamda notijorat faoliyatini amalga oshirish uchun foydalilaniladigan mol-mulki, bundan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalilaniladigan mol-mulk mustasno;

11) Soliq kodeksi 304-moddasining 8, 9, 14, 15 va 17-bandlariga muvofiq kelib tushgan mablag'lar hisobidan olingan yoki sotib olingan (barpo etilgan), shuningdek soliq va bojxona imtiyozlari berilganligi natijasida bo'shagan mablag'lar hisobidan olingan yoki sotib olingan (barpo etilgan) mol-mulk.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning qiymati amortizatsiya ajratmalari va (yoki) investitsiyaviy chegirmalar orqali xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Amortizatsiyalanadigan aktivning qiymati qayta baholashni hisobga olmagan boshlang'ich qiymatidan hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari orqali xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Amortizatsiyalanadigan aktivlarning boshlang'ich qiymati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq soliq to'lovchi tomonidan kapital qo'yilmalar amalga oshirilgan taqdirda o'zgaradi.

2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga asosan soliq to'lovchida mavjud bo'lgan, ilgari o'tkazilgan qayta baholashni hisobga olgan holda amortizatsiyalanadigan aktivlar qiymati soliq solish maqsadida boshlang'ich qiymat hisoblanadi.

2021 yil 1 yanvardan boshlab soliq to'lovchi tomonidan keyingi hisobot (soliq) davrlarida amortizatsiyalanadigan aktivlar qiymatini qayta baholash amalga oshirilganda, bunday qayta baholash natijasi amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda soliq solish maqsadlari uchun hisobga olinmaydi.

Nomoddiy aktivlarning qiymati belgilangan tartibda xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar, bundan nomoddiy aktivlar mustasno, soliq solish maqsadlarida guruhlar (kichik guruhlar) bo'yicha taqsimlanadi va ularni sotib olishga (yaratishga) doir chiqimlar amortizatsiya ajratmalari orqali amortizatsiyaning quyidagi cheklangan normalari bo'yicha xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

#### 2.1-jadval

**Amortizatsiya qilinadigan aktivlar amortizatsiyaning cheklangan normalari<sup>29</sup>**

Guruhlar tartib raqami	Kichik guruhlar tartib raqami	Asosiy vositalarning nomi	Amortizatsiya ning yillik eng yugori normasi, foizlarda
1		Binolar, imoratlar va inshootlar	
	1	Binolar, imoratlar	3
	2	Neft va gaz quduqlari	
	3	Neft-gaz omborlari	5
	4	Kema qatnaydigan kanallar, suv kanallari	

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

Guruhlar tartib raqami	Kichik guruhlar tartib raqami	Asosiy vositalarning nomi	Amortizatsiya ning yillik eng yuqori normasi, foizlarda
	5	Ko‘priklar	
	6	Dambalar, to‘g‘onlar	
	7	Daryo va dengiz prichal inshootlari	
	8	Korxonalarning temir yo‘llari	
	9	Qирғ‘оқни mustahkamlovchi, qирғ‘оқни himoyalovchi inshootlar	
	10	Rezervuarlar, sisternalar, baklar va boshqa sig‘imlar	
	11	Ichki xo‘jalik va xo‘jaliklararo sug‘orish tarmog‘i	
	12	Yopiq kollektor-drenaj tarmog‘i	
	13	Havo kemalarining uchish-qo‘nish yo‘llari, yo‘lkalari, to‘xtash joylari	
	14	Istirohat bog‘larining va hayvonot bog‘larining inshootlari	
	15	Sport-sog‘lomlashtirish inshootlari	
	16	Issiqxonalar va parniklar	
	17	Boshqa inshootlar	
<b>II</b>		<b>Uzatish qurilmalari</b>	
	1	Elektr uzatish hamda aloqa qurilmalari va liniyalari	
	2	Ichki gaz quvurlari va quvurlar	
	3	Vodoprovod, kanalizatsiya va issiqlik tarmoqlari	8
	4	Magistral quvurlari	
	5	Boshqalar	
<b>III</b>		<b>Kuch mashinalari va asbob-uskulnalar</b>	
	1	Issiqlik texnik asbob-uskulnalar	
	2	Turbina asbob-uskulnalar va gaz turbinalari qurilmalari	
	3	Elektr dvigatellari va dizel-generatorlar	8
	4	Kompleks qurilmalar	
	5	Boshqa kuch mashinalari va asbob-uskulnalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)	
<b>IV</b>		<b>Faoliyat turlari bo‘yicha ish mashinalari va asbob-uskulnalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)</b>	
	1	Iqtisidiyotning barcha tarmoqlariga tegishli mashinalar va asbob-uskulnalar	
	2	Qishloq xo‘jaligi traktorlari, mashinalari va asbob-uskulnalar	
	3	Kommunikatsiyalar va ma‘lumotlarni uzatish raqamlari elektron asbob-uskulnalar, raqamlili tizimlar uzatish asbob-uskulnalar, raqamlili aloqa o‘lchov texnikasi	15
	4	Yo‘Idosh, uyali aloqa, radiotelefon, peyjing va trunking aloqa asbob-uskulnalar	

Guruhsalar tartib raqami	Kichik guruhsalar tartib raqami	Asosiy vositalarning nomi	Amortizatsiya ning yillik eng yuqori normasi, foizlarda
	5	Uzatishlar tizimlari kommutatsiyalarining o'xshash asbob-uskunalar	
	6	Kinostudiyalarning maxsus asbob-uskunalar, tibbiy va mikrobiologiya sanoati asbob-uskunalar	
	7	Kompressor mashinalari va asbob-uskunalar	
	8	Nasoslar	
	9	Yuk ko'tarish-transport, yuk ortish-tushirish mashinalari va uskunalar, tuproq, karer hamda yo'l-qurilish ishlari uchun mashinalar va uskunalar	
	10	Ustun-qoziq qoqish mashinalari va uskunalar, maydalash-yanchish, saralash, boyitish uskunalar	
	11	Texnologik jarayonlar uchun barcha turdagи sig'imlar	
	12	Neft qazib chiqarish va burg'ulash uskunalar	
	13	Boshqa mashinalar va uskunalar	
V		<b>Harakatlanuvchi transport</b>	
	1	Temir yo'lining harakatdagi tarkibi	
	2	Dengiz, daryo kemalari, baliqchilik sanoati kemalari	4
	3	Havo transporti	
	4	Avtomobil transportining harakatdagi tarkibi, ishlab chiqarish transporti	
	5	Yengil avtomobillar	
	6	Sanoat traktorlari	
	7	Kommunal transport	20
	8	Maxsus vaxta vagonlari	
	9	Boshqa transport vositalari	
VI		<b>Kompyuter, periferiya qurilmalari, ma'lumotlarni qavta ishlash uskunalar</b>	
	1	Kompyuterlar	
	2	Periferiya qurilmalari va ma'lumotlarga ishlov berish uskunalar	
	3	Nusxa ko'chirish-ko'paytirish texnikasi	20
	4	Boshqa kompyuter, periferiya qurilmalari, ma'lumotlarga ishlov berish uskunalar	
VII		<b>Boshqa guruhlarga kiritilmagan asosiy vositalar</b>	15

Soliq solish maqsadlari uchun har bir kichik guruh bo'yicha amortizatsiya ajratmalari amortizatsiya normasini qo'llash orqali, biroq

Soliq kodeksida belgilangan cheklangan normadan ko‘p bo‘Imagan tarzda hisoblanadi.

Soliq solish maqsadlarida amortizatsiyani belgilanganidan pastroq normalar bo‘yicha hisoblashga, agar bu soliq solish maqsadlarida hisob siyosatida mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi.

Soliq bazasiga, nazarda tutilgan normalarga zid ravishda, to‘liq hisoblanmagan amortizatsiya summasi miqdorida tuzatishlar kiritish amalga oshirilmaydi.

Foydalanishda bo‘lgan asosiy vositalarni sotib oladigan soliq to‘lovchi ushbu ob’ektlar bo‘yicha amortizatsiya normasini, mazkur ob’ektdan avvalgi mulkdorlar tomonidan foydalanilgan yillar (oylar) soniga kamaytirilgan foydalanish muddatini hisobga olgan holda, belgilashga haqlidir.

Agar asosiy vositadan haqiqatda foydalanish muddati avvalgi mulkdorlarda asosiy vositalarning tasniflanishi asosida belgilanadigan foydali tarzda foydalanish muddatiga teng yoki undan ortiq bo‘lsa, soliq to‘lovchi texnika xavfsizligi talablarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda bu asosiy vositadan foydali tarzda foydalanish muddatini mustaqil ravishda, lekin uch yildan kam bo‘Imagan muddatga belgilashga haqli.

Ilgari foydalanishda bo‘lgan asosiy vositalardan foydalanish muddatini aniqlash imkoniyati bo‘Imagan taqdirda, amortizatsiyani hisoblash belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Amortizatsiya qilinadigan mol-mulk tekin olingan taqdirda, uning tekin olingan mol-mulk tarzida jami daromadga kiritilgan qiymati amortizatsiya qilinadigan mol-mulkning dastlabki qiymati bo‘ladi va bunda O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun

hujjatlariga muvofiq dastlabki tarzda e'tirof etish chog'ida shunday aktivlarning qiymatini ko'paytiruvchi haqiqiy chiqimlar inobatga olinadi.

Soliq solish maqsadlarida amortizatsiya qilinadigan mol-mulkning qiymatiga Soliq kodeksi 317-moddasining 17-bandida nazarda tutilgan xarajatlar kiritilmaydi.

Nomoddiy aktivlarning qiymati nomoddiy aktivlardan foydali tarzda foydalanish muddati mobaynidagi amortizatsiya ajratmalari orqali xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Nomoddiy aktivlardan foydali tarzda foydalanish muddatini aniqlash patentning, guvohnomaning amal qilish muddatidan va (yoki) intellektual mulk ob'ektidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq yoki qo'llanilishi mumkin bo'lgan chet davlat qonun hujjatlariga muvofiq foydalanish muddatlariga doir boshqa cheklardan kelib chiqqan holda yoxud nomoddiy aktivlardan foydali tarzda foydalanishning tegishli shartnomalarda shartlashilgan muddatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi tomonidan amortizatsiya ajratmalari ularning dastlabki qiymatidan va foydali tarzda foydalanish muddatidan kelib chiqib hisob-kitob qilingan normalar bo'yicha har oyda hisoblanadi.

Foydali tarzda foydalanish muddatini aniqlash mumkin bo'lмаган nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya normalari besh yillik muddatga belgilanadi.

Agar nomoddiy aktivlarni olish yoki ishlab chiqarish xarajatlari soliq to'lovchining soliq bazasini hisoblab chiqarish chog'ida xarajatlar jumlasiga kiritilgan bo'lsa, bu xarajatlar amortizatsiya qilinishi lozim bo'lgan nomoddiy aktivlarning qiymatiga kiritilmaydi.

Soliq to'lovchi amortizatsiya qilinadigan aktivlar bo'yicha investitsiyaviy chegirmalarni belgilangan tartibda va shartlarda qo'llashga haqli.

Investitsiyaviy chegirma amortizatsiya xarajati deb e'tirof etiladi.

Investitsiyaviy chegirma quyidagi miqdorda qo'llaniladi:

1) yangi texnologik uskunalar qiyamatining, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va (yoki) texnologik jihatdan qayta jihozlash xarajatlarining va (yoki) axborot tizimlarini yaratishga doir investitsiya loyihalari doirasida mahalliy ishlab chiqarishning dasturiy ta'minotini sotib olishga yo'naltiriladigan mablag'lar summalarining 10 foizi miqdorida;

2) ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalilanadigan binolar va inshootlarni rekonstruktsiya qilishga yo'naltiriladigan mablag'lar summasining 5 foizi miqdorida.

Soliq kodeksi 317-moddasining 17-bandiga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlar bo'yicha investitsiyaviy chegirma berilmaydi.

Investitsiyaviy chegirma yangi texnologik uskunani ishga tushirish amalga oshirilgan yoxud o'z ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, texnik va (yoki) texnologik jihatdan qayta jihozlash amalga oshirilgan, ishlab chiqarish yangi qurilish shaklida kengaytirilgan, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalilanadigan binolar va inshootlarni rekonstruktsiya qilish amalga oshirilgan, laboratoriya testlarini va sinovlarini o'tkazish uchun komplekslar, axborot tizimlarini yaratish bo'yicha investitsiya loyihalari doirasida mahalliy ishlab chiqarishning dasturiy ta'minoti sotib olingan hisobot (soliq) davrida qo'llaniladi.

Ushbu maqsadlarda:

- 1) tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqarish jarayonida soliq to‘lovchi tomonidan foydalaniladigan, chiqarilgan kundan e’tiboran uch yildan ko‘p bo‘limgan muddat o‘tgan mashinalar, apparatlar, qurilmalar, mexanizmlar yangi texnologik uskunalar deb e’tirof etiladi;
- 2) asosiy vositalarning texnologik yoki xizmatga oid mo‘ljallanilgan maqsadini o‘zgartirishga, ularning unumдорligini oshirishga yoki boshqa sifat xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan ishlar modernizatsiya qilish deb e’tirof etiladi;
- 3) ilg‘or texnika va (yoki) texnologiyani joriy etish asosida asosiy vositalarning yoki ularning ayrim qismlarining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini oshirish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ma’nан eskirgan va jismonan ishdan chiqqan uskunalarni yangi, nisbatan mahsuldor uskunalarga almashtirishga doir kompleks tadbirlar texnik va (yoki) texnologik jihatdan qayta jihozlash deb e’tirof etiladi. Texnik va (yoki) texnologik jihatdan qayta jihozlash ishlab chiqarislarning yangilarini barpo etish va amaldagilarini kengaytirishni ham o‘z ichiga oladi;
- 4) ishlab chiqarishni takomillashtirish hamda uning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan hamda ishlab chiqarish quvvatlarini ko‘paytirish, tovarlar (xizmatlar) sifatini yaxshilash va (yoki) ularning nomenklaturasini o‘zgartirish maqsadida rekonstruktsiya qilish loyihasi bo‘yicha amalga oshiriladigan, tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatish uchun foydalaniladigan, mavjud binolarni va inshootlarni qayta qurish ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolarni va inshootlarni rekonstruktsiya qilish deb e’tirof etiladi;

5) tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida foydalanish maqsadida yangi binolarni va inshootlarni qurish ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirish deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchi tomonidan amortizatsiya qilinadigan aktivlarni ta'mirlash uchun amalga oshirilgan xarajatlar qaysi hisobot (soliq) davrida amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha hisobot (soliq) davrida soliq solish maqsadlarida haqiqiy chiqimlar miqdorida xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Agar ijaraga oluvchi va ijaraga beruvchi o'rtasidagi shartnomada ijaraga oluvchining amortizatsiya qilinadigan aktivlarga doir xarajatlarining o'rnini ijaraga beruvchi tomonidan qoplash nazarda tutilmagan bo'lsa, ijaraga oluvchining mazkur xarajatlariga nisbatan ham qo'llaniladi.

Soliq to'lovchining qarz majburiyatları (kreditlar, tovar va tijorat kreditlari, qarzlar, bank omonatlari, bank hisobvaraqlari yoki rasmiylashtirish usulidan qat'i nazar, boshqa jallb qilingan mablag'lar) bo'yicha foizlar tarzidagi xarajatlari (bundan buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarida kapitallashtirish uchun ruxsat berilgan xarajatlar mustasno) o'ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, haqiqiy stavkadan kelib chiqib, chegirib tashlanadi.

Yuridik shaxsning nazorat qilinadigan qarzi bilan bog'liq xarajatlari hisobga olingan holda, belgilangan eng ko'p qiymatlardan oshmaydigan miqdorda chegirib tashlanadi. Mazkur qoida quyidagilarga nisbatan qo'llaniladi:

- 1) qarz mablag'laridan foydalanganlik uchun foizlarga;
- 2) neustoykalarning (jarimalar, penyalarning) summalari, javobgarlikning boshqa choralar qo'llanilganligi natijasida, shu jumladan

shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun zararlarning o‘rnini qoplash natijasida to‘lanishi lozim bo‘lgan summalarga.

Yuridik shaxsning quyidagi qarzlari nazorat qilinadigan qarzlar deb e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo‘limgan, mazkur soliq to‘lovchi aktsiyalarining (ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) paylar, ulushlarning) 20 foizidan ortig‘iga bevosita yoki bilvosita egalik qiladigan chet ellik yuridik yoki jismoniy shaxs oldidagi qarzi;

2) O‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxslar ko‘rsatilgan chet ellik shaxsning o‘zaro bog‘liq shaxsi deb e’tirof etiladigan boshqa shaxs oldidagi qarzi;

3) 1 va (yoki) 2-bandlarida ko‘rsatilgan shaxslar, oldida kafillik qiluvchi, kafil sifatida ish yurituvchi shaxs yoki ushbu soliq to‘lovchining ko‘rsatilgan qarzini to‘lashni ta’minalash yuzasidan majburiyatni boshqacha tarzda o‘z zimmasiga oladigan boshqa shaxs oldidagi qarz.

Nazorat qilinadigan qarz soliq davridagi quyidagi qarzlarning jami summalarini o‘z ichiga oladi:

qarz mablag‘lari bo‘yicha;

javobgarlikning boshqa choralar qo‘llanilganligi natijasida, shu jumladan shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun zararlarning o‘rni qoplanishi natijasida to‘lanishi lozim bo‘lgan neustoykalar (jarimalar, penyalar) summalarini bo‘yicha.

Soliq davrida mavjud bo‘lgan qarz deganda, qaysi xo‘jalik operatsiyasi natijasida joriy hisobot (soliq) davrida qarz yuzaga keladigan yoki ko‘payadigan bo‘lsa, o‘sha har bir xo‘jalik operatsiyasining qiymat ko‘rsatkichlari summasi, shuningdek joriy hisobot (soliq) davrining boshida to‘lanmagan qarzning summasi tushuniladi.

Chet ellik shaxs yoki boshqa shaxslar oldidagi nazorat qilinadigan qarz miqdori soliq to‘lovchining xususiy kapitalidan uch baravardan ortiq bo‘lsa, faqat lizing faoliyati bilan shug‘ullanuvchi banklar va soliq to‘lovchilar uchun esa o‘n uch baravardan ortiq bo‘lsa, xarajatlarning chegirib tashlanishi lozim bo‘lgan eng ko‘p miqdorini aniqlashda quyida belgilangan qoidalar qo‘llaniladi.

Soliq to‘lovchi nazorat qilinadigan qarzning har bir turi bo‘yicha eng ko‘p summalarini har bir hisobot (soliq) davrining oxirgi sanasida hisoblab chiqarishi shart. Hisob-kitob nazorat qilinadigan qarz bo‘yicha ayrim chiqimlarning (xarajatlarning) soliq davri boshlanganidan e’tiboran o‘sib boruvchi yakun bilan aniqlangan summasini tegishli hisobot (soliq) davrining oxirgi sanasida hisob-kitob qilinadigan kapitallashtirish koeffitsientiga bo‘lish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Kapitallashtirish koeffitsienti tegishli nazorat qilinadigan, to‘lanmagan qarz miqdorini ushbu chet el tashkilotining soliq to‘lovchi ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) bevosita yoki bilvosita ishtirot etishi ulushiga muvofiq bo‘lgan xususiy kapital miqdoriga bo‘lish hamda olingan natijani uchga, banklar va faqat lizing faoliyati bilan shug‘ullanuvchi soliq to‘lovchilar uchun esa o‘n uchga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Xususiy kapital miqdorini aniqlashda soliq to‘lovchining aktivlari summasi va majburiyatlarini miqdori (soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarz summalarini, shu jumladan ular bo‘yicha kechiktirish va bo‘lib-bo‘lib to‘lash summalarini hisobga olinmaydi) tegishli hisobot (soliq) davrining oxirgi kunidagi buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida aniqlanadi.

Nazorat qilinadigan qarzning har bir turi bo'yicha hisob-kitob qilingan, biroq haqiqatda hisoblangan xarajatlardan ko'p bo'limgan summalar xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan qazib olishni boshlashdan oldin geologik jihatdan o'rganish, qidirish, foydali qazilmalarni qazib olishga doir tayyorgarlik ishlari uchun amalga oshirilgan xarajatlar, shu jumladan baholashga, jihozlashga, imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusni to'lashga doir xarajatlar, shuningdek chegirib tashlanishi lozim bo'lgan boshqa xarajatlar amortizatsiya qilinadigan aktivning alohida guruhini tashkil etadi. Bunda Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda, bunday chiqimlar belgilangan normalar doirasida xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar foydali qazilmalarni qazib olish boshlangan paytdan e'tiboran soliq to'lovchining jami daromaddan amortizatsiya ajratmalari tarzida chegirib tashlanadi.

Amortizatsiya ajratmalarining har yilgi summasi, soliq to'lovchining xohishiga ko'ra belgilanadigan amortizatsiya normasini qo'llash yo'li bilan, biroq nazarda tutilgan amortizatsiya qilinadigan aktivlar guruhi bo'yicha to'plangan xarajatlar summasining 15 foizidan ortiq bo'limgan miqdorda hisoblab chiqariladi.

Nomahsuldor quduq tugatilgan yoxud soliq to'lovchi yer qa'ri uchastkasidagi ishlarni iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligi, geologik jihatdan istiqbolsizligi yoki boshqa sabablarga ko'ra tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, basharti yer qa'ridan foydalanish huquqi to'liq tugatilsa, soliq to'lovchi bunday huquq tugatilgan hisobot (soliq) davrida qilingan xarajatlar summasini chegirib tashlashga haqli.

Yangi mahsulotni (tovarlarni, xizmatlarni) yaratish yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotni (tovarlarni, ishlarni) takomillashtirish, ishlab chiqarishni va boshqaruvni tashkil etishning yangi texnologiyalarini, usullarini yaratish yoki qo'llanilayotgan shunday texnologiyalarini, usullarni takomillashtirish jumlasiga kiradigan xarajatlar ilmiy tadqiqotlarga va (yoki) tajriba-konstrukturlik ishlanmalarga doir xarajatlar deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchining ilmiy tadqiqotlarga va (yoki) tajriba-konstrukturlik ishlanmalariga doir xarajatlari, amortizatsiya qilinadigan aktivlarni olishga oid xarajatlardan tashqari, tegishli ilmiy tadqiqotlar va (yoki) tajriba konstrukturlik ishlanmalarining natijasidan qat'i nazar, nazarda tutilgan tartibda bunday tadqiqotlar va ishlanmalar (xizmatlarning alohida bosqichlari) tugallangan va (yoki) qabul qilish-topshirish dalolatnomasini taraflar imzolaganidan keyin chegirib tashlanadi.

Agar soliq to'lovchi ilmiy tadqiqotlar va (yoki) tajriba-konstrukturlik ishlanmalari yuzasidan amalga oshirilgan xarajatlar natijasida intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mutlaq huquqlarni olsa, mazkur huquqlar nomoddiy aktivlar deb e'tirof etiladi. Bunday holda ko'rsatilgan xarajatlar belgilangan tartibda chegirib tashlanadi.

Shartnoma bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni va (yoki) tajriba-konstrukturlik ishlanmalarini ijrochi (pudratchi yoki subpudratchi) sifatida bajaruvchi soliq to'lovchilarning xarajatlarini soliq solish maqsadlarida e'tirof etishga nisbatan tatbiq qilinmaydi.

Sudning qaroriga ko'ra, bankrotlik, tugatish, qarzdor vafot etganligi tufayli majburiyatlar tugatilganligi oqibatida yoki da'vo muddati o'tganligi oqibatida to'lanishi mumkin bo'lmagan qarz umidsiz qarz deb e'tirof etiladi.

Soliq to‘lovchi oldingi hisobot (soliq) davrlarida soliq solinadigan daromadlar olish bilan bog‘liq bo‘lgan umidsiz qarzlarni chegirib tashlashga haqli.

Umidsiz qarzlarni chegirib tashlashga faqat qarz hisobdan chiqarilgan va soliq to‘lovchining buxgalteriya hisobotida aks ettirilgan taqdirda yo‘l qo‘yiladi.

Sotib olingan tovarlarning (xizmatlarning) qiymatida qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha quyidagi chiqimlar hisobga olinadi:

1) belgilangan tartibda hisobga olinmaydigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi;

2) belgilangan tartibda qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi;

3) qo‘shilgan qiymat solig‘iga tuzatish kiritish summasi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisobga olinmaydigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini quyidagi hollarda xarajatlar jumlasiga kiritishga haqli:

1) mutanosib usulni qo‘llashda;

2) agar soliqning tuzatish kiritish summasini bunday tuzatish amalga oshirilayotgan sotib olingan tovarlarning (xizmatlarning) qiymatiga kiritish mumkin bo‘lmasa, qo‘shilgan qiymat solig‘iga muvofiq tuzatish kiritishda;

3) qo‘shilgan qiymat solig‘iga tuzatish kiritishda.

Banklar va bank operatsiyalarini amalga oshirishga doir litsenziya asosida bank operatsiyalarining ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, shuningdek sug‘urta tashkilotlari qonun hujjatlari talablariga muvofiq zaxira fondlarini tashkil etadi.

Zaxira fondlariga ajratmalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va normalar doirasida xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Yuqoridagi qoidalari sof foyda hisobidan shakllantiriladigan zaxira fondlarini tashkil etish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Haqiqiy xarajatlar, ularga nisbatan zaxira fondi shakllantirilgan bo‘lsa, tashkil etilgan zaxira fondi summasi hisobidan chiqariladi.

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi soliq to‘lovchi kafolatli ta’mirlash va kafolatli xizmat ko‘rsatish yuzasidan kelgusi xarajatlar uchun zaxira tashkil etishga haqli. Bunday zaxirani shakllantirishga doir ajratmalar nazarda tutilgan tartibda chegirmalar jumlasiga kiritiladi. Soliq to‘lovchi bunday zaxirani tashkil etish to‘g‘risidagi qarorni mustaqil ravishda qabul qiladi va soliq solish maqsadlari uchun hisob siyosatida ajratmalarning eng yuqori miqdorini aniqlaydi.

Zaxira xaridor bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq kafolatli muddat davomida xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash nazarda tutilgan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan tashkil etiladi. Mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish sanasidagi zaxiraga ajratmalar summasi xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Tashkil etilgan zaxiraning miqdori kafolatli ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha soliq to‘lovchi tomonidan haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlarning mazkur tovarlarni (xizmatlarni) o‘tgan uch yil davomida realizatsiya qilishdan olingan tushum hajmidagi ulushi sifatida aniqlanadigan, hisobot (soliq) davrida mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum summasiga ko‘paytirilgan eng ko‘p miqdordan oshmasligi kerak. Agar soliq to‘lovchi tovarlarni (xizmatlarni) kafolatli ta’mirlashni va xizmat ko‘rsatishni bajarish sharti bilan realizatsiya qilishni uch yildan kam muddatda amalga oshirayotgan bo‘lsa, tashkil

etilayotgan zaxiraning eng ko‘p miqdorini hisob-kitob qilish uchun mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning bunday realizatsiya qilishning haqiqiy davridagi hajmi inobatga olinadi.

Ilgari tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishni kafolatli ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish sharti bilan amalga oshirmagan soliq to‘lovchi mazkur chiqimlar uchun kutilayotgan xarajatlarning miqdoridan oshmaydigan miqdordagi zaxirani tashkil etishga haqli. Kutilayotgan xarajatlar deganda kafolat muddati inobatga olingan holda kafolat majburiyatlarini bajarish rejasida nazarda tutilgan xarajatlar tushuniladi.

Soliq davri tugagach, soliq to‘lovchi tashkil etilgan zaxiraning miqdoriga kafolatli ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlarning mazkur tovarlarni (xizmatlarni) o‘tgan davrda realizatsiya qilishdan olingan tushum hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda tuzatish kiritishi kerak.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq davrida kafolatlar berish sharti bilan realizatsiya qilingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha kafolatli ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish uchun to‘liq foydalanimagan zaxira summasi soliq to‘lovchi tomonidan keyingi soliq davriga o‘tkazilishi mumkin. Bunda keyingi soliq davrida yangi tashkil etilayotgan zaxiraning summasiga zaxiraning oldingi soliq davridagi qoldig‘i summasi miqdorida tuzatish kiritilishi kerak. Agar yangi tashkil etilayotgan zaxiraning summasi oldingi soliq davrida tashkil etilgan zaxira qoldig‘ining summasidan kam bo‘lsa, ular o‘rtasidagi farq soliq to‘lovchining joriy soliq davridagi daromadlari tarkibiga kiritilishi lozim.

Agar soliq to‘lovchi zaxira tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilsa, kafolatli ta’mirlashga doir haqiqiy xarajatlarni hisobdan chiqarish tashkil

etilgan zaxira hisobidan amalga oshiriladi. Agar tashkil etilgan zaxiraning summasi soliq to'lovchi tomonidan amalga oshirilgan ta'mirlash xarajatlarining summasidan kam bo'lib qolsa, ular o'rtasidagi farq chegirmalar jumlasiga kiritilishi lozim.

Soliq to'lovchi tovarlarni (xizmatlarni) kafolatli ta'mirlash va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish sharti bilan sotishni tugatish to'g'risida qaror qabul qilganda, ilgari tashkil etilgan va foydalanimagan zaxiraning summasi kafolatli ta'mirlash va kafolatli xizmat ko'rsatishga doir shartnomalarning amal qilish muddatlari tugaganidan keyin daromadlar tarkibiga kiritilishi lozim.

Soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanmaydigan xarajatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) qonun hujjatlariga muvofiq vakolatli organ tomonidan belgilangan moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalardan, ular mavjud bo'lmaganda esa, soliq to'lovchi tomonidan belgilangan normalardan ortiqcha tovarlar yo'qolishi;

2) umumiy ovqatlanish korxonalariga yoki boshqa tashkilotlarga joylarni tekin berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlarning qiymatini to'lash;

3) soliq to'lovchining, jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblangan xarajatlari;

4) dala (safar) ta'minoti, xodimning shaxsiy avtotransportidan xizmat maqsadlarida foydalanganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'lovlar;

5) pensiyalarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar;

6) moddiy yordam;

- 7) xayriya yordami tarzida berilgan mablag'lar, bundan metsenatlik ko'magini ko'rsatish uchun yo'naltirilgan mablag'lar mustasno;
- 8) qonun hujjalarda nazarda tutilgan normalardan ortiqcha tarzda atrof-muhitni ifoslantirganlik va chiqindilar joylashtirganlik uchun kompensatsiya to'lovlar;
- 9) loyihalar va qurilish-montaj ishlari dagi kamchiliklarni, ob'ekt yonidagi omborga tashib keltirilguniga qadar yuz bergan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etishga doir xarajatlар, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o'tkazish (asbob-uskunalarni qismrlarga ajratish) xarajatlari hamda ushbu xarajatlarning o'rmini kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo'lgan mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobidan qoplash imkonini bo'limgan miqdordagi boshqa shunga o'xshash xarajatlар;
- 10) aybdorlari aniqlanmagan talon-taroj qilishlar va kamomadlardan yoki aybdor taraf hisobidan zarur summalarining o'rmini qoplash imkonini bo'limgan taqdirda ko'rilgan zararlar;
- 11) boshqa shaxslar uchun to'langan soliqlar;
- 12) soliq tekshiruvlari natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar va yig'imlar;
- 13) soliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'limgan tadbirlarga (sog'liqni saqlashga oid, sport va madaniy tadbirlar, dam olishni tashkil etish hamda boshqa shunga o'xshash tadbirlarga) doir xarajatlari, bundan tadbirlarni o'tkazishga doir majburiyatlar qonun hujjalari bilan soliq to'lovchining zimmasiga yuklatilgan hollar mustasno;
- 14) kasaba uyushmalari qo'mitalariga yordam ko'rsatish;

- 15) mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'limagan xizmatlar (shaharlarni va shaharchalarni obodonlashtirish bo'yicha xizmatlar, qishloq xo'jaligiga yordamlashish va xizmatlarning boshqa turlari) ko'rsatganlik uchun qilingan xarajatlar;
- 16) ushbu bo'limda nazarda tutilgan hollardan tashqari soliq solinmaydigan daromad olish bilan bog'liq xarajatlar;
- 17) haqiqatda xizmatlar ko'rsatmasdan, tovarlarni jo'natmasdan turib amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha xarajatlar, agar bunday fakt sudning qonunij kuchga kirgan qarori bilan aniqlangan va unda ushbu xarajatlarni amalga oshirgan soliq to'lovchining nomi ko'rsatilgan bo'lsa;
- 18) daromad olishga qaratilgan faoliyat bilan bog'liq bo'limagan xarajatlar, agar qonun hujjatlariga muvofiq bunday xarajatlarni amalga oshirish majburiyati soliq to'lovchining zimmasiga yuklatilmagan bo'lsa;
- 19) budjet tizimiga kiritilishi lozim bo'lgan (kiritilgan) penyalar, jarimalar va boshqa sanksiyalar;
- 20) sotib olishga, ishlab chiqarishga, qurilishga, montaj qilishga, o'rnatishga doir va amortizatsiya qilinadigan aktivlarning qiymatiga qo'shiladigan boshqa xarajatlar, shu jumladan qo'shimcha qurish, qo'shimcha jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash hollarida amalga oshiriladigan, amortizatsiya chegirmalari vositasidagi xarajatlar jumlasiga kiritiladigan xarajatlar;
- 21) soliq to'lovchining amortizatsiya qilinmaydigan mol-mulkning boshlang'ich qiymatiga buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq kiritiladigan xarajatlari;

- 22) chegirmalar jumlasiga kiritish normalari belgilangan xarajatlarning mazkur normalar qo'llanilgan holda hisoblab chiqarilgan chegirmaning eng yuqori summasidan ortiq bo'lgan summa;
- 23) shakllantirilishi ushbu bo'limda va (yoki) qonun hujjatlari talablarida nazarda tutilmagan zaxiralarga, zaxira fondlari va boshqa fondlarga ajratmalar;
- 24) soliq to'lovchi tomonidan hisoblangan dividendlar summalar;
- 25) soliq to'lovchi tomonidan boshqa shaxslarning foydasiga to'lanadigan ixtiyoriy sug'urta badallari;
- 26) soliq to'lovchi tomonidan soliq solish maqsadlarida xarajatlar deb e'tirof etiladigan xarajatlarning summasidan ortiqcha hisoblangan foizlar va ayrim chiqimlar;
- 27) tekin berilgan mol-mulkning (xizmatlarning) qiymati va bunday berish bilan bog'liq bo'lgan (shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'i summasi kiritilgan) xarajatlar, bundan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra mol-mulkni o'tkazish, shuningdek telekommunikatsiya tarmoqlaridagi tezkor-qidiruv tizimining texnik vositalarini o'tkazish va ulardan foydalanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish mustasno;
- 28) ishonchli boshqaruva muassisining ishonchli boshqaruva shartnomasini bajarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari, agar ishonchli boshqaruva shartnomasiga ko'ra muassis naf oluvchi bo'lmasa;
- 29) notijorat tashkilotlariga va xalqaro tashkilotlarga to'lanadigan badallar, yig'imlar va boshqa to'lovlar, bundan bunday badallarni, yig'imlarni va boshqa to'lovlarini to'lash qonun hujjatlarida (shu jumladan chet davlatlarning qonun hujjatlarida) nazarda tutilgan va (yoki) ushbu

badallarni, yig‘imlarni va boshqa to‘lovlarni to‘lagan soliq to‘lovchilar tomonidan faoliyatni amalga oshirishning sharti yoxud mazkur tashkilotlar tomonidan soliq to‘lovchilar o‘z faoliyatini yuritishi uchun zarur xizmatlar taqdim etishning sharti bo‘lgan hollar mustasno;

30) soliq to‘lovchi tomonidan tashkil etilgan zaxira mablag‘lari hisobiga amalga oshirilgan xarajatlar, agar bunday zaxiralarni tashkil etishga doir xarajatlar belgilangan tartibda chegirmalar jumlasiga kiritilgan bo‘lsa;

31) mol-mulk narxining pasayish (qadrsizlanish) summalar;

32) oddiy shirkat shartnomasi doirasida sheriklar (ishtirokchilar) tomonidan shartnomada sheriklarining (ishtirokchilarining) umumiyl mulkdagi ulushni qaytarish yoki bunday mol-mulkni bo‘lish chog‘ida ko‘rilgan zararlar;

33) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisi tomonidan ushbu guruhning mas’ul ishtirokchisiga soliqni (bo‘nak to‘lovlari, joriy to‘lovlarni, penyalarni, jarimalarni) Soliq kodeksida soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi uchun belgilangan tartibda to‘lash uchun berilgan pul mablag‘lari, shuningdek soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi tomonidan shu guruhning ishtirokchisiga ushbu soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq (bo‘nak to‘lovlari, joriy to‘lovlar, penyalar, jarimalar) summasi aniqlashtirilishi munosabati bilan berilgan pul mablag‘lari;

34) tovar-moddiy qimmatliklarni yaroqsizligi sababli (saqlash muddati o‘tganligi, jismoniy va (yoki) ma’naviy eskirganligi, shunga o‘xhash boshqa sabablarga ko‘ra) hisobdan chiqarishdan ko‘rilgan zararlar,

bundan favqulodda holatlar (tabiiy ofat, yong'in, avariya, yo'l-transport hodisasi va hokazolar) oqibatida ko'rilgan zararlar mustasno);

35) muddati o'tgan va kechiktirilgan kreditlar (qarzlar) bo'yicha muddatli qarz uchun kredit shartnomasida nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha foizlar;

36) xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun to'langan yoki tan olingan jarimalar, penyalar va sanksiyalarning boshqa turlari.

#### **2.4. Foyda solig'i stavkalari, soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va soliq to'lash tartibi.**

Foyda solig'i stavkalari Soliq kodeksi bilan tasdiqlanadi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalarining yillar davomida o'zgarishini quyidagi jadval asosida kuzatishimiz mumkin.

2.1-jadval

**Yuridik shaxslar foydasiga solinadigan soliq stavkalarining o'zgarish dinamikasi<sup>30</sup>**

Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda												
	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 - 2009 yy.	2010-2013 y.	2014 y.	2015-2017 yy.	2018 y.	2019 y.	2020 y.
Yuridik shaxslar	24	20	18	15	12	10	10	9	8	7,5	14	12	15
Tijorat banklari	-	-	-	-	-	17	15	15	15	15	22	20	20
Aukcionlar o'tkazishdan, gastrol-konsert, ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35	35	35	35	35	35	35	35	35	35	-	-	-

Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

<sup>30</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

Foyda solig'i stavkalari<sup>31</sup>

N	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Banklar	20
2	Quyidagi soliq to'lovchilar: sement (klinker) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; faoliyatining asosiy turi mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishdan iborat bo'lgan	20
3	O'zi ishlab chiqargan o'z qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan foyda bo'yicha Soliq kodeksining 57-moddasida nazarda tutilgan mezonlarga javob beruvchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va baliq xo'jaligi korxonalar	0
4	Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar	0
5	Qo'shimcha manbalardan daromadlar oluvchi budjet tashkilotlari	0
6	Tovarlarni (ishlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan foyda	0
7	Bozor va savdo komplekslarida xizmat ko'rsatishdan olingan foyda	20
8	Tovarlarning (xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi elektron tijorat sub'ektlarining milliy reyestriga kiritilgan soliq to'lovchilar	7,5
9	Yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va umumiy xodimlar sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan va nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash jamg'armasi mehnatiga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan soliq to'lovchilar	0
10	O'zbekiston Respublikasi Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olinadigan daromadlar	0
11	Dividendlar tarzidagi daromadlar	5
12	Qolgan soliq to'lovchilar, bundan 1-11-bandlarda ko'rsatilganlar mustasno	15

Soliq stavkalarining 2-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar faoliyatning barcha turlari bo'yicha belgilangan soliq stavkasini qo'llaydi.

Soliq stavkalarining 3-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar, agar o'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan daromadlari jami daromadning 90 foizdan ko'prog'ini tashkil etsa, faoliyatning barcha turlari bo'yicha 0 foiz miqdorida soliq stavkasini qo'llashga haqlidir.

<sup>31</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to'lovchi bjtimoiy soha mezonlariga rioxanasi etmagan taqdirda, mazkur shartlarga rioxanasi etmaganlik ro'y bergan soliq davrining boshlanishidan e'tiboran coliq stavkalarining 12-bandida belgilangan soliq stavkasini ilgari o'tgan soliq davrlari uchun aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etgan holda qo'llaydi.

Soliq stavkalarining 8-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar, agar ko'rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olingan daromadlar joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 90 foizini tashkil etsa, 7,5 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo'llashga haqlidir.

Qo'shimcha manbalardan daromad oluvchi byudjet tashkilotlari, basharti bo'shatilayotgan mablag'lardan qonun hujjalardan belgilangan tartibda byudjet tashkilotlarining moddiy-texnika va ijtimoiy bazasini mustahkamlash, o'z xodimlarini moddiy rag'batlantirish uchun maqsadli tarzda foydalansa, 2023 yilning 1 yanvariga qadar 0 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo'llaydi.

O'zida ishlovchilarning umumiy o'rtacha yillik sonining 3 foizidan ko'prog'i nogironligi bo'lgan shaxslarni tashkil etadigan yuridik shaxslar uchun soliq stavkasi ushbu moddada belgilangan normadan ortiqcha ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga soliq stavkasining bir foizi hisobidan kamaytiriladi.

Soliq stavkalarining 6-bandida nazarda tutilgan 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to'lovchilar tomonidan, agar tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olinadigan daromadlar jami daromadning kamida 15 foizini tashkil etsa, qo'llaniladi.

Tovarlar eksport qilinganda, shu jumladan tovar vositachi (ishonchli vakil) orqali realizatsiya qilinganda, 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to'lovchilar tomonidan, nazarda tutilgan tovarlarning eksportini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lгanda, qo'llaniladi.

Tovarlar eksport qilinganda, 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to'lovchilar tomonidan, tovarlarni chet el valyutasida eksport qilish yuzasidan daromadlar tovarlar (xizmatlar) eksportga chiqarilgan kundan e'tiboran bir yuz sakson kalendar kuni ichida kelib tushmagan taqdirda, qo'llanilmaydi.

Tovarlar eksport qilinganda, 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi qo'llashga qo'yilgan yuqoridagi talablar quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

1) ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan xom ashyo tovarlar eksportiga;

2) xalqaro tashishlar xizmatlariga, bundan avtotransportda tashishlar mustasno;

3) tovarlarni quvurlar orqali va gaz quvurlari orqali tashish bo'yicha xizmatlarga.

Foydali qazilmalarni qazib olish sohasida faoliyatni amalga oshirayotgan ayrim soliq to'lovchilar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan oshirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan va doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lman daromadlaridan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

Norezident yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan va doimiy muassasa bilan bog'liq bo'Imagan daromadlaridan soliq stavkalari<sup>32</sup>

N	Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Dividendlar va foizlar	10
2	Sug'urta, birligida sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari	10
3	Xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlar (fraxtdan olingan daromadlar)	6
4	Investitsiya loyihalarini molyalshtirish uchun jalg etilgan kreditlar bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi banklari va lizing beruvchilari tomonidan chet el moliya institutlariga to'lanadigan daromadlar	0
5	O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ular yuzasidan hisob-kitoblarni amalga oshirish, shuningdek xalqaro to'lov kartochkalari vositasida hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar	0
6	Boshqa daromadlar, bundan 1-5-bandlarda ko'rsatilgan daromadlar mustasno	20

Kalendar yil soliq davridir.

Yilning choragi hisobot davridir.

Foyda solig'i summasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{S_b} = \mathbf{J_d} - \mathbf{I} - \mathbf{Ch_x} - \mathbf{Z},$$

bu yerda:

**S<sub>b</sub>** – soliq bazasi

**J<sub>d</sub>** – jami daromad;

**I** – imtiyozlar va soliqqa tortiladigan bazaning kamayishi;

**Ch<sub>x</sub>** – chegirib tashlanadigan xarajat;

**Z** – o'tkaziladigan zararlar summalari (o'tgan davrlarda zararlar mavjud bo'lsa).

<sup>32</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.

$$\mathbf{F}_s = \mathbf{S}_b \times \mathbf{S}_s,$$

bu yerda:

$\mathbf{F}_s$  – foyda solig‘i summasi;

$\mathbf{S}_s$  – foyda solig‘i stavkasi.

Hisobot (soliq) davrining yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi.

Hisobot davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq davrining boshidan oshib boruvchi yakun bilan, soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo‘lgan foizlardagi ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq to‘lovchi foyda solig‘ini yoki chet davlatda to‘langan daromadlardan olinadigan xuddi shunday turdag'i to‘langan soliqni hisobga o‘tkazish yo‘li bilan soliq summasini kamaytirishga haqli.

Soliq hisoboti barcha soliq to‘lovchilar tomonidan har bir hisobot va soliq davri o‘tganidan keyin soliq bo‘yicha hisobda turgan joyidagi soliq organiga taqdim etiladi.

Soliq hisoboti quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) hisobot davri yakunlari bo‘yicha - hisobot davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay;

2) soliq davri yakunlari bo‘yicha - soliq davri o‘tgandan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay.

Soliqni to‘lash hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha, tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Jami daromadi joriy soliq davridan oldingi soliq davri uchun kiritilgan tuzatishlar hisobga olingan holda 5 milliard so‘mdan oshadigan soliq

to‘lovchilar hisoblab chiqarilgan har oylik bo‘nak to‘lovlarni hisobot davri har bir oyining 23 kunidan kechiktirmay to‘laydi.

Har oylik bo‘nak to‘lovini hisoblab chiqarish soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Jami yillik daromadning miqdoridan qat’i nazar, soliq hisobotini soliq bo‘yicha faqat soliq davri yakunlari yuzasidan taqdim etuvchi soliq to‘lovchilar har oylik bo‘nak to‘lovlarni to‘lamaydi.

Soliq to‘lovchi tugatilganda soliq tugatish yakunlanguniga qadar to‘lanishi lozim.

### **Nazorat savollari**

1. Foyda solig‘i O‘zbekistonda qachon joriy qilingan?
2. Foyda solig‘i to‘lovchilari kimlar?
3. Rezident va norezident yuridik shaxslar kimlar?
4. Foyda solig‘ining ob‘yekti va bazasi qanday aniqlanadi?
5. Foyda solig‘i hisobotlarini topshirish va soliqni to‘lash tartibi qanday belgilangan?

### **III BOB. AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ**

#### **3.1. Aylanmadan olinadigan soliqning joriy etilishi va soliq to‘lovchilar.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 27 sentabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 1997 yilgi davlat budjeti munosabati bilan soliq islohotini chuqurlashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 1565-sonli Farmoniga asosan amaldagi soliqlar o‘rniga mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan daromadning 25 foiziga qadar miqdordagi yagona soliqni joriy etish yo‘li bilan barcha mulkchilik shaklidagi kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning tabaqlashtirilgan soddalashtirilgan tizimi joriy etildi.

Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kichik biznes subektlariga soliq solish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi.

2020 yildan olib borilgan islohotlar natijasida Soliq kodeksiga asosan yagona soliq to‘lovi o‘rniga aylanmadan olinadigan soliq joriy etildi.

Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi 1 milliard so‘mdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi 100 million so‘mdan oshgan, lekin 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Aylanmadan olinadigan soliq quyidagi larga nisbatan tatbiq etilmaydi:

- 1) O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga;
- 2) aksiz solig'i to'lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;
- 3) yuridik shaxslar - qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga, basharti ularda ellik gektar va undan ortiq sug'oriladigan qishloq xo'jaligi ekin maydoni mavjud bo'lsa;
- 4) benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;
- 5) lotoreyalarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;
- 6) oddiy shirkat ishlarini yuritish o'z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxsga - oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo'yicha;
- 7) bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan ob'ektlar, shuningdek foydalanimayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo'lgan yuridik shaxslarga, ulardan samarasiz foydalanimayotganligi bo'yicha qonunda belgilangan tartibda xulosa kiritilganda;
- 8) markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan ob'ektlarni (joriy va kapital ta'mirlash bundan mustasno) qurishni bajaruvchi yuridik shaxslarga;
- 9) alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivoni chakana sotish bo'yicha turg'un savdo shaxobchalariga;

10) bozorlarga va savdo komplekslariga.

Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi 1 milliard so‘mdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari bo‘lgan soliq to‘lovchilar qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lash o‘rniga aylanmadan olinadigan soliq to‘lashni nazarda tutadigan maxsus soliq rejimini tanlashga haqli.

Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi 1 milliard so‘mdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari bo‘lgan soliq to‘lovchilar aylanmadan olinadigan soliq to‘lashga navbatdagi soliq davridan boshlab o‘tishga haqli. Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tish uchun soliq to‘lovchilar aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tishi to‘g‘risida soliq hisobida turgan joyidagi soliq organini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda, biroq aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tilayotgan navbatdagi soliq davri boshlanishiga qadar 10 kundan kechiktirmay xabardor qiladi.

soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi 100 million so‘mdan oshgan, lekin 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagи tadbirkorlar bo‘lgan soliq to‘lovchilarning soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi 100 million so‘mdan oshganda, soliqning oshib ketgan summasidan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tadi.

soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi 100 million so‘mdan oshgan, lekin 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagи tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash o‘rniga qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishga haqli. Soliq

solist tartibini tanlash uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari 100 million so‘mdan oshgan sanadan 5 kundan kechiktirmay, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda bildirishnoma yuboradi.

Bildirishnoma ko‘rsatilgan muddatlarda taqdim etilmaganda yakka tartibdagi tadbirkor aylanmadan olinadigan soliq to‘laydi.

Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran tadbirkorlik faoliyati sub’ektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish chog‘ida tanlangan soliq solish tartibini ko‘rsatish orqali aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash tartibini tanlash huquqjiga ega.

Yuridik shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni qo‘llashni qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun va bir vaqtning o‘zida aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashni rad etishga doir ariza berilgan oydan keyingi oyning 1-sanasidan boshlab ixtiyoriy ravishda rad etishga haqli.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga ixtiyoriy ravishda o‘tgan soliq to‘lovchilar, basharti joriy soliq davri yakunlari bo‘yicha tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadlari 1 milliard so‘mdan oshmagan bo‘lsa, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga kamida 12 oydan keyin qayta o‘tishga haqli.

Soliq davri davomida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar, shu jumladan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar bunday oshish ro‘y bergen oydan keyingi

oyning 1-sanasidan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Agar yangi tashkil etilgan yuridik shaxsda yoki yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingen daromad summasi ro'yxatdan o'tilgan sanadan to kalender yil tugaguniga qadar, 365 ga bo'lingan va ro'yxatdan o'tilgan sanadan to kalender yil tugaguniga qadar bo'lgan kunlar soniga ko'paytirilganda bir milliard so'mga teng summadan oshsa, u holda bunday shaxslar ro'yxatdan o'tilgan yildan keyingi yildan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi soliq to'lovchilar, shu jumladan telekommunikatsiyalar operatorlari va (yoki) provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingen daromadni realizatsiya qilish bo'yicha umumiylashtirish (bitim summalaridan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan ob'ektlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo'lgan yuridik shaxslar, ularni samarasiz foydalanayotganligi bo'yicha xulosa kiritilgan oydan keyingi oyning 1-sanasidan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Qurilishi tugallanmagan ob'ektlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdorlari bo'lgan yuridik shaxslar, investitsion loyihaning amalga oshirilmaganligi to'g'risida xulosa berishga vakolati

bo‘lgan vakolatli organning xulosasi chiqarilgan oydan keyingi oyning 1-sanasidan e’tiboran qo’shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o’tadi.

Moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari hisobidan ob’ektlar qurilishini (bundan joriy va kapital ta’mirlash mustasno) bajaruvchi yuridik shaxslar bunday qurilishga doir shartnoma rasmiylashtirilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan e’tiboran qo’shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o’tadi.

Soliqni to‘lash soliq to‘lovchini quyidagilardan ozod etmaydi:

uning zimmasiga yuklatilgan soliq agentining majburiyatlarini bajarishdan;

hisobvaraq-faktura taqdim etish, xaridlarni hisobga olish kitobini va sotishlarni hisobga olish kitobini yuritish majburiyatidan.

### **3.2. Aylanmadan olinadigan soliq solish ob’yekti va soliq bazasi.**

Yuridik shaxslarning jami daromadlari soliq solish ob’ektidir, bundan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda soliq solish chog‘ida inobatga olinmaydigan daromadlar mustasno.

Soliq solish maqsadida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad deganda quyidagilar tushuniladi:

qurilish, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun - o‘z kuchlari bilan bajarilgan, tegishinchaligiga qurilish, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan xizmatlarni materiallar bilan ta’mirlash majburiyati shartnomaga binoan

buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar bajarilgan hamda tasdiqlangan xizmatlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi daromadi sifatida belgilanadi;

mol-mulkni moliyaviy ijara (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi;

vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun - ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

tovarlarni (xizmatlarni) tekin beruvchi yuridik shaxslar uchun - agar boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, tovarlarning (xizmatlarning) tannarxi yoki ularni olish bahosi (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda). Mazkur norma ekologiya, sog'lomlashdirish hamda xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim muassasalariga bepul beriladigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi;

notijorat tashkilotlarining Soliq kodeksi 318-moddasining 1-qismida ko'rsatilmagan daromadlari.

Soliq solish ob'ekti bo'lib quyidagilar ham hisoblanadi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) quyidagilarga:

a) ishtirokchilar tarkibidan ishtirokchi chiqqan (chiqb ketgan) taqdirda yoxud uning yuridik shaxsdagi ulushi kamaytirilganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan uning ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish

ulushi (ulushning qismi) qaytarib sotib olinganda ushbu ishtirokchiga berish;

b) yuridik shaxs bo‘lgan emitent tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalar qaytarib sotib olinganda aksiyadorga berish;

v) yuridik shaxs tugatilganda aksiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

2) tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxs mehnatiga haq to‘lash hisobidan yoki dividend to‘lash hisobidan berish;

3) tovarlarni yoki boshqa mol-mulkni qayta ishlab berish uchun berish, agar tovarlar va (yoki) mulk qayta ishlash mahsuloti sifatida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo‘lsa;

4) ko‘p marta aylanadigan, sotuvchiga qaytarilishi shart bo‘lgan idishlarni, agar idish mahsulotni shunday idishda yetkazib berish shartnomasida belgilangan muddatda qaytarilmagan bo‘lsa, berish.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish huquqini taqdim etuvchi vaucherlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish deb e’tirof etiladi.

Uzoq muddatli shartnomalar bo‘yicha daromadlar jami daromad tarkibiga kiritiladi.

Balansning valyuta hisobvaraqlarini qayta baholash chog‘ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o‘rtasidagi saldo soliq solish ob’ekti deb e’tirof etiladi. Kursdagи salbiy farqning summasi kursdagи ijobiy farq summasidan ortiq bo‘lgan taqdirda oshib ketgan summa aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarishda soliq bazasini kamaytirmaydi.

Soliq to‘lovchilar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i yoxud qo‘silgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i to‘lash

davrida aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tguniga qadar olingan daromadlar jami daromadga kiritilmaydi.

Hisoblab chiqarilgan jami daromad soliq bazasi deb e’tirof etiladi, bundan quyidagilar mustasno:

1) O‘zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va boshqa davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslarning xalqaro obligatsiyalari bo‘yicha daromadlar;

2) soliq agentida soliq solinishi lozim bo‘lgan dividendlar;

3) qaytariladigan ko‘p marta aylanadigan tara qiymati, agar uning qiymati ilgari tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan olinadigan daromadga kiritilgan bo‘lsa;

4) amortizatsiya qilinadigan aktivlarni tugatishda ularni qo‘sishimcha baholashda olingan, oldingi narxni tushirishlardagi summadan ortiqcha summa hisobidan olingan daromadlar;

5) hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular shakllangan davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar bo‘yicha qayta hisob-kitob o‘tkazilganligi inobatga olingan holda soliq solinadi;

6) tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlar, agar tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlar umumiy daromadning 15 foizidan ko‘prog‘ini tashkil etsa.

Soliq solinadigan baza yuqorida nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) brokerlik tashkilotlari uchun - bitim summasidan birjaga o‘tkaziladigan vositachilik yig‘imi summasiga;

2) komissiya shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun - tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari summasiga realizatsiya qilingan tovar ulushida;

3) turizm faoliyati sub'ektlari uchun - turistik xizmatlarni onlayn bronlashtirish va sotish uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarni hamda axborot tizimlarini joriy etishga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq bazasi bo'lib hisoblab chiqilgan, uning tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan jami daromadi hisoblanadi.

Jismoniy shaxs o'z tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni tuzishda o'zining yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat ko'rsatayotganligini, agar bu bitimlarni tuzish holatining o'zidan yaqqol kelib chiqmasa, ko'rsatishi shart.

Soliq solishda yakka tartibdagi tadbirkorning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan, uning tadbirkorlikni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkini sotishdan olingan daromadlari hisobga olinmaydi.

Hisobot soliq davrida soliq bazasini ko'paytirish yoki kamaytirish daromadlarga tuzatish kiritish deb e'tirof etiladi.

Daromadlarga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;

2) bitim shartlari o'zgarganda;

3) narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovlardan foydalanganda;

4) ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Daromadlarga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Daromadlarga tuzatish kiritish yuqorida ko'rsatilgan hollar yuz bergenligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovari (xizmatlarni) sotuvchi tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadga tuzatish kiritishni belgilangan tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Daromadlarga yuqoridagi nazarda tutilgan hollarda tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz bergen soliq davrida amalga oshiriladi.

Daromadlarga tuzatish kiritish soliq to'lovchi umumbelgilangan soliq solish tartibidan aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tgan hollarda ham amalga oshiriladi, bundan tuzatish kiritiladigan daromadlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llash hollari mustasno.

### **3.3. Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari, soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.**

Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

**Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari<sup>33</sup>**

3.1-jadval

N	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi soliq to'lovchilar, bundan 2-14-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	4
2.	Bojxona rasmiylashtiruvni bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	5
3.	Lombardlar	25
4.	Konsert-tomosha ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jaib etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlerini tashkil etishdan daromadlar oladigan yuridik shaxslar	5
5.	Brokerlik idoralari (6-bandda ko'rsatilganlar bundan mustasno), shuningdek vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari	25

<sup>33</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

N	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
	ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar, shu jumladan telekommunikatsiya operatorlari va (yoki) provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yakka tartibdag'i tadbirdorlar	
6.	Sug'urta agentlari, shuningdek sug'urta, qimmatli qog'ozlar bozori va tovar-xomashyo birjalarida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar, shuningdek rektorlik faoliyatini amalga oshiruvchi ko'rsatuvchi shaxslar	13
7.	Asosiy faoliyati mol-mulkni ijara berish hisoblangan yuridik shaxslar (lizing kompaniyalari bundan mustasno)	8
	Umumiyligida ovqatlanish korxonalarini joylashgan joyiga qarab: aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda boshqa aholi punktlarida	8 6
8.	borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda Shundan	4
	umumita'lim maktablari, mакtab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliv o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiyligida ovqatlanish korxonalarini	Joylashgan joyiga qarab belgilangan soliq stavkasining 75%si
9.	Chakana savdo sohasidagi soliq to'lovchilar joylashgan joyiga qarab: aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda boshqa aholi punktlarida	4 2
9.1.	borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	1
9.2.	joylashgan joyidan qat'i nazar, tamaki mahsulotlari realizatsiyasidan tovar aylanmasi bo'yicha	4
10.	Ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalarini (11-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari)	4
	Quyidagi joylarda joylashgan ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari: aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda boshqa aholi punktlarida	
11.	borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	3 2 1
12.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib oluvchi, saralovchi, saqlovchi va qadoqlovchi tayyorlov tashkilotlari	tovar aylanmasining 4%si yoki yalpi daromadning 25%si
13.	Elektron tijorat sub'ektlarining Milliy reyestriga kiritilgan soliq to'lovchilar	2
14.	Yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston Chernobilchilar» assotsiatsiyasi bo'lgan va umumiyligida sonida nogironlar, urush va 1941-1945 yillar mehnat fronti veteranlari 50 foizdan kam bo'lmagan va nogironlar, urush va 1941-1945 yillar mehnat fronti veteranlarining mehnatiga haq to'lash fondi umumiyligida mehnatga haq to'lash fondining 50 foizidan kam bo'lmagan soliq to'lovchilar	0

Turli soliq solish ob'ektlari va (yoki) soliq stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turi bilan shug'ullanadigan soliq to'lovchilar bunday faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi hamda soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha soliqni to'lashi shart.

Yuqoridagi qoidalar chakana savdo sohasidagi mustaqil yuridik shaxs bo'limgan turli aholi punktlarida joylashgan bir qancha savdo nuqtalariga ega soliq to'lovchilarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Jami daromadlarda ko'rsatilgan daromadlarga, shuningdek foizlar tarzidagi daromadlarga soliq to'lovchining hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha umumiy jami daromadlaridagi ulushi ustunlik qiladigan faoliyat turi uchun belgilangan soliq stavkalari bo'yicha soliq solinadi.

Kalendar yil soliq davridir.

Yil choragi hisobot davridir.

Aylanmadan olinadigan soliq quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{S}_b = \mathbf{J}_d - \mathbf{S}_{bk},$$

bu yerda:

$\mathbf{S}_b$  – soliq bazasi;

$\mathbf{J}_d$  – jami daromad;

$\mathbf{S}_{bk}$  – soliq bazasini kamaytirish.

$$\mathbf{A}_s = \mathbf{S}_b \times \mathbf{S}_s,$$

bu yerda:

$\mathbf{A}_s$  – aylanmadan olinadigan soliq summasi;

$\mathbf{S}_s$  – aylanmadan olinadigan soliq stavkasi.

Kalendar yil soliq davridir.

Yil choragi hisobot davridir.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha soliq summasi soliq to'lovchi tomonidan mustaqil aniqlanadi.

Hisobot davri yakunlari bo'yicha soliq summasi soliq davri boshidan ortib boruvchi yakun bilan soliq bazasining mos soliq stavkasiga foiz ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq hisoboti soliq to'lovchi tomonidan soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) hisobot davri yakunlari bo'yicha - hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay;

2) soliq davri yakunlari bo'yicha - soliq davridan keyingi davrning 15-fevralidan kechiktirmay.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha soliqni to'lash tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

### *Nazorat savollari*

1. Aylanmadan olinadigan soliq qachon joriy etildi?
2. Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilarini kimlar?
3. Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari qaysi mezon asosida belgilanadi?
4. Aylanmadan olinadigan soliq budjetga qaysi muddatlarda to'lanadi?

## **IV BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG‘I**

### **4.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining joriy etilishi, soliq to‘lovchilar, soliq solish ob’yekti va soliq bazasi.**

Respublikamizda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 1991 yil 15 fevraldagи «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq 1991 yil 1 apreldan joriy etildi.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra jismoniy shaxslarga yuridik shaxs maqomini olmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar kiradi.

Jismoniy shaxslar to‘layotgan soliqlar ichida budget tushumlaridan salmoqli o‘rinni egallaydigan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i-davlat budgeti daromad manbalaridan biri bo‘lib, u umum davlat soliqlari tarkibiga kiradi. Uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq to‘lovchilari deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar;

2) O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromad oluvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar.

Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslar rezidentlar va norezidentlarga bo‘linadi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jismoniy shaxslardir.

Tegishli maqomi o'ziga nisbatan belgilangan soliq davri boshlanadigan yoki tugaydigan har qanday ketma-ket 12 oylik davr davomida jami 183 kalendar kundan ko'proq O'zbekiston Respublikasida haqiqatda bo'lgan jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e'tirof etiladi.

Agar jismoniy shaxs tegishli soliq davrida O'zbekiston Respublikasida jami bir yuz sakson uch kundan kam bo'lib, biroq ushbu turish muddati uning boshqa biror-bir davlatda turgan muddatidan ko'proq bo'lsa ham, u O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etiladi.

Jismoniy shaxsnинг O'zbekiston Respublikasida haqiqatan bo'lib turishi davri uning qisqa muddatlari (6 oydan kam) davolanish yoki o'qish uchun O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqqan davrida uzilmaydi.

Chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsnинг quyidagi davrlar mobaynida bo'lgan vaqtin uning O'zbekiston Respublikasida haqiqatda bo'lgan vaqtiga taalluqli hisoblanmaydi:

- 1) diplomatik yoki konsullik maqomiga ega shaxs sifatida bo'lgan davri;
- 2) O'zbekiston Respublikasi ishtirokchisi bo'lgan, xalqaro shartnoma bo'yicha tuzilgan xalqaro tashkilotning xodimi sifatida bo'lgan davri;
- 3) tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmagan taqdirda, 1 va 2-bandrarda ko'rsatilgan shaxslar oilasining a'zosi sifatida bo'lgan davri.

O‘zbekiston Respublikasida haqiqatan qancha vaqt bo‘lganligidan qat’i nazar, chet elda xizmatni o‘tayotgan O‘zbekiston Respublikasining harbiy xizmatchilari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ishlash uchun xizmat safariga yuborilgan davlat hokimiyati organlarining xodimlari O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e’tirof etiladi.

Agar Soliq kodeksidagi qoidalariga yoki O‘zbekiston Respublikasining soliq solish masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomalariga muvofiq, bir vaqtning o‘zida jismoniy shaxsni ham O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti, ham chet davlatning soliq rezidenti deb tan olish uchun asoslar bo‘lsa, uning soliq rezidentligi shunday xalqaro shartnomaning qoidalariga muvofiq jismoniy shaxs hayotiy manfaatlarining markazi asosida belgilanadi. Bunda quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilgan taqdirda, jismoniy shaxs hayotiy manfaatlarining markazi O‘zbekiston Respublikasida deb e’tirof etiladi:

1) jismoniy shaxsning eri (xotini) va (yoki) yaqin qarindoshlari O‘zbekiston Respublikasida yashasa;

2) O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxsga va (yoki) uning eriga (xotiniga) va (yoki) uning yaqin qarindoshlariga mulk huquqida yoki boshqa asoslarda tegishli bo‘lgan, istalgan vaqtida uning yashashi va (yoki) eri (xotini) va (yoki) uning yaqin qarindoshlari yashashi mumkin bo‘lgan ko‘chmas mulkning mavjudligi.

O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo‘lmagan jismoniy shaxslar O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari deb e’tirof etiladi.

Soliq to‘lovchining jami daromadi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq solish ob’ekti deb hisoblanadi.

Soliqni qat'iy belgilangan miqdorda to‘lash xohishini bildirgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliqqa tortish ob’ekti bo‘lib amalga oshirilayotgan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Soliq bazasi quyidagilar hisoblanadi:

1) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun - nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini hisobga olgan holdagi jami daromadlari;

2) O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun - nazarda tutilgan soliq imtiyozlari qo‘llanmagan holdagi jami daromadlari.

Soliq bazasini aniqlashda soliq to‘lovchining ham pul/shaklida, ham natura shaklida olgan daromadlari yoki daromadlarni tasarruf etish uchun yuzaga kelgan huquqlari, shuningdek moddiy naf tarzidagi daromadlari hisobga olinadi. Bunda soliq to‘lovchining alohida turdag‘i daromadlari jami daromad tarkibida hisobga olinishi yoki hisobga olinmasligi mumkin.

Soliq to‘lovchining chet el valyutasida ifodalangan daromadlari, haqiqatda daromadlar olingan sanadagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha milliy valyutaga qayta hisob-kitob qilinadi.

Turli soliq stavkalari bo‘yicha solinadigan soliq bazasi alohida aniqlanadi.

Soliq bazasi, soliq davri boshidan e’tiboran o‘sib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Agar soliq to‘lovchining daromadidan uning o‘z farmoyishiga, sudning yoki boshqa organlar va tashkilotlarning qaroriga ko‘ra ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq bazasini kamaytirmaydi.

## **4.2. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari tarkibi.**

Jami daromad soliq to‘lovchi tomonidan hisobot (soliq) davri davomida olingan quyidagi daromadlardan tashkil topadi:

1) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun - O‘zbekiston Respublikasidagi va uning tashqarisidagi manbalardan olingan daromadlardan;

2) O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun - O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlardan.

Quyidagilar jami daromad tarkibiga kiritilmaydi:

1) O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga va davlat pul mukofotlariga sazovor bo‘lgan soliq to‘lovchi olgan bir yo‘la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg‘alarining qiymati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo‘la beriladigan pul mukofoti va sovg‘alar;

2) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek tibbiyot muassasalarining xodimlari tomonidan qon olganlik uchun olinadigan summalar;

3) olingan alimentlar;

4) fuqarolar tomonidan olinadigan sug‘urta tovoni summalari;

5) qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda va tartibda to‘lanadigan stipendiyalar;

6) qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to‘lash bo‘yicha har oylik kompensatsiya pul to‘lovlari;

7) davlat pensiyalari, qonun hujjatlarida belgilangan nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi (oilaning betob a'zosini parvarish qilish bo'yicha nafaqa) mustasno;

8) majburiy jamg'arib boriladigan pensiya badallari, ular bo'yicha foizli daromadlar, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlar.

9) qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlar;

10) O'zbekiston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan chiqarilgan xalqaro obligatsiyalar bo'yicha daromadlar.

Soliq agentlarining jismoniy shaxs foydasiga amalga oshiradigan quyidagi xarajatlariaga soliq to'lovchining daromadi sifatida qaralmaydi:

1) mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarda band bo'lgan xodimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlari;

2) kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar, shu jumladan a'zolik badallari hisobidan kasaba uyushmasi a'zolariga beriladigan moddiy yordam, bundan kasaba uyushmasi qo'mitasining xodimlariga mehnat vazifalarini bajarganlik uchun beriladigan pul mukofotlari va boshqa to'lovlar mustasno;

3) favqulodda holatlar munosabati bilan yetkazilgan zararlar summasi doirasida beriladigan moddiy yordam summalar;

4) xodimlarni ish joyiga olib borish va olib qaytish bo'yicha xarajatlari;

5) diniy rasm-rusumlar va marosimlarni, bayram tantanalarini o'tkazish, vakillik xarajatlari, shahar yo'lovchilar transportida xodimlarning xizmat qatnovlari uchun foydalilaniladigan yo'l kartochkalarini olish, shuningdek yuridik shaxsning xodimlarning mehnat va dam olish sharoitlarini ta'minlash bilan bog'liq hamda muayyan jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlari;

6) xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formalii kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlar, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarni o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida oziq-ovqat bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlar;

7) xodim boshqa joyga ishga o'tkazilganda yoxud ko'chib borganda ko'chish, mol-mulkini ko'chirib borish, joy ijarasi (yo'l xarajatlari uchun beriladigan pul) bilan bog'liq xarajatlarni to'lash yoki bu xarajatlarning o'rmini qoplash xarajatlari;

8) xizmat safarlariga oid quyidagi kompensatsiya to'lovlari:

tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safari joyiga borish va u yerdan qaytib kelish uchun, shu jumladan joy band qilish uchun haq to'lashni qo'shgan holda haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlari. Yo'l hujjatlari bo'limgan taqdirda, temir yo'l transportidagi (agar temir yo'l qatnovi bo'lmasa, shaharlararo avtobusdag'i) yo'l haqi qiymati miqdorida, lekin aviachipta qiymatining 30 foizidan oshmaydigan miqdorda;

uy-joyni ijaraga olish bo'yicha haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlari. Yashaganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo'limgan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida;

tasdiqllovchi hujjatlar asosida uy-joyni band qilish uchun to‘lovlardan qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida xizmat safarida bo‘lingan vaqt uchun to‘lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa to‘lovlardan;

9) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalar doirasida xodimga to‘lanadigan kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar):

dörimiy ishi yo‘lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo‘lgan, shuningdek vaxta usulida ishlarni bajarishda xodimga kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar);

xizmat ishlarida shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar), bundan xizmat safarlari mustasno;

dala ta’minoti;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va normalar bo‘yicha boshqa kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar);

10) mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha quyidagi miqdordagi to‘lovlardan:

jabrlanuvchi mehnatda mayib bo‘lganiga qadar olgan o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to‘lovlardan (voyaga yetmagan shaxs mehnatda mayib bo‘lib qolgan taqdirda, zararning o‘rni uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin qonun

hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,76 baravaridan kam bo‘lмаган miqdorda qoplanadi);

maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo‘sishimcha xarajatlar uchun oyiga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 70,3 foizi miqdoridagi to‘lovlar;

jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo‘sishimcha xarajatlar tariqasida har oyda mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 17,6 foizi miqdoridagi to‘lovlar;

xodimning sog‘lig‘iga shikast yetkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o‘rtacha ish haqi miqdoridagi to‘lovlar;

11) boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to‘lovlar:

marhumning o‘rtacha ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to‘g‘ri keladigan ulushi miqdoridagi to‘lovlar;

boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan shaxslarga bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o‘rtacha yillik ish haqining 6 baravari miqdoridagi to‘lovlar;

12) talabalarning ta’lim olishi uchun O‘zbekiston Respublikasining oliv o‘quv yurti bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha pulli-kontrakt asosida o‘tkaziladigan to‘lovlar;

13) xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari.

14) soliq to‘lovchining mijozlarning tovarlar va xizmatlarni sotib olish faolligini oshirishga qaratilgan va bonuslar (ballar, mijozni ushbu tashkilotlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olish faolligini belgilovchi boshqa birliklar) hisoblanishini nazarda tutuvchi dasturlarda ishtiroki natijasida ushbu dasturda belgilangan asoslar bo‘yicha olingan pul va natura shaklidagi daromadlari. Daromadlar soliq to‘lovchining jami daromadiga quyidagi hollarda qo‘shiladi:

soliq to‘lovchining ushbu bandning birinchi xatboshisida ko‘rsatilgan dasturlarda ishtirok etishi ochiq oferta shartlarisiz amalga oshirilganda;

soliq to‘lovchi ushbu bandning birinchi xatboshisida ko‘rsatilgan mamlakatimizdagi va chet el tashkilotlarining dasturlariga, ularda aksept muddati o‘ttiz kundan kam va (yoki) ularda ommaviy ofertani muddatidan oldin chaqirib olish imkoniyati nazarda tutilgan shartlar asosidagi ochiq ofertaga qo‘shilganda;

tashkilotchi bilan lavozim majburiyatlarini bajarishda mehnat munosabatlarda bo‘lgan, shuningdek soliq to‘lovchi tomonidan tovarlar yetkazib bergenlik (ishlar bajarganlik, xizmatlar ko‘rsatganlik) uchun haq (mukofot) yoki moddiy yordam sifatidagi to‘lov shaklidagi daromad to‘langanda.

15) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, xayriya, ekologiya jamg‘armalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan tashkil etilgan boshqa jamg‘armalar tomonidan ko‘rsatilgan yordam:

Ustavda nazarda tutilgan faoliyat doirasida bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar;

davolash va tibbiy xizmatlar qiymati, nogironlarni profilaktika va reabilitatsiya qilish uchun texnik asbob-uskunalar olish;

jismoniy shaxsning manfaatlarini ko‘zlab, tovarlar va xizmatlarni yetkazib beruvchidan olish;

xayriya maqsadida boshqa shakllarda qo‘llab-quvvatlash (bundan pul shaklida qo‘llab-quvvatlash mustasno).

Quyidagilar jami daromadga kiradi:

- 1) mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar;
- 2) mulkiy daromadlar;
- 3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar.

Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo‘lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan xodimlarga hisoblanadigan hamda to‘lanadigan quyidagi barcha to‘lovlar mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar deb e’tirof etiladi:

mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlardan, tarif stavkalaridan va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan, haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;

ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar;

rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar;

kompensatsiya to‘lovleri (kompensatsiya);

ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash;

haqiqatda bajarilgan ish uchun haq hisoblangan boshqa to‘lovlar.

Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar jumlasiga quyidagilar ham kiradi:

predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lgan, tuzilgan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to'lovlар (bundan yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar mustasno);

yuridik shaxsning boshqaruв organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o'xshash organi) a'zolariga yuridik shaxsning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlар;

O'zbekiston Respublikasining Mudofaa, Ichki ishlар va Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmatining, harbiy xizmatchilariga, ichki ishlар organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralar xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlар.

Rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlар jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) yillik ish yakunlari bo'yicha pul mukofoti;
- 2) yuridik shaxsning mukofotlash to'g'risidagi nizomida nazarda tutilgan rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlар;
- 3) kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar;
- 4) ta'tilga qo'shimcha haqlar moddiy yordam;
- 5) ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlар;
- 6) ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov;

7) mehnat natijalari bilan bog'liq bo'limgan bir yo'la beriladigan mukofotlar.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadga kiritiladigan kompensatsiya to'lovlar (kompensatsiyalar) jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog'li, cho'l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsiyentlar bo'yicha to'lovlar). Bunda yuridik shaxslar xodimlarining cho'l va suvsiz joylarda, baland tog'li va tabiiy-iqlim sharoiti noqulay hududlarda ishlaganlik uchun ish haqiga koeffitsiyentlar hisoblashning eng yuqori summasini aniqlash hisoblash sanasida belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdorida belgilanadi;

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan shunday sharoitlardi uzlucksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

3) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtida, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar;

4) ko'p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko'rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o'zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo'limgan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

5) doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo'lgan xodimlarning, shuningdek doimiy ishi ishlarning vaxta usulida bajarilishini nazarda tutadigan xodimlarning ish haqiga qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'lanadigan ustamalar;

6) ish beruvchi joylashgan yerdan (yig'ilish punktidan) ishlash joyigacha borish va u yerdan qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan ishlar vaxta usulida bajarilgan holda yo'lga ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi yoki maosh miqdorida to'lanadigan summalar;

7) yer osti ishlarida doimiy band bo'lgan xodimlarga ularning stvoldan ishlash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me'yoriy vaqt uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha dala ta'minoti;

9) xizmat safarlari vaqtida qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

10) ishlar vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqt umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to'lovlar;

11) xizmat safarlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to'lovlar;

12) mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash uchun ko‘rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar;

13) oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymatini qoplash.

Ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) qonun hujjatlariga muvofiq:

a) yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta’til uchun to‘lov, shuningdek ushbu ta’tildan foydalanimaganda, shu jumladan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to‘lovi;

b) noqulay va o‘ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og‘ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo‘sishimcha ta’til uchun to‘lov;

v) o‘qish bilan bog‘liq ta’til va ijodiy ta’tillar uchun to‘lov;

g) 12 yoshga to‘lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki 16 yoshga to‘lmagan nogironligi bo‘lgan bolasi bor ayollarga berilgan qo‘sishimcha ta’til uchun to‘lov;

2) asosiy ish haqi qisman saqlab qolning holda majburiy ta’tilda bo‘lgan xodimlarga beriladigan to‘lovlar;

3) donor xodimlarga ko‘rikdan o‘tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun to‘lov;

4) O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga to‘lov;

5) qishloq xo‘jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo‘yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

6) ma'lum muddatga avvalgi ish joyi bo'yicha lavozim maoshi miqdori saqlab qolingan holda boshqa yuridik shaxslardan ishga joylashtirilgan, shuningdek vaqtinchalik vazifani bajarib turgan xodimlarga maoshdagi farq to'lovi;

7) xodimlarga kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o'qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo'yicha ularga to'lanadigan ish haqi;

8) xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun to'lov;

9) mehnat layoqatini vaqtincha yo'qotgan xodimlarga qo'shimcha to'lov;

10) qonun hujjalariiga muvofiq yoki ish beruvchining qarori bilan majburiy progul vaqtiga uchun yoki kam haq to'lanadigan ishni bajarganlik uchun to'lov;

11) 18 yoshga to'lmagan shaxslarning imtiyozli soatlariiga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun to'lov;

12) asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o'quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan yuqori malakali xodimlari mehnatiga to'lov;

13) ish beruvchining mablag'lari hisobidan to'lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo'shimchalar, stipendiyalar;

14) oliy o'quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta'til vaqtiga uchun ish beruvchi hisobidan to'lanadigan nafaqalar.

Mulkiy daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) foizlar;

- 2) dividendlar;
- 3) mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;
- 4) soliq to‘lovchiga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar mazkur mol-mulkni realizatsiya qilish summasining hujjatlar bilan tasdiqlangan uni olish qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi. Mazkur qiymatni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmasa taqdirda, mol-mulkni realizatsiya qilish qiymati, ko‘chmas mulk bo‘yicha esa - kadastr qiymati hamda realizatsiya qilish narxi o‘rtasidagi ijobjiy farq daromad deb e’tirof etiladi;
- 5) sanoat mulki ob’ektlariga, seleksiya yutug‘iga oid patent (litsenziya) egasi bo‘lgan soliq to‘lovchining patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi;
- 6) royalti;
- 7) ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulk bo‘yicha ishonchli boshqaruvchidan olingan daromad;
- 8) REPO operatsiyalari bo‘yicha daromad;
- 9) qimmatli qog‘ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning hosila moliyaviy vositalari bilan operatsiyalar bo‘yicha daromad;
- 10) nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi;
- 11) oddiy shirkat shartnomasiga (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomaga) muvofiq ishtirok etishdan olingan daromadlar;
- 12) xususiyatga ega boshqa daromadlar.

Soliq to'lovchi tomonidan moddiy naf tarzida olingan daromadlar, quyidagilardan iborat:

1) soliq agenti tomonidan soliq to'lovchi manfaatlarini ko'zlab, tovarlar (xizmatlar), mulkiy huquqlar haqini to'lash, shu jumladan:

soliq to'lovchining bolalarini maktabgacha ta'lif tashkilotlarida o'qitish, tarbiyalash haqini to'lash;

soliq to'lovchilarga berilgan uy-joyning communal xizmatlar haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlarini, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o'rnnini qoplash qiymatini to'lash;

sanatoriy-kurortlarda davolanish yo'llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulator davolanish haqini yoki ularning o'rnnini qoplash qiymatini to'lash;

soliq agentining soliq to'lovchi daromadi bo'lgan boshqa xarajatlarini to'lash;

2) soliq to'lovchining manfaatlarini ko'zlab tekin, shu jumladan hadya shartnomasi bo'yicha berilgan mol-mulkning va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati;

3) tovarlarni (xizmatlarni) soliq to'lovchilarga realizatsiya qilish narxi hamda shu tovarlarning (xizmatlarning) (qiymati ularni sotib olish narxidan yoki tannarxidan kelib chiqib aksiz solig'inining va qo'shilgan qiymat solig'inining tegishli summasini hisobga olgan holda) muvofiq hisoblab chiqarilgan qiymati o'rtasidagi salbiy farq;

4) qonun hujjaligiga muvofiq xodimlarga temir yo'l, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo'yicha beriladigan imtiyozlar summasi;

5) jismoniy shaxsning soliq agenti oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summalar;

6) soliq agenti tomonidan to‘lovlar hisobiga to‘lanib, soliq to‘lovchidan ushlab qolinishi lozim bo‘lgan, lekin ushlab qolinmagan summalar.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq agentidan tovarlar (xizmatlar) olingan taqdirda, ushbu tovarlarning (xizmatlarning) qiymati ularni sotib olish narxidan yoki tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq agentidan aksiz to‘lanadigan tovarlar yoki qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan tovarlar (xizmatlar) olingan taqdirda, bunday tovarlarning (xizmatlarning) qiymatida aksiz solig‘ining va qo‘shilgan qiymat solig‘ining tegishli summasi hisobga olinadi.

Soliq to‘lovchining boshqa daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg‘armalari tomonidan soliq to‘lovchilarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turlardagi yordam;

2) hayvonlarni (qoramollarni, parrandalarni, mo‘ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlarni va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so‘yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda sotishdan, ipak qurtini, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;

3) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo‘yicha) olingan mol-mulkning, mulkiy huquqlarning qiymati;

4) musobaqalarda, ko‘riklarda, tanlovlarda sovrinli o‘rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;

5) yutuqlar;

- 6) grant beruvchidan olingan grantlarning, shu jumladan chet davlatlar grantlarining summalar;
- 7) soliq to‘lovchilarning yaratilgan ilm-fan, adabiyot va san’at asarlari (predmetlari) uchun olgan daromadlari;
- 8) xalqaro sport musobaqalaridagi sovrinli o‘rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;
- 9) xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakti) bekor qilinganda mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan ishdan bo‘shatish nafaqasi va boshqa to‘lovlari;
- 10) quyidagicha ko‘rsatiladigan moddiy yordam:
- vafot etgan xodimning oila a’zolariga yoki oila a’zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga ko‘rsatiladigan;
- xodimga mehnatda mayib bo‘lganligi, kasb kasalligi yoxud sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetganligi bilan bog‘liq holda ko‘rsatiladigan;
- bola tug‘ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o‘tishi munosabati bilan ko‘rsatiladigan;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag‘lar berish tarzida ko‘rsatiladigan moddiy yordam;
- 11) ishlamaydigan pensionerlarga soliq agenti tomonidan to‘lanadigan to‘lovlari;
- 12) ma’naviy zararni kompensatsiya qilish bo‘yicha pullik to‘lovlari;
- 13) narxlarga tuzatish kiritish tufayli olingan daromad;
- 14) aniqlanadigan talab qilish huquqidan o‘zganining foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olingan daromad;
- 15) soliq to‘lovchining boshqa daromadlari.

### **4.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar.**

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to'lashdan quyidagilar to'laligicha ozod qilinadilar:

1) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabдор shaxslari, ularning о'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa - O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'limgan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

2) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning о'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, - O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'limgan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

3) chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa - o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

4) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida

doimiy yashamasa - o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarining mansabdar shaxslari - agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo‘yicha.

Quyidagi soliq to‘lovchilar qisman (daromadlar qaysi oyda olingen bo‘lsa, o‘sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar bo‘yicha) soliq solishdan ozod etiladi:

1) «O‘zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar. Bu imtiyoz tegishincha «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va ishtirokchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan va doirasi qonun hujjatlarida belgilanadigan shaxslar. Bu imtiyoz urush nogironining (ishtirokchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yoxud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (ishtirokchilarga) nogironning (ishtirokchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar. Bu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

4) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva eri, onasi, otasi). Bu imtiyoz «Halok bo'lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok bo'lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo'yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergen muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati yoki O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralarning tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organlari xodimining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva

xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi;

5) ikki va undan ortiq 16 yoshga to'Imagan bolalari bor yolg'iz onalar. Bu imtiyoz har bir bola uchun fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotnomma asosida beriladi;

6) ikki va undan ortiq 16 yoshga to'Imagan bolalari bor hamda boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Bu imtiyoz arning (xotinning) vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma, bolalar tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnomalar, yangi nikohdan o'tmaganlik hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olinmasligi haqidagi ma'lumotnomasi taqdim etilgan taqdirda beriladi;

7) bolaligidan nogironligi bo'lgan shaxs, doimiy parvarishni talab etadigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota yoki ona. Bu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki sog'lijni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnomasi asosida beriladi.

Soliq imtiyozlari tegishli hujjatlar taqdim etilgan taqdirda qo'llaniladi.

Soliq imtiyoziga bo'lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan taqdirda, soliq imtiyozi unga bo'lgan huquqlar vujudga kelgan paytdan e'tiboran qo'llaniladi.

Agar soliq to'lovchi bir nechta asos bo'yicha soliq imtiyoziga doir huquqqa ega bo'lsa, unga xohishiga qarab faqat bitta soliq imtiyozi beriladi.

Soliq imtiyozini qo'llash soliq to'lovchining asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha, asosiy ish joyi mavjud bo'Imagan taqdirda esa -

yashash joyidagi soliq organlari tomonidan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog‘ida amalga oshiriladi. Soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq yo‘qotilgan taqdirda, soliq to‘lovchi imtiyozga bo‘lgan huquqni yo‘qotgan paytidan e’tiboran 15 kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma’lum qilishi kerak.

Ushbu soliq imtiyozlari soliq to‘lovchining foizlar va dividendlar tarzida olingan daromadlariga, shuningdek mol-mulkni ijara topshirishdan olingan daromadlariga nisbatan ham tatbiq etiladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy ish joyi bo‘yicha hisoblansa, soliq imtiyozini qo‘llash asosiy ish joyi bo‘yicha amalga oshiriladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy bo‘limgan ish joyi bo‘yicha hisoblansa, soliq imtiyozi jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish chog‘ida soliq to‘lovchining yashash joyidagi soliq organlari tomonidan qo‘llaniladi. Shunga o‘xshash tartib mol-mulkni ijara berishdan olingan daromadlarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Soliq qonunchiligiga ko‘ra jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

1) moddiy yordam summaları:

vafot etgan xodimning oila a’zolariga yoki oila a’zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summaları - mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda;

boshqa hollarda, - soliq davri uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda;

2) soliq agenti tomonidan quyidagi yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summalar, bundan turistik yo'llanmalar mustasno:

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llanmalar qiymatini nogironligi bo'lган shaxslarga, shu jumladan ushbu ish beruvchida ishlamaydigan nogironligi bo'lган shaxslarga to'liq yoki qisman qoplash summalar;

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog'lomlashtirish oromgohlari, shuningdek sanatoriy-kurort hamda sog'lomlashtirish muassasalariga o'z xodimlarining 16 yoshgacha bolalari (o'qiydiganlarga - 18 yoshgacha) uchun yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summalar;

3) o'z xodimlariga hamda ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar, shuningdek ish beruvchining davolashga hamda tibbiy xizmat ko'rsatishga, nogironlik profilaktikasi va nogironligi bo'lган shaxslarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olishga oid xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko'rsatganlik uchun ish beruvchilar tomonidan sog'liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to'langan taqdirda, shuningdek sog'liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan naqd pul mablag'lari bevosita xodimga, xodim yo'qligida esa - uning oila a'zolariga, ota-onasiga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo'ljallangan mablag'lar xodimning bankdagi hisobvarag'iga kiritilgan taqdirda, bu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishslash uchun yuborilishi munosabati bilan

qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida budget tashkilotlaridan chet el valyutasida olingen ish haqi summalari va boshqa summalar;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingen daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa;

6) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rirlarni egallaganligi uchun sportchilar oлган bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

7) soliq to'lovchilarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan quyidagiлarni sotishdan olingen daromadlar mustasno:

qimmatli qog'ozlarni (bundan fond birjasida realizatsiya qilinadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar mustasno), yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini);

noturar joylarni;

36 kalendar oydan kam muddatda soliq to'lovchining mulkida bo'lgan turar joylarni;

8) uy xo'jaligida, shu jumladan dehqon xo'jaligida yetishtirilgan hayvonlarni (qoramollarni, parrandalarni, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar va hokazolarni) tirik holda hamda ularni so'yib mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda sotishdan (bundan sanoatda qayta ishslash mustasno) chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzaralari bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno;

9) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingen buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

10) ish beruvchidan soliq davri mobaynida mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 2,11 baravarigacha bo‘lgan qiymatdagi:

xodimlar natura shaklida olgan sovg‘alar;

ilgari mazkur ish beruvchining xodimlari bo‘lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo‘qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a’zolari tomonidan olingan sovg‘alar hamda boshqa turlardagi yordam;

11) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekinga olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan quyidagilar mustasno:

ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarining, adabiyot hamda san’at asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar, ixtiolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo‘rlariga (huquqiy vorislari) to‘lanadigan pul mukofotlari;

yaqin qarindosh bo‘limgan shaxslar o‘rtasidagi ko‘chmas mulk, avtotransport vositalari, qimmatli qog‘ozlar, yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi (ustav kapitallaridagi) ulushlar;

12) davlat zayomining obligatsiyalari bo‘yicha yutuqlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha foizlar;

13) jamg‘arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek banklardagi omonatlar bo‘yicha foizlar va yutuqlar;

14) nodavlat notijorat tashkilotlaridan, xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek vakolatli organning xulosasi mavjud bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining ilmiy-texnika hamkorligi

sohasidagi xalqaro shartnomalari doirasida soliq to'lovchi grant beruvchidan bevosita olgan grantning summasi;

15) soliq to'lovchilarining ish haqi va boshqa daromadlarining hayotni uzoq muddatli sug'urtalash (hayot sug'urtasi sohasining barcha toifalarida) bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'lash uchun O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasi bo'lgan yuridik shaxslarga yo'naltiriladigan qismi, quyidagi shartlarda:

sug'urta badallari o'sib bormaydigan tartibda to'langanda va bir yo'la to'lanadigan sug'urta summasi shartnoma bo'yicha sug'urta davri boshlanishi sanasidan 12 oydan so'ng olinganda. Sug'urtalangan shaxsning muayyan yoshgacha yashashi yoki hayotni uzoq muddatli sug'urtalash shartnomasida ko'rsatilgan muddatdan boshqacha tarzdagi sug'urta hodisasi sodir bo'lgan taqdirda, sug'urta summasi ushbu ko'rsatilgan shartlarga amal qilmagan xolda to'lanishi mumkin;

shartnoma bo'yicha sug'urta davri boshlanish sanasidan kamida 12 oydan so'ng renta (annuitet) olinganda va rentani (annuitetni) to'lash sanasida shartnoma bo'yicha haqiqatda jamlangan mablag'lar (zaxira) summasi ko'rsatib o'tilgan rentaning (annuitetning) 4 baravaridan kam bo'limganda;

renta (annuitet) to'lash shartnoma bo'yicha sug'urta davri boshlanishi sanasidan 12 oy o'tmasdan boshlanganda, bunda dastlabki rentani (annuitetni) to'lash boshlanadigan vaqtida haqiqatda to'langan sug'urta badallari summasi shartnoma bo'yicha sug'urta mukofotining yillik miqdoridan kam bo'lmasligi kerak va rentalarni (annuitetlarni) to'lash sanasiga haqiqatda jamlangan mablag'lar (zaxira) summasi ko'rsatib o'tilgan rentaning (annuitetning) 4 baravaridan kam bo'limganda.

shartlar buzilganda yoxud shartnomalar muddatidan oldin bekor qilinganda va sug‘urtachi sug‘urta badalini to‘liq yoki qisman qaytarganda, qaytarilgan sug‘urta badali sug‘urtachi tomonidan soliqqa tortiladi.

16) soliq to‘lovchining quyidagilarga yo‘naltiriladigan, soliq solinishi lozim bo‘lgan ish haqi va boshqa daromadlari:

O‘zbekiston Respublikasining oliv o‘quv yurtlarida ta’lim olish (o‘zining, 26 yoshga to‘Imagan farzandlarining yoki erining (xotinining) ta’lim olishi) uchun to‘lov;

soliq bazasining 50 foizidan oshmagan holda, metsenatlik ko‘magini ko‘rsatish;

olingan ipoteka kreditlarini va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni soliq davri davomida jami 15 million so‘mgacha bo‘lgan miqdorda qoplashga, basharti yakka tartibdagi uy-joyning yoki ko‘p qavatli uydagi xonadonning qiymati 300 million so‘mdan oshmasa hamda u dastlabki badalning va (yoki) ipoteka krediti bo‘yicha foizlarning bir qismini qoplash uchun budjetdan ajratilgan subsidiyalarni hisobga olgan holda olingan bo‘lsa. Mazkur imtiyoz qarz oluvchiga va birga qarz oluvchilarga, imtiyoz olish huquqiga ega bo‘lgan barcha soliq to‘lovchilarga berilgan, soliq solinishi lozim bo‘lgan daromadlarni kamaytirish summasi soliq davri davomida jami 15 million so‘mdan oshmagan taqdirda, tatbiq etiladi;

fugorolarning O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi ixtiyoriy ravishda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga;

17) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo‘yicha) olingan ulushlar, paylar va aksiyalar tarzidagi daromadlar, agar bu ulushlarni, paylarni va aksiyalarni berish yaqin qarindoshlar o‘rtasida amalga oshirilsa.

Yuridik shaxs tashkil etmagan chet el tuzilmasiga nisbatan yoki qaysi chet el yuridik shaxsi uchun ro'yxatdan o'tish mamlakatining qonun hujjatlariga muvofiq kapitalda ishtirok etish nazarda tutilmagan bo'lsa, o'sha chet el yuridik shaxsiga nisbatan nazorat qilish huquqi, agar bunday huquqlar ularni bir oilaning a'zolari va (yoki) yaqin qarindoshlar bo'lgan shaxslar o'rtasida o'tkazish natijasida olingen bo'lsa, daromad olish yoki daromadni tasarruf etish huquqining yuzaga kelishi deb e'tirof etilmaydi;

18) paxta yig'im-terimi bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinadigan soliq to'lovchilarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari;

19) soliq to'lovchi bo'lgan qimmatbaho metallar qidiruvchilarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qazib olish yo'li bilan ega bo'lgan qimmatbaho metallarni realizatsiya qilishdan olgan daromadlari.

20) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, xayriya va ekologiya jamg'armalari tomonidan soliq to'lovchilarga beriladigan nafaqalar, shuningdek pul mablag'lari tarzidagi yordamning boshqa turlari, biroq soliq davri mobaynida 15 million so'mdan oshmagan holda.

2021 yil 1 yanvardan olis va chekka hududlarda joylashgan byudjet tashkilotlariga boshqa hududlardan mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun kelgan oliy ma'lumotli mutaxassislarga quyidagicha haq to'lanadi<sup>34</sup>:

BHM ning 50 baravari miqdorida bir martalik boshlang'ich yordam puli;

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Olis hududlardagi byudjet tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4940-son qarori

uy-joyni ijaraqaga olganlik uchun BHMning 2 baravari miqdorida har oylik pul kompensatsiyasi.

Tibbiy oliy ta'lif tashkilotini oxirgi 3 yil ichida tamomlagan va boshqa hududda yashovchi tibbiy xodim olis va chekka hududlarda joylashgan oilaviy shifokor punkti va oilaviy poliklinikalarga ishga qabul qilinganda:

30 mln. so'm miqdorida bir martalik boshlang'ich yordam puli:

uy-joyi bo'limganlarga 3 yil davomida xizmat uylari yoki BHMning 2 baravari miqdorida har oylik pul kompensatsiyasi to'lanadi.

Bunda nazarda tutilgan boshlang'ich yordam puli va har oylik kompensatsiya soliq to'lovchilarining jami daromadlariga kiritilmaydi hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining soliq solish ob'ekti hisoblanmaydi.

Yuqorida qayd etilgan imtiyozlar OTM bakalavriyati yoki magistraturasini (ta'lif shaklidan qat'iy nazar) tamomlagandan keyin uch yil mobaynida ishlaydigan bitiruvchilarga qo'llaniladi.

#### **4.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari.**

Soliq qonunchiligiga binoan 1998 yildan respublikamizda jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq stavkasi 15, 25, 35, 40, 45 foiz, ya'ni 5 pog'onali qilib belgilangan edi. 2000 yildan boshlab 4 pog'onali, ya'ni 15, 25, 36, 40 foiz, 2001 yildan uning stavkasi 12, 25, 36 foizni tashkil etgan holda 2018 yilgacha 3 pog'analiligicha saqlab qolindi, 2019 yildan<sup>35</sup> hozirgacha yagona stavka joriy qilinganligini jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

4. I-jadval

<sup>35</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi 5468-soni farmoni.

### Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarining o'zgarish dinamikasi<sup>36</sup>

Eng kam oylik ish haqi darajasi	Solig stavkalari, foizlarda															
	2000 y.	2001 y.	2002 y.	2003 y.	2004-05.yy.	2006 y.	2007-08.y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016-17.y.	2018 y.
1 baravari	0													0	0	0
2 baravari	15	12														
3 baravari		13	13	13	13											
4 baravari																
5 baravari		25														
6 baravari																
7 baravari																
8 baravari																
8 baravaridan yuqori	36	23	22	21	20	18										
9 baravari																
10 baravari																
10 baravaridan yuqori	40	33	32	30	29	25	22	22	22	22	22	22	22	22	22,5	

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxsning daromadlariga, 12 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi

Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga 5 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi.

4.2-jadval

Qat'iy belgilangan miqdorlarda soliqni to'lovchi jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari<sup>37</sup>

T/r	Faoliyat turi	Bir oylik soliq stavkalari (so'mda)			
		Toshkent shahri	Nukus shahri va viloyat markazlari bo'lgan shaharlar	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
1.	Chakana savdo: oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan	750 000	600 000	300 000	200 000
	dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan	250 000	150 000	100 000	50 000
	gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	250 000	150 000	100 000	50 000

<sup>36</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

<sup>37</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

T/r	Faoliyat turi	Bir oylik soliq stavkalari (so'mda)			
		Toshkent shahri	Nukus shahri va viloyat markazlari bo'lgan shaharlar	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
2.	Maishiy xizmatlar	250 000	150 000	100 000	50 000
3.	Boshqa faoliyat turlari	225 000	150 000	100 000	50 000
<b>Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlari:</b>					
4.	3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobilлari uchun			150 000	
	3 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobilлari uchun			225 000	

O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxsning O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingen daromadlariga quyidagi soliq stavkalar bo'yicha solinadi:

4.3-jadval

**O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxsning O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingen daromadlariga quyidagi soliq stavkalar<sup>38</sup>**

N	Soliq ob'ekti	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Dividendlar va foizlar	10
2	Soliq Kodeksiga muvofiq aniqlanadigan, xalqaro tashishlarda transport xizmatlari taqdim etishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar).	6
3	Mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar bo'yicha olingen daromadlar, 1 va 2-bandlarda ko'rsatilмаган boshqa daromadlar	20

To'lov manbaida soliq solish to'lov O'zbekiston Respublikasi hududida yoki uning hududidan tashqarida sodir etilganligidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

<sup>38</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi

**Mol-mulkini ijara beruvchi jismoniy shaxslar  
uchun belgilangan ijara to'loving eng kam  
stavkalari<sup>39</sup>**

T/r	<b>Ijaraga beriladigan mol-mulk turi</b>	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko'rsatkich	Oylik ijara to'lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so'mda		
			Toshkent shahri	Nukus shahri va viloyat markazlari dagi shaharlar	boshqa aholi punktlari
<b>1</b>	<b>Uy-joylar:</b>				
	turuar joy	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun	14 000	8 500	4 000
	noturuar joy		29 000	17 000	7 500
<b>2</b>	<b>Avtomobil transporti:</b>				
	engil avtomobil (yo'lovchilar, bagaj tashishga mo'ljallangan hamda haydovchi o'rnnimi hisoblamaganda, o'rindiqlari soni 8 tadan ko'p bo'limgan avtovositosi)	1 ta avtotransport vositosi uchun	575 000		
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobili		1 150 000		

*Izoh: Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijara berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo'llaniladi.*

#### **4.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va to'lash tartibi.**

Kalendar yil soliq davridir.

Soliq agentlari uchun hisobot davri bir oydir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i quyidagicha aniqlanadi:

$$S_b = (J_d - I),$$

bu yerda:

$S_b$  – daromad solig'i bazasi;

<sup>39</sup> O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 25 dekabrdagi 657-soni Qonuni.

**J<sub>d</sub>** – jami daromad;

**I** – imtiyozlar.

$$\mathbf{D}_s = \mathbf{S}_b \times \mathbf{S}_s,$$

bu yerda:

**D<sub>s</sub>** – daromad solig‘i summasi;

**S<sub>s</sub>** – daromad solig‘i stavkasi.

Soliq quyidagilar tomonidan hisoblab chiqariladi va to‘lanadi:

- 1) soliq to‘lovchiga daromad to‘laydigan soliq agentlari tomonidan;
- 2) soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda.

Soliq to‘lovchilarning alohida toifalari soliqni:

belgilangan tartibda qat’iy belgilangan miqdorda to‘lashni;

belgilangan tartibda jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida to‘lashni tanlashga haqli.

Tanlash huquqi quyidagi toifadagi soliq to‘lovchilarga tatbiq etiladi:

1) tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan daromadi kalendar yilida 100 million so‘mdan oshmaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlarga. Agar kalendar yilida tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan daromadi belgilangan miqdordan oshsa, yakka tartibdagi tadbirkor belgilangan tartibda aylanmadan soliq yoxud qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i to‘lashga o‘tadi.

3) yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyatni amalga oshirayotgan oila a’zolariga;

4) «Hunarmand» uyushmasi a’zolari bo‘lgan hunarmandchilik faoliyati sub’ektlariga.

Yuqorida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar soliq to‘lash tartibini quyidagilar orqali tanlashga haqlisi:

1) tadbirkorlik sub'ektining davlat ro'yxatidan o'tkazilishi chog'ida tanlangan soliq to'lash tartibini ko'rsatish;

2) doimiy yashash joyi bo'yicha soliq organlariga joriy yilning 25 yanvaridan kechiktirmasdan tanlangan soliq to'lash tartibi to'g'risida bildirish xati taqdim etish.

Yuqorida ko'rsatilgan soliq to'lovchi tomonidan bildirish xati joriy yilning 25 yanvaridan kechiktirmasdan taqdim etilmasligi uning soliqni qat'iy belgilangan miqdorda to'lashga roziliginibildiradi.

Soliq organi tomonidan ham hisoblab chiqarilishi mumkin.

Hisoblab chiqarilgan soliq summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisoblangan jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan majburiy oylik badallar summasiga kamaytiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo'lган jismoniy shaxslardan olinadigan soliq soliq agenti tomonidan hisoblab chiqariladi va to'lov manbaida ushlab qolinadi.

Soliqni to'lov manbaida hisoblab chiqarish, ushlab qolish va byudjetga o'tkazish majburiyati soliq to'lovchiga daromad to'laydigan va soliq agentlari deb e'tirof etilgan quyidagi shaxslarning zimmasiga yuklatiladi:

1) O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslariga;

2) yakka tartibdagi tadbirkorlarga;

3) O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lган yuridik shaxslarga;

4) O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan yuridik shaxslarning vakolatxonalariga;

5) Aktsiyalar (bundan fond birjasida realizatsiya qilinadigan aktsiyalar mustasno), O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan yuridik shaxslarning ustav fondidagi ulushi (paylar), O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ko‘chmas mulk va korxona hamda investitsiya pay fondlarining investitsiya paylarini sotib olgan jismoniy shaxslarga;

6) soliq to‘lovchining mol-mulkini ishonchli boshqarishni amalga oshiruvchi ishonchli boshqaruvchiga.

5-bandida ko‘rsatilgan shaxslar belgilangan tartibda soliqni hisoblab chiqarish, ushlab qolish va byudjetga o‘tkazishni amalga oshiradi.

Soliq summasi ushlab qolinmagan taqdirda, soliq agenti ushlab qolinmagan summani va u bilan bog‘liq penyani byudjetga o‘tkazishi shart.

Soliq agentlari jismoniy shaxsning talabiga binoan unga daromadlarining summalari va turlari haqida, shuningdek jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingan summasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shaklda ma’lumotnomaga berishi shart.

Soliq agentida soliq solinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

- 1) jismoniy shaxslarning mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlari;
- 2) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 3) mulkiy daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar.

O‘zi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo‘limgan O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsga moddiy naf tarzida

daromad to‘lovchi soliq agenti jismoniy shaxsning yozma arizasi asosida soliqni ushlab qolmaslikka haqli. Bunda soliq to‘lovchi moddiy naf tarzidagi daromad bo‘yicha deklaratsiya asosida soliqni to‘lashi shart.

Soliq agentlari soliq hisobining registrlarida jismoniy shaxslarning ulardan soliq davrida olgan daromadlari, jismoniy shaxslarga to‘lov manbaida qo‘llanilgan soliq imtiyozlari, hisoblab chiqarilgan va ushlab qolning soliqlar hisobini yuritadi.

Soliq hisobi registrlarining shakllari, ularda soliq hisobining tahlili ma’lumotlarini hamda birlamchi hisobga olish hujjatlari ma’lumotlarini aks ettirish tartibi soliq agenti tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi. Mazkur shakllarda soliq to‘lovchini identifikatsiya qilish imkonini beradigan ma’lumotlar, soliq to‘lovchilarga to‘lanadigan daromad turlari va to‘lov manbaida unga qo‘llanilgan soliq imtiyozlari, ularni to‘lash sanasi, soliq to‘lovchining maqomi, soliqni ushlab qolish va to‘lash sanasi ko‘rsatilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlarga soliq solish soliq agentlari tomonidan soliq bazasi hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq agentlari soliq to‘lovchining jami daromadlaridan hisoblangan soliq summasini ushlab qolishi shart.

Soliqning hisoblangan summasini soliq to‘lovchidan ushlab qolish, soliq agenti soliq to‘lovchiga to‘layotgan har qanday pul mablag‘lari hisobidan, bu pul mablag‘lari soliq to‘lovchiga yoki uning topshirig‘iga binoan uchinchi shaxslarga to‘lanayotganda amalga oshiriladi.

Soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish belgilangan soliq bazasi hamda soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda, daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan e'tiboran har oyda ortib boruvchi yakun bilan soliq to'lovchining ish joyi bo'yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Asosiy bo'limgan ish joyidan yoki boshqa soliq agentlaridan sovg'a, moddiy yordam va boshqa turlardagi yordam olgan jismoniy shaxslarning soliq summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs yillik jami daromadi to'g'risida deklaratsiya topshirganda soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi joriy yilda o'ziga to'langan daromadlar va ushlab qolning soliq summalarini to'g'risidagi ma'lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyidagi soliq agentiga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o'qish) joyidan ma'lumotnomani taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, imtiyozlar qo'llanilmagan holda ushlab qolinadi. Ma'lumotnomani va soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilgan taqdirda, soliq summasi ilgari asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida olingen daromadlar inobatga olingen holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida soliqni hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan e'tiboran ilgarigi va yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joylaridan olingen jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Mehnat shartnomasi (kontrakt) bekor qilingandan keyin xodimga ilgarigi ish joyidan to'lov amalga oshirilganda, soliq imtiyozlari qo'llanilmagan holda soliqqa tortiladi.

Jismoniy shaxslarning asosiy bo‘lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan soliqning yakuniy summasi jami yillik daromad to‘g‘risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma’lumotlari bo‘yicha soliq organi tomonidan hisoblab chiqariladi.

Soliq agentlari o‘zlarining soliq bo‘yicha hisobda turgan joydagি soliq organiga quyidagi taqdim etishi shart:

1) soliq davri tugaganidan keyin 30 kun ichida - soliq organlariga to‘lov manbaidan soliq solinmagan moddiy naf tarzida daromadlar olgan jismoniy shaxslar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shakldagi ma’lumotnomani;

2) har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa - yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida hisoblangan va haqiqatda to‘langan daromadlar summalari hamda ushlab qolingga soliqning summalari to‘g‘risidagi - O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shakldagi ma’lumotlarni. O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxslar yil yakunlari bo‘yicha hisoblangan va amalda to‘langan daromadlarning summalari hamda ushlab qolingga, soliq summalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hisobot yilidan keyingi yilning 25 martiga qadar taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari bo‘lgan, xodimlari 25 nafardan ortiq bo‘lgan alohida bo‘linmalarga va (yoki) filiallarga ega soliq agentlari, bundan yirik soliq to‘lovchilar mustasno, ushbu alohida

bo‘linmalar va (yoki) filiallar xodimlariga nisbatan ko‘rsatilgan soliq hisobotini - alohida bo‘linmalar va (yoki) filiallar hisobda turgan joydagi soliq organiga taqdim etadi.

Yakka tartibdagи tadbirkor bo‘lgan soliq agentlari, o‘zlarining yollanma xodimlariga oid ko‘rsatilgan soliq hisobotini o‘zi soliq bo‘yicha hisobda turgan joydagi soliq organiga taqdim etadi.

To‘lov manbaida hisoblab chiqarilgan soliq summasi soliq to‘lovchiga daromadlarni to‘lash bilan bir vaqtدا, lekin soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay soliq agenti tomonidan to‘lanadi.

Daromadlar natura shaklida amalga oshirilganda soliq natura tarzidagi to‘lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida to‘lanadi.

Soliq agenti tomonidan soliq to‘lovchining daromadidan ortiqcha ushlangan soliq summasi soliq to‘lovchining yozma arizasiga asosan qaytarilishi lozim.

Soliq agenti tomonidan bir soliq davri ichida ortiqcha ushlangan soliq summasi qaytariladi.

Soliq to‘lovchiga ortiqcha ushlangan soliq summasini qaytarish daromadlaridan bunday soliq agenti tomonidan ushlab qolinadigan soliq to‘lovchi bo‘yicha ham, boshqa soliq to‘lovchilar bo‘yicha ham kelgusi to‘lovlar hisobidan byudjet tizimiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan ushbu soliq summasi hisobidan, soliq agenti soliq to‘lovchining tegishli arizasini olgan kundan e’tiboran uch oy ichida soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchiga ortiqcha ushlangan soliq summasini qaytarish soliq agenti tomonidan soliq to‘lovchining arizasida ko‘rsatilgan bankdagи hisobvarag‘iga pul mablag‘larini o‘tkazish yo‘li bilan naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.

Soliq agenti bo'lmaganda yoxud belgilangan soliq davri tugaganda, soliq to'lovchi soliq davrining yakuniga ko'ra soliq deklaratsiyasini bir vaqtning o'zida taqdim etgan holda, ilgari soliq agenti tomonidan ortiqcha ushlangan va byudjet tizimiga o'tkazilgan soliq summasini qaytarish to'g'risida soliq organiga ariza berishga haqli.

Soliq davrida O'zbekiston Respublikasining rezidenti maqomini olgan soliq to'lovchi ushbu soliq davrida norezident maqomida to'lagan soliq summasini qayta hisob-kitob qilishga va qaytarib olishga haqli. Soliq summasini soliq to'lovchiga qaytarish soliq to'lovchi belgilangan tartibda ko'rsatilgan soliq davri yakuniga ko'ra soliq deklaratsiyasini taqdim etgan taqdirda yashash joyi (turgan joyi) bo'yicha hisobga qo'yilgan soliq organi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu deklaratsiyaga mazkur soliq davrida O'zbekiston Respublikasining rezidenti maqomini tasdiqlaydigan hujjatlar ilova qilinishi kerak.

Soliqni tanlash huquqiga ega soliq to'lovchilar, qat'iy belgilangan miqdorda soliq to'lash xohishini bildirgan soliq to'lovchi soliqni har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 15 sanasidan kechiktirmay, qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda to'laydi.

Soliq to'lovchi qat'iy belgilangan miqdorda soliq to'lashni u tadbirkorlik sub'ekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan yoki yakka tartibdagи tadbirkor yoxud oilaviy tadbirkorlik sub'ekti bilan mehnat shartnomasi tuzilgan oydan keyingi oydan e'tiboran amalga oshiradi.

Bir nechta faoliyat turi bilan shug'ullanayotgan soliq to'lovchilar har bir faoliyat turi bo'yicha qat'iy belgilangan miqdorda soliqni alohida, shu faoliyat turi uchun belgilangan miqdorda to'laydi.

Qat'iy belgilangan miqdorda soliq to‘lash qo‘llaniladigan faoliyatdan olinadigan daromadlar bilan birga boshqa daromadlar oluvchi soliq to‘lovchilar bu daromad turlari bo‘yicha alohida hisob yuritishi shart va bu daromadlar bo‘yicha jami yillik daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida, belgilangan stavkalar bo‘yicha soliq to‘laydi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor (oilaviy tadbirkorlik sub’ekti) o‘z faoliyatini muayyan muddatga to‘xtatsa, u o‘z faoliyatini to‘xtatguniga qadar tadbirkorlik sub’ektini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to‘xtatish to‘g‘risida ariza berish bilan bir vaqtning o‘zida davlat ro‘yxatidan o‘tganlik haqidagi guvohnomani topshiradi. Bunda xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor (oilaviy tadbirkorlik sub’ekti) har bir yollangan xodimga belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalarini ham belgilangan muddatlarda soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga topshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning (oilaviy tadbirkorlik sub’ektining) faoliyati vaqtincha to‘xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to‘g‘risidagi arizani olgan tadbirkorlik sub’ektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organ navbatdagi ish kuni tugaguniga qadar soliq hisobida turgan joyidagi soliq organlariga yakka tartibdagi tadbirkorning (oilaviy tadbirkorlik sub’ektining) faoliyati vaqtincha to‘xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi.

Qat’iy belgilangan miqdorda soliq to‘lashni to‘xtatib turish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

1) soliq organlari tomonidan olingen tadbirkorlik sub'ektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning (oilaviy tadbirkorlik sub'ektining) faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risidagi axborot;

2) soliq organlari tomonidan olingen yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimga berilgan hisobga olish kartochkalari.

Qat'iy belgilangan miqdorda soliq to'lash xohishini bildirgan soliq to'lovchilar daromadlarni va xarajatlarni hisobga olish registrlarida daromadlarni olish bilan bog'liq bo'lgan daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart.

Daromadlarni va xarajatlarni hisobga olish registrlari quyidagilardir:

1) Yakka tartibdagi tadbirkorning (oilaviy tadbirkorlik sub'ektining) daromadlarini va xarajatlarini hisobga olish kitobi;

2) Tovar cheklari kitobi.

Daromadlarni va xarajatlarni hisobga olish registrlarining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Daromadlarni va xarajatlarni hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorni (oilaviy tadbirkorlik sub'ektini) soliq hisobida turgan joyidagi soliq organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning (oilaviy tadbirkorlik sub'ektining) arizasi asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning (oilaviy tadbirkorlik sub'ektining) faoliyati to'g'risidagi hisobotlar soliq hisobida turgan joyidagi soliq organlariga yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha, hisobot choragidan keyingi oyning 30-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

#### **4.6. Jismoniy shaxslarning daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solish tartibi.**

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari kiradi:

mulkiy daromadlar, agar bu daromadlarga soliq agentida soliq solinmasa;

ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar;

moddiy naf tarzidagi daromadlar, agar bu daromadlarga soliq agentida soliq solinmagan bo‘lsa;

O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar;

soliq agentlari bo‘limgan manbalardan olingan daromadlar;

tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan daromadi kalendar yilda yuz million so‘mdan oshmaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar, yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyatni amalga oshirayotgan oila a’zolari, «Hunarmand» uyushmasi a’zolari bo‘lgan hunarmandchilik faoliyati sub’ektlari tomonidan olingan daromadlar, ular tomonidan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq to‘lash tartibi tanlanganda;

soliq agenti tomonidan soliq ushlab qolinmagan soliq solinadigan boshqa daromadlar.

Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya, agar soliq to‘lovchining asosiy bo‘lmagan ish joyidan olingan daromadlaridan soliq uning arizasi bo‘yicha ushlab qolning bo‘lsa taqdim qilinmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan yoki joriy yilning 1 apreli gacha rezidentga aylangan chet el jismoniy shaxsi, jami yillik daromadi to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etadi.

Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq to‘laydigan soliq to‘lovchilar daromadlarni olish bilan bog‘liq bo‘lgan daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan haqiqatda amalga oshirilgan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirib tashlash huquqiga ega. Bunda soliq to‘lovchilarning jami daromadi tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilinishidan olingan daromadlardan, shuningdek boshqa daromadlardan iborat.

Ilm-fan, adabiyot va san‘at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tarzida daromad oluvchi soliq to‘lovchilar bunday faoliyatni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmagan holda amalga oshirish huquqiga ega.

Daromadlariga soliq solinadigan soliq to‘lovchilar soliqni soliq organining yozma xabarnomasi asosida to‘laydi.

Ilm-fan, adabiyot va san‘at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi olayotgan soliq to‘lovchi daromadlar olish bilan bog‘liq daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart hamda u ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan, haqiqatda sarflangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirish huquqiga

ega, lekin chegirma olingen jami daromad summasining 30 foizidan ko'p bo'lmasligi kerak.

Ijodiy faoliyatni amalgalash oshirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

ilm-fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish hamda ulardan foydalanish uchun zarur materiallar sotib olishga doir xarajatlar;

faqat ilm-fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, nashr qilish, ijro etish yoki ulardan boshqacha tarzda foydalanish maqsadida foydalanimadigan bino va mol-mulk ijarasiga doir xarajatlar.

Jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya soliq to'lovchining olingen yillik daromadi to'g'risidagi yozma arizasidan iborat bo'ladi.

Jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga to'langan daromadlar va ushlab qolning soliq summalarini to'g'risida soliq agentining O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlangan shakldagi ma'lumotnomasi ilova qilinadi.

Soliq organi tomonidan soliq to'lovchi taqdim etgan jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlangan taqdirda, soliq organi jami yillik daromad haqidagi taqdim etilgan deklaratsiyada aniqlangan xatolar to'g'risida soliq to'lovchiga bildirish xati yuboradi.

Soliq organining xabarnomasini olgan soliq to'lovchi 10 kun ichida jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga zarur bo'lgan o'zgartirishlarni kiritishi shart.

Soliq to'lovchilar daromadlar bo'yicha jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani, agar boshqacha qoida nazarda tutilmagan

bo‘lsa, doimiy yashash joyidagi soliq organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreliдан kechiktirmay taqdim etadi.

Deklaratsiya qilinishi shart bo‘lmasan daromadlarni olgan soliq to‘lovchilar doimiy yashash joyidagi soliq organiga jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin.

Har qanday ketma-ketlikdagi 12 oylik davr ichida jami 183 kun va undan ortiq muddat O‘zbekiston Respublikasining tashqarisida turgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari O‘zbekiston Respublikasiga qaytgan sanadan e’tiboran bir oydan kechiktirmay doimiy yashash joyidagi soliq organiga O‘zbekiston Respublikasidagi va uning tashqarisidagi manbalardan olgan daromadlari bo‘yicha jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin. Bunda O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan daromadlar bo‘yicha jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etish mezonlariga muvofiq kelmagan davr uchun soliq to‘lanmaydi.

Grant olgan soliq to‘lovchi jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani topshirayotganda grant bo‘yicha olingan daromad summasini, soliq miqdorini ko‘rsatadi, shuningdek vakolatli organning tegishli xulosasini ilova qiladi.

Mol-mulkini ijara berishdan to‘lov manbaida soliq solinmaydigan daromadlar olayotgan soliq to‘lovchilar, shuningdek jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq to‘laydigan jismoniy shaxslar jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani belgilangan muddatlarda taqdim etish bilan bir qatorda dastlabki tarzdagi deklaratsiyani ham quyidagi muddatlarda taqdim etadi:

1) mol-mulkni ijara berishdan daromad oladigan soliq to‘lovchilar - ijara dan daromadlar paydo bo‘lgan kundan e’tiboran birinchi oy tugaganidan keyin 5 kun muddatda;

2) tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan daromadi kalendar yilida yuz million so‘mdan oshmaydigan yakka tartibdag‘i tadbirkorlar, yakka tartibdag‘i tadbirkor bilan mehnat munosabatlari da bo‘lgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyatni amalga oshirayotgan oila a’zolari, «Hunarmand» uyushmasi a’zolari bo‘lgan hunarmandchilik faoliyati sub’ektlari, jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliqni to‘laydigan jismoniy shaxslar - joriy yilning 1 fevralidan kechiktirmay. Yangi ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlik sub’ektlari - tadbirkorlik sub’ekti davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oyning oxiriga qadar dastlabki deklaratsiyani taqdim etadi.

Ko‘chmas mulkning ijara shartnomasi soliq organlarida hisobga qo‘yilayotganda dastlabki deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Mol-mulkni ijara berishdan daromad olish tugagan taqdirda soliq to‘lovchi doimiy yashash joyidagi soliq organini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi.

Joriy yilning 1 apreliga qadar O‘zbekiston Respublikasining rezidentiga aylangan chet ellik jismoniy shaxs oldingi soliq davri uchun jami yillik daromadi to‘g‘risida deklaratsiya topshiradi.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan chet ellik jismoniy shaxs ushbu bobda belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim bo‘lgan daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo‘lsa, uning O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan davrda joriy soliq davrida

haqiqatda olgan daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya bu jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan 1 oy avval taqdim etilishi lozim. Agar O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan chet ellik jismoniy shaxs joriy yilning 1 fevraliga qadar chet elga doimiy yashashga chiqib ketsa, joriy yil uchun daromadlar bo‘yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya bo‘yicha hisoblangan va taqdim etish tartibi deklaratsiya taqdim etilgan sanadan e’tiboran 15 kun ichida amalga oshiriladi.

Agar soliq to‘lovchi jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo‘lsa, shuningdek oldin taqdim etilgan deklaratsiyada noto‘g‘ri ma’lumotlar aniqlangan va (yoki) soliq to‘lovchi tomonidan jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning o‘zgarganligi haqidagi arizani taqdim etmagan taqdirda, soliq organi soliq summasini o‘zidagi mavjud axborot asosida hisoblashga va to‘lanishi lozim bo‘lgan, hisoblangan soliq summasi to‘g‘risida soliq to‘lovchiga o‘n kunlik muddatda to‘lov xabarnomasini topshirishga haqli. Soliq to‘lovchi tomonidan jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya yoki to‘g‘rilangan deklaratsiya taqdim etilgan taqdirda, soliqning yakuniy summasi ushbu deklaratsiyani hisobga olgan holda aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaning ma’lumotlariga ko‘ra hisoblab chiqarilgan soliqni o‘tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay to‘laydi.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar hisoblab chiqarilgan soliqni chet davlatda joylashgan bank hisobvarag‘idan

chet el valyutasida to‘lashi mumkin. Bunda milliy valyutada ifodalangan soliq O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilangan soliq to‘langan sanadagi kurs bo‘yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqariladi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar, shuningdek jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar soliqni taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya yoki soliq organining xabarnomasi asosida, daromad olingan oydan keyingi oyning 15-kunigacha har oyda to‘laydi. Yil tugagach, soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo‘yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to‘langan summalar o‘rtasidagi farq kelgusi yilning 1 iyunidan kechiktirmay soliq to‘lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi lozim.

Quyidagilar soliq to‘langan sana deb hisoblanadi:

soliq soliq agentlari yoki jismoniy shaxslar tomonidan bankdagi hisobvarag‘idan to‘langan taqdirda - bankdagi hisobvarag‘idan mablag‘lar hisobdan chiqarilgan kun;

- jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul mablag‘lari kiritilgan taqdirda - bank cassasiga mablag‘lar to‘langan sana.

Soliq organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan soliqni to‘lash to‘lov xabarnomasida ko‘rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan, O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summalari O‘zbekiston Respublikasida soliq to‘lashda hisobga olinadi.

Soliqni hisobga olish soliq davri yakuni bo'yicha jismoniy shaxs tomonidan taqdim etilgan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida amalga oshiriladi.

### **Nazorat savollari**

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inинг mohiyatini tushuntirib bering.
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inинг to'lovchilari kimlar?
3. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlariga qaysi daromad turlari kiradi?
4. Norezident jismoniy shaxslarning daromadlariga to'lov manbaida qanday tartibda soliq stavkalari qo'llaniladi?
5. Qaysi jismoniy shaxslarning daromadlari qisman soliqdan ozod etiladi?
6. Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliq solish tartibini tushuntirib bering.

## V BOB. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I

### 5.1. Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati va joriy qilinishi.

Qo'shilgan qiymat solig'i har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko'p qirrali soliqdir. Korxona kundalik xo'jalik faoliyatida mahsulot yetkazib beruvchilardan tovar va xom ashyo sotib oladi va ulardan mahsulot yoki ish, xizmatlar ishlab chiqaradi. Demak, qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xom ashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlab chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini davlat budgetining daromad qismiga jalb qilish g'oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni birinchi marta Germaniya budget amaliyotida joriy etishni 1919 yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz moliyachisi M. Lore tomonidan ishlab chiqildi. Ammo qo'shilgan qiymat solig'i M. Lorenning taklifidan so'ng o'tgan 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo'llanildi. Frantsiyada qo'shilgan qiymat solig'i haqiqatda 1958 yildan

boshlab joriy etildi. Bugungi kunda dunyoning 140ga yaqin davlatlarida bor. Biroq, ba’zi davlatlarda, xususan, AQSh, Kanada va Yaponiyada bu soliq amal qilmaydi, uning o’miga sotishdan soliq (sales tax) undiriladi.

Shunonchi, 1991 yildagina amal qilgan sotishdan undiriladigan soliq o’zini oqlamadi. Soliq summasining bevosita aholidan tovarlarni xarid qilish chog’ida undirilishi uning qabul qilinmasligining asosiy sababchisi bo’ldi. Aholining soliqlar borasidagi savodxonligi past bo’lgan va o’sha davrdagi nobar-qaror ijtimoiy vaziyat sharoitida tushuntirish ishlari amalda olib borilmaganligi oqibatida bu soliq inflyatsiya sharoitida aholining daromadlarini kamaytirishga yo’naltirilgan degan fikr tug’ildi.

Bu tajribadan kelib chiqqan holda 1992 yili O’zbekistonda oborotdan undiriladigan soliqning yangi turi - ishlab chiqarish va muomalaning har bir bosqichida qo’shilgan qiymat qismida undiriladigan qo’shilgan qiymat solig’i joriy etildi.

QQSni tushunushning murakkabligi uning o’ziga xos xususiyatlarga ega ekanligida bo’lib, xaridor nuqtai nazaridan olib qaralganda xuddi iste’mol solig’iga o’xshaydi. Ya’ni sotuvchi uni sotilgan tovarlar, ishlar yoki xizmatlar narxining ustiga qo’shadi. Shu ma’noda QQSni iste’mol yoki oborot solig’ining modifikatsiyalangan ko’rinishi deb hisoblasak bo’ladi. Farqi shundaki, agar xaridor ham QQS to’lovchisi bo’lsa (ya’ni boshqa tovarlar yoki xizmatlarni ishlab chiqarishda foydalanish uchun tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olsa), sotuvchi budget oldidagi majburiyatlarining umumiy miqdorini hisoblashda xaridordan olingan soliq summasidan yetkazib beruvchilarga to’lab bergen soliq summasini ushlab qolish huquqiga ega bo’ladi.

Shunday qilib, ushbu soliq bilvosita bo'lib, uning yuki oxir-oqibat ishlab chiqaruvchiga emas, balki tovarlar va xizmatlarning yakuniy iste'molchilariga tushadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat budgetining daromad manbai sifatida qo'shilgan qiymat solig'i hozirga qadar o'zining muhim o'rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelayapdi. Ushbu soliq budget daromadlarining eng yuqori qismini tashkil etadigan soliq turi hisoblanadi.

## **5.2. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari, soliq solish ob'yekti va soliqqa tortiladigan baza.**

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi va (yoki) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar deb e'tirof etiladi:

1) O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

2) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida bir milliard so'mdan oshgan yoxud ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

3) O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi chet el yuridik shaxslari, agar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi deb O'zbekiston Respublikasi e'tirof etilsa;

4) faoliyatni O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari;

5) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha - oddiy shirkatning ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs - oddiy shirkatning ishtirokchisi;

6) O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tuvchi shaxslar. Mazkur shaxslar bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjaligiga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq majburiyatlar soliq agentlari tomonidan bajariladi.

Quyidagilar soliq to‘lovchilar deb hisoblanmaydi:

1) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari - o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida;

2) aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchi shaxslar.

Soliq to‘lovchilar O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda soliq organlarida qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchi sifatida maxsus ro‘yxatdan o‘tkazish hisobida turadi.

Quyidagilar soliq solish ob‘ektiidir:

1) realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma;

2) O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish.

Faoliyatni O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmani bunday doimiy muassasaning faoliyatidan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Quyidagilar soliq solish ob‘ekti hisoblanmaydi:

1) yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan o‘z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘limgan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkni realizatsiya qilish;

2) yuridik shaxs qayta tashkil etilayotganda uning mol-mulkini huquqiy vorisga (huquqiy vorislarga) o'tkazish;

3) ishonchli boshqaruvning muassisi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqaruvchiga berish va ishonchli boshqaruv shartnomasining amal qilish muddati tugagan taqdirda, ishonchli boshqaruvchining o'zi ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulkni qaytarishi;

4) milliy valyuta yoki chet el valyutasi muomalasi bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish (bundan numizmatika maqsadlari mustasno).

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan o'zi ishlab chiqargan yoki olgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlariga qarab aniqlanadi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi.

Soliq bazasini aniqlash chog'ida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingen tushum soliq to'lovchining ushbu tovarlarga (xizmatlarga) pulda va (yoki) natura shakllaridagi to'lov, shu jumladan qimmatli qog'ozlar bilan haq to'lash sifatida olingen barcha daromadlaridan kelib chiqqan holda hisobga olinadi.

Soliq bazasini aniqlash chog'ida soliq to'lovchining chet el valyutasida ifodalangan tushumi (xarajatlari) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

Agar sotuvchi va xaridor o'rtasidagi shartnomada tovarlarga (xizmatlarga) chet el valyutasida belgilangan summaga teng bo'lgan summadagi milliy valyutada haq to'lash nazarda tutilgan bo'lsa hamda bunda realizatsiya qilingan tovarlarga (xizmatlarga) haq to'langan sana ularni realizatsiya qilish bo'yicha aniqlanadigan aylanma amalga oshirilgan sanaga to'g'ri kelmasa, mazkur sanalarda chet el valyutasi kurslaridagi farq tufayli yuzaga kelgan tushum summasidagi ijobiy yoki salbiy farq soliq bazasini belgilashda hisobga olinmaydi. Bunday ijobiy yoki salbiy farq boshqa daromadlar yoki boshqa xarajatlar tarkibida sotuvchi tomonidan hisobga olinishi lozim.

O'z ehtiyojlari uchun soliq solish ob'ekti deb e'tirof etiladigan tovarlar berilgan (xizmatlar ko'rsatilgan) taqdirda, soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan aniqlanadi.

Soliq bazasi aksiz solig'ini (aksiz to'lanadigan tovarlar, xizmatlar uchun) hisobga olib, unga soliqni kiritmagan holda, bitim taraflari tomonidan qo'llanilgan narxdan (tarifdan) kelib chiqqan holda realizatsiya qilinadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati sifatida aniqlanadi.

Xaridorlarga realizatsiya qilish bo'yicha aylanmani amalga oshirish sanasida chegirmalar (boshqa tijorat bonuslari) bergan soliq to'lovchi soliq bazasini bunday chegirmalar (tijorat bonuslari) chegirib tashlangan holdagi narxdan (tarifdan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Soliq bazasi quyidagi hollarda tovarlarning (xizmatlarning) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq aniqlanadigan bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi:

- 1) tovarlarni (xizmatlarni) boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlab realizatsiya qilishda;
- 2) tovarlarni (xizmatlarni) bepul berishda (ko'rsatishda);
- 3) yuridik shaxsning mol-mulkidan shaxsiy maqsadlarda foydalanishda.

Agar bitimning narxi tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan past yoki yuqori bo'lsa, soliq organlari soliq bazasiga tuzatish kiritishga haqli. Soliq to'lovchi bunday qaror yuzasidan bitimning narxi bozor narxlariga muvosifligini va soliq to'lashdan bo'yin tovashga qaratilmaganligining asoslarini taqdim etish yo'li bilan nizolashishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilgan (import qilingan) tovarlarni realizatsiya qilish chog'ida soliq bazasi ushbu tovarlarni olib kirish (import qilish) chog'ida budgetga haqiqatda to'langan soliq hisoblab chiqarilgan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishslashga berilgan xom ashyo va materiallardan tovarlar ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi ularni qayta ishslashga doir xizmatlarning qiymati asosida, unga soliqni kiritmagan holda, aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa ularni qayta ishslashga doir xizmatlarning qiymati asosida, hisoblab chiqarilgan aksiz solig'i hisobga olingan holda aniqlanadi.

Ob'ektlarni qurishda, shu jumladan ob'ektlarni foydalanish uchun tayyor qilib qurishda, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlarni, shuningdek uzoq texnologik (bir hisobot davridan ortiq) davriylikdagi boshqa uzoq muddatli shartnomalarni bajarishda soliq bazasi har bir kalendar oyning oxirida haqiqatda bajarilgan ishlar hajmining soliq bazasi kiritmagan holda aniqlanadigan qiymati

asosida aniqlanadi. Agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materialarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, soliq bazasi bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning qiymatidan kelib chiqqan va buyurtmachi materiallarining qiymatini soliq bazasiga kiritmagan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslarga mehnat haqi hisobiga yoki dividendlar to'lovlar hisobiga tovarlar berilganda (xizmatlar ko'rsatilganda), shuningdek Soliq kodeksning 239-moddasi 4-qismi 3-bandida belgilangan hollarda soliq bazasi tovarlarning (xizmatlarning) Soliq kodeksining 248-moddasi birinchi qismiga muvofiq aniqlanadigan qiymatidan kelib chiqqan va soliqni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Erkin bojxona hududining bojxona rejimiga soliq to'lamasdan joylashtirilgan tovar yo'qotilganda soliq bazasi Soliq kodeksning 254-moddasi birinchi qismiga muvofiq aniqlanadi.

Tovarlarni (xizmatlarni) olishga bo'lgan huquqni beruvchi vaucherni realizatsiya qilish chog'ida vaucherning soliq hisobga olingan holdagi qiymati soliq bazasi bo'ladi.

Olib sotish uchun jismoniy shaxslardan olingan avtomobillar va uyjoy ko'chmas mulk ob'ektlari realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi soliq summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi va sotib olish qiymati o'rtaсидаги ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Foyda solig'ini hisoblab chiqarishda xarajatlari chegirilmaydigan soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'zi ishlab chiqargan tovarlardan foydalanilganda (o'z kuchi bilan xizmatlar ko'rsatilganda), soliq bazasi ushbu tovarlarning (xizmatlarning) bunday soliq to'lovchi tomonidan

o'tgan 90 kun davomida realizatsiya qilingan aynan shunday (ular mavjud bo'lmaganda shunga o'xshash) tovarlarning (xizmatlarning) o'rtacha o'changان narxidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan qiymati sifatida, ko'rsatilgan davrda bunday realizatsiya mavjud bo'lmaganda esa aksizlar hisobga olingan (aksizosti tovarlar uchun) va soliq qo'shilmagan bozor narxlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Realizatsiya qilishga doir aylanmalar soliq solinmaydigan aylanmalar bo'lgan chiptalar, abonentlar, yo'llanmalar (joysiz davolanish uchun berilgan hujjatlar) va xizmatlarni olish huquqini beruvchi boshqa hujjatlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi soliq summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi va ularni sotib olish narxi o'rtasidagi ijobjiy farq sifatida aniqlanadi.

Tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma quyidagilardan iborat:

1) tovarga bo'lgan mulk huquqini pullik asosda, shu jumladan tovarning qarz shartnomasi bo'yicha o'tkazish;

2) tovarni bepul berish, bundan shunday berish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan hollar mustasno;

3) mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berish;

4) tovarni bo'lib-bo'lib to'lash shartlari asosida berish.

Tovarni realizatsiya qilishdan farq qiluvchi har qanday faoliyat, shu jumladan quyidagilar xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma deb e'tirof etiladi:

1) pullik asosda xizmatlar ko'rsatish;

2) bepul xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan mol-mulkni soliq to'lovchining bepul foydalanishi uchun berish, bundan shunday xizmatlarni ko'rsatish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan hollar mustasno.

Tovarlarni bepul berish yoki bepul xizmatlar ko'rsatish quyidagi shartlardan hech bo'lmasganda biriga rioya etilganda iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydi deb e'tirof etiladi:

1) daromad olishga qaratilgan faoliyatni amalgalash oshirish maqsadida ishlab chiqarilgan bo'lsa;

2) shunday tadbirkorlik faoliyatini saqlash yoki rivojlantirish uchun zarur bo'lsa va xarajatlarning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liqligi asoslantirilgan bo'lsa;

3) qonun hujjatlarining qoidalaridan kelib chiqsa.

Quyidagilar ham tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmadir:

1) yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish);

2) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) ishtirokchilari o'rtaida shunday shartnoma doirasida tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish);

3) quyidagilarga tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish):

a) yuridik shaxs ishtirokchilari tarkibidan ishtirokchi chiqqanda (chiqarilganda) yoki uning yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi kamayganda yoxud ishtirokchidan ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning bir qismi) yuridik shaxs tomonidan qaytarib sotib olinganda, ishtirokchiga;

b) emitent bo'lgan yuridik shaxs tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalarni qaytarib sotib olishda, aksiyadorga;

v) yuridik shaxs tugatilganda, aksiyadorga yoki ishtirokchiga;

- 4) xarajatlari foyda solig'ini hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan, soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqargan tovarlarni berish, o'z kuchi bilan xizmatlar ko'rsatish;
- 5) jismoniy shaxslarga mehnatga haq to'lash yoki dividendlar to'lash hisobiga tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish);
- 6) soliq to'lovchi tomonidan o'ziga tegishli mol-mulkni (xizmatlarni), agar bunday mol-mulk (xizmatlar) bo'yicha soliq summasi to'liq yoki qisman hisobga o'tkazilgan bo'lsa, boshqaruv organi a'zolariga, xodimlarga, ularning oila a'zolariga yoxud boshqa shaxslarga soliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lman shaxsiy maqsadlarda foydalanish uchun berish (xizmatlar ko'rsatish);
- 7) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qaytarish sharti bilan qayta ishslashga berish, agar tovarlar va (yoki) mol-mulk qayta ishslash mahsuli shaklida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa;
- 8) erkin bojxona hududining bojxona tartib-taomiliga soliq to'lamasdan joylashtirilgan tovarni yo'qotish, boshqa holatlarda soliqni to'lash zarur bo'lgan taqdirda;
- 9) qaytarilishi lozim bo'lgan, ko'p marta muomalada bo'ladigan idishlarning sotuvchi tomonidan berilishi, agar idish bunday idishdag'i mahsulotni yetkazib berishga doir shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmasa.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish huquqini beruvchi vaucherlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma deb e'tirof etiladi.

### **5.3. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari.**

Quyidagi larni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma soliq solishdan ozod etiladi:

1) mактабгача та'lim ташкilotларida bolalarga qarash bo'yicha xizmatlarni;

2) bemorlar va keksalarni parvarish qilish bo'yicha xizmatlarni;

3) dafn etish byuroлari va qabristonlarning marosim xizmatlarini, diniy ashyolarni, diniy tashkilotlar hamda birlashmalar tomonidan udumlarni va marosimlarni o'tkazishga doir xizmatlarni;

4) protez-ortopediya buyumlarini, nogironligi bo'lган shaxslar uchun inventarni, shu jumladan ushbu buyumlar va inventarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilish, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarni;

5) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mahsulotlarini ushbu muassasalar tomonidan realizatsiya qilish;

6) ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizi nogironligi bo'lган shaxslardan iborat bo'lган hamda nogironligi bo'lган shaxslar mehnatiga haq to'lash fondi umumiy mehnatga haq to'lash fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan, yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lган shaxslarning jamoat birlashmalari hisoblangan yuridik shaxslar tomonidan realizatsiya qilinadigan tovarlar va xizmatlarni;

7) pochta markalarini (kolleksiya qilinadiganlardan tashqari), markali otkritkalarni, konvertlarni;

8) pensiyalar va nafaqalar to‘lashga doir xizmatlarni;

9) budjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlarini. Mazkur soliq solishdan ozod etish tegishli moliya organining budjetdan mablag‘lar ajratish to‘g‘risidagi xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda qo‘llaniladi;

10) o‘qitish (ta’lim) sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan test sinovlari va imtihonlar o‘tkazishni tashkil etish xizmatlarini, xususan:

boshlang‘ich, o‘rta, o‘rta maxsus, texnik va kasb-hunar, oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim sohasidagi ta’lim xizmatlarni;

ta’lim muassasalari (tashkilotlari), shuningdek kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiradigan tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘srimcha ta’lim berish bo‘yicha xizmatlarni;

maktabgacha ta’lim va tarbiya dasturlari doirasida ta’lim va tarbiyalash faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda bolalarga qarash va ularni parvarishlash bo‘yicha xizmatlarni, to‘garaklarda, seksiyalarda (shu jumladan sport seksiyalarida) va studiyalarda voyaga yetmagan bolalar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish bo‘yicha xizmatlarni;

11) tibbiyot muassasalari tomonidan ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlarni (bundan kosmetologik xizmatlar mustasno). Tibbiy xizmatlar jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi:

tibbiy yordamga va sanitariya xizmati ko‘rsatishga doir xizmatlar;

tashxis qo‘yish, profilaktika va davolash bo‘yicha xizmatlar;

stomatologik xizmatlar, shu jumladan tishlarni protezlash bo‘yicha xizmatlar;

12) veterinariya xizmatlarini. Veterinariya xizmatlari jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi:

veterinariyaga oid xizmatlar ko'rsatish, hayvonlarga tashxis qo'yish va ularni davolash bo'yicha xizmatlar;

hayvonlar va inson uchun umumiyligida bo'lgan kasallikkardan aholini himoya qilish;

O'zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishidan himoya qilish;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarning veterinariya va veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta'minlash;

13) dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarni;

14) sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish xizmatlarini, shuningdek jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmatlarini. Ular:

a) sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish xizmatlari jumlasiga sanatoriylar, shifoxonalar, profilaktoriylar, kurortlar, pansionatlar, dam olish uylari va zonalari, bolalar dam olish oromgohlari hamda boshqa dam olish tashkilotlari tomonidan ularning asosiy faoliyati doirasida ko'rsatiladigan, ular yuridik shaxslar yoki yuridik shaxslarning tarkibiy bo'linmalari tomonidan ko'rsatilishidan qat'i nazar, yo'llanmalar yoki joy siz davolanish uchun beriladigan hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlar kiradi;

b) jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmatlari jumlasiga, xususan, sport inshootlarida, maktablarda, klublarda sport turlari bo'yicha o'quv guruhlari hamda jamoalarida sog'lomlashtirish yo'nalishidagi jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazishga oid xizmatlar,

umumjismoniy tayyorgarlik xizmatlari, sport musobaqalarini yoki bayramlarni, sport-tomosha tadbirlarini o'tkazish bo'yicha xizmatlar, shuningdek mazkur tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish uchun sport inshootlarini ijara berish kiradi;

15) yo'lovchilarni yagona tariflar bo'yicha tashish xizmatlarini ko'rsatish:

a) umumiyl foydalanishdagi yo'lovchi tashish shahar transportida va yo'lovchi tashish avtomobil transportida (bundan taksi, shu jumladan yo'nalishli taksi mustasno) mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilanadigan tariflar bo'yicha;

b) shahar atrofidagi yo'nalishda temir yo'l transportida; /

16) uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan ko'rsatiladigan xizmatlar jumlasiga lift xo'jaliklari, yer resurslari va davlat kadastro, uy-joy fondidan foydalanish, uni saqlash va ta'mirlash boshqarmalari hamda bo'limlarining bevosita aholi tomonidan haq to'lanadigan xizmatlari, shu jumladan ushbu xizmatlarga uy-joy mulkdorlari shirkatlari orqali haq to'lash kiradi;

17) tovarlarni (xizmatlarni), agar tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bepul amalga oshirilsa;

18) qimmatbaho metallardan ishlangan bank va o'Ichovli quymalarini, qimmatbaho metallardan ishlangan quyma (investitsiya) tangalarni (numizmatika maqsadlari uchun foydalaniladigan tangalardan, shuningdek

qimmatbaho metallardan ishlangan chet el tangalaridan tashqari), zargarlik buyumlarini;

19) bojsiz savdo bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni;

20) yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va vakolatli organlar, tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni, agar bunday xizmatlar ko‘rsatish shart ekanligi qonun hujjatlarida belgilangan bo‘lsa, faoliyatning muayyan sohasida ushbu organlar va tashkilotlarning zimmasiga yuklatilgan alohida vakolatlarni bajarish doirasida davlat boji yoki boshqa to‘lovlar undiriladi;

21) budjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproqqa oid va geobotanika ishlarini;

22) budjet mablag‘lari hisobidan har yillik mineral xom ashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlari doirasida ko‘rsatiladigan geologiya xizmatlari;

23) xalqaro moliyaviy institutlarning qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olinadigan tovarlarni (xizmatlarni), agar ularni soliqdan ozod etish nazarda tutilgan bo‘lsa;

24) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qo‘riqlash bo‘linmalari xizmatlarini;

25) telekommunikatsiya tarmoqlarida operativ-qidiruv tadbirdari tizimining texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga hamda ularga xizmat ko‘rsatishga doir xizmatlar;

26) metsenatlik ko‘magi tarzida beriladigan (ko‘rsatiladigan) tovarlarni (xizmatlarni);

27) moliyaviy xizmatlarni;

28) hayotni sug‘urta qilish xizmatlarini va boshqa sug‘urta xizmatlarini.

Sanab o‘tilgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir aylanma soliq to‘lovchilarda bunday faoliyatni amalga oshirish uchun tegishli litsenziyalar va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, agar uning amalga oshirilishini litsenziyalash lozim bo‘lsa yoki ruxsat etuvchi hujjatlar talab etsa, qonun hujjatlariga muvofiq soliq solishdan ozod etiladi.

Soliq solinadigan aylanmalarni va soliq solishdan ozod etiladigan aylanmalarni amalga oshiradigan soliq to‘lovchilar aylanmalarning alohida hisobini yuritishi shart.

Quyidagi moliyaviy xizmatlar soliq solishdan ozod etiladi:

1) bank operatsiyalari, xususan:

yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini omonatlarga jalb etish;

yuridik va jismoniy shaxslarning jalb etilgan pul mablag‘larini banklar nomidan hamda ularning hisobidan joylashtirish;

yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan bank kartalari bo‘yicha hisob-kitoblar uchun xizmat qiluvchi bank hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish, shuningdek bank kartalariga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq operatsiyalar;

yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan vakil banklarning topshirig‘iga ko‘ra ularning bank hisobvaraqlari bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;

yuridik va jismoniy shaxslarga kassa xizmatlarini bank kassalari yoki maxsus asbob-uskunalar (bankomat, avtomatik depozit mashinalar va hokazo) orqali ko'rsatish;

chet el valyutasining naqd puldagi va naqd pulsiz oldi-sotdisi (shu jumladan chet el valyutasining oldi-sotdi operatsiyalariga doir vositachilik xizmatlari ko'rsatish);

bank kafolatlarini bajarish (bank kafolatini berish va bekor qilish, bunday kafolat shartlarini tasdiqlash va o'zgartirish, bank kafolati bo'yicha to'lov, bunday kafolatga doir hujjatlarni rasmiylashtirish va tekshirish);

majburiyatlarning pul shaklida bajarilishini nazarda tutuvchi uchinchiligi shaxslar uchun kafillik berish;

akkreditivlarni ochish va ularga xizmat ko'rsatish;

to'lov tizimlari, dasturlaridan va uskunalardan foydalangan holda hisob-kitoblarni (to'lovlarni) amalga oshirish;

2) hisob-kitoblar ishtirokchilari o'rtasida axborot va texnologik hamkorlikni, shu jumladan hisob-kitoblar ishtirokchilariga bank kartalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha axborotni to'plash, unga ishlov berish va uni taqdim etish yuzasidan xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlovchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar;

3) yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini, kooperativlarning pay fondlaridagi va investitsiya pay jamg'armalaridagi paylarni, qimmatli qog'ozlarni hamda hosila moliyaviy vositalarni realizatsiya qilish, bundan soliq solinishi lozim bo'lgan hosila moliyaviy vositalarning asos aktivini realizatsiya qilish mustasno. Ushbu bo'lim maqsadlarida hosila moliyaviy vositani realizatsiya qilish deganda uning asos aktivini realizatsiya qilish, shuningdek kontrakt bo'yicha

mukofotlar summalarini, variatsiyaga oid marja summalarini to‘lash, hosila moliyaviy vositalar shartlariga muvofiq asos aktiv to‘lovi bo‘limgan hosila moliyaviy vosita taraflarining boshqa davriy yoki bir martalik to‘lovlari tushuniladi;

4) realizatsiya qilinishi ushbu qismning 3-bandiga binoan soliq solishdan ozod etiladigan hosila moliyaviy vositalar asosida yuzaga keladigan majburiyatlar bo‘yicha huquqlardan (talablardan) boshqa shaxs foydasiga voz kechish (ularni boshqalarga berish);

5) forfeiting va faktoring operatsiyalari;

6) zayomlarni pul shaklida berishga doir shartnomalardan va (yoki) kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar / yuzasidan kreditorning huquqlaridan (talablaridan) boshqa shaxs foydasiga voz kechish (ularni boshqalarga berish, olish) bo‘yicha, shuningdek boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartnomasi asosida dastlabki shartnoma yuzasidan qarz oluvchining har bir yangi kreditor oldidagi majburiyatlarining bajarilishga doir operatsiyalar;

7) kreditlarni, zayomlarni pul shaklida va qimmatli qog‘ozlar bilan berish, shu jumladan ular bo‘yicha foizlar bilan birga berish, shuningdek RYePO operatsiyalari, shu jumladan RYePO operatsiyalari bo‘yicha qimmatli qog‘ozlar berilganligi uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan pul summalar;

8) mol-mulkni moliyaviy ijara (lizingga) berishga doir xizmatlarning ushbu xizmatlar bo‘yicha foizli daromadlar olishga taalluqli qismi bo‘yicha;

9) qimmatli qog‘ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar) bilan bog‘liq operatsiyalar. Qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq

operatsiyalar jumlasiga qimmatli qog‘ozlarni saqlash, qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqni hisobga olish, qimmatli qog‘ozlarni o‘tkazish hamda ularning reyestrini yuritish, qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkil etish bo‘yicha operatsiyalar kiradi, ularni tayyorlash bo‘yicha xizmatlar bundan mustasno;

10) tranzaksiyalarni bir vaqtning o‘zida to‘lov ishtirokchilari o‘rtasida vositachilik haqlarini taqsimlagan holda amalga oshirish bilan bog‘liq to‘lov tizimlarining moliya xizmatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va qimmatli qog‘ozlarga taalluqli qism bo‘yicha qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish bo‘yicha vakolatli organ bilan kelishilgan holda, shu jumladan ayrim aylanmalarni bat afsil aniqlashtirish bo‘yicha tushuntirishlar berishga haqli.

Sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish xizmatlari bo‘yicha sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug‘urta qilish bo‘yicha xizmatlar qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:

1) sug‘urta bozorining professional ishtirokchisi quydagi larni olsa:

sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari;

qayta sug‘urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo‘yicha vositachilik haqi va tantemalar;

sug‘urta agenti, sug‘urta va qayta sug‘urta brokeri, syurveyer hamda sug‘urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko‘rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

qonun hujjatlariga muvofiq sug‘urtalovchiga o‘tgan, sug‘urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan mablag‘lar;

qayta sug‘urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalari;

bevosita sug‘urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa:

sug‘urta to‘lovi (sug‘urta tovon);

preventiv tadbirlar o‘tkazish uchun beriladigan mablag‘lar;

sug‘urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug‘urtalovchi to‘laydigan mablag‘lar;

sug‘urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag‘lar.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan birgalikda, ayrim aylanmalarni batafsillashtirgan xolda, tushuntirishlar berishga haqli.

Quyidagilarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish solidishdan ozod etiladi:

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirilayotgan tovarlar;

3) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda - boshqa tashkilotlar va shaxslar yo‘nalishlari bo‘yicha xayriya yordami maqsadlarida, shu jumladan texnik yordam ko‘rsatish (grantlar) uchun olib kiriladigan tovarlar;

4) chet el diplomatik vakolatxonalarini va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalarining diplomatik va ma’muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o‘zлari bilan birga yashayotgan oila a’zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo‘ljallangan tovarlar;

5) qonun hujjatlariga muvofiq alohida qimmatga ega madaniy meros ob’ektlari jamoasiga kiritilgan, davlat madaniyat muassasalari tomonidan olingan yoki ular tomonidan sovg‘aga olingan madaniy qimmatliklar. Ushbu soliq solishdan ozod etish O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining tegishli tasdiqnomasi mavjud bo‘lgan taqdirda qo‘llaniladi;

6) o‘xhashi O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan texnologik asbob-uskunalar;

7) xalqaro kitob almashinuvi bo‘yicha davlat kutubxonalari va muzeylari tomonidan olinadigan bosma nashrlarning barcha turlari, shuningdek xalqaro notijorat almashinuvini amalga oshirish maqsadida ixtisoslashtirilgan davlat tashkilotlari tomonidan olib kiriladigan kinematografiya asarlari;

8) milliy valyuta va chet el valyutasi, qonuniy to‘lov vositalari bo‘lgan banknotlar (bundan kolleksiyalash uchun mo‘ljallanganlari mustasno), shuningdek qimmatli qog‘ozlar;

9) xalqaro moliya institutlarining qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olib kiriladigan tovarlar, agar ular olib kirilayotganda soliqdan ozod etilishi qonunda nazarda tutilgan bo‘lsa;

10) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

11) dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlarni ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha olib kiriladigan xom ashyo. Mazkur norma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida ham ishlab chiqariladigan, olib kiriladigan tayyor dori vositalariga, veterinariya dori vositalariga, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

QQSni joriy etishda uning stavkasi 30 foiz hajmida belgilanganini ko‘pchilik eslasa kerak. 1993 yildan u 25 foizgacha, 1994 yil 1 iyuldan 20 foizgacha, 1995 yilda 18 foizgacha, 1996 yilda 17 foizgacha pasaytirildi.

1997 yil 1 yanvardan soliqning ikkita stavkasi belgilandi. Respublika aholisini ijtimoiy jihatdan himoya qilish maqsadida un, non, go‘sht, sut va sut mahsulotlari kabi eng zarur tovarlarga soliqning 10 foiz miqdoridagi

pasaytirilgan stavkasi, qolgan barcha tovarlar, ishlar va xizmatlarga 18 foiz etib belgilandi.

5.1-jadval  
Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalarining o'zgarish dinamikasi<sup>40</sup>

Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda								
	1992 y.	1993 y.	1994 y.	1995 y.	1996 y.	1997 y.	1998 y.	1999 y.	2000 - 2018 yy.
Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi va (yoki) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchilar	30	30	30	30	17	18	18	15, 20 va 0	20 va 0

1999 yili respublikada soliqning uchta stavkasi: 20, 15 va 0 foiz amal qildi. 2000 yildan 2019 yilgacha 20% va 0 darajali soliq stavkalari qo'llanilgan. 2019 yildan 15%ga pasaytirilgan va 0 darajali soliq stavkalari amal qilmoqda<sup>41</sup>.

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solish quyidagilar realizatsiya qilinganda amalga oshiriladi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi hududidan eksport bojxona tartib-taomiliga olib chiqilgan tovarlar;
- 2) ilgari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida qayta ishslash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan, O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan tovarlar va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududidan bojxona hududida qayta ishslash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishslash natijasida olingan (hosil bo'lган) tovarlar (qayta ishslash mahsulotlari, chiqindilar va (yoki) qoldiqlar);

<sup>40</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

<sup>41</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

3) O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan g‘amlab qo‘yilgan narsalar, havo kemalaridan risoladagidek foydalanilishini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan yoqilg‘i va yonilg‘i-moylash materiallari g‘amlab qo‘yilgan narsalar deb e’tirof etiladi;

4) chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish chog‘ida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni bevosita O‘zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidagi bojxona organidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yoxud transportda tashish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar;

5) xalqaro tashishlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar.

Nol darajali stavkani qo‘llash huquqini tasdiqlovchi hujjatlar soliq hisoboti bilan birga taqdim etiladi.

Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududida qayta ishslash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishslash bo‘yicha xizmatlarga qayta ishslash mahsulotlarini O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqish sharti bilan nol stavka bo‘yicha soliq solinadi.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududida qayta ishslash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishslash bo‘yicha xizmatlarga qayta ishslash mahsulotlarini keyinchalik bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq erkin muomalaga chiqarish rejimiga joylashtirgan holda belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha soliq solinishi lozim.

Nol stavka bo‘yicha soliq solish quyidagilarni realizatsiya qilish chog‘ida amalga oshiriladi:

- 1) tovarlarni xalqaro tashish bo'yicha xizmatlarni. Tovarlarni xalqaro tashish deganda tovarlarning jo'natish punkti yoki belgilangan punkti O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan taqdirda tovarlarni havo kemalari, temir yo'l transporti va (yoki) avtotransport vositalari orqali tashish tushuniladi;
- 2) chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish chog'ida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidagi bojxona organidan to O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yoki transportda tashish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlarni;
- 3) tashishlar yagona xalqaro tashish hujjatlari asosida rasmiylashtirilgan taqdirda, basharti yo'lovchilarni, pochtani va bagajni jo'natish punkti yoki belgilangan punkti O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo'lsa, yo'lovchilarni, pochtani va bagajni tashish bo'yicha xizmatlarni;
- 4) O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga eksport qilinadigan tovarlarni tashish yoki transportda tashish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududidagi qayta ishlash mahsulotlarini O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari bo'lgan tashuvchilar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni. Basharti tashish hujjatlarida bojxona organlarining belgilari qo'yilgan bo'lsa, qo'llaniladi;
- 5) havo kemalariga bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo hududida ko'rsatiladigan xizmatlarni, shu jumladan aeronavigatsiya xizmatini.

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish aylanmasi to‘langan soliqni qoplash (qaytarish) yo‘li bilan nol darajali stavkasi bo‘yicha tortiladi, agar ushbu tovarlar (xizmatlar) quyidagicha olinsa:

1) chet el diplomatik vakolatxonalarining va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarining rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalar diplomatik va ma’muriy-texnik xodimlarining (shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a’zolarining) shaxsiy foydalanishi uchun;

2) Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida tovarlarni (xizmatlarni) sotib olayotgan soliq to‘lovchilar tomonidan, agar bitimda nol darajali stavka qo‘llanilishi nazarda tutilgan bo‘lsa.

Agar tegishli chet davlatning qonun hujjatlarda O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalariga va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga, ushbu vakolatxonalarining diplomatik hamda ma’muriy-texnik xodimlariga (shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a’zolariga) nisbatan xuddi shunday tartib belgilangan bo‘lsa yoxud bunday norma O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan bo‘lsa, nol darajali stavkani qo‘llash amalga oshiriladi.

Suv ta’mnoti, kanalizatsiya, sanitariya jihatdan tozalash, issiqlik ta’mnoti bo‘yicha aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaga, shu jumladan bunday xizmatlarni uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan aholi nomidan, shuningdek idoraviy uy-joy fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining bo‘linmalari tomonidan olishga, nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadi.

Nol darajali stavka qimmatbaho metallarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan qimmatbaho metallarni olish bo'yicha vakolatli organga realizatsiya qilinadigan bunday metallarga nisbatan qo'llaniladi.

#### **5.4. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish, hisobkitoblarni taqdim etish va soliq to'lash tartibi.**

Bir oy soliq davridir.

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmasi oyiga bir milliard so'mdan oshmaydigan soliq to'lovchilar uchun soliq davri chorak hisoblanadi.

Soliq bazasini aniqlashda soliq summasi soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo'lgan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq summasi tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir operatsiyalarning soliq bazasidan, tegishli soliq davriga taalluqli bo'lgan aylanmalarni amalga oshirish sanasidan kelib chiqqan holda, tegishli soliq davrida soliq bazasini ko'paytiradigan yoki kamaytiradigan barcha o'zgartishlar hisobga olingan holda har bir soliq davrining yakunlariga ko'ra hisoblab chiqariladi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliqning umumiyligi hisoblab chiqarilgan soliq bazasining soliq stavkasiga mos keladigan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq bazasi O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlarning har bir guruhi bo'yicha alohida aniqlansa, soliq summasi mazkur soliq bazalarining har biri bo'yicha alohida hisoblab chiqariladi. Bunda soliqning umumiyligi summasi bunday soliq bazalarining har biri

bo'yicha alohida hisoblab chiqarilgan soliq summalarini qo'shish orqali hisoblab chiqariladi.

1. Qo'shilgan qiymat solig'i summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagicha aniqlanadi:

$$QQ_s = T_{sq} \times S_s,$$

yoki

$$QQ_s = (T_{sq} + A_s) \times S_s,$$

bu yerda:

$QQ_s$  – iste'molchilardan undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

$T_{sq}$  – tovarlaning (xizmatlar) sotish qiymati;

$S_s$  – qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi;

$A_s$  – aksiz solig'i summasi (aksiz solig'i to'lanadigan tovarlar uchun).

2. Tovarlar (xizmatlar) qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga olgan narxlar va ta'riflar bo'yicha sotilganda soliq quyidagicha aniqlanadi:

$$QQ_s = T_{sq} \times S_s / (S_s + 100),$$

bu yerda:

$T_{sq}$  – qo'shilgan qiymat solig'i ham hisobga olingan tovarlar (xizmatlar) qiymati.

3. Import qilinayotgan tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i summasi quyidagicha aniqlanadi:

$$QQ_s = (T_{bq} + B_b) \times S_s,$$

yoki

$$QQ_s = (T_{bq} + A_s + B_b) \times S_s,$$

bu yerda:

$T_{bq}$  – tovarlaning bojxona qiymati;

**B<sub>b</sub>** – bojxona boji;

**A<sub>s</sub>** – aksiz solig‘i summasi (aksiz solig‘i to‘lanadigan tovarlar uchun).

Budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan QQS soliq solinadigan oborot bo‘yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan Soliq kodeksining 247-257-moddalariga muvofiq soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo‘lgan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

$$\text{QQS}_{\text{b.t}} = \text{QQS}_{\text{s.o}} - \text{QQS}_{\text{h.o}}$$

bu yerda:

**QQS<sub>b.t</sub>** – budjetga to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi;

**QQS<sub>s.o</sub>** – soliqqa tortiladigan oborotlar bo‘yicha hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi (iste’molchilardan);

**QQS<sub>h.o</sub>** – hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi (etkazib beruvchilardan).

O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish chog‘idagi soliq summasi bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq budjetga to‘lanadi.

Hisoblab chiqarilgan, budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi salbiy bo‘lsa, soliq to‘lovchi mazkur summaning o‘rnini qoplash huquqiga ega bo‘ladi.

Soliq to‘lovchilar, soliq hisobotini o‘zлari soliq hisobida turgan joydagi soliq organlariga o‘tgan soliq davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirilmagan muddatda taqdim etishlari shart.

Hisoblab chiqarilgan soliqni to‘lash soliq hisobida turilgan joy bo‘yicha har bir soliq davrining yakunlariga ko‘ra, soliq hisoboti taqdim etishlari muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish chog'ida soliq ushbu bo'lim qoidalari hisobga olingan holda, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda budgetga to'lanadi.

Soliq agentlari soliqni o'zi soliq hisobida turgan joy bo'yicha to'laydi. Soliq to'lovchilar bo'limgan soliq agentlari o'zi soliq hisobida turgan joydagi soliq organlariga tegishli soliq hisobotini to'lash amalga oshirilgan o'tgan soliq davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay taqdim etishi shart.

Soliq hisobotiga soliq to'lovchining xaridlar reyestrida va sotuvlar reyestrida ko'rsatilgan ma'lumotlar kiritiladi.

Soliq agentlari, shuningdek vositachilik (topshiriq) va transport ekspeditsiyasi shartnomalari asosida boshqa shaxsning manfaatlarni ko'zlab tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar olingan va taqdim etilgan hisobvaraqlar fakturalardagi ma'lumotlarni ham belgilangan shakl bo'yicha taqdim etishi shart. Agar bunday shaxslar soliq to'lovchilar bo'lmasa, ular soliq hisobotiga faqat soliq agenti sifatida operatsiyalarini yoki vositachilik (topshiriq) shartnomasi asosida komitentning (ishonch bildiruvchining), transport ekspeditsiyasi shartnomasi asosida yukni oluvchining (yukni jo'natuvchining) manfaatlarini ko'zlab vositachilik operatsiyalarini amalga oshirish chog'ida olingan hamda taqdim etilgan hisobvaraqlar fakturalarni hisobga olish daftarlarda aks ettiriladigan ma'lumotlarni kiritadi.

Xaridlar va sotuvlar reyestrlarini, shuningdek kelib tushgan va taqdim etilgan hisobvaraqlar fakturalarni hisobga olish daftarlarni yuritish shakllari va tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

## **Nazorat savollari**

1. Qo'shilgan qiymat qanday tarkib topadi?
2. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilsri kimlar?
3. Qo'shilgan qiymat solig'i ob'yekti qanday aniqlanadi?
4. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari va ularni qo'llash tartibi qanday?
5. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash va hisobotni taqdim etish tartibi qanday?

## VI BOB. AKSIZ SOLIG‘I

### 6.1. Aksiz solig‘ining iqtisodiy mohiyati va soliq to‘lovchilar.

O‘zbekistonda aksiz solig‘i 1992 yilda qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan birgalikda oborot solig‘i va sotuvdan olinadigan soliqlar o‘rniga joriy qilingan. Uning qo‘shilgan qiymat solig‘idan farqli tomoni shundaki, u ayrim tovarlar va mahsulotlarni chegaralab olgan va bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Aksiz solig‘i individual xarakterga ega bo‘lib, faqat aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Aksiz solig‘i qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan bazada va narxda hisobga olinadigan yuklab jo‘natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egor (bilvosita) soliq sifatida budgetga undirish shakli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 14 abgustdagagi 285-sonli qaroriga asosan 1996 yil 1 oktyabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga chetdan keltiriladigan tamaki mahsulotlarini va spirtli ichimliklarni (pivodan tashqari) majburiy ravishda aksiz markalari bilan markalash hamda ularni aksiz markalarisiz sotishni taqiqlanishi joriy etildi.

2019 yil yanvardan boshlab Soliq kodeksiga kiritilgan o‘zgartishlarga muvofiq, benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq bekor qilindi. Bunda benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq aktsiz solig‘i ob’ektiga kiritildi. Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq dastlab O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 31 dekabrdagi 490-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2002 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq 2002 yil 1 yanvardan

jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga olinadigan soliq sifatida joriy etilgan. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrdagi 343-sonli Qonuniga asosan 2013 yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga olinadigan soliq, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq deb atala boshlangan. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrdagi 454-sonli Qonuniga asosan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, 2018 yil 1 yanvardan boshlab benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq deb e'tirof etilgan.

Aksiz solig'ini to'lovchilar deb quyidagi shaxslar e'tirof etiladi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;
- 2) tabiiy gazni iste'molchilarga realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar;
- 3) benzin, dizel yoqilg'isini yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali, shuningdek gazni avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar. Yakuniy iste'molchilar deganda o'z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg'isi hamda gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi;
- 4) oddiy shirkat ishtirokchisi bo'lgan, oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshiriladigan aksiz to'lanadigan tovari ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bo'yicha oddiy shirkat ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishchonchli shaxs;

5) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududi orqali aksiz to‘lanadigan tovarlarni olib o‘tuvchilar. Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur shaxslar soliq to‘lovchilar deb e‘tirof etiladi.

Quyidagilar ham soliq to‘lovchilar deb e‘tirof etiladi:

1) telekommunikatsiya mobil aloqa xizmatlarini (aksiz to‘lanadigan xizmatlarni) ko‘rsatadigan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan, aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yoki shunday tovarlarni olib kirishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari.

## **6.2. Aksiz solig‘i ob’yekti va soliq bazasi.**

Aksiz solig‘i solinadigan ob’ektlar quyidagilardan iborat:

1) aksiz to‘lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan aksiz to‘lanadigan tovarlarni boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlash uchun berish;

tovarga bo‘lgan mulk huquqini berish;

garov bilan ta’minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘yilgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni garovga qo‘yuvchi tomonidan berish;

aksiz to‘lanadigan tovarlarni bepul berish;

aksiz to‘lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxslarning mehnatiga haq to‘lash yoki dividendlar to‘lash hisobidan berish;

2) aksiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida yoxud oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi

faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma) bo‘yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida berish;

3) aksiz to‘lanadigan tovarlarni:

a) ishtirokchiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoxud yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi kamayganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning bir qismi) qaytarib sotib olinganda ishtirokchiga berish;

b) yuridik shaxs bo‘lgan emitent tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalar qaytarib sotib olingan taqdirda aksiyadorga berish;

v) yuridik shaxsni tugatishda aksiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

4) aksiz to‘lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan qayta ishslash uchun topshirish, shuningdek qaytarish sharti bilan berilgan xom ashyo va materiallarni qayta ishslash mahsuli bo‘lgan, shuningdek aksiz to‘lanadigan shunday xom ashyo va materiallarning mahsuli bo‘lgan, aksiz to‘lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga ishlab chiqaruvchi tomonidan topshirish;

5) aksiz to‘lanadigan tovarlardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish;

6) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish;

7) benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish;

8) aksiz to‘lanadigan xizmatlar ko‘rsatish;

9) O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinadigan aksiz

to‘lanadigan tovarlarning buzilishi, yo‘qotilishi, bundan favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga kelgan hollar mustasno. Aybdor tomonidan tovarning qiymati sug‘urta orqali to‘langan yoki uning o‘rnini qoplangan taqdirda, aksiz solig‘i sug‘urta orqali to‘lash (o‘rnini qoplash) ulushida to‘lanadi.

Quyidagilar soliq solish ob‘ekti hisoblanmaydi:

1) aksiz to‘lanadigan tovarlarni eksportga (eksportning bojxona tartib-taomillarida) realizatsiya qilish, bundan aksiz to‘lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) bojxona hududida qayta ishslash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan, qayta ishslash mahsuli bo‘lgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketish sharti bilan berish;

3) ixtisoslashtirilgan gaz ta’mnoti korxonalari orqali aholiga suyultirilgan gazni maishiy ehtiyojlar uchun realizatsiya qilish;

4) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga quyidagi aksiz to‘lanadigan tovarlarni:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirish;

davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar orqali xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko‘mak ko‘rsatish maqsadida olib kirish;

agar ular olib kirilayotganda soliqdan ozod etilishi qonunda nazarda tutilgan bo‘lsa, xalqaro moliya institutlarining qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olib kirish;

5) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga soliq solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari

doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilish. O‘zbekiston Respublikasi hududiga soliq solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirishning eng yuqori normalari qonun hujjatlarida belgilanadi;

6) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig‘i bo‘lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

7) ishlab chiqaruvchilar tomonidan turistik yo‘nalishlarda tashkil etilgan degustatsiya hududlarida (joylarida) realizatsiya qilinadigan tabiiy vino (shisha idishdagilardan tashqari) mahsulotlariga.

Soliq bazasi belgilangan soliq stavkalariga qarab aksiz to‘lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) har bir turi bo‘yicha alohida aniqlanadi.

Aksiz to‘lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan soliq stavkalari mutlaq (qat‘iy) summada belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi aksiz to‘lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) naturada ifodalangan hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ishlab chiqarilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) soliq stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi bo‘lib realizatsiya qilingan aksiz to‘lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati, biroq ularning haqiqiy tannarxidan past bo‘lmagan qiymati hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar mehnatiga haq to‘lash, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga bepul yoki boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to‘lanadigan tovarlarning naturada

ifodalangan hajmidan hamda realizatsiya qilingan aksiz to‘lanadigan tovarlarning qiymatidan kelib chiqib belgilangan tartibda aniqlanadi.

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlangan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq bazasi aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlarning qiymatini hamda qaytarish sharti bilan qayta ishlangan xom ashyo va materiallarning qiymatini o‘z ichiga oladi.

Aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan qat’iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo‘lgan aralash soliq stavkalari belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi, aksiz to‘lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan hamda realizatsiya qilingan aksiz to‘lanadigan tovarlarning qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Chetdan olib kirilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan foizlardagi (advalor) soliq stavkalari belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati asosida aniqlanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan qat’iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi import qilingan aksiz to‘lanadigan tovarlarning natura holidagi hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan qat’iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo‘lgan aralash soliq stavkalari belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi bojxona qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan, aksiz to‘lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan va (yoki) aksiz to‘lanadigan tovarlarning bojxona

to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojaxona qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilish chog'ida realizatsiya qilingan va (yoki) shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalilanilgan benzinning, dizel yoqilg'isi va gazning naturada ifodalangan hajmi soliq bazasi hisoblanadi.

### **6.3. Aksiz solig'i stavkalari.**

Soliq stavkalari tovarning yoki xizmatning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor), naturada ifodalangan o'lchov birligiga nisbatan mutlaq summada (qat'iy belgilangan), shuningdek advalor va qat'iy belgilangan soliq stavkalarini o'z ichiga olgan aralash stavkada belgilanadi.

6.1-jadval

**Tamaki mahsulotlariga doir soliq stavkalari<sup>42</sup>**

T/r	Tamaki mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari	
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan
1.	Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papiroslar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek	400 000 so'm/ 1 000 dona + 10 foiz	2021 yil 1 yanvardan: 163 500 so'm/ 1000 dona + 9 foiz 2021 yil 1 fevraldan: 172 000 so'm/ 1000 dona + 10 foiz 2021 yil 1 oktyabrdan: 185 000 so'm/ 1000 dona + 10 foiz
2.	Sigara	4 700 so'm/1 dona	
3.	Chilim uchun tamaki	280 000 so'm/kg	
4.	Chekiladigan, o'rama tamaki	280 000 so'm/kg	
5.	Chaynaladigan, hidlanadigan, shimiladigan tamaki	280 000 so'm/kg	
6.	Qizdiriladigan tamaki tayoqchasi, qizdiriladigan tamakili kapsula va tarkibida tamaki bo'lgan o'xhash	280 000 so'm/kg	

<sup>42</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi

T/r	Tamaki mahsulotlari turlari	Soliq stavkaları	
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan
	tamoyil bilan foydalaniладиган boshqa mahsulotlar		
7.	Nikotinli tamakisiz snyus	112 000 so‘m/kg	
8.	Tarkibida nikotin mavjud bo‘lgan suyuqlik (kartridjlarda, rezervuarlarda va elektron sigaretlarda foydalanish uchun boshqa konteynerlarda)		500 so‘m/ml

1-bandda aktsiz solig‘ining qat’iy belgilangan stavkasi natura ifodalangan aktsiz to‘lanadigan tovarlar hajmiga nisbatan qo‘llaniladi, aktsiz solig‘ining advalor soliq stavkasi ishlab chiqaruvchining aktsiz solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘i qo‘shilmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan qo‘llaniladi. Tovar importida advalor soliq stavkasi bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymatiga nisbatan qo‘llaniladi. 3-6-bandlarda soliq stavkasi tamaki mahsulotidagi tamaki xom ashysi massasiga nisbatan tamaki xom ashysi massasi to‘g‘risidagi axborotni iste’mol qadog‘ida (idishda) ko‘rsatish sharti bilan qo‘llaniladi. Agar chilim uchun tamaki bo‘yicha tamaki xom ashysi massasi netto og‘irligining 20 foizdan kamni tashkil etgan taqdirda, u holda aktsiz solig‘i netto og‘irligining 20 foizidan hisoblab chiqariladi. Iste’mol qadog‘ida (idishida) tamaki xom ashysining og‘irligi to‘g‘risida axborot mavjud bo‘lмаган taqdirda, soliq stavkasi netto og‘irligiga nisbatan qo‘llaniladi.

7-bandda soliq stavkasi tovarning netto og‘irligiga nisbatan qo‘llaniladi, bunda iste’mol qadog‘ining (plastik bankaning, karton qutisining va shu kabilarning) og‘irligi hisobga olinmaydi. Iste’mol qadog‘ida (idishida) tovarning og‘irligi to‘g‘risida ma’lumot mavjud

bo'Imagan taqdirda, soliq stavkasi iste'mol qadog'ini (idishini) hisobga olgan holda netto og'irligiga nisbatan qo'llaniladi.

6.2-jadval

**Alkogol mahsulotlariga doir soliq stavkalari<sup>43</sup>**

T/r	Alkogol mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari			
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan (1 dal tayyor mahsulot uchun)		
			2021 yil 1 yanvardan	2021 yil 1 fevraldan	2021 yil 1 oktyabrdan
1.	Oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraktsiyadan texnik etil spirti va etil spiritning boshlang'ich fraktsiyasi	70%	10 800 so'm	12 500 so'm	13 500 so'm
2.	Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari	50 000 so'm/ 1 litr uchun	98 000 so'm	116 400 so'm	125 100 so'm
2.	hajmiy ulushda spirt 40 foizdan ko'p bo'lgan aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari	70 000 so'm/ 1 litr uchun	162 700 so'm	192 300 so'm	206 700 so'm
3.	Vino:				
	tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etil spirti qo'shilmag'an holda)	35 000 so'm/ 1 litr uchun	7 700 so'm	8 300 so'm	8 700 so'm
	boshqa vinolar, shu jumladan vermut	50 000 so'm/ 1 litr uchun	14 500 so'm	16 800 so'm	18 000 so'm
4.	Pivo	50%, biroq 1 litr uchun/ 15 000 so'mdan kam bo'Imagan	10 600 so'm	11 700 so'm	12 600 so'm

6.3-jadval

**Neft mahsulotlari va boshqa aktsiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarga doir soliq stavkalari<sup>44</sup>**

T/r	Tovarlar (xizmatlar) nomi	Soliq stavkasi	
		2021 yil 1 yanvardan	2021 yil 1 fevraldan
1.	Neft mahsulotlari:		
	Ai-80	200 000 so'm/tonna	240 000 so'm/tonna
	Ai-90 va undan yuqori	250 000 so'm/tonna	275 000 so'm/tonna
	aviakerosin (sintetikdan tashqari)	180 000 so'm/tonna	200 000 so'm/tonna

<sup>43</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

<sup>44</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

T/r	Tovarlar (xizmatlar) nomi	Soliq stavkasi	
		2021 yil 1 yanvardan	2021 yil 1 fevraldan
	dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari)	200 000 so'm/tonna	240 000 so'm/tonna
	EKO dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari)	180 000 so'm/tonna	216 000 so'm/tonna
	dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi	280 000 so'm/tonna	340 000 so'm/tonna
2.	Polietilen granulalar		20%
3.	Tabiiy gaz, shu jumladan eksport		20%
4.	Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz (bundan «Hududgazta'minob» AJ orqali aholiga sotiladigan hajmlar mustasno), shu jumladan eksport		30%
5.	Yakuniy iste'molchiga sotiladigan:		
	benzin	1 litr uchun 285 so'm/ 1 tonna uchun 378 480 so'm	1 litr uchun 350 so'm/ 1 tonna uchun 465 530 so'm
	dizel yoqilg'isi	1 litr uchun 285 so'm/ 1 tonna uchun 346 275 so'm	1 litr uchun 350 so'm/ 1 tonna uchun 425 918 so'm
	suyultirilgan gaz	1 litr uchun 285 so'm/ 1 tonna uchun 540 645 so'm	1 litr uchun 350 so'm/ 1 tonna uchun 665 493 so'm
6.	Mobil aloqa xizmatlari		15%
7.	Xushbo'ylashtiruvchi yoki rang beruvchi qo'shimchalarsiz oq shakar		20%

2, 3, 4 va 6-bandlarda soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan (ko'rsatiladigan) aktsiz to'lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) belgilangan, va mazkur tovarlarni olib kirishda qo'llanilmaydi.

5-bandda nazarda tutilgan olib kirilgan (import qilingan) aktsiz to'lanadigan tovarlarni o'z extiyoylari uchun ishlatilganda, soliq to'lovchilar bo'lib ushbu tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun olib kirishni amalga oshirgan shaxslar e'tirof etiladi.

7-bandda belgilangan soliq stavkasi O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan xushbo'ylashtiruvchi yoki rang beruvchi

qo'shimchalarsiz oq shakarga qo'llaniladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi hududiga shakar xom ashyosini olib kirishga aktsiz solig'i solinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan, aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlarga aktsiz solig'i stavkalari 2021 yil 1 yanvardan bekor qilindi<sup>45</sup>.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan, aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlarga 2019 yil 1 yanvardan kiritilgan import bojxona bojlari stavkalari amal qilib kelmoqda<sup>46</sup>.

#### **6.4. Aksiz solig'ini hisoblash, hisob-kitoblarni taqdim etish va soliq to'lash tartibi.**

Soliqni hisoblab chiqarish soliq bazasidan va soliqning belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Import qilingan, aksiz to'lanadigan, o'ziga nisbatan aralash - advalor va qat'iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan tovarlar bo'yicha soliq soliq bazasi va advalor stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Bunda soliq summasi qat'iy belgilangan stavka qo'llanilgan holda hisoblab chiqarilgan summadan kam bo'lishi mumkin emas.

1. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlarga:

a) Tayyor mahsulot birligiga aksiz solig'ining qat'iy stavkalari belgilangan mahsulot bo'yicha (vino, shampan vinosi, pivo, vino mahsulotlari hamda tamaki mahsulotlari) bo'yicha aksiz solig'i summasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{A}_s = \mathbf{T}_{nh} \times \mathbf{S}_s,$$

<sup>45</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 dekabrdagi 4938-soni qarori

<sup>46</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 3818-soni qarori

bu yerda:

$A_s$  – aksiz solig‘i summasi;

$T_{nh}$  – tegishli o‘lchov birligida sotilgan mahsulotning natura ko‘rsatkichlaridagi hajmi;

$S_s$  – aksiz solig‘ining qat’iy stavkasi, o‘lchov birligi so‘mlarda.

b) Boshqa aksiz to‘lanadiga mahsulotlar boyicha aksiz solig‘i summasi quyidagicha aniqlanadi:

$$A_s = T_{sq} \times S_s,$$

bu yerda:

$A_s$  – aksiz solig‘i summasi;

$T_{sq}$  – o‘z ichiga aksiz va qo‘shilgan qiymat solig‘ini olmagan tovarlar (xizmatlar)ning sotish qiymati;

$S_s$  – aksiz solig‘i stavkasi.

2. O‘zbekistonga import qilinadigan tovarlarga:

Import qilinayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlar hisob-kitobi uchun aksiz solig‘i qat’iy stavkalarda bo‘lsa formula, aksiz solig‘ining stavkalari foizlarda bo‘lsa quyidagicha hisoblanadi:

$$A_s = T_{bq} \times S_s,$$

bu yerda:

$T_{bq}$  – bojxona qonunchiligiga muvofiq tovarning aniqlangan bojxona boji qiymati;

Bir oy soliq davridir.

Soliq hisoboti, soliq bo‘yicha hisobda turilgan joydagи soliq organlariga har oyda, soliq davridan keyingi oyning o‘ninchи kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilingan taqdirda, soliq hisoboti avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi soliq organlariga har oyda, soliq davridan keyingi oyning o‘ninchи kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Soliqni to‘lash soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha soliqni to‘lash bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Aksiz markalari bilan tamg‘alanishi lozim bo‘lgan olib kiriladigan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq aksiz markalari olinguniga qadar to‘lanadi.

### *Nazorat savollari*

1. Aksiz solig‘i qachon joriy etildi?
2. Aksiz solig‘i to‘lovchilar qanday guruhlanadi?
3. Aksiz solig‘i ob‘yekti va bazasi nimalardan iborat?
4. Aksiz solig‘i stavkalari va aksiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxati qanday belgilanadi?
5. Aksiz solig‘ini hisobga olish tartibi qanday?

## VII BOB. MOL-MULK SOLIG‘I

### 7.1. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati.

Korxonalarga soliq solish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri korxonalarning mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy qilinishi hisoblanadi. Mol-mulk solig‘i O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi 225-sonli Qonuniga asosan 1992 yil 1 yanvardan joriy etildi va shu bilan birga korxonalarning ishlab chiqarish fondlariga to‘lov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilindi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i to‘g‘ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko‘ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo‘yicha tushumlar summasi to‘liq mahalliy budgetlarga tushadi va u mahalliy budgetlarning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

Soliq tizimida mol-mulk solig‘ini joriy qilishdan ko‘zlangan maqsad, birinchidan, korxonalar o‘zlarining xo‘jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg‘otish bo‘lsa, ikkinchidan, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag‘batlantirishdan iboratdir.

Xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to‘lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalardan qutulishga undaydi. Bu esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi.

**7.2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to‘lovchilari, soliq solish ob’yekti, soliq bazasi va mol-mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymatini aniqlash tartibi.**

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq to‘lovchilari deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasi hududida soliq solish ob’ekti hisoblanuvchi mol-mulkka ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) O‘zbekiston Respublikasi hududida ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar.

Agar ko‘chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlashning imkonи bo‘Imasa, ushbu mulkka egalik qiluvchi va (yoki) undan foydalanuvchi shaxs soliq to‘lovchi hisoblanadi.

Agar yuridik shaxs ko‘chmas mulkni moliyaviy ijaraga (lizing) olgan bo‘lsa, u ham soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

Ko‘chmas mulk yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq soliq solish ob’ekti hisoblanadi.

Ko‘chmas mulk jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlar;

2) qurilishi tugallanmagan ob’ektlar. Qurilishi tugallanmagan ob’ektlarga qurilish ob’ektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan ob’ektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo‘lsa, ushbu ob’ektning qurilishiga

vakolatli bo‘lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e’tiboran 24 oy ichida qurilishi tugallanmagan ob’ektlar kiradi;

3) temir yo‘llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur ob’ektlarning ajralmas texnologik qismi bo‘lgan inshootlar;

4) qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko‘rsatilgan turar joy ko‘chmas mulk ob’ektlari, ko‘chmas mulk ob’ekti foydalanishga topshirilgandan keyin 6 oy o‘tgach.

Quyidagi ko‘chmas mulk ob’ektlari soliq solish ob’ekti hisoblanmaydi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyatini amalga oshirish doirasida foydalaniladigan ob’ektlar;

2) turar joy-kommunal xo‘jaligining va belgilangan maqsadi bo‘yicha foydalaniladigan boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo‘jaligi ob’ektlari. Turar joy-kommunal va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo‘jaliklari ob’ektlari jumlasiga shaharlar va shaharchalarni sanitariya tozalash, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ob’ektlari, tashqi yoritish, kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun va aholiga vodoprovod (suv olish va tozalash inshootlari bilan), kanalizatsiya (tozalash inshootlari bilan), gaz, qozonxonalar va issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlar (ularning inshootlari bilan), shuningdek turar joy-kommunal xo‘jaligi ob’ektlariga texnik jihatdan xizmat ko‘rsatish va ularni ta’mirlash uchun mo‘ljallangan binolar kiradi;

3) umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo‘llari;

4) sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari;

5) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanimayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'ektlar;

6) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalilaniladigan ob'ektlar. Ob'ektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong'in xavfsizligi uchun foydalilaniladigan ob'ektlar jumlasiga kiritish tegishli ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yoki yong'in xavfsizligi organining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;

7) yer uchastkalari.

Quyidagilar soliq bazasidir:

1) binolar va inshootlar va temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur ob'ektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar bo'yicha - o'rtacha yillik qoldiq qiymati.

Ko'chmas mulkning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalilanigan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya miqdori o'rtaidiagi farq sifatida aniqlanadi.

Bunda to'liq amortizatsiya qilingan bino bo'yicha uning uch yilda kamida bir marta aniqlanadigan qayta baholangan (bozor) qiymati soliq bazasidir;

2) qurilishi tugallanmagan ob'ektlar bo'yicha - tugallanmagan qurilishning o'rtacha yillik qiymati;

3) qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko'rsatilgan turar joy ko'chmas mulk ob'ektlari

bo'yicha - mazkur ob'ektlarning o'rtacha yillik qiymati (realizatsiya qilinmagan qismi bo'yicha).

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk ob'ektlariga nisbatan soliq bazasi ushbu mol-mulkning o'rtacha yillik qiymatidir.

Soliq solish ob'ektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

$$\text{Mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati} = \frac{31 \text{ yanvar} + 28(29)\text{fevral} + \dots + 30 \text{ noyabr} + 31 \text{ dekabr}}{12}$$

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk ob'ektlari bo'yicha soliq bazasi mazkur ob'ektlarga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi.

Soliq bazasi har bir soliq solish ob'ekti bo'yicha alohida aniqlanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan soliqni to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritishning imkonи bo'lmasa, soliq bazasi soliq to'lanishi nazarda tutilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning jami sof tushum hajmidagi ulushiga qarab aniqlanadi.

### **7.3. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari.**

Soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq bazasi quyidagilarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o'rtacha yillik qiymatiga) kamaytiriladi:

1) madaniyat va san'at, ta'lif, sog'liqni saqlash (bundan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort ob'ektlari mustasno), jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot ob'ektlarining;

2) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun, shuningdek ipak qurti yetishtirish uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalari balansida bo'lgan mol-mulkning.

Quyidagilar soliqdan ozod qilinadi:

1) yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlarining umumiy sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar;

2) qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo'lgan) o'rnatganlik uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar, ular foydalanishga joriy etilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga.

7.1-jadval

#### **Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari<sup>47</sup>**

Nº	To'lovchilar	Soliq stavkasi soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1	Yuridik shaxslar	2
2	Qurilishi normativ muddatda tugallanmagan ob'ektlar	
3	Bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek tugallanmagan qurilish ob'ektlari	4
4	Umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur ob'ektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar	0,4

<sup>47</sup>O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

Nº	To'lovchilar	Soliq stavkasi soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
3	Konservatsiya qilinishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko‘chmas mulk va tugallanmagan qurilish ob‘ektlari	

Quyidagi jadval ma’lumotlarida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasining yillar davomida o‘zgarish dinamikasi keltirilgan. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining stavkalari 2002 yilda 2 foizni, 2003 yilda 3 foizni hamda 2004 yildan 2013 yilgacha 3,5 foizni tashkil etgan. 2014 yildan 2018 yilgach stavka 5 foizgacha ko‘tarilib, 2019 yildan 2 foizga pasaytirildi.

7.2-jadval

**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarining o‘zgarish dinamikasi<sup>48</sup>**

To'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda					
	2002 y.	2003 y.	2004 - 2013 yy.	2014 - 2015 yy.	2016- 2018 yy.	2019- 2020 yy.
Yuridik shaxslar	2	3	3,5	4	5	2

#### 7.4. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi.

Kalender yil soliq davridir.

Yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq quyidagicha hisoblanadi:

$$MM_s = M_{o\cdot q} \times S_s,$$

bu yerda:

<sup>48</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to‘g‘risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

**MM<sub>s</sub>** – yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq summasi;

**Mo'q** – mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati;

**S<sub>s</sub>** – soliq stavkasi.

Soliq to'lovchilar soliqni aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Soliq hisoboti soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi soliq organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi, O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan esa soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevraliga qadar bo'lgan muddatda taqdim etiladi.

Agar ko'chmas mulk (temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur ob'ektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar) ob'ektlardan tashqari, soliq to'lovchining soliq bo'yicha hisobga olish joyida joylashmagan bo'lsa, soliq hisoboti ko'chmas mulk joylashgan yerdagi soliq organlariga taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar (bundan O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar mustasno) soliq bo'yicha bo'nak to'lovlarni to'laydi.

Bo'nak to'lovlarni hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 10 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay soliq organlariga mo'ljallanayotgan soliq bazasidan (tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatidan) va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadi. Soliq

bo‘yicha majburiyatlari soliq davri mobaynida yuzaga kelgan soliq to‘lovchilar soliq summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadi.

Hisoblab chiqarilgan bo‘nak to‘lovlar quyidagicha to‘lanadi:

aylanmadan soliq to‘lovchilar tomonidan - yillik soliq summasining to‘rtdan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 10-kunidan kechiktirmay;

aylanmadan soliq to‘lovchilar hisoblanmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan - yillik soliq summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay.

Soliq davri mobaynida mo‘ljallanayotgan soliq bázasi o‘zgargan taqdirda soliq to‘lovchi soliq summasi to‘g‘risida aniqlashtirilgan ma’lumotnomasi taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun bo‘nak to‘lov larga soliqning o‘zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davri uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi, bo‘nak to‘lovlar hisobga olingan holda, soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay budgetga o‘tkaziladi.

Soliq davrida soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar summasi soliq hisobotida ko‘rsatilgan budgetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan taqdirda, soliq organi bo‘nak to‘lov larni soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshirmaydigan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari

tomonidan soliq har yili bir marta soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmay to‘lanadi.

### **7.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i to‘lovchilari, soliq solish ob’yekti va soliq bazasi.**

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan «Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i to‘g‘risida»gi Qonuniga asosan 1994 yil 1 yanvardan joriy etildi.

Mulkida soliq solish ob’yekti deb tan olinadigan mol-mulki bo‘lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan holdagi yoki etmagan holdagi dehqon xo‘jaliklari jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi mol-mulk jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining soliq solish ob’yekti hisoblanadi.

1) uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari;

2) tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari;

3) qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan ob’ektlar.

Qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan ob’ektlarga ushbu ob’ektni qurishga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan ob’ektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo‘lsa, ushbu ob’ektning qurilishiga vakolatli

bo‘lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e’tiboran 24 oy ichida qurilishi tugallanmagan ob’ektlar kiradi;

4) ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish ob’ektlarining kadastr qiymati soliq bazasi hisoblanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi 42 million so‘mdan kam bo‘lishi mumkin emas.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo‘yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish ob’ektining bahosi mavjud bo‘lmagan taqdirda, mol-mulkning shartli qiymati Toshkent va Nukus shaharlarida, shuningdek viloyat markazlarida - 42 million so‘mning 5 baravari miqdorida, boshqa shaharlarda va qishloq joylarda esa - 2 baravari miqdorida soliq bazasi hisoblanadi.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish ob’ekti bo‘yicha soliq to‘lovchi bo‘lgan taqdirda, soliq bazasi har bir ob’ekt bo‘yicha alohida hisoblab chiqiladi.

## **7.6. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyozlari va soliq stavkaları.**

Quyidagilarning mulkida bo‘lgan mol-mulk soliq solishdan ozod etiladi:

1) «O‘zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning.

Mazkur imtiyoz tegishincha «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar.

Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashching) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki mayib bo'lganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarining hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari).

Ushbu imtiyoz «Halok bo'lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok bo'lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo'yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergen muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi.

Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasa, soliq imtiyozi ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi,

Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va harbiy xizmat nazarda tutilgan boshqa idoralarning tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organlari xodimining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnomma asosida beriladi.

Sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) soliq imtiyozi faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi;

4) energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga.

Mazkur imtiyoz energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida energiya ta'minoti tashkilotlari tomonidan berilgan ma'lumotnomma asosida taqdim etiladi.

Quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo'lган mol-mulk 60 kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi:

1) 10 nafar va undan ortiq bolalari bor ota-onalaridan birining. Mazkur imtiyoz fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

Soliq imtiyozlari ega bo‘lgan shaxslar soliq imtiyozini olishga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni soliq solish ob’ekti joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi.

Soliq imtiyozlari mulkdorning tanloviga ko‘ra faqat bitta yashash uchun mo‘ljallangan ko‘chmas mulk ob’ektiga tatbiq etiladi, bundan energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to‘liq uzib qo‘yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar mustasno.

7.3-jadval

**Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i stavkalari<sup>49</sup>**

N	Soliq solish ob’ektlari	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (bundan umumiylar maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lganlari mustasno), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	0,23
2.	Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiylar maydoni: 200 kv.m dan va 500 kv.m ga qadar bo‘lgan	0,3
	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	0,4
3.	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiylar maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,3

<sup>49</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

N	Soliq solish ob'ektlari	Soliq stavkalari, foizlarda
4.	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijara ga berishda foydalilanligan soliq solish ob'ektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'ektlari	2

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan ro'yxatga olinmagan yangi qurilgan uy-joylarga nisbatan soliq stavkasi ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan taqdim etilgan axborot asosida mulkning shartli qiymatiga nisbatan ikki baravar miqdorida qo'llaniladi.

Hududlarning va faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlarni hisobga olgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari, viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari o'rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo'lgan oraliqdagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar belgilashga haqli.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona turar joydan unda istiqomat qilish bilan bir vaqtida tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq 1-3-bandlarida belgilangan soliq stavkalari bo'yicha to'lanadi.

Normativ muddatda qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan ob'ektlarga nisbatan soliq stavkasi **4 foiz** miqdorida belgilanadi.

Bo'sh turgan binolar, foydalanimayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek qurilishi tugallanmagan ob'ektlarga nisbatan qonun hujjalariда oshirilgan

soliq stavkalarini belgilash yo‘li bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan ta’sir choralar qo‘llanilishi mumkin.

Quyidagi jadval ma’lumotlarida jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarining yillar davomida o‘sib borish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin.

7.4-jadval  
**Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarining o‘zgarish dinamikasi<sup>50</sup>**

Soliq solish ob’ektlari	Soliq stavkalarini, foizlarda va so‘mda								
	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.
1. Turar joylar, kvartiralar, dala hovli va bog‘ uychalari, garajlar va boshqa imoratlар, xonalarva inshootlar, ularning qiymatidan kelib chiqib (foiz)da:									
a) 1998 yilda qayta baholangan	0,4	0,5							0,5
b) 1998 yilda qayta baholanmagan	5,8	7							
2. Mol-mulkni baholovchi organlar tomonidan baholanmagan ob’ektlar uchun shartli baho (ming so‘mda):									
a) Toshkent shahri va viloyatlar markazi uchun	1500	1800			2100	16800	18480		
b) boshqa shaharlar va qishloq joylari uchun	700	800			920	7300	8030		

2002-2006 yillar davomida jismoniy shaxslarning 1998 yilda qayta baholangan mol-mulki uchun 0,5%, 1998 yilda qayta baholanmagan mol-mulki uchun 7% stavkada mol-mulk solig‘i belgilangan.

2007-2010 yillar davomida jismoniy shaxslarning barcha mol-molkleri uchun faqat 0,5% stavkada mol-mulk solig‘i belgilangan bo‘lsa, 2011 yildan boshlab ushbu soliq stavkasi adolat tamoyili asosida mol-mulkning umumiy maydonidan kelib chiqib tabaqalashtirildi. 2009 yildan jismoniy shaxslar tomonidan turar joy fondi ob’ektlari noturarjoy fond

<sup>50</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining soliq stavkalari to‘g’risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

toifasiga o'tkazilganda yoki ular tomonidan noturarjoy fond ob'ektlari (binolar, binodagi xonalar) mulk sifatida xarid qilinganda, 2013 yildan esa jismoniy shaxslar tomonidan soliq solinadigan ob'ektlardan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalilanlganda yoxud ularni yuridik shaxslarga yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarga ijaraga berilganda jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadigan bo'ldi.

7.5-jadval

**Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalarining o'zgarish dinamikasi<sup>51</sup>**

Soliq solish ob'ektlari	Soliq stavkalari, foizlarda va so'mda									
	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.
1. Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari, boshqa imoratlari, binolar ya inshootlar, qiymatidan (foizlarda):										
200 kv.m gacha bo'lgan	0,75	0,9	1,04	1,2	1,3	1,5	1,7		0,2	
2. Shaharlarda joylashgan umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan uy-joy va kvartiralar (foizlarda):										
a) 200 kv.m dan oshiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	0,9	1,1	1,25	1,4	1,6	1,8	2,1		0,25	
b) 500 kv.m dan oshiq bo'lgan	1,13	1,35	1,55	1,8	2,2	2,5	2,9		0,35	
3. Boshqa aholi punktlarida joylashgan umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari qiymatidan (foizlarda):										
200 kv.m dan oshiq bo'lgan	0,9	1,1	1,25	1,4	1,6	1,8	2,1		0,25	
4. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholovchi organlar belgilagan shartli qiymati (ming so'mda):										
a) Toshkent shahri va viloyatlar markazi uchun	18480				20328				90 000	
b) boshqa shaharlar va qishloq joylari uchun	8030				8833				210 000	

2011 yildan boshlab ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda belgilangan tartibda ro'yxatdan

<sup>51</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

o'tkazilmagan yangi qurilgan uy-joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulk shartli qiymatining 2 baravari miqdoridan kelib chiqib undirila boshlandi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i 2018 yilgacha mol-mulkning inventarizatsiya qiymatidan hisoblangan bo'lsa, 2018 yildan boshlab ko'chmas mulkning kadastr qiymatidan kelib chiqqan holda hisoblanadigan bo'ldi. Mol-mulkni kadastr qiymatidan kelib chiqib soliqqa tortishga o'tilgandan so'ng, soliq yukining keskin o'sishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida 2018-2021 yillar mobaynida o'tgan yilda jismoniy shaxslar mulkiga kadastr qiymati asosida belgilangan soliq miqdori joriy yil uchun hisoblangan soliq miqdoridan 30 foizdan ko'pga oshmasligi nazarda tutildi.

2018 yildan boshlab jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida mol-mulkning kadastr qiymati kadastr hujjatlaridan kelib chiqib hisoblanishi, biroq 42 mln. so'mdan kam bo'lmasligi belgilab qo'yildi.

Shuningdek, 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlар va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlarning hokimliklariga xalq deputatlari tegishli Kengashlariga mintaqaning va faoliyatni amalga oshirish joyining xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliq va jismoniy shaxslarning yer solig'i bo'yicha belgilangan stavkalarga nisbatan 0,7 dan 1,3 gacha pasaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsientlar o'rnatish huquqi berilgan bo'lsada amalda qo'llanilmay qog'ozda qolib ketmoqda<sup>52</sup>.

<sup>52</sup> Xudoyqulov S. K., To'lakov U.T., (2020). O'zbekistonda ko'chmas mulkni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish. *Moliya va bank ishi ilmiy jurnali*, 1(6), 151-160.

## **7.7. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini hisoblab chiqarish va soliqni to‘lash tartibi.**

Kalendar yil soliq davridir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladi.

Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq summasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{MM_s} = \mathbf{M_{kq}} \times \mathbf{S_s},$$

bu yerda:

**MM<sub>s</sub>** – jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq summasi;

**M<sub>kq</sub>** – mol-mulkning (kadastr) qiymati;

**S<sub>s</sub>** – jismoniy shaxslar uchun belgilangan mol-mulk solig‘i stavkasi.

Soliqni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchining yashash joyidan qat’i nazar, soliq solish ob’ekti joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o’tkazishni amalga oshiruvchi organning ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Soliq summasi mol-mulkning 1 yanvardagi holatiga ko‘ra bo‘lgan kadastr qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Bir necha mulkdorlarining umumiyl ulushli mulki bo‘lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun soliq har bir mulkdor tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to‘lanadi.

Mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o‘tgan taqdirda, soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e’tiboran u mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini

yo‘qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa, unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e’tiboran to‘lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo‘yicha soliq mulk huquqi yuzaga kelgan oydan e’tiboran to‘lanadi.

Meros bo‘yicha o‘tgan mol-mulk uchun soliq merosxo‘rda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e’tiboran to‘lanadi.

Soliq solish ob’ekti yo‘q qilingan, vayron bo‘lgan yoki buzib tashlangan taqdirda, soliqni undirish mol-mulk yo‘q qilingan, vayron bo‘lgan yoki buzib tashlangan oydan e’tiboran tugatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo‘q qilinganlik, vayron bo‘lganlik yoki buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

Kalendar yil mobaynida imtiyozlarga bo‘lgan huquq vujudga kelgan (tugagan) taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (tugagan) oydan e’tiboran amalga oshiriladi.

Soliqni to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasi soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchilarga imzo qo‘ydirilgan holda yoki to‘lov xabarnomasi olinganligini va olingen sanani tasdiqlovchi boshqa usulda har yili 1 martdan kechiktirmay topshiriladi.

Soliq davri uchun soliqni to‘lash teng ulushlarda 15 aprelga va 15 oktyabrga qadar amalga oshiriladi.

### **Nazorat savollari**

1. Mol-mulk solig‘i qachon joriy etilgan va uni joriy etishdan ko‘zlangan maqsad nima?
2. Mol-mulk solig‘ini to‘lovchilari kimlar?

3. Mol-mulk solig‘ining ob’ekti va bazasi qanday aniqlanadi?
4. Korxona mol-mulkining o‘rtacha yillik qoldiq qiymati qanday aniqlanadi?
5. Mol-mulk solig‘i stavkalari qanday belgilangan?
6. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘ining to‘lovchilari kimlar?
7. Jismoniy shaxslarning qanday mol-mulklari soliq solish ob’yekti va soliq bazasi hisoblanadi?
8. Qaysi organ jismoniy shaxslarning mol-mulklarini kadastr qiymatini belgilab beradi?

## VIII BOB. YER SOLIG'I

### 8.1. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining iqtisodiy mohiyati. Soliq to'lovchilar.

Yer solig'i O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul qilingan «Yer solig'i to'g'risida»gi Qonuniga asosan joriy etildi.

Yer solig'i O'zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar va yig'imlar tarkibiga kiradi hamda mahalliy budgetlarning barqaror daromad manbai hisoblanadi.

Yer solig'i boshqa soliq turlaridan farqli o'laroq, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra u renta to'lovidir yoki boshqacha qilib aytganda ushbu soliq yer egalari va yerdan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy faoliyatining natijalari bilan bog'liq emas. Demak, ushbu soliq joriy etilishidan maqsad-yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo'lgan yerlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infratuzilma rivojlanishini ta'minlash hamda yer talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun budgetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara to'lovi tarzda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijara berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara to'lovi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijara olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun

belgilangan soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi tatiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yer solig‘i to‘laydi.

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

Ko‘chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi. Bunda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga muvofiq moliyaviy ijaraga (lizing) berilgan (olingan) ko‘chmas mulk ob’ektlari bo‘yicha ijaraga oluvchi (lizing oluvchi) soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs bиргаликда foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o‘z ulushi uchun soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

## **8.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i ob’yekti, soliq bazasi.**

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining soliq solish ob’ektidir.

Quyidagi yer uchastkalari soliq solish ob’ekti sifatida hisoblanmaydi:

- 1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyat doirasida foydalaniladigan yerlar;

- 2) aholi punktlarining, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiyl foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, shaxobcha yo'llar, sug'orish tarmoqlari, kollektorlar, sohil bo'yи yerlari va boshqa shu kabi umumiyl foydalanishdagi yerlar);
- 3) umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerlar;
- 4) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, istirohat bog'lari, sayilgohlar, xiyobonlar, aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun belgilangan joylar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar);
- 5) davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo'riqxonalarning (bundan ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalar mustasno), tabiiy pitomniklarning, davlat biosfera rezervatlарining, milliy bog'larning yerlari;
- 6) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar - tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika hamda davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari;
- 7) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar - aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yer uchastkalari;
- 8) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar - tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan moddiy madaniy meros ob'ektlari, xotira bog'lari egallagan yer uchastkalari;
- 9) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

10) yuridik shaxs balansida bo‘lgan va fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan ob’ektlar egallagan yerlar;

11) kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy, qurilish va boshqa chiqindilarni yig‘ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari);

12) ko‘p kvartirali uylar egallagan yerlar, bundan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari egallagan yer uchastkalari mustasno;

13) suv fondi;

14) zaxiralar.

Agar aholi punktlarining, bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiyligi foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, yo‘llar, shaxobcha yo‘llar, sug‘orish tarmoqlari, kollektorlar, sohil bo‘yi yerlari va boshqa shu kabi umumiyligi foydalanishdagi yerlar) xo‘jalik faoliyatini yuritish uchun foydalanilsa, ular soliq solish ob’ekti hisoblanadi.

Quyidagilar soliq bazasidir:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha - soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holda, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkasining umumiyligi maydoni;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha - soliq solinmaydigan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq aniqlangan normativ qiymati.

Yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to‘lovchiga o‘tgan bo‘lsa, soliq bazasi yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e’tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq bazasi yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e’tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq vujudga kelgan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq vujudga kelgan oydan e’tiboran kamaytiriladi. Soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq bekor qilingan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq tugatilganidan keyingi oydan e’tiboran hisoblab chiqariladi (ko‘paytiriladi).

Soliq to‘lovchi soliq to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirganda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan yer uchastkasi bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo‘limganda, soliq bazasi soliqni to‘lash nazarda utilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiyligini tushum hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

### **8.3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar va soliq stavkalari.**

Qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqaruvchilar qayta tiklanadigan energiya manbalari (nominal quvvati 0,1 MVt va ko‘proq) uskunalarini egallagan yer uchastkalari bo‘yicha ular ishga tushirilgan paytdan e’tiboran o’n yil muddatga soliqdan ozod etiladi.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash (bundan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort ob'ektlari band qilgan yerlar mustasno) va ijtimoiy ta'minot ob'ektlari egallagan yerlar;

sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualari, o'quv-mashq bazalari va bolalar-sog'lomlashtirish oromgohlari egallagan yerlar;

shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari (magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stansiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar);

magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko'paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stansiyalari, issiq suv ta'minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulyatsiya nasoslari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

ihota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ihota o'rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o'rmonlarning daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa suv ob'ektlari sohillari bo'ylab o'tgan taqiqlangan mintaqalari; o'rmonlarning ovlanadigan qimmatli baliqlar uvildiriq sochadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalari; eroziyadan saqlaydigan o'rmonlar; o'rmonlarning temir yo'llar va avtomobil yo'llari yoqalab o'tgan ihota mintaqalari; cho'l va chala cho'l zonalaridagi o'rmonlar; shahar o'rmonlari va o'rmon-bog'lari; shaharlar, boshqa aholi punktlari va sanoat

markazlarining ko‘kalamzorlashtirilgan zonalari atrofidagi o‘rmonlar; suv ta’mnoti manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalaridagi o‘rmonlar; kurort tabiiy hududlarni sanitariya jihatidan muhofaza qilish tegrasidagi o‘rmonlar; alohida qimmatga ega bo‘lgan o‘rmonlar; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘rmonlar;

suvni tejaydigan (tomchilatib, yomg‘irlatib, diskret va boshqa) sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan yerlar - suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan oyning boshidan e’tiboran 5 yil muddatga. Ushbu imtiyoz suvdan foydalanish va suv iste’moli sohasidagi vakolatli organning xulosasi asosida beriladi. Agarda suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan oyning boshidan boshlab 5 yil davomida foydalanishga yaroqsiz bo‘lgan yoki demontaj qilingan bo‘lsa, soliq imtiyozi butun soliq davri uchun soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarning tiklanishi bilan bekor qilinadi;

qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun yangi o‘zlashtirilayotgan yerlar - vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ularni o‘zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o‘zlashtirilgan vaqtдан e’tiboran 5 yil mobaynida;

melioratsiya ishlari amalgalashishiga oshirilayotgan mavjud sug‘oriladigan yerlar - vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ishlar boshlanganidan e’tiboran 5 yil muddatga;

yangi barpo etilayotgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat‘i nazar, uch yil muddatga. Kuzda o‘tqazilgan yangi ko‘chatlar uchun beriladigan soliq imtiyozi muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1 yanvaridan e’tiboran boshlanadi, bahorda

o‘tqazilgan ko‘chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1 yanvaridan e’tiboran boshlanadi;

ilmiy tashkilotlarning, qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o‘quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o‘quv-tajriba xo‘jaliklarining bevosita ilmiy hamda o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan qishloq xo‘jaligi ahamiyatiga molik bo‘lgan yerlar va o‘rmon fondining yerkari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlari, yangi navlarning seleksiyasi o‘tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to‘lashdan ozod qilinadi.

Soliq imtiyozlari belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Mustaqillik yillaridan toki 2021 yilgaha yuridik va jismoniy shaxslar uchun yer solig‘ining haddan ziyod turli-tuman stavkalari hamda yer solig‘ining yakuniy summasini aniqlashda yer uchastkalarining turli toifalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlari mavjud bo‘lgan. Bu esa soliqni hisoblab chiqarish bilan bog‘liq ortiqcha vaqt va soliq ma’murchiligi xarajatlariga sabab bo‘lib kelayotgan edi. Soliq stavkalarining bunday tabaqalashuviga sabab ularning qat’iy miqdorlarda (so‘mda) belgilanganidir. Aynan shu narsa yer uchastkasining qaerda joylashganligi (hududiy mansubligi), uning qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan, sug‘oriladigan yoki sug‘orilmaydigan yer ekanligi, sifati va boshqa turli xil mezonlardan kelib chiqqan holda stavkalarni tabaqa lashtirishni taqozo etgan.

Yer solig'i stavkalarining bunday tabaqalanishi respublika mustaqilligining dastlabki yillarida ishlab chiqilgan bo'lib, shundan buyog'iga ular har yili faqat indeksatsiyalash yo'li bilan o'zgartirib (oshirib) kelinmoqda. Chunki, inflyatsion iqtisodiyot sharoitida "so'm"da qat'iy belgilangan stavkalarni har yili qayta indeksatsiyalashdan o'zga iloj yo'q.

Yer solig'i stavkalarini o'rnatishning amaldagi uslubi samarasizligi bois, u hozirgi iqtisodiyot va mahalliy budgetlar talabiga javob bermay qoldi. Hiyoyat 2021 yil 1 yanvardan boshlab yuridik va jismoniy shaxslar uchun yer solig'ining stavkalari unifikatsiya qilindi va bazaviy stavkalar joriy etildi<sup>53</sup>.

8.1-jadval

**Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha bazaviy soliq stavkasi<sup>54</sup>**

Respublika hududlari	I gektar uchun bazaviy soliq stavkasi (mln so'mda)
Toshkent shahri	
1 zona	208,2
2 zona	166,5
3 zona	124,9
4 zona	83,3
5 zona	41,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26,2
Andijon viloyati	33,0
Buxoro viloyati	26,7
Jizzax viloyati	26,7
Qashqadaryo viloyati	26,7
Navoiy viloyati	26,7
Namangan viloyati	33,0
Samarqand viloyati	33,0
Surxondaryo viloyati	23,5
Sirdaryo viloyati	20,8
Toshkent viloyati	27,6
Farg'onha viloyati	26,7
Xorazm viloyati	26,7

<sup>53</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2020 yil 30 dekabrdagi N 06/04-01-02-32/3200-son axborot xati

<sup>54</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalarining aniq miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda, ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalari asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi;

tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari, ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida belgilangan soliq stavkalariga, Toshkent shahri uchun esa - ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritadi.

Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan keyingi soliq davri uchun soliq stavkalari har yili joriy soliq davrining 31 dekabriga qadar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlariga taqdim etadi. Yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlari ushbu soliq stavkalarini besh kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazishlari kerak.

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar uchun soliq stavkalari qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda belgilanadi.

Quyidagilar egallagan yer uchastkalari uchun soliq stavkasiga 0,25 koeffitsient qo‘llaniladi:

yagona ishtirokchilari nogironlarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etadigan hamda nogironlarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar egallagan yerlar;

elektr uzatish liniyalari, ularning podstantsiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

umum davlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirkakli liniyalar va radiofiksatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signallli va harakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirkich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;

umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan tuproq ko'tarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat temir yo'l stantsiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stantsiyalari, yong'inga qarshi va avariyyaga qarshi stantsiyalar, quvurlarni katodli himoyalash stantsiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, quvurlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o'xshash inshootlar band etgan yerlar;

samolyotlarning uchish-qo‘nish maydonlari, yerda boshqarish yo‘lkalari va to‘xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr yoritish uskunalarini egallagan yerlar;

O‘zbekiston Respublikasining rivojlantirish Davlat dasturlariga kiritilgan ob’ektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar - qurilishning normativ muddati davrida;

konservatsiyaga qo‘yilishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan ob’ektlar egallagan yerlar - ularning konservatsiyasi davrida.

Yuqoridagilar yuridik shaxslarga belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkalariga tatbiq etiladi.

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasining, yerdan foydalanuvchining yoki ijarchining aybi bilan qishloq xo‘jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet bali pasaygan) taqdirda, soliq yuridik shaxslar tomonidan yerning sifati yomonlashguniga qadar mavjud bo‘lgan bonitet balidan kelib chiqkan holda to‘lanadi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarining sifati yaxshilangan taqdirda (bonitet bali oshganda), soliq yuridik shaxslar tomonidan tuproq bonitirovkasi o‘tkazilgan yildan keyingi yilning boshidan yangi bonitet balidan kelib chiqqan holda, qishloq xo‘jaligi yerlarining normativ qiymati bo‘yicha, agrotexnik tadbirlar tugagan davrlarda qayta hisob-kitob qilinmasdan to‘lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma’muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun soliq qishloq xo‘jaligi yerkari uchun belgilangan soliq stavkalarining 2 baravari miqdorida to‘lanadi.

Qurilishi tugallanmagan ob'ektlar egallagan yer uchastkalari uchun, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq 2 baravar soliq stavkalari bo'yicha to'lanadi.

Bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan maydonlar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, qurilishi tugallanmagan ob'ektlar, shuningdek, samarali foydalanilmayotgan baliq yetishtirish (o'stirish) uchun mo'ljallangan sun'iy suv havzalari joylashgan yer uchastkalariga nisbatan qonunchilikda oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin. Bunday yer uchastkalariga soliq imtiyozlari tatbiq etilmaydi.

Tugallanmagan qurilish ob'ektlari jumlasiga ushbu qurilish ob'ektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan ob'ektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu ob'ektlarning qurilishiga vakolatli bo'lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e'tiboran 24 oy ichida qurilishi tugallanmagan ob'ektlar kiradi.

Yer maydonlaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining 4 baravari miqdorida belgilanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan konlar va karerlar band etgan yerlar uchun soliq tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari belgilagan soliq stavkalariga 0,1 koeffitsientini qo'llagan holda to'lanadi.

Jahon soliq amaliyotida yer solig'i stavkalari turli mamlakatlarda turlicha belgilanadi, lekin o'rtacha olganda yer qiymatining 5 foizidan

oshmaydi. Soliq stavkalarini belgilashda tuproq boniteti (sifati) hisobga olinadi.

#### **8.4. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi.**

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha yer solig‘i quyidagicha aniqlanadi:

$$Y_s = Y_{nq} \times S_s,$$

bu yerda:

**Y<sub>s</sub>** – yer solig‘i summasi;

**Y<sub>nq</sub>** – qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining normativ qiymatini;

**S<sub>s</sub>** – yer solig‘i stavkasi;

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yer solig‘i quyidagicha aniqlanadi:

$$Y_s = Y_m \times S_{bs} \times k,$$

bu yerda:

**Y<sub>s</sub>** – yer solig‘i summasi;

**Y<sub>m</sub>** – yer maydoni;

**S<sub>bs</sub>** – yer solig‘ining bazaviy stavkasi;

**k** – hududiy kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsienti.

Kalendar yil soliq davridir.

Soliq har bir soliq davrining 1 yanvariga bo‘lgan holatga ko‘ra hisoblab chiqariladi va soliq hisoboti yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organiga quyidagi muddatlarga taqdim etiladi:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha - joriy soliq davrining 10 yanvariga qadar;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha - joriy soliq davrining 1 mayiga qadar.

Soliq to‘lovchilar soliqni soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Soliq bazasi (hisoblab chiqarilgan soliq summasi) soliq davri mobaynida o‘zgarish bo‘lganda yuridik shaxslar 1 oylik muddat ichida soliq organiga aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining umumiy maydonida va tarkibida o‘zgarishlar yuz bergan yuridik shaxslar qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlari bo‘yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini joriy yilning 1 dekabriga qadar taqdim etadi.

Soliq solish ob’ekti sifatida qaralmaydigan yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar joriy soliq davrining 10 yanvariga qadar mazkur ob’ektlarning joylashgan yeri bo‘yicha soliq organlariga soliq solish ob’ekti hisoblanmaydigan, yuridik shaxsda mavjud bo‘lgan yer uchastkalari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan shakldagi ma’lumotnomani taqdim etadi.

Ko‘p kvartirali uylarda joylashgan turar joy bo‘limgan ko‘chmas mulk ob’ektlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalari bo‘yicha soliq turar joy bo‘limgan ko‘chmas mulk ob’ektining qavatlar soniga bo‘lingan maydonidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun soliqni to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

aylanmadan soliq to‘lovchilar uchun - yillik soliq summasining to‘rtadan bir qismi miqdorida, har chorak birinchi oyining 10-kunigacha;

aylanmadan soliq to‘lovchi bo‘limgan soliq to‘lovchilar uchun - yillik soliq summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida, har oyning 10-kunigacha.

Soliq davri davomida soliq to‘lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to‘lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e’tiboran 30 kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun soliqni to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

hisobot yilining 1 sentyabriga qadar - yillik soliq summasining 30 foizi;

hisobot yilining 1 dekabriga qadar - soliqning qolgan summasi.

### **8.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar, soliq solish ob’yekti va soliq bazasi.**

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan yoki etmagan holdagi dehqon xo‘jaliklari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to‘lanadigan ijara to‘lovi yer solig‘iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga nisbatan jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar uchun belgilangan soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi tatbiq etiladi.

Uy-joy, yashash uchun mo‘ljallanmagan imoratlar va inshootlar meros bo‘yicha o‘tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi o‘tgan yer uchastkalari uchun yer solig‘i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlarini inobatga olgan holda merosxo‘rlardan undiriladi.

Quyidagi yer uchastkalari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining soliq solish ob‘ekti:

1) dehqon xo‘jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

3) jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchilagini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi va jamoa garajlari egallagan yer uchastkalari;

4) xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;

5) meros bo‘yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o‘tgan yer uchastkalari;

6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib sotib olingan yer uchastkalari;

7) tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko‘p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish ob‘ekti bo‘lmaydi, bundan tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari va ko‘p kvartirali uylarda joylashgan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob‘ektlari mustasno.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organning ma’lumotlari bo‘yicha yer uchastkalarining maydoni soliq bazasidir.

Dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha soliq bazasi soliq solinmaydigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonunchilikka muvofiq aniqlangan normativ qiymati.

Jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi va jamoa garajlari egallagan yer uchastkalari bo‘yicha soliq bazasi ushbu yer uchastkalarini bergen tashkilotlar boshqaruv organlarining ma’lumotlari bo‘yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek yer maydonlari bo‘yicha soliq bazasi o‘z xodimlariga yer uchastkalarini bergen korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma’lumotlari bo‘yicha aniqlanadi.

## **8.6. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i imtiyozlari va stavkalari.**

Soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

- 1) «O‘zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘limining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

4) yolg'iz pensionerlar. Yolg'iz yoki voyaga yetmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan birga alohida uyda yashovchi pensionerlar yolg'iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi, shuningdek fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

5) boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada 16 yoshga to'lmagan 5 ta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan) fuqarolar. Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat

ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironligi bo'lgan shaxsning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo'ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

7) energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar - qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga. Mazkur imtiyoz energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida energiya ta'minoti tashkilotlari tomonidan berilgan ma'lumotnoma asosida beriladi.

Soliq imtiyozlari, bundan boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar mustasno, yakka tartibdagi uy-joy qurilishi, dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organda ro'yxatdan o'tkazgan jismoniy shaxslarga beriladi. Bunda mazkur soliq imtiyozlari soliq to'lovchining tanlovi bo'yicha faqat bitta yer uchastkasiga berilishi mumkin, bundan energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar mustasno.

Soliq imtiyozlariga ega bo'lgan shaxslar soliq imtiyozlarini olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarini yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari (bundan dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar mustasno)<sup>55</sup>

Respublika hududlari	1 kv. m uchun bazaviy soliq stavkasi (so'mda)
Toshkent shahri	
1 zona	1193,6
2 zona	1013,2
3 zona	832,6
4 zona	652,3
5 zona	471,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	245,0
Andijon viloyati	297,6
Buxoro viloyati	245,0
Jizzax viloyati	245,0
Qashqdaryo viloyati	245,0
Navoiy viloyati	245,0
Namangan viloyati	297,6
Samarqand viloyati	297,6
Surxondaryo viloyati	221,6
Sirdaryo viloyati	191,8
Toshkent viloyati	252,2
Farg'on'a viloyati	245,0
Xorazm viloyati	245,0

Soliq stavkalarini aniq miqdori quyidagi tartibda belgilanadi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koefitsientlarni qo'llagan holda, belgilangan bazaviy soliq stavkalari asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi;

tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari belgilangan soliq stavkalariga Toshkent shahri uchun esa - belgilangan bazaviy so'liq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi

<sup>55</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

koeffitsientlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritadi.

Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan keyingi soliq davri uchun soliq stavkalari har yili joriy soliq davrining 31 dekabriga qadar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlariga taqdim etadi.

Dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlarga soliq stavkasi qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda belgilanadi.

Tadbirkorlik faoliyatida foydalilaniladigan yer uchastkalari uchun yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijara berilganda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo‘lgan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari egallagan yer uchastkalari uchun soliq jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lash uchun belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha undiriladi hamda imtiyozlar ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Bo‘sish turgan binolar, foydalaniylmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, shuningdek normativ muddatida qurilishi tugallanmagan ob’ektlar joylashgan yer uchastkalariga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo‘li bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan ta’sir choralarini qo‘llanilishi mumkin.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtida tovarlar ishlab chiqarish

(xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliq stavkasi bo'yicha to'lanadi.

Yakka tartibda uy-joy qurish va turar joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismiga qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish yoki uni obodonlashtirish amalga oshirilmagan taqdirda soliq 3 baravar miqdorda to'lanadi.

Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda, soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining 3 baravari miqdorida belgilanadi.

Jismoniy shaxslarga yakka tartibdag'i turar joy qurish va obodonlashtirishga berilgan tomorqa yer uchastkalariga yakka tartibdag'i uy-joy qurishga berilgan yer uchastkalari uchun belgilangan stavka qo'llaniladi.

#### **8.7. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi.**

Jismoniy shaxslar uchun yer solig'ini davlat soliq organlarining xodimlari hisoblab chiqaradi. Davlat soliq xizmati organlari yer uchastkalari mulkdorlari, yer egalari yoki yerdan foydalanuvchilar yoki ijarrachilar bo'lgan jismoniy shaxslarning muntazam hisobini yuritadilar.

Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan yer solig'i quyidagicha hisoblanadi:

$$Y_s = Y_m \times S_{bs} \times k,$$

bu yerda:

$Y_s$  – yer solig'i summasi;

**Y<sub>m</sub>** – yer maydoni;

**S<sub>bs</sub>** – yer solig‘ining bazaviy stavkasi;

**k** – hududiy kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsienti.

Kalendar yil soliq davridir.

Soliqni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchining yashash joyidan qat’i nazar, yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organning ma’lumotlari asosida, dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha esa - qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerkarning normativ qiymatini aniqlovchi organning ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Soliq organlari har yili 1 martdan kechiktirmay soliq summasi va uni to‘lash muddatlari ko‘rsatilgan to‘lov xabarnomasini jismoniy shaxslarga imzo qo‘ydirib yoki to‘lov xabarnomasi olinganligi faktini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda topshiradi.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o‘zgarganda va imtiyozlarga bo‘lgan huquq yuzaga kelganda (tugatilganda) soliq organlari mazkur o‘zgarishlardan keyin bir oy ichida soliqni qayta hisob-kitob qilishi hamda soliq to‘lovchiga soliq summasi va uni to‘lash muddatlari ko‘rsatilgan yangi yoki qo‘sishmcha to‘lov xabarnomasini taqdim etishi kerak.

Ko‘p kvartirali uylarda joylashgan turar joy bo‘limgan ko‘chmas mulk ob‘ektlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalari bo‘yicha soliq turar joy bo‘limgan ko‘chmas mulk ob‘ektining qavatlar soniga bo‘lingan maydonidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan e'tiboran jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliqni to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran tugatiladi (kamaytiriladi).

Soliq bo'yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyozga bo'lган huquq yuzaga kelgan oydan e'tiboran to'lanmaydi. Soliq bo'yicha imtiyozlarga bo'lган huquq tugatilgan taqdirda, bu soliq mazkur huquq tugatilgan oydan keyingi oydan e'tiboran to'lana boshlaydi.

Soliq davri uchun soliqni to'lash jismoniy shaxslar tomonidan 15 aprel va 15 oktyabrga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

### *Nazorat savollari*

1. Yer solig'ini undirishning sababi nimada?
2. Kimlar yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanadi?
3. Yer solig'ini undirish ob'yekti nima?
4. Qanday yerlar soliq solinmaydigan yer uchastkalari hisoblanadi?
5. Yer solig'i bo'yicha qanaqa imtiyozlar mavjud?
6. Soliq stavkalari qanday mezonlar asosida belgilanadi?
7. Yer solig'ini hisoblab chiqarish va budjetga to'lash muddatlari qanday belgilangan?

## **IX BOB. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK USHUN SOLIQ**

### **9.1. Soliq to‘lovchilar, soliq solish ob’yekti va soliq bazasi.**

O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 maydag‘i «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi Qonuniga asosan 1998 yil 1 yanvardan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar O‘zbekiston Respublikasi hududida suvdan birlamchi foydalanishni yoki suvni iste’mol qilishni amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

faoliyatini O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasaлari orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar;

suvdan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar;

dehqon xo‘jaliklari.

Aholi punktlarining suv ta’mnoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o‘z ehtiyojlari uchun foydalanadigan suv uchun soliqni to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish ob’ektidir.

Quyidagilar soliq solish ob’ekti bo‘lmaydi:

1) notijorat tashkilotlar tomonidan notijorat faoliyatni amalga oshirish doirasida foydalaniladigan suv resurslari;

- 2) sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari, bundan savdo tarmog'ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;
- 3) atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqarib olingan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;
- 4) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish paytida chiqarib olingan va qatlamdagи bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qayta quyiladigan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;
- 5) gidroelektrostansiyalar gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv resurslari;
- 6) issiqlik elektr stansiyalari va issiqlik elektr markazlari tomonidan qayta quyiladigan suv resurslari;
- 7) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan, suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan sho'rлarni yuvish normalari doirasidagi suv resurslari.

8) kollektor va drenaj tarmoqlaridan ishlataladigan suv resurslari.

Foydalanilgan suvning hajmi soliq bazasidir.

Suv resurslarining yer ustti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (dastlabki) hisobi hujjatlarida aks ettirilgan suv o'chagich asboblar ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'chagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv ob'ektlaridan suv olish limitlaridan, suvni iste'mol qilishning texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda yashil daraxtzorlarni

sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riliгини та'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida hisobini yuritadi. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmog'idiagi suvdan foydalanilganda, soliq bazasi manbaning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi. Suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan kelib tushadigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq organlariga joriy soliq davrining 15 yanvariga qadar taqdim etishi kerak. Soliq organlari uch kun ichida ushu ma'lumotlarni soliq to'lovchilar e'tiboriga yetkazishi lozim.

Issiq suv hamda bug' hosil qilinishi bo'yicha soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o'zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Binolarning bir qismi, alohida inshootlar ijara ga berilganda soliq bazasi suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs bilan shartnomaga tuzgan ijara ga beruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida inshootlarni ijara ga olgan va suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar bilan shartnomaga tuzgan yuridik shaxslar soliq bazasini mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to'lovchilar yuridik shaxslar bilan suv yetkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko'rish jarayonida olingen suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmining farqini solishtirish amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar soliq to'laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonchasida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti soliq to'laydi.

Suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ har yili joriy soliq davrining 10 dekabridan kechiktirmay qishloq xo'jaligida, shu jumladan baliqchilik xo'jaligida, suv resurslaridan foydalanuvchi yuridik shaxslarga, dehqon xo'jaliklari bo'yicha esa - hisobot davri uchun kelgusi yilning 20 yanvaridan kechiktirmay suvdan foydalanish va suvni iste'mol qilish joyi bo'yicha soliq organlariga - soliq bazasini aniqlash uchun ular tomonidan ishlatilishi kutilayotgan suv resurslari hajmini taqdim etadi.

Dehqon xo'jaliklari uchun soliq bazasi soliq davrida bir gektar sug'oriladigan yerlarni sug'orish uchun sarflanadigan suvning butun xo'jalik bo'yicha o'rtacha hajmidan kelib chiqib aniqlanadi.

Dehqon xo'jaliklari uchun soliq bazasi soliq organlari tomonidan suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ taqdim etgan ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

Sun'iy suv havzalarida baliq yetishtiruvchi baliqchilik xo'jaliklari soliq bazasini tabiiy va sun'iy suv ob'ektlaridan olingan va ushbu suv ob'ektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi, bundan kollektor-drenaj tarmoqlariga qaytarib quyiladiganlar mustasno, o'rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydilar.

Qishloq xo‘jaligida, shu jumladan baliq yetishtirishda suv resurslarini hisobga olish vositalari mavjud emasligi va foydalaniladigan suv resurslarining haqiqiy hajmini aniqlashning imkonini bo‘limgan taqdirda, soliq bazasi suvdan foydalanish va suvni iste’mol qilish sohasidagi vakolatlari organ tomonidan tasdiqlangan suv resurslari iste’molining normativlariga ko‘ra aniqlanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida suvni maxsus uskunalarini (turbinalarni) sovitish uchun ishlatajigan soliq to‘lovchilar soliq bazasini tabiiy suv ob’ektlaridan maxsus uskunalarini (turbinalarni) sovitish uchun olingan va tabiiy suv ob’ektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi o‘rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydi. Ushbu norma suvning haqiqiy hisobi yoki suvdan maxsus foydalanish ruxsatnoma mavjud bo‘lganda qo‘llaniladi.

Soliq to‘lovchi soliq to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirgan taqdirda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan suv resurslari hajmining hisobini alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida hisob yuritish imkoniyati bo‘limgan taqdirda, soliq bazasi qaysi faoliyat bo‘yicha soliq to‘lash sof tushumning umumiyligi hajmida nazarda tutilgan bo‘lsa, o‘scha faoliyatdan olinadigan sof tushumning solishtirma hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun foydalanilgan suvning hajmi ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar uchun soliq bazasi hisoblanadi. Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi deganda iste’mol idishidagi tayyor mahsulotga to‘g‘ri keladigan suvning hajmi tushuniladi.

Soliq solish ob'ekti va (yoki) soliq stavkasi turli xil bo'lgan bir necha turdag'i faoliyat bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar bunday faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va tegishli soliq stavkalari bo'yicha soliq to'lashlari shart.

## **9.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari.**

Belgilangan limitlar doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr uchun mutlaq miqdorda belgilanadi.

9.1-jadval

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari<sup>56</sup>**

T/r	<b>Soliq to'lovchilar va soliq solish ob'ekti</b>	<b>I kub.m uchun soliq stavkasi (so'mda)</b>	
		<b>yer usti suv resurslari manbalarri</b>	<b>yer osti suv resurslari manbalarri</b>
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan 2-6-bandlarda ko'rsatilganlari mustasno), shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar	182	221
2.	Sanoat korxonalari	472	564
3.	Elektr stantsiyalari va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	70	90
4.	Qishloq xo'jalik yerlarini sug'orish va baliqlarni o'stirish (etishtirish) uchun foydalilanigan suv hajmi qismi, shu jumladan dehqon xo'jaliklari	40	40
5.	Avtotransport vositalarini yuvish uchun foydalilanigan suv hajmi	1 990	1 990
6.	Alkogolsiz ichimliklar hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalilanigan suv hajmi	25 185	25 185

<sup>56</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

4-bandda nazarda tutilgan soliq stavkasi 0,7 kamaytiruvchi koeffitsientni hisobga olgan holda, suv o'chash uskunalarini asosida aniqlanadigan, foydalanilgan suv hajmiga qo'llaniladi.

Suvdan foydalanish uchun belgilangan limitlardan ortiqcha suv olinganda, bunday ortiqcha qism bo'yicha soliq stavkalari belgilangan soliq stavkalarining 5 baravari miqdorida belgilanadi.

Suv resurslaridan ruxsat beruvchi hujjatlarsiz foydalanilganda, shuningdek avtotransport vositalarini yuvishni amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan yer usti manbalaridan olingan suvdan foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining 5 baravari miqdorida belgilanadi.

Mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining yillar mobaynida o'sib borayotganligini quyidagi jadval orqali izohlash mumkin.

9.2-jadval  
**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining o'zgarish dinamikasi<sup>57</sup>**

Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari (1 kub metr uchun stavka so'm)													
	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.
Yer usti suv resurslari manbalarini	14,4	17,3	21,6	24,8	29,8	35,8	43,0	51,6	61,9	71,2	85,4	98,2	120	140
Yer osti suv resurslari manbalarini	18,5	22,0	27,5	31,6	37,9	45,5	54,6	65,5	78,6	90,4	108,5	124,8	150	170

Suvdan qishloq xo'jalik ekinlari va ko'chatlarini sug'orish uchun foydalananadigan yordamchi xo'jaliklarga ega yuridik shaxslar, shuningdek

<sup>57</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o'quv yurtlarining o'quv-tajriba xo'jaliklari soliqni qishloq xo'jalik korxonalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

### **9.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va soliq to'lash tartibi.**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagicha aniqlanadi:

$$SRF_s = V_s \times S_s;$$

bu yerda:

$SRF_s$  – suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi;

$V_s$  – foydalilanilgan suv hajmi;

$S_s$  – suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi.

Kalendar yil soliq davridir.

Soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Dehqon xo'jaliklari uchun soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda soliq organlari tomonidan aniqlanadi.

Soliq hisoboti suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi soliq organlariga quyidagilar tomonidan yilda bir marta taqdim etiladi:

O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan, bundan qishloq xo'jaligi korxonalari mustasno - yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan - joriy soliq davrining 15 dekabrigacha;

O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - soliq davridan keyingi yilning 20 yanvarigacha.

Soliq organlari soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasini dehqon xo'jaliklariga soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay topshiradi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar soliq bo'yicha bo'nak to'lovlarni to'laydi, bundan qishloq xo'jaligi korxonalari, O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek dehqon xo'jaliklari mustasno.

Bo'nak to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 20 yanvarigacha, yangi tashkil etilganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi soliq organlariga mo'ljallanayotgan soliq bazasidan (foydalaniladigan suv hajmidan) va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadi. Soliq bo'yicha majburiyatlari soliq davri ichida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadi.

Hisoblab chiqarilgan bo'nak to'lovlar:

soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravaridan ko'proqni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (bundan aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar mustasno) - har oyning 20

sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida;

soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravaridan kamroqni tashkil etadigan, aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar bo'limgan yuridik shaxslar, shuningdek aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - har chorak uchinchi oyining 20 sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining to'rtdan bir qismi miqdorida to'lanadi.

Soliq davri davomida mo'ljallanayotgan soliq bazasi o'zgarganda, soliq to'lovchi soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnomaga taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun bo'nak to'lovlarga soliqning o'zgargan summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlar hisobga olingan holda soliqni to'lash soliq to'lovchilar tomonidan, bundan dehqon xo'jaliklari mustasno, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida, soliq hisoboti taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlar summasi soliq hisobotida ko'rsatilgan budgetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, soliq organi bo'nak to'lovlarni soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisob-kitob qiladi.

Dehqon xo'jaliklari tomonidan soliqni to'lash yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha amalga oshiriladi.

### *Nazorat savollari*

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan ko‘zlangan maqsad?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilari kimlar?
3. Jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilar bo‘la olishadimi?
4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasi qanday aniqlanadi?
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq qaysi muddatda budgetga o‘tkaziladi?

/

## X BOB. YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

**10.1. Yer qa'ridan foydalanganda soliq solish zarurligi. Soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq bazasi.**

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin respublikamiz hududidagi barcha tabiiy, yer osti boyliklari davlatimiz tasarrufiga o'tdi. O'zbekiston zaminida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xom ashyo resurslari to'plangan.

Respublikamiz qonunchiligiga ko'ra mavjud yer osti boyliklari umum davlat mulki hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 23 sentabrdagi «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq 1995 yildan boshlab yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi va yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning hajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq to'lay boshladilar.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq joriy etilishidan asosiy maqsad-umum davlat mulki hisoblangan yer osti boyliklaridan oqilona tarzda butun jamiyat a'zolarini va keljak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Soliq kodeksiga ko'ra yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq umum davlat soliqlari tarkibiga kiradi. Ushbu soliq tabiiy boyliklardan foydalanishning samaradorligini ta'minlash bilan birga sof fiskal vazifani ham bajaradi.

Respublikamizda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq yer osti boyliklarining 56 turiga nisbatan belgilangan bo'lsada, budgetga soliq tushumi faqatgina 4-5 turdag'i yer osti boyliklariga mutlaq ravishda bog'liq bo'lib qolmoqda. Ular oltin, tozalangan mis, neft, tabiiy gaz va gaz kondensati, kumush va boshqalar.

Yer qa'ridan foydali qazilmalarni qazib oluvchi, mineral xom ashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib oluvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni qidirishni, foydali qazilmalarni qazib olishni, mineral xom ashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilar deb e'tirof etiladi.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalarga rioya etgan holda qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshirishga taalluqli qism bo'yicha soliq to'lovchilar bo'lmaydi.

Foydali qazilmani qazib olish (ajratib olish) hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ekti.

Qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaning hajmi foydali qazilmalarning haqiqiy yo'qotishlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Foydali qazilmaning zaxirasi qaysi foydali qazilmaning miqdoriga kamaytiriladigan bo'lsa, o'sha foydali qazilmaning hisoblangan miqdori va foydali qazilmani qazib olishning (ajratib olishning) to'liq texnologik sikli yakunlangach aniqlangan, haqiqatda qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma miqdori o'rtaсидagi farq foydali qazilmaning haqiqiy yo'qotishlaridir.

Soliq solish ob'ekti foydali qazilmaning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Quyidagilar soliq solish ob'ekti dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan qazib olingan uglevodorodlar shu jumladan birga qo'shilib chiqadigan;

foydali qazilmalardan, mineral xom ashyodan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar;

sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan qazib olingan uglevodorodlar shu jumladan birga qo'shilib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;

uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi qazib olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar;

ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar.

Quyidagilar soliq solish ob'ekti bo'lmaydi:

qatlAMDagi bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni yopiq texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamga qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi;

soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida qazib olingan (ajratib olingan) hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalananligan keng tarqalgan foydali qazilmalar. Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda daryo o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarni mustahkamlash ishlari natijasida qazib olingan (ajratib olingan)

noruda foydali qazilmalar, bundan qayta ishlangan va realizatsiya qilingan foydali qazilmalar hajmi mustasno.

Soliq bazasi yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan mustaqil ravishda har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaga, shu jumladan asosiy foydali qazilmani qazib olishda birga chiqadigan foydali komponentlarga nisbatan aniqlanadi.

Soliq bazasi qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati sifatida aniqlanadi.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma bo'yicha pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda) ularning naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali alohida aniqlanadi.

Hisobot davrida foydali qazilma realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq bazasi realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida foydali qazilmani realizatsiya qilishning o'rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Foydali qazilma umuman realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq bazasi hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni qazib olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxini 20 foizga oshirgan holda aniqlanadi. Bunda, soliq to'lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan o'sha hisobot davrida hisoblangan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida shakllangan o'rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Qazib olingen foydali qazilmaning bir qismi realizatsiya qilinib, qolgan qismidan o‘zining ishlab chiqarish yoki xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalilanilgan hollarda, foydali qazilma bo‘yicha soliq bazasi realizatsiya qilingan ushbu foydali qazilmaning o‘rtacha olingen realizatsiya qilish narxidan kelib chiqib aniqlanadi.

Foydali qazilmadan o‘zining ishlab chiqarish yoki xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalilanilgan hollarda bunday foydali qazilmalar uchun soliq bazasi qazib olingen (ajratib olingen) foydali qazilmani ishlab chiqarish tannarxini 20 foizga oshirgan holda aniqlanadi.

## **10.2. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari.**

Foydali qazilmalarni qazib olishda (ajratib olishda) 0 foizli stavka bo‘yicha soliq solish foydali qazilmalarning normativ yo‘qotishlariga taalluqli qismi bo‘yicha amalga oshiriladi. Foydali qazilmalarni qazib olishda (ajratib olishda) konlarda foydali qazilmalarni qazib olishning qabul qilingan sxemasi va texnologiyalari bilan texnologik bog‘liq holdagi, vakolatli organ tomonidan qonun hujjatlarda belgilangan tartibda tasdiqlanadigan normalar doirasidagi yo‘qotishlar normativ yo‘qotishlardir.

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va maxsus to‘lovlar stavkalari quyidagicha belgilangan:

10 I-jadval

**Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari<sup>58</sup>**

Soliq solinadigan ob’ektning nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
I. Asosiy va birga qo’shilib chiqadigan foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun	
Energiya manbalari:	
Tabiiy gaz	30

<sup>58</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

Soliq solinadigan ob'ektning nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz, realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha	9
Yer ostiga joylashtirilgan gaz	2,6
Gaz kondensati	20
Neft	20
Tosh ko'mir	4
Qo'ng'ir ko'mir	4
Yonuvchi slanslar	4
<b>Rangli, nodir va radioaktiv metallar:</b>	
Tozalangan mis	10
Molibdenli sanoat mahsuloti	10
Reniy	10
Konsentratlangan qo'rg'oshin	8
Metall rux	10
Volffram konsentrat	10,4
Uran	10
Selen	10
Tellur	10
Indiy	10
Vismut	10
<b>Asl metallar:</b>	
Oltin	10
Kumush	10
Palladiy	10
Platina	10
Osmiy	10
<b>Nodir tosh xom ashyosi:</b>	
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xom ashyosi	24
Feruza, listvenit, rodonit, zmeyevik, marmar yo'l-yo'l aqiq, kaxolong, yashma, xalsedor, aqiq, gematit	24
<b>Qora metallar:</b>	
Temir	5
Titan-magnetiqli rudalar	4
Manganets rudalari	4
<b>Kon-kimyo xom ashyosi:</b>	
Tosh tuz (ovqatga ishlatalidigan)	3,5, biroq 10000 so'm/kub.m dan kam bo'yigan
Kaliy tuzi	3,5
Sulfat tuzi	3,5
Fosforitlar (donasimon)	5
Karbonat xom ashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,5
Ohaktoshlar (soda uchun va Biox texnologiyasi bo'yicha sanoat chiqindilarini tozalash)	3,5
Mineral (loysimon, temirokisli, karbonatl) pigmentlar	5,5
Yod	4,8

Soliq solinadigan ob'ektning nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
Qishloq xo'jaligi ruda xom ashyosi (glaukonit, bentonitli gil, urug'simon va tabiyiy foydalaniladigan hamda jelvakli fosforitlar)	3,5
<b>Kon-ruda xom ashyosi:</b>	
Ervchan shpati	21,2
Tabiiy grafit	8
Birlamchi kaolin (konsentrat), realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha	7,9
Ikkilamchi kaolin, realizatsiya qilingan hajmiga doir	7,9
Dala shpati xom ashyosi (pegmatit, dala shpati, felzit, leykokratli granit, kvarts-dala shpati xom- ashyosi)	6,5
Kvars qumlari (shisha)	3
Qumtosh (shisha)	5
Bentonitli loy (burg'ulangan eritmalar)	4,8
Talk va talk toshi	4
Talkli magnezit	4
Volfastonit	4
Asbest	4
Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt	4
Barit konsentrati	4
O'tga chidamli, qiyin ervchan gillar	4
Ohaktoshlar, dolomitlar (shisha, metallurgiya uchun, o'tga chidamli), flyus ohaktosh	5, biroq 11500 so'm/kub.m dan kam bo'limgan
Kvars va kvarsit (shisha, texnik kremniy, silikomargans, dinalar ishlab chiqarish uchun)	6,5
Qoliplash xom ashyosi (qumlar, loylar)	4
Vermikulit	4
Mineral paxta uchun xom ashyo (dolomit, tog' jinslar)	5
Hayvonlar va qushlarni ozig'lantrish uchun ohaktosh qobig'i	5
Serpentinit (o'tga chidamli xom ashyo)	5
<b>Qurilish materiallari:</b>	
Sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari sement xom ashyosi (mergehl, loylar, slanslar, lyosimon jinslar, qumoqsimon, loysimon chig'anqlar, kaolin, vulqon jinslar, pelitli tuffitlar, bazaltlar, diabazlar, andezibazaltlar, gleyjilar, temir tarkibli qo'shimchalar, magnetit - gematitli jinslar, kvars qumi va h.k.)	10
Sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh	45 000 so'm/tonna*
Ohak ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh	5
Tabiiy bezaktoshdan bloklar (ohaktosh, ohaktosh-chig'anqliq, raverdin simon ohaktoshlar, mramor, granit, granodiorit, granosiyenit, nefelinli siyenit, gabbro, granosiyenitporfir, kvars porfirdagi ignimbritlar, liparito-datsitlar, vulqon tufi, vulqon jinslari, qumtosh)	5, biroq 20 000 so'm/kub.m dan kam bo'limgan
Marmar ushog'i	5, biroq 17 000 so'm/kub.m dan kam bo'limgan
Keramzit xom ashyosi (bentonit va loy jinslari)	5

Soliq solinadigan ob'ektning nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
G'isht-cherepitsa xom ashysi (qumoqsimon, lyossimon jinslar, lyosslar, zichlovchi sifatida qumlar va boshqalar)	5, biroq 7 000 so'm/kub.m dan kam bo'Imagan
Gips toshi, gips va angidrid, ganch	5, biroq 9 500 so'm/kub.m dan kam bo'Imagan
Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	5, biroq 7 000 so'm/kub.m dan kam bo'Imagan
Sohilni himoya qilish ishlari uchun xom ashyo (ohaktoshlar, porfiritlar, granitlar)	5, biroq 10 000 so'm/kub.m dan kam bo'Imagan
Qurilish qumi	5, biroq 7 500 so'm/kub.m dan kam bo'Imagan
Qum-shag'al aralashmasi	5, biroq 7 500 so'm/kub.m dan kam bo'Imagan
Qumtoshlar	5, biroq 7 500 so'm/kub.m dan kam bo'Imagan
Ohaktosh-chig'anoq	5, biroq 12 500 so'm/kub.m dan kam bo'Imagan
Qurilish mayda toshlar (karbonat jinslari)	5, biroq 7 500 so'm/kub.m dan kam bo'Imagan
Qurilish mayda toshlar (granitlar, porfiritlar va slanets jinslari)	5, biroq 7 500 so'm/kub.m dan kam bo'Imagan
Farfor xom ashysi (farfor toshi, loyli oq quyuqlashuvchi slanets)	5
To'g'on qurish uchun xom ashyo (tosh-shag'al materiallari, lyossimon jinslar, qum, bentonitli loy, ohaktoshlar)	5
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (mergellar, argelitlar, amvritlar va boshqalar)	5
<b>2. Texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar</b>	Asosiy foydali qazilmani qazib olganlik uchun stavkaning 30 %

\* ) *Sement ishlab chiqaruvchi zavodlar, shuningdek sement xom ashysi - ohaktoshni realizatsiya qiladigan yer qaridan foydalanuvchilar belgilangan soliq stavkasi bo'yicha soliq to'laydi. Sement ishlab chiqarish uchun ko'mirdan foydalanuvchi zavodlar uchun soliq stavkasi 50 foizga kamaytiriladi.*

Asl, rangli, noyob va radioaktiv metallarni qazib olishni amalga oshiruvchi alohida soliq to‘lovchilar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan oshirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

### **10.3. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi.**

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagicha aniqlanadi:

$$YQF_s = YQF_{sb} \times S_s,$$

bu yerda:

**YQF<sub>s</sub>** – yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq summasi;

**S<sub>s</sub>** – belgilangan soliq stavkasi.

$$YQF_{sb} = TM_{o\cdot rb} \times V_{tm},$$

bu yerda:

**YQF<sub>sb</sub>** – yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bazasi;

**TM<sub>o·rb</sub>** – hisobot davrida kavlab olingan yoki ajratib olingan tayyor mahsulot hajmining o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati yoki foydali qazilmalarni kavlab olishning ishlab chiqarish tannarxi;

**V<sub>tm</sub>** – hisobot davrida kavlab olingan (ajratib olingan) jami tayyor mahsulot hajmi.

Hisobot davri uchun kavlab olingan yoki ajratib olingan tayyor mahsulot hajmining o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$TM_{o\cdot rb} = V_r / V_n,$$

bu yerda:

**V<sub>r</sub>** – har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo‘yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlari (qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ini chegirgan holda);

**V<sub>n</sub>** – naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmi.

Kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

Quyidagilar hisobot davridir:

yuridik shaxslar uchun - bir oy;

jismoniy shaxslar uchun - kalendar yil.

Soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda soliq hisoblab chiqariladi.

Foydali qazilmalarning alohida turlari bo‘yicha soliq<sup>1</sup> summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan, lekin belgilangan soliq summasidan kam bo‘limgan stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq hisoboti soliq hisobida turgan joydagi, noruda foydali qazilmalar bo‘yicha esa - qazib olish amalga oshirilgan joydagi soliq organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

yuridik shaxslar tomonidan - ortib boruvchi yakun bilan har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa - yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

jismoniy shaxslar tomonidan - yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay.

Soliqni to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

yuridik shaxslar tomonidan - har oyda keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa - yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay;

jismoniy shaxslar tomonidan - soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay.

### **Nazorat savollari**

1. Yer qa'ridan foydalanganda soliq solishning zarurligi nimada?
2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumi asosan qaysi yer osti qazilma boyliklari hissasiga to‘g‘ri keladi?
3. Respublikamizda eng yirik soliq to‘lovchilar jumlasiga qaysi korxonalar kiradi?
4. Yer qa'ridan foydalanganda soliq solish ob'yekti va bazasi qanday aniqlanadi?
5. Hozirgi vaqtda yer osti qazilma boyliklarning nechta turiga nisbatan soliq stavkalari belgilangan?

## **XI BOB. IJTIMOIY SOLIQ VA MAHALLIY YIG'IMLAR**

### **11.1. Ijtimoiy soliqning joriy etilishi. Soliq to‘lovchilar, soliq solish ob'yekti va bazasi.**

Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to‘liq yig'ilishini samarali tashkil qilish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to‘lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi pensiya ta'minotini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 444-sonli qarori bilan budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga mablag‘ to‘plash va mablag‘ to‘liq tushishi ustidan nazorat qilish funksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi zimmasiga yuklatildi va budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy to‘lovlari soliqlarga tenglashtirildi.

2004 yil 1 yanvardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 dekabrdagi 567-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2004 yilgi davlat budgeti parametrlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq mehnatga haq to‘lash fondidan ijtimoiy sug'urtaga majburiy badallar to‘lash o‘rniga, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yuridik shaxslar mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov to‘lash joriy etildi.

2019 yil yanvardan boshlab Soliq kodeksiga kiritilgan o‘zgartishlarga muvofiq, budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga fuqarolarning sug'urta badallari hamda davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalar bekor qilindi. Soliq kodeksiga asosan 2020 yildan budgetdan tashqari Pensiya

jamg‘armasiga to‘lanadigan yagona ijtimoiy to‘lov o‘rniga ijtimoiy soliq joriy etildi.

Ijtimoiy soliqni soliq to‘lovchilari deb quyidagilar e’tirof etiladi:

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalarini va filiallari;

ijtimoiy soliq to‘laydigan jismoniy shaxslarning ayrim toifalari.

Ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to‘lashga doir xarajatlari ijtimoiy soliqning soliq solish ob’ektidir.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ishslash uchun chet ellik xodimlar bilan ta’minalash yuzasidan xizmatlar ko‘rsatishga doir shartnomalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan yuridik shaxsga to‘lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham soliq solish ob’ektidir.

Jismoniy shaxslarning ayrim toifalari uchun ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini va (yoki) yakka tartibdagi mehnat faoliyatini amalga oshirish soliq solish ob’ektidir.

Quyidagilar soliq solish ob’ekti hisoblanmaydi:

ish beruvchining xodimga mehnatda mayib bo‘lganligi yoki sog‘ligiga boshqacha shikast yetganligi bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash tarzidagi miqdorlardan ortiqcha xarajatlari;

paxta yig‘im-terimi bo‘yicha mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganligi uchun mehnat haqi to‘lashga doir xarajatlar.

Soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi to‘lanadigan xarajatlar summasi sifatida aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlari vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi ularning O‘zbekiston Respublikasida budjet tashkilotlari xodimlari uchun ish haqi miqdorining oshishi inobatga olingan holda qayta hisoblab chiqariladigan, ular O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ishga yuborilguniga qadar oxirgi ish joyida mehnatga haq to‘lash tarzida olgan daromadlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi chet ellik xodimlarga to‘lanadigan daromadlar summasi sifatida, biroq O‘zbekiston Respublikasi hududida ishslash uchun chet ellik xodimlar bilan ta’minalash yuzasidan xizmatlar ko‘rsatishga doir shartnoma bo‘yicha xarajatlar umumiy summasining 90 foizidan kam bo‘lmagan summada belgilanadi.

## **11.2. Ijtimoiy soliq stavkalari, ularni hisoblab chiqarish hamda soliqni to‘lash tartibi.**

Ijtimoiy soliq (ilgari yagona ijtimoiy to‘lov deb atalgan) stavkalarining yillar davomida o‘zarish dinamikasini quyidagi jadval orqali ko‘rishimiz mumkin:

11.1-jadval

Yagona ijtimoiy to'lov stavkalarining o'zrarish dinamikasi<sup>59</sup>

Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda									
	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 - 2009 y.	2010 - 2014 y.	2015 - 2018 y.	2019 - 2020 y.	
Asosiy stavka ( 2019 yildan budget tashkilotlari uchun)	40	37,2	33	31	25	24		25		
Boshqa to'lovchilar ( 2019 yilgacha mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek fermer xo'jaliklari uchun)						-		15	12	

Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilangan:

11.2-jadval

Ijtimoiy soliq stavkalari<sup>60</sup>

T/r	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Soliq to'lovchilar, bundan 2-4-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	12
2.	Budget tashkilotlari	25
3.	«SOS - O'zbekiston Bolalar mahallalari» uyushmalari	7
4.	Ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to'lovchilar	4,7

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan pasaytirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

Kalendar yil soliq davridir.

Yil oyi hisobot davridir.

Soliq soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$I_s = MHTDX \times S_s,$$

bu yerda:

 $I_s$  – ijtimoiy soliq summasi;

<sup>59</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

<sup>60</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

**MHTDX** – ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to‘lashga doir xarajatlari summasi;

**S<sub>s</sub>** – ijtimoiy soliq stavkasi.

Soliq ish beruvchining va ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning mablag‘lari hisobidan to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari bo‘yicha, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar bo‘yicha soliqni to‘lash majburiyati O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining zimmasiga yuklatiladi.

Soliq hisoboti soliq hisobida turilgan joydagi soliq organlariga soliq to‘lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orgali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan yil yakunlari bo‘yicha soliqning hisoboti hisobot yildan keyingi yilning 25 martiga qadar taqdim etiladi.

Soliqni to‘lash har oyda, soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

### **11.3. Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar tomonidan ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari.**

Soliq soliq to‘lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat’i nazar:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lмаган miqdorda;

2) yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarda bo‘лган jismoni shaxslar tomonidan (bundan buyon matnda yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari deb yuritiladi) - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

3) faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan holda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshiruvchi oila a’zolari tomonidan:

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘тган oila a’zosi tomonidan - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘лмаган miqdorda;

oilaning boshqa a’zolari tomonidan (bundan 18 yoshga to‘лмаганlar mustasno) - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

4) qishloq tumanlarida ro‘yxatdan o‘тган va faoliyatini amalga oshirayotgan «Hunarmand» uyushmasi a’zosi bo‘лган hunarmandchilik faoliyati sub’ektlari tomonidan o‘з faoliyatining dastlabki ikki yilda - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida majburiy tartibda to‘ланади.

Mehnat staji hisoblanishi uchun o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan chet davlatlarda tashkil etilgan (ochilgan) savdo uylarida, vakolatxonalarda (shu jumladan yuridik shaxs tashkil etmasdan), tashkilotlarda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida

ixtiyoriy tartibda, quyidagi soliq to‘lovchilar tomonidan esa majburiy tartibda to‘lanadi:

«Usta-shogird» maktablari o‘quvchilari - ular 25 yoshga to‘lguniga qadar ishlagan davrda;

dehqon xo‘jaliklari, shuningdek maydoni 4 sotixdan kam bo‘lmagan dehqon xo‘jaligida, tomorqa yer uchastkasida band bo‘lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud ellik boshdan kam bo‘lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar. Bunda dehqon xo‘jaligi rahbari soliqni majburiy tartibda to‘laydi, boshqa a’zolari va ko‘rsatilgan jismoniy shaxslar esa ixtiyoriy asosda to‘laydi.

Yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchi hunarmandchilik faoliyati sub’ektlari bo‘lgan «Hunarmand» uyushmasining a’zolari soliq to‘lashdan ozod etiladi, yuqorida ko‘rsatilgan, yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo‘lgan qolgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun esa soliq miqdori uning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi. Imtiyozlarga bo‘lgan huquq kalender yil davomida vujudga kelgan yoki tugatilgan taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq yuzaga kelgan yoki tugatilgan oydan e’tiboran amalga oshiriladi.

Soliqni to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

Yakka tartibdagи tadbirkorlar, yakka tartibdagи tadbirkorning xodimlari, oilaviy tadbirkorlar, «Hunarmand» uyushmasi a’zosi bo‘lgan hunarmandchilik faoliyati sub’ektlari tomonidan - har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 15-kunidan kechiktirmay;

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, «Usta-shogird» maktablari o‘quvchilari, dehqon xo‘jaliklari tomonidan - hisobot yilining 1 dekabrigacha amalga oshiriladi. Bunda soliqning miqdori to‘lov kuniga belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a’zolari tomonidan soliqni to‘lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan e’tiboran amalga oshiriladi.

Soliqni to‘lash majburiyati:

yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan oila a’zolari uchun - oilaviy tadbirkorlik sub’ekti nomidan ish yuritadigan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan oila a’zosining;

yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari uchun - ushbu xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzgan yakka tartibdagi tadbirkorning zimmasiga yuklatiladi.

To‘lov topshiriqnomasida (kirim orderida) soliq to‘lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, identifikatsiya raqami va to‘lov kiritilayotgan davr ko‘rsatilishi shart. Bunda oila a’zolari - oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilari va xodim yollagan yakka tartibdagi tadbirkorlar bo‘yicha to‘lov topshiriqnomasi (kirim orderi) har bir oila a’zosi uchun va yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimi uchun alohida-alohida yoziladi. Agar to‘lov topshiriqnomasida (kirim orderida) davr

ko'rsatilmagan bo'lsa, to'lov u amalga oshirilayotgan oy (dehqon xo'jaliklari a'zolari uchun - yil) uchun to'langan deb hisoblanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatib turilganligi to'g'risida soliq organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

Soliq organlari tomonidan olingan, har bir yollangan xodim uchun belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalari yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimiga soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

Agar faoliyatini to'xtatib turgan yakka tartibdagi tadbirkor yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun hisobga olish kartochkasini soliq organiga belgilangan muddatlarda topshirmsa, yakka tartibdagi tadbirkorning majburiyatlari bo'yicha soliqni hisoblash to'xtatilmaydi.

Soliq to'lovchilar soliqni ko'rsatilgan soliq stavkalari bo'yicha jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiyada ko'rsatilgan mehnatga haq to'lash tarzida olingan daromadlar summasidan kelib chiqib to'lashga, uning eng kam miqdoridan kam bo'Imagan, soliqni ixtiyoriy ravishda to'lash haqida jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtda beriladigan ariza asosida to'lashga haqli. Bunda to'lanishi lozim bo'lgan soliqning uzil-kesil summasi to'langan summalar hisobga olingan holda aniqlanadi.

Qonun hujjatlariga muvofiq soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish majburiyati zimmasiga yuklatilmagan ish beruvchidan daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar soliqni jami yillik daromad to'g'risidagi

deklaratsiyada ko'rsatilgan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar summasidan kelib chiqqan holda, soliqni ixtiyoriy ravishda to'lash haqida jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtida beriladigan ariza asosida ixtiyoriy asosda to'laydi.

Soliqni to'lash jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya ma'lumotlari bo'yicha soliq organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash muddatlarida amalga oshiriladi.

#### **11.4. Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im**

Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tarkibiga kiradi va u mahalliy budget daromadlaridan biri hisoblanadi.

Yig'im joriy qilingan tovarlar savdosini va xizmatlar ko'rsatishni belgilangan tartibda amalga oshirayotgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im to'lovchilardir.

Tovarlar va xizmatlarning qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxati tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar ko'rsatish uchun yig'im ob'yektiidir.

Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish faoliyati yig'im bazasidir.

Ushbu yig'im ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdoni amalga oshirish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqini olish uchun

to‘lanadi. Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko‘rsatish huquqi ruxsat guvohnomasi bilan tasdiqlanadi. Ruxsat guvohnomasi joylardagi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda beriladi.

Ayrim tovar turlarining va xizmatlarning ro‘yxati, hamda ularning stavkalari O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan belgilanadi.

11.4-jadval

**Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari<sup>61</sup>**

Yig‘im turi	Shegaralangan stavkalar (so‘mda) oyiga			
	Toshkent sh.	Nukus sh., shaharlar - viloyat markazlari	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
Alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	1 200 000	840 000	600 000	300 000
Umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	600 000	420 000	300 000	150 000

**Izohlar:**

*Alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo qilish, shu jumladan, umumiy ovqatlanish korxonalarini tomonidan alkogolli mahsulotlarni realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im yagona hisobvaraqqa kelib tushib, kelgusida mablag‘lar budget bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi o‘rtasida taqsimlanadi.*

*Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im yagona hisobvaraqqa kelib tushib, kelgusida mablag‘lar budget bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi o‘rtasida taqsimlanadi.*

Quyidagi jadvaldan 2002 yildan 2018 yilgacha ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdag'i xizmatlar ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im stavkalrining ham o‘zgarmaganligini ko‘rish mumkin. 2019 yildan boshlab ushbu soliqlar uchun stavkalarni belgilashda eng kam ish haqi miqdoridan voz kechilib qat’iy stavkalar belgilashga o‘tildi.

<sup>61</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 25 dekabrdagi 657-soni qonuni.

**Mahalliy soliqlar va yig‘imlarning o‘zgarish dinamikasi<sup>62</sup>**

Soliqlar va yig‘imlarning turlari	Shegaralangan stavkalari (so‘mda) oyiga		
	2002-2005 yy.	2006-2007 yy.	2008-2018 yy.
1. Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im:			
alkogollli mahsulotlar	1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 5 baravari		
qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar	-	1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 3,5 baravari	
2. Avtotransportni saqlash bo‘yicha pulli xizmatlarni ko‘rsatganlik uchun yig‘im		-	1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 8 baravari

Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun ruxsat guvohnomasi yuridik shaxs yoki yakka tartibda tadbirdorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarga o‘z arizalarida ko‘rsatilgan muddatlarga, lekin ushbu muddat qonunchilikda nazarda tutilgan muddatdan ortiq bo‘lmagan muddatga beriladi. Jumladan, yuridik shaxslarga ko‘pi bilan – 3 yil, jismoniy shaxslarga – 2 yil.

Yig‘imlar o‘rnatalgan stavkaga nisbatan belgilanadi va quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{Y}_s = \mathbf{F}_t \times \mathbf{S}_s,$$

bu yerda:

$\mathbf{Y}_s$  – ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im summasi;

$\mathbf{F}_t$  – belgilangan faoliyat turi;

$\mathbf{S}_s$  – yig‘im stavkasi.

<sup>62</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to‘g‘risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

Mahalliy yig'im o'z vaqtida to'lanishi, qonun hujjatlariga rioxalari uchun javobgarlik yig'imni to'lovchilar zimmasiga yuklanadi.

Davlat soliq xizmati organlari esa o'zlariga berilgan vakolat doirasida qonun hujjatlariga muvofiq yig'imni to'lovchilarning budget oldidagi majburiyatlar bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im bo'yicha hisob-kitob faoliyat amalga oshirilayotgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga:

- yil davomida tegishli ruxsat guvohnomasini (mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining qarorini) olgan soliq to'lovchilar tomonidan - ruxsat guvohnomasi (mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining qarori) berilgan kundan e'tiboran 10 kundan kechiktirmasdan;

- faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilar tomonidan - har yili hisobot yilining 15 yanvarigacha taqdim etiladi.

Bazaviy hisoblash miqdori o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchilar aniqlashtirilgan hisob-kitobni navbatdagi to'lov muddatidan kechiktirmay taqdim etishi shart.

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25 - kunidan kechiktirmasdan to'lanadi.

### **11.5. Avtotransport yig'imi.**

Avtotransport yig'imi jumlasiga quyidagilar kiradi:

avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;

chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im.

Avtotransport vositalarini sotib oluvchi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari hamda norezidentlari avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'imni soliq to'lovchilari deb e'tirof etiladi.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki ulardan foydalanuvchilar ushbu vositalarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti yig'imi soliq to'lovchilari deb e'tirof etiladi.

Avtotransport vositalarini ishlab chiqaruvchilar mamlakatning o'zida ishlab chiqarilgan yangi avtotransport vositalarini sotib olganlik uchun yig'imni soliq to'lovchilari deb e'tirof etiladi.

Quyidagilar yig'imlar solish ob'ektidir:

avtotransport vositalarini sotib olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;

chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranziti.

Soliq bazasi quyidagilardir:

sotib olingan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati;

O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzitida - chet davlatlarning avtotransport vositalari.

Avtotransport vositalarini sotib olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'imni to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

- 1) ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan yengil avtomobilni va (yoki) motoaravachani sotib oluvchi barcha guruhlardagi nogironligi bo'lgan shaxslar;
- 2) yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalar oluvchi fuqarolar;
- 3) faoliyatining asosiy turi yo'lovchilar tashish bo'lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo'lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega bo'lgan avtomobil transporti korxonalari - yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bo'yicha (engil avtomobillar va yo'nalishli taksilardan tashqari);
- 4) yuridik shaxslar - qirq tonnadan ortiq yuk ko'taradigan, sotib olingan kon avtosamosvallari bo'yicha;
- 5) homiylik (beg'araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, nogiron bolalar uchun markazlar, qariyalar va kichik yoshdagi nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek budget hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalarini;
- 6) yuridik shaxslar - avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo'jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o'tkazish chog'ida;
- 7) qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris;

8) avtotransport vositalarini 3 va 4-bandlarida ko'rsatilgan yuridik shaxslarga lizingga berish uchun oluvchi lizing beruvchilar.

Avtotransport yig'imirleri stavkasi quyidagicha belgilangan:

11.5-jadval

**Avtotransport yig'imirining stavkalari<sup>63</sup>**

T/r	Yig'imirler va to'lovlar turlari	Yig'imir stavkalari
I	Xorijiy davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va hududida tranzit xarakatlanshi uchun yig'imirler	AQSh dollarida
1	O'zbekiston Respublikasi hududiga chet el davlatlaridan avtotransport vositalari kiganligi va tranziti uchun yig'im, bitta avtoshuvchi kiganligi uchun stavkalari (2-5-bandlarda ko'rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2	Tojikiston Respublikasi yuk avtomashinalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun vig'imlar:	
	10 tonnagacha	100
	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
	20 tonnadan yuqori	200
3	Qozog'iston Respublikasi yuk avtomashinalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig'im	300
4	Qirg'iziston Respublikasi yuk avtomashinalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig'im	300
5	Turkmaniston Respublikasi yuk avtomashinalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig'imirler:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan yuqori	150
11	Avtotransport vositalarini sotib olinganligi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtincha olib kirilganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida ro'yxatdan o'tkazish chog'ida avtotransport vositalarining egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to'lanadigan yig'im	
1	Yangi (foydalanishda bo'limgan) avtotransport vositalari bo'yicha, bundan O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan avtomobillar mustasno	xarid qilish narxining 3 foizi

<sup>63</sup> O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 25 dekabrdagi 657-soni qonuni.

T/r	Yig'imlar va to'lovlar turlari	Yig'imlar stavkalari		
2	Foydalanilgan avtotransport vositalari bo'yicha:	ekspluatatsiya muddatidan kelib chiqib har bir ot kuchiga bazaviy hisoblash miqdori foizi hisobida		
		3 yilgacha	3 yildan 7 yilgacha	7 yildan yuqori
	engil avtomobillar	11	9	6
	motosikllar (shu jumladan, mopedlar) va yordamchi dvigatel o'tnatilgan velosipedlar, kajavali yoki kajavasiz	10	7	5
	boshqa motorli transport vositalari	16	13	9

*Izoh:*

1. O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab xorijiy davlatlarning og'ir yuk tashuvchi va yirik gabaritli transport vositalari o'tganligi uchun mazkur ilovada nazarda utilgan stavkalar bo'yicha yig'im to'lanishi bilan bir qatorda qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 11 yanvardagi 11-sont qarori bilan belgilangan miqdorlarda to'lov undiriladi.

2. O'zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o'tishda va O'zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston yuk avtotransport vositalaridan qo'shimcha ravishda 175 AQSh dollari miqdorida yig'im undiriladi.

3. Gumanitar yuklarni olib o'tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig'imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koefitsiyenti qo'llaniladi.

4. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomaga qoidalari qo'llaniladi.

Avtotransport yig'imlari soliq bazasidan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{Y}_s = \mathbf{S}_b \times \mathbf{S}_s,$$

bu yerda:

$\mathbf{Y}_s$  – avtotransport yig'imlari summasi;

$\mathbf{S}_b$  – olingan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelinig ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari;

$\mathbf{S}_s$  – avtotransport yig'imlari stavkasi.

Avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im ular O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilayotganda, qayta ro‘yxatdan o‘tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

- 1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;
- 2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki dividendlar sifatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olinganda;
- 3) avtotransport vositalari lizingga berish uchun sotib olinganda. Yig‘im taraflarning yozma kelishuviga ko‘ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan taqdirda, yig‘im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasining muddati tugaganidan so‘ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo‘lgan avtotransport vositasi qayta ro‘yxatdan o‘tkazilayotganida takroran yig‘im undirilmaydi;
- 4) avtotransport vositalari O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Mamlakatning o‘zida ishlab chiqarilgan avtotransport vositalari sotib olinganda, yig‘im qonun hujjatlarida belgilangan tartibda avtotransport vositalarini ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘lanadi.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im chet

davlatning avtotransport vositasi O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

### ***Nazorat savollari***

1. Ijtimoiy soliq to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanishadi?
2. Ijtimoiy soliq ob’yekti va bazasi qanday aniqlanadi?
3. Ijtimoiy soliq hisoboti qaysi muddatlarda taqdim etiladi?
4. Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari tushintiring?
5. Mahalliy yig‘im deganda nimani tushunasiz?
6. Ayrim turdagи tovarlar bilan chakana savdo qilish yig‘imi ni to‘lovchilar kimlar?
7. Ayrim turdagи tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imning soliq solish ob’ekti va bazasini tushuntiring?
8. Ayrim turdagи tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im qancha miqdorda undiriladi?
9. Avtotransport yig‘imlari to‘lovchilari kimlar?
10. Avtotransport yig‘imlari soliq solish obekti va bazasi qanaqa?
11. Avtotransport yig‘imlari bo‘yicha imtiyozlar va soliq stavkalri qanday?

## GLOSSARIY

**Jismoniy shaxsning yaqin qarindoshlari** – uning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalari va opa-singillari, eri (xotini), farzandlari, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobolari, buvilari, nevaralari, shuningdek erining (xotinining) ota-onasi.

**Ijara (lizing) to‘lovi** – ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijarachi (lizing oluvchi) tomonidan to‘lanadigan summa;

**Ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizdan olinadigan daromadi** – moliyaviy ijara (lizing) obyektining ijara (lizing) to‘lovi summasi va qiymati o‘rtasidagi farq.

**Nazorat-kassa texnikasi** – fiskal xotira bilan jihozlangan nazorat-kassa mashinalari, fiskal to‘plagichlardagi fiskal ma’lumotlar yozib olinishi va saqlanishini ta’minlovchi, fiskal hujjatlarni shakllantiruvchi hamda ularning soliq organlariga fiskal ma’lumotlar operatori orqali topshirilishini, shuningdek fiskal hujjatlar nazorat-kassa texnikasini qo‘llash to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq qog‘ozda chop etilishini ta’minlovchi boshqa qurilmalar hamda dasturiy-texnik majmualar.

**Ortiqcha to‘langan soliq summasi (pena, jarima)** – soliqning (penaning, jarimaning) to‘langan summasi bilan haqiqatda to‘lanishi lozim bo‘lgan summasi o‘rtasidagi ijobiy farq. Soliqning (penaning, jarimaning) ortiqcha to‘langan summasi u ilgari hisobga olingan va (yoki) soliq to‘lovchiga qaytarilgan summalarini, shuningdek soliq bo‘yicha kelgusi to‘lovlar hisobiga o‘tkaziladigan summalarini hisobga olgan holda uni hisob-kitob qilish sanasida aniqlanadi.

**Ortiqcha undirilgan soliq summasi** – soliq organlarining g'ayriqonuniy hatti-harakatlari natijasida ortiqcha to‘langan soliq summasi.

**Tan olingen soliq qarzi** – soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma berilgan sanadan boshlab 10 kalendar kun ichida soliq to‘lovchi tomonidan e’tiroz bildirilmagan qarz yoki sud qarori bilan tasdiqlangan qarz.

**Xatolik bilan to‘langan soliq (pena, jarima) summasi** – soliq (pena, jarima) summasini to‘lagan shaxsni va (yoki) ushbu to‘lovning maqsadini qat’iy aniqlash imkoniyatini bermaydigan to‘lov chog‘ida xatolikka yo‘l qo‘yilgan soliq (pena, jarima) summasi. Qaysi soliqqa (penaga, jarimaga) nisbatan uni to‘lagan shaxs soliq to‘lovchi deb hisoblanmaydigan shaxsdan yoki to‘lanishi lozim bo‘lgan budgetdan boshqa budgetga kelib tushgan soliq (pena, jarima) summasi ham xatolik bilan to‘langan deb e’tirof etiladi.

**Umidsiz qarz** – sud qarori bilan majburiyatning bekor qilinishi tufayli yoxud bankrotlik, tugatish, qarzdorning vafoti yoki da’vo muddati tugashi sababli to‘lanishi mumkin bo‘lmagan qarz.

**Notijorat tashkilotlari** – notijorat tashkilot uchun belgilangan shaklda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, daromad olish maqsadiga ega bo‘lmagan va daromadlarni yoki mol-mulkni ishtirokchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar notijorat tashkilotlari deb e’tirof etiladi.

**Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti** – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan axborot resursi soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti hisoblanadi.

**Soliq qarzi** – hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlarning, shu jumladan ular bo‘yicha bo‘nak va joriy to‘lov larning summalari, shuningdek Soliq kodeksida belgilangan

muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penalar soliq qarzi deb e’tirof etiladi.

**Moliyaviy ijara va lizing** – shartnoma bo‘yicha mol-mulkni (molivayi ijara obyektini) 12 oydan ko‘p muddatga egalik qilish va foydalanishga berish chog‘ida yuzaga keladigan ijara munosabatlari moliyaviy ijara deb e’tirof etiladi.

**Xedjirlash** – xedjirlash operatsiyalari deganda soliq to‘lovchi uchun noxush oqibatlarni (to‘liq yoki qisman) kamaytirish (kompensatsiya qilish) maqsadida muddatli bitimlarning moliyaviy vositalari (shu jumladan harxil turlari bilan) amalga oshiriladigan operatsiyalar (operatsiyalar majmui) tushuniladi.

**Qimmatli qog‘ozlar** – mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydigan, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to‘lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini nazarda tutadigan hujjatlardir.

**Maqsadli mablag‘lar** – soliq solish maqsadida soliq to‘lovchi tomonidan maqsadli mablag‘larning manbai bo‘lgan shaxs tomonidan belgilangan yoki qonun hujjatlarida belgilangan maqsadga ko‘ra foydalanish uchun olingan mol-mulk maqsadli mablag‘larga kiradi.

**Tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilish** – tovarlarga bo‘lgan mulk huquqini haq olish asosida o‘tkazish yoki haq evaziga xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan qarzdor garov bilan ta’minlangan majburiyatlarini bajarmaganda garovga qo‘yilgan tovarlarni ayirboshlash va o‘tkazishdir.

**Tovar** – tabiatning yoki inson faoliyatining (shu jumladan intellektual faoliyatning) qiymat bahosiga ega bo‘lgan va realizatsiya qilish uchun

mo'ljallangan har qanday predmeti hisoblanadi. Tovarlar deb, xususan, elektr energiyasi, ma'lumotlar bazasi, axborot, intellektual faoliyat natijalari, shu jumladan ularga bo'lgan mutlaq huquqlar e'tirof etiladi. Soliq solish maqsadida mulkiy huquqlar ham tovar deb e'tirof etiladi.

**Xizmatlar** – bir xil xususiyatli asosiy belgilarga ega bo'lgan tovarlar (xizmatlar) soliq solish maqsadida aynan o'xshash tovarlar (xizmatlar) deb e'tirof etiladi.

**Royalti** – har qanday nomoddiy aktivdan foydalanganlik yoki foydalanish huquqi uchun to'lovlar royalti deb e'tirof etiladi.

**Daromad** – nafni baholash imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda va bunday nafni baholash mumkin bo'lgan darajada hisobga olinadigan pul yoki natura shaklidagi iqtisodiy naf daromad deb e'tirof etiladi.

### Urush qatnashchilariga tenglashtiriladigan shaxslar RO'YXATI<sup>64</sup>

1941 yil 22 iyundan 1945 yil 9 maygacha Ikkinci jahon urushi (keyingi o'rirlarda Ikkinci jahon urushi deb yuritiladi) va boshqa urushlar davrida harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda xizmatni o'tagan, shuningdek O'zbekiston Respublikasini himoya qilishda ishtirok etgan harbiy xizmatchilar «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 28-moddasi «j» bandiga muvofiq pensiyalarga ustama pul olishga haqli bo'lgan urush qatnashchilari hisoblanadilar.

Quyidagilar urush qatnashchilariga tenglashtiriladilar:

a) 1941 yilning 22 iyunidan 1954 yilning 31 dekabrigacha bo'lgan davrda qiruvchi batalonlar, vzvodlar va xalqni himoya qiluvchi otryadlar tarkibida sobiq SSSR hududida jangovar harakatlarda ishtirok etgan shaxslar;

b) Ikkinci jahon urushi va fuqarolar urushi davrida partizan otryadlari va qo'shilmalarida yoki yashirin ishlarda bo'lgan shaxslar;

v) Ikkinci jahon urushi yillarda harakatdagi armiya tarkibida yoki harakatlar ketayotgan joylarda xizmatni o'tagan sobiq SSRning Ichki ishlar vazirligi organlari va Davlat xavfsizligi qo'mitasi organlarining boshliqlar hamda oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar;

g) Ikkinci jahon urushi davrida harakatdagi armiya va flotlar tarkibidagi qismlar hamda bo'linmalarda balog'at yoshiga yetgunga qadar polk o'g'llari va yungalar sifatida yurgan shaxslar;

d) Ikkinci jahon urushi davrida temir yo'llarning front yaqinidagi uchastkalarida, mudofaa chizig'i inshootlarida ishlagan, harbiy-dengiz bazalari, aerodromlar hamda harbiy harakatlar ketayotgan joylardagi boshqa harbiy ob'ektlar qurilishi ishlarda qatnashgan xodimlar;

e) harakatdagi armiya tarkibida ishlagan yollanma xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar;

<sup>64</sup> 1941-1945 yillardagi urush ishtirokchilari va nogironlariga tenglashtirilgan shaxslar Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizomga (Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi 252-sod qaroriga 1-ilova) 1 va 2-ilovalarda ko'rsatilgan.

j) Ikkinci jahon urushi davrida fashist kontslagerlari (getto va zo'rlik bilan ushlab turiladigan boshqa joylar)da bo'lgan (tutqunlar, shu jumladan, bolalar) shaxslar;

z) Leningrad shahri qamali davrida shaharning korxonalari, muassasalari va tashkilotlarida mehnat qilgan va «Leningrad mudofaasi uchun» medali hamda «Qamaldagi Leningrad fuqarosiga» nishoni bilan taqdirlangan shaxslar;

i) 1956 yilning 24 oktyabridan 1956 yilning 10 noyabrigacha bo'lgan davrda Vengriya hududidagi jangovar harakatlar davrida harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda xizmatni o'tagan harbiy xizmatchilar;

k) harbiy harakatlar ketayotgan mamlakatlarda o'z baynalmilat burchlarini ado etgan, tinchlik o'rnatuvchi kuchlar tarkibida ishtirot etgan harbiy xizmatchilar, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar.

2-ilova

### **Urush nogironlariga tenglashtiriladigan shaxslar RO'YXATI<sup>65</sup>**

1941 yil 22 iyundan 1945 yil 9 maygacha Ikkinci jahon urushi (keyingi o'rnlarda Ikkinci jahon urushi deb ataladi) va boshqa urushlar davrida harakatdagi armiya tarkibidagi harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda xizmatni o'taganda, shuningdek O'zbekiston Respublikasini himoya qilishda yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi «a» bandida va 28-moddasining «a» va «b» bandlarida nazarda tutilgan shartlar va normalarga ko'ra pensiya bilan ta'minlanishga haqli urush nogironlari hisoblanadilar.

Quyidagi nogironlar urush nogironlariga tenglashtiriladilar:

a) sobiq SSSR va O'zbekiston Respublikasi chegaralarini qo'riqlash paytida yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar;

b) 1941 yilning 22 iyunidan 1954 yilning 31 dekabrigacha sobiq SSSR hududida harakat qilgan hamda qiruvchi batalonlar, vzzvodlar va xalqni

<sup>65</sup>1941-1945 yillardagi urush ishtirotchilari va nogironlariga tenglashtirilgan shaxslar Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizomga (Vazirlar Mahkamasining 8.09.2011 yildagi 252-sod qaroriga 1-ilova) I va 2-ilovalarda ko'rsatilgan.

himoya qiluvchi otryadlarda xizmat qilgan davrda yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan shaxslar;

v) temir yo'llarning front yaqinidagi uchastkalarida ishlagan, mudofaa inshootlari, harbiy-dengiz bazalari, aerodromlar va boshqa harbiy ob'ektlar qurilishi ishlarida qatnashgan hamda Ikkinchiji jahon urushi davrda urush bo'layotgan joylarda yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan xodimlar;

g) Ikkinchiji jahon urushi davrda partizan otryadlari va qo'shilimalari tarkibida yoki yashirin ishlarda bo'lgan davrda yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan shaxslar;

d) harakatdagi armiya tarkibidagi ishlarda yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish va kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan yollangan tarkibdagisi shaxslar;

e) Ikkinchiji jahon urushi davrda fashist kontslagerlarida (getto va zo'rlik bilan tutib turiladigan boshqa joylarda) bo'lgan davrda yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish va kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan shaxslar (tutqunlar, shu jumladan, bolalar);

j) tinchlik o'rnatuvchi kuchlar tarkibida qatnashish, shuningdek harbiy harakatlar ketayotgan mamlakatlarda baynalmilal burchlarini ado etish tufayli yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish tufayli nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari va milliy xavfsizlik xizmatining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar;

z) harbiy xizmatdagi vazifalarini (xizmat vazifalarini) bajarish paytida yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish va kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari va milliy xavfsizlik xizmatining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar;

i) o'quv mashg'ulotlari yoki tekshirish uchun yig'inlarga chaqirilgan va shu yig'inlarda o'z xizmat burchlarini bajarayotib yaralanish, kontuziya olish, mayiblanish va kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan harbiy majburiyatli shaxslar.

**Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati<sup>66</sup>**

T/r	Faoliyat turining nomi
I.	<b>Shakana savdo:</b>
1.	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qilish (qurilish materiallari, sement, shifer, yog'och va yog'och mahsulotlari, alkogolli va tamaki mahsulotlari, neft mahsulotlarining barcha turlari, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar yoxud bunday materiallar qo'llanilgan buyumlar, audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlar, yangi import avtomobillar, farmatsevtika tovarlarini sotish bundan mustasno)
2.	Ko'chma savdo ob'ektlarida aralash chakana savdo qilish (vaqtincha joylashgan va mavsumiy yoki maqsadli xususiyatga ega bo'lgan, shuningdek, ish kuni tamom bo'lgandan keyin ob'ektni demontaj qilinishi va ko'chirilishini talab etuvchi ob'ektlarda)
3.	Dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan chakana savdo qilish
4.	Gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan chakana savdo qilish
5.	Tovarlarni import qilish va ular bilan chakana savdo qilish (qurilish materiallari, sement, shifer, yog'och va yog'och mahsulotlari, o'simlik moyi, alkogolli va tamaki mahsulotlari, neft mahsulotlarining barcha turlari, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar yoxud bunday materiallar qo'llanilgan buyumlar, audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlar, yangi import avtomobillar va farmatsevtika tovarlarini sotish bundan mustasno), bunda olib kirilayotgan tovarlarning narxi bir oyda 5000 AQSh dollari ekvivalentidan oshmaslik sharti bilan
II.	<b>Qonun hujjatlari belgilangan ro'yxat bo'yicha hunarmandchilik faoliyati.</b>
III.	<b>Maishiy xizmatlar, II bo'limda nazarda tutilganlardan tashqari:</b>
6.	Sartaroshlik xizmatlari, manikyur, pedikyur, kosmetolog xizmatlari va shunga o'xshash boshqa xizmatlar
7.	Kir yuvish, quruq va kimyoziy tozalashni tashkil etish, shuningdek, dazmollah xizmatlari
8.	Gilam va gilam buvumlarini ta'mirlash va tozalash
9.	Tikuv, mo'yna, charm va trikotaj buyumlarni, bosh kiyimlarni va to'qimachilik galantereyasidan tikilgan buyumlarni ta'mirlash, aholining yakka tartibdagi buyurtmalari bo'yicha tikuv va trikotaj buyumlarni, bosh kiyimlarni va to'qimachilik galantereyasidan buyumlarni tikish, shu jumladan deraza va eshik pardalarini tikish, kashtachilik
10.	Hayvonlar terilari, mo'yna, to'qimachilik, charm buyumlar va boshqa buyumlarni oshlash va bo'yash
11.	Aholining yakka tartibdagi buyurtmalari bo'yicha poyabzal tikish, poyabzalni ta'mirlash, bo'yash va tozalash
12.	Attorlik buyumlarini tayyorlash va ta'mirlash
13.	Bijuteriya va jevaklarni tayvorlash va ta'mirlash
14.	Kalitlar tayyorlash
15.	Metall va tunuka buyumlar tayyorlash va ta'mirlash
16.	Gulchambarlar (shu jumladan, motam gulchambarlari), sun'iy gullar, ikebana, gul marjonlarini tayyorlash
17.	To'siglar, haykallar, metalldan yasalgan gulchambarlarni tayyorlash va ta'mirlash
18.	Yog'ochdan eshik, deraza va boshqa buyumlar (mebeldan tashqari) tayyorlash
19.	Inventarni (xo'jalik, sport, baliqchilik va hokazo) ta'mirlash va tayyorlash
20.	Kesuvchi buyumlar va asboblarni charxlash

<sup>66</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-sod qarori.

T/r	Faoliyat turining nomi
21.	Tayyor mebelni <i>yig`ish, ta`mirlash va drapirovka</i> qilish
22.	Musiqa asboblarini <i>ta`mirlash va sozlash</i>
23.	Yakka buyurtma bo`yicha qimmatbaho metallardan va toshlardan zargarlik buyumlarini yasash. shuningdek, zargarlik buyumlarini <i>ta`mirlash</i>
24.	Optika, soatlarni <i>ta`mirlash</i> va metall, plastmassa, sopol, fayans, tosh, kartondan mahsulotlarda o`ymakorlik ishlari (qavariq vozuvlar va tasvirlar tushirish)
25.	Radioelektron apparatlar, maishiy mashinalar, maishiy priborlar, ofis mashinalari va hisoblash texnikasini <i>ta`mirlash, o`rnatish</i> va ularga texnik xizmat ko`rsatish
26.	Transport vositalarini <i>ta`mirlash</i> va ularga texnik xizmat ko`rsatish, shu jumladan, transport vositalariga texnik xizmat ko`rsatish xizmatlarining boshqa turlari (akustik tizimlar va qo`riqlash signalizatsiyalarini <i>ta`mirlash</i> va o`rnatish, polirovkalash, kuzovga himoya va bezak qoplamlarini qoplash xizmatlari)
27.	Sanitariva-texnika xizmatlari va payvandlash ishlari
28.	Shisha va oynalarni kesish, shishaga badiiy ishlov berish
29.	Binolarga oyna o`rnatish xizmatlari
30.	Jamoat hojatxonalar xizmatlari
31.	Hammom va sauna xizmatlari
32.	Turar joylarni <i>yig`ishtirish</i> xizmatlari
33.	Hovlilar va bog`larga qarash xizmatlari, shuningdek, ko`kalamzorlashtirish ishlari
34.	Bog`lar, polizlar va dov-daraxtlarni zararkunandalar va kasalliklardan himoya qilish
35.	Video va fotosuratga olish xizmatlari
36.	Xo`jalik mollari va uy-ro`zg`or buyumlarini (mebel, idish-tovoqlar, xo`jalik, sport, baliqchilik anjomlari, maishiy texnika, priborlarva boshqalarini) ijaraga berish
37.	Oilaviy mehmon uylarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etish
<b>IV Faoliyatning boshqa turlari:</b>	
38.	Qadoqlash uskunalaridan foydalanmagan holda uy sharoitida milliy shirinliklar, qandolat mahsulotlari, qurtini tayyorlash va sotish
39.	Milliy non va patir tayyorlash va sotish
40.	Popcorn, frezerda muzqaymoq, salqin ichimliklar, ayron va go`ja tayyorlash va quyib sotish
41.	Safatlar va tuzlamalar tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitida donalab sotiladigan taomlarning ayrim turlarini tayyorlash va o`tirish joylari tashkil etmasdan yoki mahalliy davlat hokimiyyati organlarining qarori bilan ajratilgan maxsus joylarda sotish
42.	O`Ichov vositalari tayyorlash va ularni prokatga berish
43.	Aholi uchun turar va noturar joylarni <i>ta`mirlash</i> bo`yicha xizmatlar
44.	Repetitorlik xizmatlari
45.	Tarjima xizmatlari, tahrir xizmatlari
46.	Bolalarning o`yinchog` avtomatlarini bilan bog`liq xizmatlar
47.	Axborotning kriptografik himoyasi vositalarini loyihalash, yaratish, ishlab chiqarish, sotish, <i>ta`mirlash</i> va ulardan foydalish
48.	Dizayn bo`yicha xizmatlar (grafik, interer, mebel va hokazolar). shuningdek, chizmachilik-grafika ishlari, shuningdek, rassomlik san`ati
49.	Kompyuter dasturlarini ishlab chiqish xizmatlari, kompyuter o`yinlarini tashkil etish, shuningdek, kompyuter yordamida matnlarni terish va bosib chiqarish xizmatlari, matndan nusxa olish va ko`pavtirish bilan bog`liq xizmatlar
50.	Tashrif qog`ozlari va taklifnomalarini tayyorlash va bosish
51.	Muqovalash ishlari
52.	Reklamani ishlab chiqish va joylashtirish
53.	Sug`urta agentlari tomonidan ko`rsatiladigan xizmatlar
54.	Kontsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish

T/r	Faoliyat turining nomi
55.	Tantanali marosimlarni tashkil etish xizmatlari (to'y, yubiley, tug'ilgan kun va hokazolar)
56.	Ko'ylyak va kostyumlarni, shuningdek, ularga aksessuarlarni prokatga berish
57.	Ijtimoiy xizmatlar (bolalar, bemorlar va keksa kishilarga qarash xizmatlari)
58.	Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyat (sheyping, aerobika, sport sektsiyalari, salomatlik guruhlari), trenerlik xizmatlari
59.	To'garaklar tashkil etish va yuritish
60.	Davlat-xususiy sherikchilikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini moddiy- texnik va uslubiy jihatdan ta'minlash shakli asosida tashkil etilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat
61.	Tulumni shishirish xizmatlari (taksidermik ishlar)
62.	Tegirmonalarda donni maydalash (tozalash) xizmatlari
63.	Mol so'yish xizmatlari
64.	Uy hayvonlariga qarash xizmatlari
65.	Veterinariya faoliyat
66.	Yuklarni avtomobil transportida tashish
67.	Yo'lovchilar va yuklarni daryo transportida tashish
68.	O'simlik, hayvonlar va minerallardan tayyorlangan dorivor xom ashyni yetishtirish, yig'ishtirish, tayyorlash va sotish
69.	Gullar va dekorativ daraxtlar yetishtirish va sotish (shu jumladan bonsay san'ati)
70.	Akvarium baliqlari, dekorativ qushlar va boshqa hayvonlarni ko'paytirish va sotish
71.	Shisha ishlar va ikkilamchi xom ashyni qabul qilish xizmatlari (metall chiqindilaridan tashqari)
72.	Rietorlik faoliyat
73.	Jismoniy va yuridik shaxslarga maxsus va qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalangan holda xizmatlar ko'rsatish
74.	Tashkilotlar uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari tayyorlash bo'yicha xizmatlar
75.	Ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va texnologik ishlar uchun pudrat shartnomasi bo'yicha ishlarni bajarish
76.	Matriksali printerlar va alfavit-raqam bosma qurilmalar uchun bo'yovchi tasmalarni tayyorlash va qayta ishlash
77.	Qog'ozlar va skorosshivatellar uchun konvertlar, papkalar tayyorlash
78.	Telekommunikatsiyalar operatorlariga, provayderlariga vositachilik xizmatlari ko'rsatish (abonentlar yoki xizmatlar ko'rsatuvchilarga ma'lumot-axborot xizmati ko'rsatish, xizmat ko'rsatuvchilarning xizmatlari uchun to'lovlarни qabul qilish)
79.	Paxta (ilgari iste'molda bo'lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari
80.	Turistik faoliyat - turagentlik va ekskursiya xizmatlari, shuningdek, gidlar (gid-tarjimonlar), ekskursiya yetakchilari va yo'rqlichi-yo'l boshlovchilar xizmatlari
81.	Duradgorlik ishlari (aholi buyurtmalari bo'yicha duradgorlik ishlarni amalga oshirish)
82.	Metallni ta'mirlash ishlari (uy sharoitida metalldan tayyorlangan maishiy buyumlarni ta'mirlash (kalitlarning dublikatlarini tayyorlash, soyabonlarni ta'mirlash, boshqa maishiy metall buyumlarni oddiy ta'mirlash)
83.	Yog'och me'morchiligi (bolalar maydonchalari va park zonalari uchun yog'ochdan yasalgan qurilmalar, haykallar)
84.	Gazlamalarga naqshlar solish (gazlamalar va kiyim ashylarini qo'lda bo'yash, gazlamalarga, shu jumladan trafareti bosma va qo'lda rasm chizish usuli bilan rasmlar solish)
85.	Qimmatbaho metallarni oltin izlovlchilar usulida qazib olish
86.	Turistlarga uy-joyni qisqa muddatga ijara berish (30 kungacha)

**Izoh.**

*Agar yakka tadbirkor faoliyatning asosiy turiga nishbatan yordamchi hisoblangan faoliyatni amalga oshirsa, qat'iy belgilangan soliq faoliyatning bir turi uchun to'lanadi.*

*Ushbu Ro'yxatga kiritilgan faoliyat turlari yuridik shaxs shaklidagi tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.*

*Ushbu Ro'yxat doirasida o'z faoliyatini amalga oshiradigan xususiy tadbirkorlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin.*

4-ilova

**Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro'yxati<sup>67</sup>**

T/r	Faoliyat turining nomi
1	Qurol-yarog' va uning o'q-dorilarini, himoyalaniш vositalarini, harbiy texnikani, ularning ehtiyoj qismlari, butlovchi qismlari va priborlarini, agar ulardan boshqa tarmoqlarda foydalilmasa, shuningdek ularni ishlab chiqarish uchun maxsus materiallarni va maxsus asbob-uskunani ishlab chiqish, ishlab chiqarish, ta'mirlash va realizatsiya qilish
2.	Portlovchi va zaharli moddalarini, ularni qo'llagan holda materiallarni, shuningdek portlatish vositalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish.
3.	Bo'shayotgan harbiy-texnika vositalarini tugatish (yo'q qilib tashlash, utilizatsiya qilish, ko'mib tashlash) va qayta ishslash.
4.	Ov va sportga mo'ljallangan o'qotar qurolni hamda uning o'q-dorilarini, shuningdek sovuq kurolni (pichoqlarning milliy turlaridan tashqari) ishlab chiqarish, ta'mirlash va realizatsiva qilish.
5.	Yong'inga qarshi avtomatika vositalarini, qo'riqlash, yong'indan darak beruvchi va yong'indan saqlash signalizatsiyalarini loyihalashtirish, montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish.
6.	Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalasi sohasidagi faoliyat.
7.	Axborotning kriptografik himoya vositalarini loyihalashtirish, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, realizatsiya qilish, ta'mirlash va ulardan foydalanish.
8.	Magistral gaz quvurlari, neft quvurlari va neft mahsulotlari quvurlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularni ta'mirlash.
9.	Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chiqish), saqlash, realizatsiya qilish (berish), taqsimlash, tashish, ishlab chiqish va ishlab chiqarish, tayyorlash, yo'q qilib tashlash, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ilmiy va o'quv maqsadlarida, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun, shu jumladan, tibbiyotda va veterinariyada foydalanish, shuningdek tarkibida giyohvand moddalar bo'lgan o'simliklarni yetishtirish.
10.	Veterinariya faoliyati.
11.	Tibbiy faoliyat.
12.	Farmatsevtika faoliyati.
13.	Ko'priklar va tonnellarni loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularni ta'mirlash.
14.	Mudofaa ob'ektlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularni ta'mirlash.
15.	Xavfi yuqori bo'lgan ob'ektlarni va potentsial xavfli ishlab chiqarishlarni loyihalashtirish, qurish hamda ulardan foydalanish.
16.	Arxitektura-shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish
17.	Qurilish loyihalarining ekspertizasini o'tkazish
18.	Balandliklarda sanoat alpinizmi usullari orqali ta'mirlash, qurilish-montaj ishlarini bajarish.

<sup>67</sup> Oliy Majlisning 2001 yil 12 maydag'i 222-II-soni qarori

T/r	Faoliyat turining nomi
19.	Mahalliy va xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha temir yo‘l transportida yo‘lovchilarni hamda yuklarni tashish.
20.	Avtomobil transportida yo‘lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha tashish.
21.	Telekomunikatsiyalar tarmoqlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularga xizmat ko‘rsatish.
22.	Neft, gaz va gaz kondensatini qazib chiqarish, qayta ishlash hamda realizatsiya qilish.
23.	Qimmatbaho va nodir metallarni, qimmatbaho toshlarni qazib olish.
24.	Neft mahsulotlarini (avtobenzin, aviabenzin, ekstrabenzin, dizel yonilg‘isi, aviakerosin, mazut, pechka qoramoyi, neft bitumi, shuningdek texnik moylar va moylash materiallarini) realizatsiya qilish, bundan zavodda idishlarga qadoqlanganlari mustasno.
25.	Etil spirti va alkogolli mahsulot ishlab chigarish.
26.	Bank faoliyati.
27.	Banklar tomonidan chet el valyutasida operatsiyalar o‘tkazish.
28.	Qimmatli qog‘ozlar blankalarini ishlab chiqarish.
29.	Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyat.
30.	Baholash faoliyati.
31.	Sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarining sug‘urta faoliyati.
32.	Auditorlik faoliyati.
33.	Lombardlar faoliyati.
34.	Lotereyalar tashkil etish.
35.	Advokatlik faoliyati.
36.	Bojxona omborini ta’sis etish.
37.	Bojsiz savdo do‘konini ta’sis etish.
38.	Bojxona rejimida omborxonha ta’sis etish - «erkin omborxonha».
39.	Geodeziya va kartografiya faoliyati.
40.	Noshirlilik faoliyati.
41.	Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish sohasidagi faoliyat.
42.	Diniy ta’lim muassasalarining faoliyati.
43.	Audiovizual asarlarni tayyorlash, dublyaj qilish va ekranda namoyish etish.
44.	Audiovizual asarlarni, fonogrammalarni va EHM uchun yaratilgan dasturlarni takrorlash, realizatsiya qilish, prokatga berish.
45.	Fonogrammalarni tayyorlash.
46.	Kontsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish.
47.	Birja faoliyati.
48.	Turizm faoliyati.
49.	Ulgurji savdo.
50.	Tamaki xom ashyosini fermentlash va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish.
51.	Mikrokredit tashkilotlari faoliyati.
52.	Pirotexnika buyumlarini (harbiy maqsaddagi mahsulotlardan tashqari) ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash, realizatsiya qilish, ulardan foydalanish, ularni yo‘q qilish va utilizatsiya qilish.
53.	Rietorlik faoliyati.
54.	Kredit byurolari faoliyati.
55.	Vazirliklar, idoralar va tashkilotlar harbiy xizmatchilari hamda xodimlarining tasdiqlangan namunadagi formalgi kiyim-boshi savdosiga bo‘yicha faoliyat.
56.	Qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan zargarlik buyumlarini hamda boshqa buyumlarni ishlab chiqarish.

T/r	Faoliyat turining nomi
57.	Xususiy bandlik agentliklarining O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi ishni qidirayotgan shaxslarni ishga joylashtirish bo'yicha faoliyat.
58.	Moddiy madaniy merochning ko'chmas mulk ob'ektlarini asrashga doir faoliyat.
59.	To'lov tizimlari operatorining faoliyati.
60.	To'lov tashkilotlarining faoliyati.
61.	Xususiy notarial faoliyat.
62.	Atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyat.

5-ilova

**O'zini o'zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari  
RO'YXATI<sup>68</sup>**

T/r	Faoliyat turining nomi
1.	Uyda repetitorlik qilish - bolalar va kattalar bilan ta'lif fanlari bo'yicha yakka tartibda hamda guruh bo'lib mashg'ulotlar o'tkazish.
2.	Bolalarga qarab turish va ularni parvarish qilish bo'yicha jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar.
3.	Bemorlar hamda doimiy ravishda o'zgalar parvarishiga muhtoj keksa kishilarga qarab turish va ularni parvarish qilish bo'yicha jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar.
4.	Uy xo'jaligini yuritish va uy ishlarini bajarish, shu jumladan, turar joylarni tozalash, ovqat pishirish bo'yicha uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish.
5.	Xonalarni tozalash, jismoniy shaxs hududini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish
6.	Uyda jismoniy shaxslarning mebellarini ta'mirlash va yig'ish.
7.	Jismoniy shaxslarga murakkab bo'lmagan umumiylar qurilish, qurilish-ta'mirlash ishlari (beton quyish, bo'yoqchilik, suvoqchilik ishlari, g'isht va kafel terish, perforatsiya, duradgorlik, chilangarlik va boshqa umumiylar qurilish ishlari).
8.	Jismoniy shaxslarning santechnika uskunalarini mayda ta'mirlash va o'rnatish.
9.	Jismoniy shaxslarga kvartira ichida (shaxsiy qurilish ishlari - uy ichida) elektr montaj ishlari (elektr xavfsizligi bo'yicha ruxsati bo'lganda).
10.	Dehqon va fuqarolarning tomorqa uchastkalarida yer chopish va rekultivatsiya ishlari.
11.	Fermer xo'jaliklari egalari buyurtmasi bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlari (qishloq xo'jaligi o'simliklari va hayvonlarni parvarish qilish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini yig'ish va boshqa qishloq xo'jaligi ishlari).
12.	Fuqarolarning dala-hovli va tomorqa uchastkalarini landshaftini barpo etish ishlari.
13.	Qishloq xo'jaligi o'simliklari ekipash va parvarish qilishda, qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini yig'ib olishda dehqon va tomorqa uchastkalarini egalariga vordam berish.
14.	Chorva mollarini o'tlatish, ularni parvarish qilish.
15.	Jismoniy shaxslarga kompyuterlarni ta'mirlash va sozlash, litsenziyalangan dasturiy ta'minot o'rnatish.
16.	Buyurtmachining uyida bajariladigan maishiy texnikani o'rnatish va ta'mirlash.
17.	Jismoniy shaxslarning shaxsiy avtomobillarini mayda ta'mirlash, ularga aksessuarlar va avtosignalizatsiya o'rnatish, g'iloqlar va pol qoplamalarini tikish.
18.	Jismoniy shaxslarning avtomobillarini yuvish, avtomobillar kuzovlarini silliqlash.
19.	Mexanizatsiya vositalarini qo'llamay, uyda bajariladigan yuk ortish-yuk tushirish ishlari.
20.	Makulatura, plastik idish, temir-tersak va qo'shimcha xomashvo to'plash.
21.	Xalq tabobati (litsenziyasi bo'lganda)
22.	Xususiy shaxslarga bosh xizmatkor va konsyerj xizmatlarini ko'rsatish.

<sup>68</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi PQ-4742-sod qaroriga ilova

T/r	Faoliyat turining nomi
23.	Shaxsiy transportdan foydalaniib, jismoniy shaxslarga tovarlarni yetkazib berish (yuk tashish bundan mustasno).
24.	Bozorlar va savdo komplekslarida mayda yuklarni aravalarda tashish.
25.	Ilgari foydalanilgan tovarlarni sotib olish va sotish.
26.	Velosipedlarni ta'mirlash.
27.	Yog'och me'morchiligi (bolalar maydonchalari va park zonalari uchun yog'ochdan yasalgan qurilmalar, haykallar).
28.	Rassomlik.
29.	Metall ta'mirlash ishlari (uyda amalga oshiriladigan maishiy metall buyumlarini ta'mirlash (kalitlarning dublikatlarini tayyorlash, soyabonlarni ta'mirlash, boshqa maishiy metall buyumlarini oddiy ta'mirlash).
30.	Uyda popcorn, frezerda muzqaymoq tayyorlash va sotish.
31.	Dehqon bozorlarida qishlog xo'jaligi mahsulotlari bilan chakana savdo qilish.
32.	Gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan chakana savdo qilish.
33.	Sartaroshlik xizmatlari, manikyur, pedikyr xizmatlari.
34.	Kosmetolog xizmatlari va shunga o'xshash boshqa xizmatlar.
35.	Uyda kir yuvish va dazmollah xizmatlari.
36.	Tikuv, mo'yna, charm va trikotaj buyumlarini, bosh kiyimlarni va to'qimachilik galantereyasi buyumlarini ta'mirlash, aholining yakka tartibdagi buyurtmasi bo'yicha tikuv va trikotaj buyumlarini, bosh kiyimlarni va to'qimachilik galantereyasi buyumlarini tikish.
37.	Gazlamalarga naqshlar solish (gazlamalar va kiyim ashyolarini qo'lda bo'yash, gazlamalarga, shu jumladan trafaretli bosma va qo'lda rasm chizish usuli bilan rasmlar solish).
38.	Aholining yakka tartibdagi buyurtmalari bo'yicha poyabzal tikish, poyabzalni ta'mirlash, bo'yash va tozalash.
39.	Yakka tartibda deraza va eshik pardalarini tikish va ta'mirlash, kashtachilik.
40.	Galantereya buyumlarini tayyorlash va ta'mirlash.
41.	Bijuteriya va jevaklarni tayyorlash va ta'mirlash.
42.	Kalitlar tayyorlash.
43.	O'Ichov vositalari tayyorlash va ijara berish.
44.	Gulchambarlar (shu jumladan, motam gulchambarlari), sun'iy gullar, ikevana, gul marjonlarini tayyorlash.
45.	To'siqlar, haykallar, metalдан yasalgan gulchambarlarni tayyorlash va ta'mirlash.
46.	Kesuvchi buyumlar va asboblarni charxlash.
47.	Akvarium baliqlari, dekorativ qushlar va boshqa hayvonlarni ko'paytirish va sotish.
48.	Musiqa asboblarini ta'mirlash va sozlash.
49.	Video va fotosurtaga olish xizmatlari.
50.	Qadoqlash uskunalaridan foydalanmagan holda uy sharoitida milliy shirinliklar, qandolat mahsulotlarni tayyorlash va sotish.
51.	Milliy non va patirlarni tayyorlash va sotish.
52.	Salatlар va tuzlamlarni tayyorlash va sotish, shuningdek, uy sharoitida donalab sotiladigan taomlarning ayrim turlarini tayyorlash va o'tirish joylarini tashkil etmasdan yoki mahalliy davlat hokimiyyati organlarining qarori bilan ajratilgan maxsus joylarda sotish.
53.	Uyda quyib sotish uchun salqin ichimliklar, ayron, go'ja hamda qurt tayyorlash va sotish.
54.	To'garaklar tashkil etish va yuritish.
55.	Tulumni shishirish xizmatlari (taksidermik ishlar).
56.	Gullar va dekorativ daraxtlar yetishtirish va sotish (shu jumladan bonsay san'ati).

T/r	Faoliyat turining nomi
57.	Reklama buktetlarmi targatish, uyda operatorlar tomonidan buyurtmalar qabul qilish
58.	Muqovalash ishlari
59.	Namoyishlarda kiyimlar modelini namoyish qilish, rasmli jurnallarda, reklama filmlari va video kliplarda suratga tushish
60.	Ekskursiyani tashkil etish va o'tkazish xizmatlari
61.	Matnni yaratish va ishlov berish (kopirayter, rerayter, SEO-kopirayter, SEO-rerayter, musahih, kontent-menejer, muharrir, e-mail orqali xatlarni jo'natish bo'yicha mutaxassis, spichrayter, transkriber va boshqalar)
62.	Multimedia, dizayn va san'at materiallarini yaratish va ishlov berish (veb-dizayner, grafika dizayneri, kompyuter o'yinlari dizayneri, interyer dizayneri, landshaft dizayneri, liboslar dizayneri, retusher, fotokollajchi, vektor grafikasi muharriri, arxitektor, vizuallashiruvchi dizayner, ma'lumot dizayneri, interfeys dizayneri, texnik dizayner, moushn-dizayner, banner yasovchi, nashriyot dizayneri, flesher, 3D-dizayner, video muharrir, videooperator, bastakor, ovoz rejissori, aranjirovchisi, suxandon, foto muharrir va boshqalar)
63.	Dasturiy ta'minot, axborot tizimlari, mobil ilovalar va veb-saytlarni ishlab chiqish va tekniq qo'llab-quvvatlash (dasturchi, dasturiy ta'minotni sinovchi mutaxassis, veb-sahifalarini sahfalovchi, veb-tahlilchi, veb-saytlarni optimizatsiyalash bo'yicha mutaxassis).
64.	Tarjima qilish xizmatlari (badiiy adabiyotni tarjima qilish, texnik tarjima, veb-saytlar, filmlar, kompyuter va mobil ilovalar, taqdimotlar, video, audio va reklamalar tarjimasi).
65.	Ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat (PR-menedjer, internet-marketolog, ijtimoiy tarmoqlarda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ilgari surish va reklama qilish (SMM), ijtimoiy tarmoq sahifalarini administratori, akkaunt-menejer, marketolog, link-menejer, targetolog, kontekst-reklama bo'yicha mutaxassis, direktolog, media rejalashtiruvchi, SMO mutaxassisini)
66.	Kadrlar tanlash sohasidagi faoliyat (internet-loyihalar bilan ishlovchi menejer, frilanserlar guruhi rahbari, HR-menejer, rekruter, shaxsiy assistent)
67.	Onlayn konsultatsiya berish (onlayn-konsultant, onlayn-trener, moliyaviy maslahatchi, vebinari olib boruvchi)

*Izoh: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasasi O'zini o'zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega.*

6-ilova

**Mehnatga haq to'lash, pensiya va nafaqalar  
eng kam miqdorlarining o'zgarishi  
DINAMIKASI<sup>69</sup>**

Kiritilgan sana	Eng kam ish haqi						Tartibga soluvchi me'yoriy hujjat
	eng kam oylik ish haqi	soliq solinmay-digan daromadlar*	VATS bo'yicha boshlang'ich (nulinchi) daraja	yoshiga doir nafaqa	bolaligidan nogironlar uchun nafaqa	ish stajiga ega bo'lmagan lar uchun nafaqa	
01.02.2021 y.	747 300 so'm	-	-	513 350 so'm	513 350 so'm	315 030 so'm	O'zR PQ-4938 30.12.2020 y.
01.09.2020 y.	679 330 so'm	-	-	513 350 so'm	513 350 so'm	315 030 so'm	O'zR PF-6038 30.07.2020 y.

<sup>69</sup> <https://www.norma.uz/>

Kiritilgan sana	Eng kam ish haqi						Tartibga soluvchi me'yoriy hujjat
	eng kam oylik ish haqi	soliq solinmay-digan daromadlar*	YATS bo'yicha boshlang'ich (nulinchi) daraja	yoshiga doir nafaqa	balaligidan nogironlar uchun nafaqa	ish stajiga ega bo'limgan lar uchun nafaqa	
01.02.2020 y	679 330 so'm	—	—	466 680 so'm	466 680 so'm	286 390 so'm	O'zR PQ-4555 30.12.2019 y.
01.08.2019 y.	223 000 so'm	Bekor qilingan O'zR PF-5468 29.06.2018 y.	—	436 150 so'm	436 150 so'm	267 650 so'm	O'zR PF-5765 12.07.2019 y.
01.11.2018 y.	202 730 so'm	172 240 so'm	—	396 500 so'm	396 500 so'm	243 300 so'm	O'zR PF-5553 13.10.2018 y.
15.07.2018 y.	184 300 so'm	172 240 so'm	—	360 460 so'm	360 460 so'm	221 190 so'm	O'zR PF-5469 02.07.2018 y.
01.12.2017 y.	172 240 so'm	149 775 so'm	—	336 880 so'm	336 880 so'm	206 720 so'm	O'zR PF-5245 20.11.2017 y.
01.10.2016 y.	149 775 so'm	130 240 so'm	—	292 940 so'm	292 940 so'm	179 755 so'm	O'zR PF-4822 22.08.2016 y.
01.09.2015 y.	130 240 so'm	118 400 so'm	—	254 730 so'm	254 730 so'm	156 310 so'm	O'zR PF-4751 26.08.2015 y.
15.12.2014 y.	118 400 so'm	—	—	231 575 so'm	231 575 so'm	142 100 so'm	O'zR PF-4672 21.11.2014 y.
01.09.2014 y.	107 635 so'm	—	—	210 525 so'm	210 525 so'm	129 180 so'm	O'zR PF-4639 31.07.2014 y.
15.12.2013 y.	96 105 so'm	—	—	187 970 so'm	187 970 so'm	115 340 so'm	O'zR PF-4582 02.12.2013 y.
15.08.2013 y.	91 530 so'm	—	—	179 020 so'm	179 020 so'm	109 850 so'm	O'zR PF-4547 11.07.2013 y.
01.12.2012 y.	79 590 so'm	—	—	155 670 so'm	155 670 so'm	95 520 so'm	O'zR PF-4482 09.11.2012 y.
01.08.2012 y.	72 355 so'm	—	Bekor qilingan O'zR PQ-1675 30.12.2011 y.	141 520 so'm	141 520 so'm	86 835 so'm	O'zR PF-4450 05.07.2012 y.
01.12.2011 y.	62 920 so'm	—	62 920 so'm	123 060 so'm	123 060 so'm	75510 so'm	O'zR PF-4377 03.11.2011 y.
01.08.2011 y.	57 200 so'm	—	57 200 so'm	111 875 so'm	111 875 so'm	68 645 so'm	O'zR PF-4332 07.07.2011 y.
01.12.2010 y.	49 735 so'm	—	49 735 so'm	97 285 so'm	97 285 so'm	59 690 so'm	O'zR PF-4253 15.11.2010 y.
01.08.2010 y.	45 215 so'm	—	45 215 so'm	88 845 so'm	88 845 so'm	54 265 so'm	O'zR PF-4224 09.07.2010 y.
01.12.2009 y.	37 680 so'm	—	37 680 so'm	74 660 so'm	74 660 so'm	45 220 so'm	O'zR PF-4152 16.11.2009 y.
01.08.2009 y.	33 645 so'm	—	33 645 so'm	66 660 so'm	66 660 so'm	40 375 so'm	O'zR PF-4119 08.07.2009 y.
16.11.2008 y.	28 040 so'm	—	28 040 so'm	55 550 so'm	55 550 so'm	33 645 so'm	O'zR PF-4042 22.10.2008 y.
01.09.2008 y.	25 040 so'm	—	25 040 so'm	49 600 so'm	49 600 so'm	30 040 so'm	O'zR PF-4014 21.07.2008 y.
01.04.2008 y.	20 865 so'm	—	20 865 so'm	41 330 so'm	41 330 so'm	25 030 so'm	O'zR PF-3972 05.03.2008 y.

Kiritilgan sana	Eng kam ish haqi						Tartibga soluvchi me'yoriy hujjat
	eng kam oylilik ish haqi	soliq solinmay-digan daromadlar*	YATS bo'yicha boshlang'ich (nulinchi) daraja	yoshiga doir nafaqa	balaligidan nogironlar uchun nafaqa	ish stajiga ega bo'lmagan lar uchun nafaqa	
16.11.2007 y	18 630 so'm	-	18 630 so'm	36 900 so'm	36 900 so'm	22 350 so'm	O'zR PF-3931 23.10.2007 y
01.08.2007 y	15 525 so'm.	-	15 525 so'm	30 750 so'm	30 750 so'm	18 625 so'm	O'zR PF-3889 10.07.2007 y
01.11.2006 y	12 420 so'm.	-	12 420 so'm.	24 600 so'm.	24 600 so'm.	14 900 so'm.	O'zR PF-3808 12.10.2006 y.
01.07.2006 y	10 800 so'm.	-	10 800 so'm	21 395 so'm.	21 395 so'm.	12 960 so'm.	O'zR PF-3761 09.06.2006 y.
01.10.2005 y	9 400 so'm.	-	9 400 so'm	18 605 so'm.	18 605 so'm.	11 270 so'm.	O'zR PF-3659 14.09.2005 y
01.05.2005 y	7 835 so'm.	-	7 835 so'm	15 505 so'm.	15 505 so'm.	9 390 so'm.	O'zR PF-3596 13.04.2005 y
01.08.2004 y	6 530 so'm.	-	6 530 so'm	12 920 so'm.	12 920 so'm.	7 825 so'm.	O'zR PF-3450 01.07.2004 y.
01.05.2003 y	5 440 so'm.	-	5 440 so'm.	10 765 so'm.	10 765 so'm.	6 520 so'm.	O'zR PF-3231 02.04.2003 y
01.08.2002 y	4 535 so'm.	-	4 535 so'm	8 970 so'm	8 970 so'm	5 435 so'm.	O'zR PF-3101 01.07.2002 y.
01.04.2002 y.	3 945 so'm	-	3 945 so'm	7 800 so'm.	7 800 so'm.	4 725 so'm.	O'zR PF-3045 26.03.2002 y.
01.08.2001 y.	3 430 so'm	Bekor qilingan O'zR 220-II Qonuni 12.05.2001 y.	3 430 so'm.	6 780 so'm.	6 780 so'm.	4 110 so'm.	O'zR PF-2893 29.06.2001 y.
01.08.2000 y.	2 450 so'm.	2 450 so'm.	2 450 so'm.	4 675 so'm.	4 675 so'm.	2 835 so'm.	O'zR PF-2644 23.06.2000 y.
01.08.1999 y	1 750 so'm.	1 750 so'm.	1 750 so'm.	3 340 so'm.	3 340 so'm.	2 025 so'm.	O'zR PF-2339 19.07.1999 y.
01.01.1999 y	1 320 so'm.	1 320 so'm.	1 320 so'm.	2 520 so'm.	2 520 so'm.	1 530 so'm.	O'zR PF-2144 25.11.1998 y
01.07.1998 y.	1 100 so'm.	1 100 so'm.	1 100 so'm.	2 100 so'm.	2 100 so'm.	1 275 so'm.	O'zR PF-2009 09.06.1998 y.
01.07.1997 y.	750 so'm.	750 so'm.	750 so'm.	1 400 so'm.	1 400 so'm.	850 so'm.	O'zR PF-1755 06.05.1997 y.
01.12.1996 y.	600 so'm.	600 so'm.	-	-	-	-	O'zR PF-1650 26.11.1996 y.
01.09.1996 y	550 so'm.	600 so'm.	600 so'm.	1125 so'm.	1125 so'm.	680 so'm.	O'zR PF-1499 24.07.1996 y.
01.04.1996 y	400 so'm.	550 so'm.	550 so'm.	900 so'm.	900 so'm.	550 so'm.	O'zR PF-1408 18.03.1996 y.
01.09.1995 y	250 so'm.	400 so'm.	400 so'm.	645 so'm.	645 so'm.	400 so'm.	O'zR PF-1213 16.08.1995 y.
01.03.1995 y.	150 so'm.	200 so'm.	300 so'm.	430 so'm.	400 so'm.	300 so'm.	O'zR PF-1080 07.02.1995 y.
01.08.1994 y	100 so'm.	100 so'm.	100 so'm.	105 so'm.	-	-	O'zR PF-925 25.07.1994 y.
01.06.1994 y	70 000 so'm-kup	70 000 so'm-kup	70 000 so'm-kup	75 000 so'm-kup	-	-	O'zR PF-853 26.05.1994 y.
01.03.1994 y	45 000	45 000	45 000	48 675	-	-	O'zR PF-771

Kiritilgan sana	Eng kam ish haqi						Tartibga soluvchi me'yoriy hujjat
	eng kam oylilik ish haqi	soliq solinmay-digan daromadlar*	YATS bo'yicha boshlang'ich (nulinchi) daraja	yoshiga doir nafaqa	bolaligidan nogironlar uchun nafaqa	ish stajiga ega bo'lmagan lar uchun nafaqa	
01.01.1994 y.	so'm- kup.	so'm- kup.	so'm- kup.	so'm- kup.			26.02.1994 y.
	30 000 so'm- kup.	30 000 so'm- kup.	30 000 so'm- kup.	32 450 so'm- kup.	-	-	O'zR PF-724 31.12.1993 y.
01.12.1993 y.	24 300 so'm- kup.	24 300 so'm- kup.	24 300 so'm- kup.	26 300 so'm- kup.	-	-	O'zR PF-688 22.11.1993 y.
01.11.1993 y.	16 200 so'm- kup.	16 200 so'm- kup.	16 200 so'm- kup.	17 550 so'm- kup.	-	-	O'zR PF-679 28.10.1993 y.
01.09.1993 y.	13 500 so'm- kup.	13 500 so'm- kup.	13 500 so'm- kup.	14 625 so'm- kup.	-	-	O'zR PF-648 13.09.1993 y.
01.07.1993 y.	11 250 so'm- kup.	11 250 so'm- kup.	11 250 so'm- kup.	12 185 so'm- kup.	-	-	O'zR PF-615 29.06.1993 y.
01.06.1993 y.	7500 rub.	7500 rub.	7500 rub.	8125 rub.	-	-	O'zR PF-607 28.05.1993 y.
01.04.1993 y.	3000 rub.	3000 rub.	3000 rub.	3250 rub.	-	-	O'zR PF-580 18.03.1993 y.
01.01.1993 y.	2500 rub.	2500 rub.	2500 rub.	2500 rub.	-	-	O'zR PF-522 29.12.1992 y.
01.10.1992 y.	2000 rub.	2000 rub.	2000 rub.	2000 rub.	-	-	O'zR PF-479 08.10.1992 y.
01.09.1992 y.	1250 rub.	1250 rub.	1250 rub.	1250 rub.	-	-	O'zR PF-458 25.08.1992 y.
01.07.1992 y.	1000 rub.	1000 rub.	1000 rub.	1000 rub.	-	-	O'zR PF-433 27.06.1992 y.
16.03.1992 y.	550 rub.	550 rub.	-	550 rub.	-	-	O'zR PF-366 26.03.1992 y.

*Izoh:* soliq solinmaydigan daromadlarlar miqdori 2015 yildan 2019 yilgacha 1 yanvarda belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqib belgilangan va eng kam ish haqi miqdorining yil davomidagi o'zgarishiga qarab qayta ko'rib chiqilmagan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: «O‘zbekiston», 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: «Adolat», 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi qonuni. 1997 yil 29 avgust.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 25 dekabrdagi «2021 yil O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida»gi O‘RQ-657-soni qonuni.
5. «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldaggi «Soliq ma’muriyatçiligin tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora - tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5116-sonli farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi «O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to‘g‘risida»gi PF-5468-sonli farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3802-sonli qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 fevraldagi «Soliq qonunchiligin tubdan takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5214-son farmoyishi.

10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 31 maydag‘i 3756-sonli «Imtiyozlar va preferentsiyalar berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldag‘i 4389-sonli «Soliq ma’muriyatçiliginin takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori.

12.Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2019. – 61 b.

13.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. – 488 b.

14.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. – 104 b.

15.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. – 56 b.

16.Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: «Iqtisod-moliya», 2019. – 408 b.

17.Jo‘rayev A.S., Usmanova M.S., Amanov A.M., Qiyosov Sh.U. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik, – T.: «Iqtisod-moliya», 2019. – 432 b.

18.Jo‘rayev A., Shirinov S. Soliq statistikasi va prognozi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Iqtisod-moliya», 2019. – 416 b.

19.Jo‘rayev A., Safarov G’, Meyliyev O. Soliq nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Iqtisod-moliya», 2019. – 324 b.

20. Jo‘rayev A., Usmanova M. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma, – T.: «Sano-standart», 2015. – 216 b.
21. Jo‘raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Norma», 2009. – 183 b.
22. Гончаренко Л.И. Налогообложение организаций. Учебник. Москва, «КноРус», 2018. 385-стр.
23. Романов А.Н., Колчин С.П. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. Москва, «Инфра», 2018. 385-стр.
24. Черник Д.Г., Шмелев Ю.Д.. Теория и история налогообложения. Учебное пособие. Москва, «Юрайт», 2016. 363-стр.
25. Тулаков, У.Т., (2018). Перспективы развития рекреационного туризма в Республике Узбекистан. Современные инновации, 2(24), 46-49.
26. Tulakov, U.T., & Boypulatov, A. (2019). The new preliminary development of the tax system of the republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences, 8(5), 98-105.
27. Тўлаков, У.Т., (2019). Соликларнинг мамлакат иқтисодиёти ривожланишидаги роли. Интернаука, (24-2), 49-50.
28. Тўлаков, У.Т., (2019). Ўзбекистон Республикаси солик тизими ривожланишнинг янги босқичида. Сервис илмий-амалий журнал, 1(3), 142-145.
29. Tulakov, U.T., &, Ismoilov, Sh., (2020). Bases of real estate taxation in Uzbekistan. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6), 2109-2114.

30. Тулаков, У.Т., (2020). Результаты налоговых реформ, осуществляемых в Узбекистане. Экономика и бизнес: теория и практика, (3-2), 190-194. <https://doi.org/10.24411/2411-0450-2020-10239>

31.Худойкулов, С. К., Тўлаков, У.Т., (2020). Ўзбекистонда кўчмас мулкни солиққа тортиш тизимини такомиллаштириш. Молия ва банк иши илмий электрон журнали, 1(6), 151-160.

32. Тўлаков, У.Т., (2021). Мол-мулк солиги бўйича имтиёзларни такомиллаштириш. “Логистика ва иқтисодиёт” илмий электрон журнали, 1(2), 425-435.

33. Tulakov, U.T., (2021). The problems of determining the cadastre value of land in taxation of real estate. In Euro-Asia Conferenceş 4(1), 96-99.

34. Тўлаков, У.Т., (2021). Ўзбекистонда ер солиги ривожланиши истиқболлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали, 1(3), 224-237.

35.<http://www.gov.uz> – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portalı

36.<http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti

37.<http://www.mf.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti

38.<http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti

39.<https://www.sciencedirect.com> – Science Direct Elsevier - xalqaro axborot bazasi

40.<http://www.ziyonet.uz> – Jamoat axborot ta’lim tarmog‘i sayti

41. <http://www.norma.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari axborot-huquqiy portali
42. <http://www.nalog.ru> – Rossiya Federatsiyasining Federal soliq xizmati sayti
43. <http://www.openbudget.uz> – O‘zbekiston Respublikasi «Ochiq budjet» portali

ILMIY-OMMABOP NASHR  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

U.TO'LAKOV, O.MAXMUDOV  
SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH  
*O'quv qo'llanma*

Muharrir: O.Shofiev

Musahhih: B.Xo'shboqov

Texnik muharrir: A.Bo'riev

Kompyuterda sahifalovchi: B.Eshmurodov

Terishga 05.06.2021-yilda berildi. Bosishga 22.06.2021-yilda  
ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/16. Hajmi 23 bosma taboq.

Buyurtma №14. Times New Roman garniturasи.

Ofset usulda chop etildi. 100 nuxada. 364 bet.

Termiz davlat universiteti NMM nashriyoti.

Termiz davlat universiteti NMM bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Termiz shahri, "Barkamol avlod" ko'chasi, 43-uy.

ISBN: 978-9943-7243-6-5



A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-7243-6-5. The barcode is composed of vertical black bars of varying widths on a white background.

9 789943 724365